


ISSN 2181 - 7286

5/2024

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР



ISSN 2181-7286
5/2024

Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар

Тошкент – 2024

Ўзбекистон илм-фан, интеллектуал салоҳият соҳасида, замонавий кадрлар ва юксак технологиялар борасида дунё миқёсида рақобатбардош бўлиши шарт.

Шавкат Мирзиёев

Ўзбекистан должен стать конкурентно-способным на международной арене в области науки, интеллектуального потенциала, современных кадров и высоких технологий.

Шавкат Мирзиёев

Uzbekistan must become competitive in the field of science, intellectual resources, skilled workers and advanced technologies.

Shavkat Mirziyoyev

“ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР” ЖУРНАЛИНИНГ НАШР ЭТИШ ЭТИКАСИ БЎЙИЧА МУНОСАБАТИ

ТАХРИРИЯТНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ ВА ЖАВОБГАРЛИГИ

Нашр тўғрисида қарорлар қабул қилиш

Журнал тахририяти нашр тўғрисида қарорлар қабул қилишга жавоб беради ва ўз қарорларида муаллифлик ҳуқуқларининг бузилиши ва плагиат (адабий, илмий ва ижодий ишдаги ўғрилиқ), тўхмат қилинишининг олдини олиш борасидаги амалдаги қонунчиликка риоя қилади. Мақолани чоп этиш тўғрисида қарорлар қабул қилишда тахририят тақризчилар фикрларини ҳисобга олади.

Қўлёзмаларни нашрга қабул қилишдаги беғаразлик

Тахририят қўлёзмаларни фақат уларнинг илмий методологик мазмунидан келиб чиқиб баҳолайди. Бунда муаллифнинг миллати, жинси, диний дунёқарashi ва фуқаролиги чоп этиш тўғрисидаги қарорга ҳеч қандай таъсир кўрсатмайди. Қўлёзмалар муаллифларга қайтарилмайди.

Қонунийлик

Тахририят нашрга топширилаётган қўлёзмалардан иборат чоп этилмаган материаллардан тахририят ёки тақризчилар томонидан уларнинг ўз тадқиқотларида фойдаланишларига муаллифларнинг ёзма розилигисиз йўл қўйилмайди.

МУАЛЛИФНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ ВА ЖАВОБГАРЛИГИ

Материалларни топшириш стандартлари

Мақола бажарилган тадқиқотни бошқалар такрорлай олишлари учун зарурий батафсил маълумотлар ва ҳаволаларни ўз ичига олиши лозим.

Маълумотларга кириш ва уларнинг сақланувчанлиги

Мақолани тахририят томонидан кўриб чиқишида муаллифдан дастлабки маълумотларни тақдим қилиш сўралиши мумкин ва муаллифлар олимлар ва ноширлар касбий ҳамжамияти уюшмасининг маълумотлари ва уларнинг базаси тўғрисидаги Баёнотига мувофиқ, бу маълумотларга очик (ошқора) киришни тақдим қилишга тайёр бўлишлари лозим.

Ишнинг асл нусхалиги ва плагиат

Муаллифлар ишни тўла-тўқис мустақил равишда ўзлари ёзганликларини ва агар бошқаларнинг ишлари ва ёки фикрларидан фойдаланган бўлсалар, буни кафолатлашлари зарур, бу тегишли ҳавола ва цитаталарда акс эттирилиши лозим.

Мақолаларни бир вақтда топшириш ва иккиламчи нашр

Мазмунан кўп фарқ қилмайдиган қўлёзмаларни турли журналларга топшириш ахлоқий бўлмаган ҳулқ-атвор ҳисобланади ва номақбулдир.

Аввал чоп этилган мақолани бошқа журналга кўриб чиқиш учун топширганда, муаллиф бу ҳақда тахририятни хабардор қилиши ва мақола биринчи марта чоп этилган журнал тахририят розилигини олиши лозим. Бирламчи ишга ҳавола иккиламчи нашрда туриши керак.

Ҳаволалар

Муаллифлар натижалари уларнинг қўлёзмалари натижалари билан узий боғлиқ бўлган ишга ҳаволалар келтиришлари зарур.

Нашр қилинган ишлардаги фундаментал хатоликлар

Агар муаллиф нашр қилинган ишдаги муҳим хатоликлар ёки ноаниқликларни ўзи аниқласа ёки учинчи шахслардан билса, у иложи борица тезроқ бу ҳақда тахририятни хабардор қилиши ва мақолани қайтариб олиши ёки таҳрир қилиши зарур. Журналда маълумотлар босилганда далиллар кўрсатилиши шарт. Журналда чоп этилган маълумот ва келтирилган далилларнинг аниқлиги учун муаллиф жавобгардир.

МУНДАРИЖА

ФАЛСАФА

Турсунова О.Ф. Ёшлар ҳуқуқий маданиятини юксалтириш – маънавий тарбия асоси	7
--	----------

ТАРИХ

Мирзаев А. Пропорционал сайлов тизими сиёсий партияларнинг жамиятдаги ўрнини белгилайди.....	12
---	-----------

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

Сагатов М.В. Компьютерные репетиторы в интеллектуальных образовательных системах.....	17
Уматалиева К.Т. Место и роль дуального образования в подготовке высококомпетентных специалистов в системе непрерывного образования.....	22
Avlayev O., Aliyeva Y. Shaxs kamoloti ilmiy tadqiqotlarning muammosi.....	28
Butaeva U.A. Zahira kadrlari mas'uliyatini rivojlantirishning psixologik omillari.....	33
Allambergenov A.J. Axborot madaniyatini shakllantirishning pedagogik jihatlari.....	38
Axgarova Z.B. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik asarlari orqali talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi.....	42
Рахматова Ф.М. Оптимизация коммуникации в педагогической деятельности на основе интегративного подхода.....	49
Хакимов Ж.О., Абралов М.М. Информационно-предметное обеспечение учебной дисциплины в контексте парадигмальной трансформации образования.....	53
Нуруллаев А.А. Ijtimoiy platformalarda uzatilayotgan destruktiv axborotlarning harbiy xizmatchilarga psixologik ta'siri.....	58
Rakhmonova D.S. Kreativlik potensialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari.....	63
Турдиев Ж.П. Талабаларнинг умумтехник тайёргарлигини такомиллаштиришга йўналтирилган эвристик масалалар мазмуни ва унга қўйиладиган талаблар.....	67
Qayumova M. Akademik samaradorlikni oshirish: ish muhitining professor-o'qituvchilar samaradorligiga ta'siri.....	70

ИҚТИСОД

Usmonov Sh.P. Klaster iqtisodiyotining innovatsiyalarni uzatishdagi roli.....	77
Mirzayev K.N. Innovatsiya tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim sharti.....	82
Xolmirzayev A.X. Kambag'allikni qisqartirishda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish.....	87
Abdumutalliyev A.A. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari...	92
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xalqaro standartlarni joriy etishning zamonaviy nazariyalari.....	97
Nematova Sh.E. O'zbekistonda investitsiya faoliyatining iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi muhim o'rni.....	102
Rashidov R.A. Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsiyalardan samarali foydalanish...	107
Teshabayeva O.N. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi tendensiyalari.....	111
Azibayev A. Mathematical modeling of economic processes: Exploring mathematical models of economic growth.....	116

Zakirova G.M. Iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida tadbirkorlik subyektlarining innovatsion salohiyatini oshirish.....	122
Rashidov R.A., Mirjalolova M.M. Kichik biznesda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini mazmun mohiyati.....	126
Madaminov A. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni va uning raqobatbardoshligi.....	130
Rustambekova F.R. Kichik biznesda diversifikatsiyalashning mazmun-mohiyati.....	135
Ergashev A.H. O'zbekistonda hududlar investitsion jozibadorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmini baholash.....	141
Olimova N.X. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari.....	147
Yulchiyev A.O. Turizm korxonalarini Mckinsey usulida boshqarishning ahamiyati va afzalliklari.....	152
Mirsodiqov A.T. Qurilish sohasida innovatsion klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	156
Turg'unov M.M. Oziq – ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish va rivojlanish mexanizmini takomillashtirish.....	161
Maxkamov I. Paxta-to'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini yuksaltirish imkoniyatlari va istiqbollari.....	166
Bahriddinov J.R. Маҳсулот ишлаб чиқаришда ресурслардан фойдаланиш масалалари	172
Рахимов Б.И. Экономические аспекты водоснабжения и эффективного использования воды.....	176
Ortiqov A.B. Kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar darajasini baholash.....	184

Журнал Ўзбекистон матбуот ва ахборот агентлиги томонидан рўйхатга олинган, 2007 йил 22 январь, № 0205 сонли гувоҳнома

ISSN 2181-7286. Иқтисод бўлими ОАК рўйхатига 2019 йил 1 январдан, Педагогика бўлими 2019 йил 29 июндан, Тарих, Фалсафа, Психология бўлимлари 2022 йил 30 ноябрдан, киритилган.

Журнал зарегистрирован Узбекским агентством по печати и информации 22 января 2007 года, свидетельство № 0205

ISSN 2181-7286. С 1 января 2019 г. журнал включен в перечень ВАК экономического отдела, с 29 июня 2019 г. – в перечень отдела педагогики, с 30 ноября 2022 г. – в перечень отделов истории, философии и психологии.

The journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan, January 22, 2007, certificate No. 0205

ISSN 2181-7286. The part of of Economy has been included in the list of Higher Attestation Committee since January 1, 2019, the part of Pedagogy since June 29, 2019, and the parts of History, Philosophy, and Psychology since November 30, 2022.

ЁШЛАР ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШ – МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ АСОСИ

ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ – ОСНОВА ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ

IMPROVING YOUTH'S LEGAL CULTURE - THE BASIS OF SPIRITUAL EDUCATION

Турсунова О.Ф. (Ўзбекистон-Финляндия педагогика институти
ф.ф.н., доцент)

Давлатимизда демографик қатлам бўлган ёшларга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгилаб қўйилган меъёрлар кўрсатилган. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Ўзбекистон – 2030 стратегияси, Ўзбекистон Республикасида «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги қонун, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи фаолиятини кўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги Фармони, Президентимизнинг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори ва бошқа нормалар асос қилиб олинган.

Калит сўзлар: Ёшлар, ҳуқуқий маданият, маънавият, тарбия, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, ҳуқуқлар, мажбуриятлар

В нашей стране указаны стандарты, установленные нормативными правовыми документами, касающимися молодежного демографического слоя. Конституция Республики Узбекистан, Стратегия «Узбекистан-2030», Закон Республики Узбекистан «О государственной политике в отношении молодежи», Указ Президента Республики Узбекистан «О повышении эффективности государственной политики и в отношении молодежи и о поддержке деятельности Союза молодежи Узбекистана», Постановление Президента «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» и другие нормы.

Ключевые слова: Молодежь, правовая культура, духовность, воспитание, нормативно-правовые документы, права, обязанности.

In our country, the standards set by the normative legal documents concerning the youth demographic stratum are indicated. The Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Uzbekistan-2030 strategy, the Law "On State Policy Regarding Youth" in the Republic of Uzbekistan, the President of the Republic of Uzbekistan "Improving the effectiveness of state policy regarding youth and the activities of the Youth Union of Uzbekistan On Support" the President's Decision "On Measures for Further Development of the Higher Education System" and other norms are taken as a basis.

Key words: Youth, legal documents, rights, obligations

Янги Ўзбекистоннинг келажаги, биринчи навбатда, ёшларга, уларнинг амалий фаолиятига, ахлоқий баркамоллигига, ғоявий, сиёсий, ҳуқуқий етуклик даражасига,

миллий ўзлигини қанчалик чуқур ва мукамал англаб олишларига бевосита боғлиқ. Жамият тараққиётини, инновацион фаоллик билан боғлиқ бўлган улкан вазифаларни бажаришга оммани сафарбар этишни мафқурасиз тасаввур этиш мумкин эмас. Хусусан Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномасида шундай дейилади: «Халқимизда «таълим ва тарбия бешиқдан бошланади» деган ҳикматли бир сўз бор. Фақат маърифат инсонни камолга, жамиятни тараққиётга етаклайди.

Шу сабабли, таълим соҳасидаги давлат сиёсати узлуксиз таълим тизими принципига асосланиши, яъни таълим боғчадан бошланиши ва бутун умр давом этиши лозим»[6; 3].

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида барча фуқароларга тааллуқли меъёрлардан ташқари, айнан ёшларни маънавий тарбиясига тегишли бўлган қоидалар ҳам мавжуд. Жумладан, муқаддимада: «давлатчилигимиз ривожининг уч минг йилдан зиёд тарихий тажрибасига, шунингдек жаҳон цивилизациясига беқиёс ҳисса қўшган буюк аждодларимизнинг илмий, маданий ва маънавий меросига таяниб, ушбу Конституцияни қабул қиламиз ва эълон қиламиз»[5; 3].

Шунингдек, Ўзбекистон 2016 йилнинг 14 сентябрида Ўзбекистон Республикасида «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги қонуннинг қабул қилинганини алоҳида қайд этиб ўтиш жоиз. Ушбу ҳуқуқий ҳужжат бош ислоҳотчи бўлган давлатнинг ёшлар масаласига доир стратегик йўналишларини изчил ва тизимли равишда босқичма-босқич амалга ошириш йўлларини белгилаб берди. Ёшларга оид давлат сиёсати давлат томонидан амалга ошириладиган ҳамда ёшларни ижтимоий жиҳатдан шакллантириш ва уларнинг интеллектуал, ижодий ва бошқа йўналишдаги салоҳиятини камол топтириш учун шарт-шароитлар яратилишини назарда тутадиган ижтимоий-иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий чора-тадбирлар тизимидир. Шундай экан, қонун ёшларимизнинг инновацион фаоллигини оширишда ҳуқуқий қафолат ҳисобланади, норматив-ҳуқуқий актда ёшларда ҳаётга бўлган қатъий ишонч ва қарашларни шакллантиришда, уларни қонунларга, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида, зарарли таъсирлар ва оқимларга қарши тура оладиган қилиб тарбиялашда ташкилотларнинг ваколатлари белгилаб қўйилган[4; 1].

Ушбу қонунга кўра, давлат ёшлар сиёсатини амалга оширар экан, аввало, миллати, ирқи, тили, дини, ижтимоий мавқеи, жинси, маълумоти ва сиёсий эътиқодидан қатъий назар, ёшларга ғамхўрлик қилиш, уларни ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилиш, миллий-маданий анъаналарнинг авлоддан авлодга ўтиши, авлодларнинг маънавий алоқаларини таъминлаш, ёшларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунлари доирасида ўз манфаатларини амалга ошириш йўлларини эркин танлаб олишларини қафолатлаш, жамият ва ёшлар ҳаётига оид сиёсат ва дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда ёшларнинг бевосита иштирок этишини таъминлашни ўзига вазифа қилиб олиши белгилаб қўйилган.

Таъкидлаш лозимки, сўнгги йилларда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги ўсиб бораётганлигини кузатиш мумкин. Бу борада уларда шаклланаётган ижтимоий ва мафқуравий тушунча ва ғояларнинг аҳамияти каттадир. Шу нуқтаи назардан, «Ўзбекистон – 2030» Стратегиясининг биринчи йўналиши ҳар бир инсонга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариш учун муносиб шароитларни яратиш деб номланиб, унинг тўртинчи вазифаси ёшларга оид давлат сиёсати ва спорт йўналишларидаги ислоҳотлар деб номланиб, айнан ёшларга оид вазифалар белгилаб қўйилган. Жумладан, ёшларни

замонавий касблар ва чет тилларига ўқитиш тизимини яратиш, ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш, уларнинг илмий фаолиятини рағбатлантириш, ёшларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш ва ишсизлик даржасини камайтириш, ёшлар ўртасида IT соҳасини янада оммалаштириш ҳамда соҳада хизматлар экспортини ошириш ва ҳақозолар белгилаб қўйилган[3; 1].

Миллий истиқлол мафкурамизнинг асосий мақсадларидан бири халқимизни, ёшларимизни маънавиятини юксалтириш. Фақат маънавият туфайли, жамиятимиз тараққиётини таъминлайдиган маърифат соҳасини ривожлантириш, маънавий неъматлар яратиш туфайлигина биз ривожланган мамлакатлар қаторига қўшилишимиз мумкин бўлади. “Ўзбекистон – 2030” Стратегиясининг биринчи йўналиш бешинчи вазифаси маънавий тараққиётни таъминлаш ва маданият соҳасини янги босқичга олиб чиқиш бўйича ислохотлар деб номланади. Бу вазифа ўз ичига жамиятда ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини таъминлаш, ўзбек ва жаҳон адабиёти дурдоналарини кенг омаалаштириш, жамиятда китобхонликни ҳамда аҳолига ахборот-кутубхона хизматини кўрсатишни ривожлантириш, маданий меросни муҳофаза қилиш, илмий ўрганиш ва оммалаштириш билан боғлиқ фаолиятни янада такомиллаштириш ва ҳақозолар. Ушбу Фармон бугунги кунда ёшларнинг маънавий тарбиясини юксалтиришга дастуруламал бўлади десак муболаға бўлмайди[3; 1].

Бугунги кунда Ўзбекистон қанчалик қалтис дунё билан алоқага киришганлигини кузатиш мумкин. Минтақамизда ёшлар маънавий хавфсизлигини таъминлаш заруриятининг сабабларидан бири шундан иборатки, бозор иқтисодиёти чет эл сармоялари, замонавий техника ва технология, бозорни шакллантириш усуллари билан бир қаторда мамлакатимизга ўзининг маданияти, турмуш тарзи, дунёқараши ва тасаввурларини ҳам олиб кирмоқда. Глобал мафкуравий таҳдид ва тажовузнинг хавфи - уларнинг юртимизга очик кириб келишидир. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги Фармонида ёшларнинг илмий ва бадиий китоблар, жумладан, электрон асарларни ўқишга бўлган қизиқишини янада ошириш, ҳуқуқий, экологик, тиббий ва ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш маданиятини юксалтириш орқали уларда турли мафкуравий таҳдидларга, хусусан, диний экстремизм, терроризм, «оммавий маданият» ва бошқа ёт ғояларга қарши мустақкам иммунитетни шакллантириш муҳимлиги қайд этилган[2; 2].

Юртбошимиз Ш.М.Мирзиёев ўзларининг Олий Мажлисга қилган мурожаатларида: «Олий таълим тизимида таҳсил олиш учун тенг имконият яратишга қаратилган ишларни янада кучайтиришимиз зарур.

Ўзбекистонда олий ва ўрта махсус таълим масканлари битирувчиларини олий таълим билан қамраб олиш ўтган даврда 9-10 фоиз даражасида бўлиб келаётган эди. Сўнгги икки йилда кўрилган чора-тадбирлар туфайли, биз бу рақамни 15 фоиздан оширишга эришдик.

Лекин бу ҳали етарли эмас. Чунки дунёдаги ривожланган давлатлар тажрибасига қарайдиган бўлсак, бу кўрсаткич уларда 60-70 фоизни ташкил этади» [6; 3].

Юқоридаги долзарб вазифани амалга ошириш мақсадида, “Ўзбекистон – 2030” Стратегиясида олий таълим билан қамровни кенгайтириш, олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини ошириш, ёшларни олий таълим билан қамраб олиш даражасини камида 50 фоизга етказиш, умумий ўрта таълим ташкилотларини олий маълумотли педагог кадрлар билан тўлиқ таъминлаш белгиланди.

Шунингдек, Президентимизнинг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори ҳам ёшларимиздан янада креативлик, Ватанга дахлдорлик, миллий ғояларимизга содиқлик, «Ёшлар - келажагимиз» шиорини рўёбга чиқаришда тузук, ойин бўлади деб ўйлаймиз[1; 1]. Қарорда, олий таълим муассасалари илмий салоҳиятини мустаҳкамлаш, олий таълимда илм-фанни янада ривожлантириш, унинг академик илм-фан билан интеграциялашувини кучайтириш, олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг илмий-тадқиқот фаолияти самарадорлиги ва натижадорлигини ошириш, иқтидорли талаба-ёшларни илмий фаолият билан шуғулланишга кенг жалб этиш, кўрсатиб ўтилган.

Ижтимоий ҳаётда ёшлар фаолиятига нисбатан либерал сиёсат юритиш улар тарбиясига путур етказди. Азалдан ёшларнинг фаолияти ота-она, кўни-кўшнилари, маҳалла ва кенг жамоатчилик томонидан доимо назоратда бўлиб келган. Ёшларни маънавий тарбиялашда куйидагиларга эътибор қаратиш бизнингча тўғри бўлар эди:

Биринчидан, «шахс – оила – маҳалла – таълим муассасаси – ташкилот - жамият» концепцияси асосида барчада дахлдорлик ҳиссини уйғотиш;

Иккинчидан, барча бўғиндаги таълим муассасаларида коррупцияга қарши кураш бўйича кескин чоралар кўриш. Бунинг учун, салоҳиятли, илмли ёшлар ўртасида турли хил брифинглар, мастер класслар, конкурслар ташкил этиш ва рағбатлантириш. Педагог ва талаба-ёшларга ҳар бир илмий иши учун энг кам ойлик иш миқдорида рағбатлантириш. Зеро, инвестициялар билимга, ғояга қаратилса ёшларимиз барча масалаларга креатив ёндашадилар.

Учинчидан, таълим муассасаларида соғлом рақобатни кучайтириш. Масалан, «Президент асарлари билимдони», «Ҳуқуқий билимдон», «Депутат бўлсам», «Сенатор бўлсам», «Ҳоким бўлсам» каби конкурслар ташкил этиш. Конкурс иштирокчиларига кўйиладиган талаблар оддий, «...бўлсанг, аввало қандай қонунларни қабул қилган бўлардинг? Концепциянгни ишлаб чиқ? Қайси қонунларга қандай ўзгартишлар киритиш лозим, нега? Асосланг. Ва ҳақозо.

Тўртинчидан, ҳар бир партия қошида «Ҳуқуқий клиника» ташкил этиш, волонтерлардан иборат гуруҳ юртимизда қабул қилинаётган норматив-ҳуқуқий актлар билан аҳолининг турли қатламларини таништириб боради, албатта режа асосида бир ойда бир марта. Партиялар ўз дастурлари билан халқни таништиради. (Қайси партия дастурини партиясиз билади?) Тарғибот-ташвиғот ишларини олиб борадилар. Зеро Президентимиз таъкидлаганларидек: «Жамиятда қонунларга ҳурмат руҳини қарор топтириш – демократик ҳуқуқий давлат куришининг гаровидир!»

Бешинчидан, партиялар стипендиялар, мукофотлар таъсис этишини тавсия қиламиз.

Олтинчидан, «Юртимга дил изҳорим» шиори остида иншолар, расмлар, альбомлар, видео, аудио кўрсатувлари, шеърлар конкурсларини ташкил этиш.

Ватанимиздаги ҳар бир ёш авлод онгига ана шу мақсадларимизни сингдириб борсак, уларга янги замонавий билимлар бериб, миллий ғоямиз руҳида тарбияласак, эртага меҳнатимизнинг самарасини албатта кўраемиз. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Бу йўлда бизга ишонч ва илҳом, ғайрат ва шижоат берадиган беқиёс бир куч-қудрат борки, биз унга таяниб, ўз мақсадларимизга албатта етамиз. Бу – ҳаёт синовларида тобланган, сўзида қатъий турадиган, ишнинг кўзини биладиган, меҳнатқаш, мард ва матонатли халқимиздир. Биз бугун кўп миллатли халқимизга, барчамизнинг умидимиз ва суянчимиз бўлган ёшларимизга ишониб, маррани катта олмоқдамиз. Азиз фарзандларимиз, набираларимиз бахтини, камолини ўйлаб, эл-

юртимизнинг, халқимизнинг ёруғ келажагини кўзлаб, олдимизга улкан вазифалар қўймоқдамиз”.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори. Халқ сўзи газетаси, 2017 йил 21 апрель 79-сон (6773).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 5-июлдаги «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи фаолиятини кўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги Фармони. Зарафшон газетаси, 2017 йил 8 июль 85-сон (22885).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон – 2030” Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-158-сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида». Халқ сўзи газетаси, 2016 йил 15 сентябрь, 182-сон (6617).
5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Тошкент: O‘zbekiston, 2023.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Маҳалла газетаси. 2019 йил 29 декабрь 164-165-сон (1642).

ПРОПОРЦИОНАЛ САЙЛОВ ТИЗИМИНИ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИНИНГ ТАРИХИЙ АҲАМИЯТИ

ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ВВЕДЕНИЯ ПРОПОРЦИОНАЛЬНОЙ ИЗБИРАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE INTRODUCTION OF THE PROPORTIONAL ELECTORAL SYSTEM

Мирзаев А. (ТошДТУ проф.)

Демократик жамиятларда сайлов тизимининг мажоритар ва пропорционал тизимларидан фойдаланиш тартиби кўплаб мамлакатларда кўлланилади.

Пропорционал сайлов тизимига риоя қилиш жараёни, сиёсий партиялар ўртасидаги сиёсий майдондаги рақобатчиликни кучайтиради. Зеро, ҳар бир партия электоратни ишончини қозониш учун ҳамда сиёсий майдонда ўз ўрнини сақлаб қолиш учун ҳам сиёсий фаоллигини оширишдан манфаатдор бўлади. Айни пайтда жамиятда демократик кадриятларни қарор топишига ижобий таъсир кўрсатади. Партиялар ўртасида ижтимоий-сиёсий рақобат бўлмаган жойда демократия элитар демократиясига айланиш хавфи пайдо бўлади.

Мазкур мақолада сайлов турларини жамиятнинг демократик тараққиётига таъсирини таҳлил қилишга ҳаракат қилинган.

Калит сўзлар: сайлов, пропорционал, кадрият, демократия, рақобатчилик, жамият, электорат, сиёсий майдон, ҳаёт қонунлари, очиқ ёки ёпиқ овоз бериш, сайловолди ташвиқотлари.

В демократических обществах во многих странах используются мажоритарная и пропорциональная избирательные системы.

Процесс следования пропорциональной избирательной системе увеличивает конкуренцию между политическими партиями на политическом поле. Ведь каждая партия выиграет от повышения своей политической активности, чтобы завоевать доверие электората и сохранить свое место на политической арене. В то же время это положительно влияет на решение демократических способностей общества. Там, где нет социально-политической конкуренции между партиями, существует опасность превращения демократии в элитную демократию.

В данной статье предпринята попытка проанализировать влияние избирательных сетей на демократическое развитие общества.

Ключевые слова: выборы, пропорциональность, дееспособность, демократия, конкуренция, общество, электорат, политическая арена, законы жизни, открытое или закрытое голосование, избирательные кампании.

In democratic societies, majority and proportional electoral systems are used in many countries.

The process of following the proportional electoral system increases the competition between political parties in the political field. After all, each party will benefit from increasing

its political activity in order to gain the trust of the electorate and to maintain its place in the political arena. At the same time, it has a positive effect on the decision of the society's democratic abilities. Where there is no social-political competition between parties, there is a danger of democracy becoming an elite democracy.

In this article, an attempt was made to analyze the influence of election networks on the democratic development of society.

Key words: election, proportionality, capacity, democracy, competition, society, electorate, political arena, laws of life, open or closed voting, election campaigns.

Инсон ўзи яшаб турган жамиятни ўзининг яшаши учун қулай қилиб олишида сайловлар тизими муҳим роль ўйнайди. Бунинг учун жамиятни ҳақиқий демократик жамият қилувчи омиллардан энг муҳими – ҳаётий қонунларни кўпчилик бўлиб демократик асосда қабул қилишдир. Бу дегани қонун ёки қарорлар қабул қилишда якка шахслар, ёхуд жамиятнинг баъзи гуруҳлари эмас, балки жамиятнинг барча аъзолари бевосита ёки билвосита фаол иштирок этишлари керак. Албатта, демократик жамиятларда фуқаролар қонунларни қабул қилишда ўзларининг ишончли вакиллари орқали билвосита иштирок этадилар. Бу жараёни амалга оширишда сайлов тизими асосий омил ҳисобланади. Сайлов нима деганда, содда қилиб айтганда, бирон шахсни депутатликка, бирор номзодга белгиланган сайлов участкасида очиқ ёки ёпиқ шаклда овоз бериш йўли билан сайлаш, ишонч билдириш деган маънони англатади. Демак, сайлов жараёнида бевосита кўпчиликнинг ақлий салоҳияти ишга солинади ва одамлар ўз ораларидан юқори савияли, жонкуяр, фидойи, халқ манфаати учун меҳнат қилишга кодир бўлган инсонларни топадилар ва сайлайдилар.

Шунинг учун ҳам ҳар қандай демократик жамиятда сайловолди ташвиқотлари олиб борилади, халқ эътиборини шу бўлаётган сиёсий жараёнга тортишга асосий эътибор қаратилади. Сайловчиларнинг бу сиёсий жараёнда фаол бўлишлари ва уюшқоқлик билан иштирок этишлари, уларнинг сиёсий савиясига, сиёсий ва ҳуқуқий маданиятига боғлиқ бўлиб, улар атрофда бўлаётган воқеликларга бефарқ бўлмаслиги, эртанги кунини кимнинг ёки кимларнинг қўлига ишониб топширишларини яхши билишлари зарур.

Бу сиёсий жараёнга ҳамма демократик жамиятдаларда катта эътибор билан қаралади ва уюшқоқлик, катта рақобатчилик асосланган ҳолда фаоллик билан ўтказилади. Шу жумладан бизнинг мамлакатимизда ҳам сайлов қонунчилиги базаси яратилган бўлиб, қонун доирасида барча шарт-шароитлар, имкониятлар яратилади. Кейинги йиллар сайлов тизимини ҳар томонлама демократик тамойиллар; универсаллик, тенглик, эркинлик, адолатлилик, очиқлик, шаффофлик каби демократик сайлов стандартларига ва меъерий нормаларига мослаш, сайлов ўтказиш механизмларини такомиллаштириш ишлари ҳамда сайловчиларнинг овоз беришлари учун бир қатор қулайликлар яратилди. Сайлов қонунчилигига ўзгартиришлар киритилиб, тўлиқ халқаро демократик тамойилларга мосланди.

Жумладан, 2023 йил 18 декабрь куни қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига, яъни сайлов ва референдум ўтказиш тартибини янада такомиллаштиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қонун билан Сайлов кодекси ва амалдаги қонунларда сайлов ва референдумни ташкил этиш ҳамда ўтказиш тартибини, мамлакатимиз сиёсий ҳаётида амалга оширилган тизимли ислохотлар натижаларига, сиёсий-ҳуқуқий маданияти юксалиб бораётган халқимиз талабларига, шунингдек, ривожланган демократик

ТАРИХ

ҳуқуқий давлатларнинг илғор амалиётига уйғунлаштиришга қаратилган ўзгартириш ва кўшимчалар киритилишини прогрессив ходиса бўлиб, ўзига хос тарихий аҳамиятга эгадир. Зеро, бу сиёсий партиялар ўртасидаги конструктив рақобатни кучайтиришга хизмат қилади.

Сайлов тизимидаги ўзгаришлар ҳақида фикр юритар эканмиз, энг аввало қайд этиш лозимки, Конституциямизнинг 128-моддасида Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари давлат ҳокимияти вакиллик органларига сайлаш ва сайланиш ҳуқуқига эгадирлар. Ҳар бир сайловчи бир овозга эга. Овоз бериш ҳуқуқи, ўз хоҳиш-иродасини билдириш тенглиги ва эркинлиги қонун билан кафолатланади” [1], деб белгиланган. Фуқароларнинг бу ҳуқуқини тўла рўёбга чиқариш учун сўнгги йилларда сайловга оид қонунчиликни халқаро стандартларга мос равишда такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилиши натижада хорижда вақтинча яшаб турган меҳнат муҳожирлари, талабалар ва бошқа юртдошларимиз сайловда иштирок этиши учун кенг шароитлар яратилди. Озодликдан маҳрум этилган маҳкумларга овоз бериш имконияти яратилди. Айтиш жоизки, ушбу нормалар баъзи демократик давлатлар қонунчилигида мавжуд эмаслигини ҳам эътироф этсак, масаланинг моҳияти янада қадрлироқ бўлади.

Умуман олганда, демократик сайловлар фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқларнинг тантанаси сифатида таърифланади. Шунингдек, стандартлар 1948 йилдаги Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида акс этган. Ушбу Декларацияда халқ иродаси ҳуқумат ваколатининг асоси бўлиши кераклиги таъкидланган. Яъни, инсон ҳуқуқлари ва демократия чамбарчас боғлиқ бўлиб, сайловлар демократиянинг марказида бўлади.

1966 йил 19 декабрда қабул қилинган, ”Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро Пактда” ҳам сайлов жараёни халқ сиёсий иродасининг ифодаси эканлиги ва сайлов жараёнларида турли ғояларни ифода этиш ҳамда илгари суриш ҳуқуқи қатъий ҳимоя қилиниши кераклиги белгиланган. Аниқроқ қилиб айтганда, сайловчиларнинг сўз ва фикр эркинлиги ҳуқуқларининг таъминланиши орқали уларга тўлиқ ва аниқ маълумот олиш имкони яратилади.

Сайлов тизимини демократик тамойилларга мослаш, электоратнинг онгига демократик сайловлар қонун-қоидаларини сингдириш электоратнинг сиёсий фаоллигини янада оширишда муҳим омил бўлади. Юқорида қайд этилган ўзгаришларнинг сиёсий ва ижтимоий аҳамияти катта. Зеро, хорижий давлатларда яшаётган ёки ўқиётган Ўзбекистон фуқароларининг сайловда иштирокининг таъминланиши, унинг ватани олдида қадр-қиймати борлигини эслатиш билан бирга сайлаш ҳуқуқини таъминлашдир. Бу жараён орқали уларда ватанга бўлган меҳр янада ортади, ватанпарварлик руҳиятини янада мустаҳкамлайди, ватани билан ғурурланади. Бу ҳиссиётни фақат жараён иштирокчиларининг ўзлари теранроқ ҳис этадилар. Ёки озодликдан маҳрум этилган маҳкумларга овоз бериш имконияти яратилиши ҳам ўзига хос сиёсий аҳамиятлидир. Бу ҳолатлар бир қарашда оддий ҳолатдек кўринсада, ҳамма мамлакатларда ҳам маҳбусларга бундай сиёсий имконият берилмаган. Кўпчилик мамлакатларда маҳбусмисан ҳуқуқий ва сиёсий ҳуқуқлардан маҳрумсан, деган принципга амал қилинади. Масалан, Хитой, Тайвань ва бошқа давлатлар мисолида кўришимиз мумкин.

Сайлов кодексига киритилган яна бир муҳим ўзгариш, бу Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутатлари сайловини аралаш сайлов тизими, яъни мажоритар ва пропорционал сайлов тизими асосида ўтказиш белгиланди.

Зеро, бугунги кунда дунёнинг ривожланган демократик мамлакатларининг 50 га яқини аралаш сайлов тизимига амал қиладилар. Шунинг учун ҳам Олий Мажлис

ТАРИХ

Қонунчилик палатаси депутатлари сайловини аралаш тизими асосида ўтказиш тартиби белгиланиши демократик жараёнларни янада демократлашувидир.

Унга кўра демократик сайлов тизими ҳисобланган пропорционал ва мажоритар сайлов тизимини уйғунлаштирган ҳолда аралаш сайлов тизимига ўтилади. Унда вакиллик органидаги депутатлик ўринларининг бир қисми депутатликка номзодларнинг партия рўйхатига мувофиқ сиёсий партияларга берилган овозларга мутаносиб равишда, иккинчи қисми эса бевосита сиёсий партия томонидан бир мандатли сайлов округларидан кўрсатилган депутатликка номзодларга берилган овозлар натижасига кўра тақсимланади.

Мамлакатимизда Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутатларининг жорий йил октябрида режалаштирилган сайлови ҳам айнан аралаш сайлов тизими асосида ўтказилади. Бунда Қонунчилик палатасининг 75 депутати аввалгидек бевосита бир мандатли сайлов округларидан, қолган 75 депутат сиёсий партияларнинг сайловда олган овозлари сонига пропорционал тарзда, партия томонидан тақдим этилган депутатликка номзодлар рўйхати бўйича сайланади.

Бу ерда шу нарсага алоҳида эътибор қаратишимиз лозимки, яъни мажоритар ёки пропорционал сайлов тизимида электоратнинг овоз бериш жараёни қандай кечади? Содда қилиб айтадиган бўлсак:

- мажоритар сайлов тизимида: бир мандатли сайлов округлари бўйича ўтказиладиган сайловда сайлов бюллетенига сиёсий партиялар томонидан кўрсатилган депутатликка номзодларнинг исм-шарифи киритилган бўлади;

- пропорционал сайлов тизимида: Қонунчилик палатаси депутатларининг ягона сайлов округи бўйича ўтказиладиган сайловда сайлов бюллетенига сайловда иштирок этаётган сиёсий партияларнинг номи киритилади.

“Сайлов бюллетенини тўлдиришда сайловчи мустақил равишда қарор қабул қилади, ўз хоҳиш-иродасини эркин ифода этади, шу тариқа ўзи маъқул деб топган депутатликка номзодни ёки сиёсий партияни ёқлаб овоз беради” [2].

Мустақил бўлгандан кейинги йилларда ҳамма сайловларимиз, яъни Президентликка ўтказилган сайловлар ҳамда Олий мажлис депутатларига ўтказилган сайловлар ҳаммаси мажоритар сайлов тизимида ўтказилиб келинган. Бу сайлов тизими ҳам тўла демократик сайлов тизими бўлиб, сайловнинг халқаро ҳуқуқий нормаларига мосланган. Энди аралаш тизимга ўтишимиз сиёсий партиялар ўртасида электоратни ҳар бир партия ўзлари томонга оғдириб олиш учун бўладиган курашда рақобат муҳитини янада кучайтиради, деган фикрдаман. Ривожланган Европа мамлакатларида сиёсий партиялар фақат сайлов олдида электоратни ўзлари томонга оғдириб олиш учун курашмайдилар. “Улар халқ орасида ўз тарафдорларини, яъни уларнинг дастурларини кўллаб-қувватловчи одамларни кўпайтириш учун доимий ҳаракатда бўладилар. Партияларнинг доимий вазифаларидан бири ҳам ўз мафқураларини кенг халқ оммаси орасида тарғиб этиб ўз тарафдорларини кўпайтириб боришдан иборатдир” [3].

Шунинг учун ҳам партиялар орасида жамиятдаги турли масалалар юзасидан кескин тортишувлар, баҳс-мунозаралар тўхтамайди десак бўлади. Қайси партия мамлакатдаги ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал этиш йўлларини тўғри кўрсатиб бера олса, халқнинг ижтимоий муаммоларини ҳал этишда кўмаклашса, ўша партия ортидан халқ кўпроқ эргашади ва улар сайловларда кўпроқ депутатлик мандатига эга бўлиш имкониятини кўлга киритади.

ТАРИХ

Пропорционал сайлов тизимига ўтишимизнинг ижтимоий-сиёсий ва тарихий аҳамияти шунда намоён бўладики, сайловдан кейин ҳам сиёсий партиялар ўртасида конструктив рақобатчилик кураши фаоллашади.

Мамлакатимиздаги фаолият юритаётган ҳар бир партия ўзларининг тарафдорларини, дастурларини қўллаб-қувватловчи электорат учун курашади. Бу ўз навбатида ижтимоий муаммолар ечимини топиш учун ҳар бир партия максимал даражада ҳаракат қиладилар ва халққа янада жипсроқ борадилар, деган фикрдамиз [4].

Умуман аралаш сайлов тизими жорий этилишида сиёсий партияларнинг масъулияти янада ортади. Партиялар сиёсий йўналишини ва сиёсий позициясини аниқ белгилаб, тўғри йўналтира олса, жамиятда ўзининг мавқеига эга бўлади. Айни пайтда ҳар қандай партиянинг сиёсий спектри унинг мафкурасида мужассам бўлади. Агар халқнинг маълум бир каттароқ қисмини ўзларининг мафкурасига ва дастурига ишонтира олса ва дастурларида илгари сурилган ғояларни амалда руёбга чиқара олсалар, халқ орасидаги обрў-эътиборлари ортади ва халқнинг қўллаб-қувватлашига эришадилар, сайловларда кўплаб электоратнинг овозини олишга муваффақ бўладилар. Шу билан бирга бу ҳолат фуқароларнинг ҳам ижтимоийлашув жараёнига самарали таъсир кўрсатади ва уларнинг сиёсий фаоллигининг ўсиб боришига эришилади. Сайловнинг аралаш тизими мамлакатдаги сиёсий партияларнинг табақаланишига олиб боради. Яъни электоратнинг ишончини қозониш учун, жамиятда ўзларининг позицияларини мустаҳкамлаш учун фаоллашадилар, мафкура ва дастурларини амалда руёбга чиқариш учун курашадилар. Бу жараён муттасил давом этиши натижасида илгарилаб кетган партиялар ва ўз ўрнини жамиятда, сиёсий майдонда яхши топа олмаган партияларга бўлиниш юз беради.

Юқоридаги фикрларимизга хулоса қилиб айтганда, сайлов қонунчилигига киритилган ўзгаришларнинг ижтимоий-сиёсий ва тарихий аҳамияти, энг аввало, мамлакат аҳолисининг ҳуқуқий онги, сиёсий савияси ва дунёқарашининг ўсишига бевосита таъсир кўрсатадиган омилдир.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси “Ўзбекистон” Тошкент ; 2023 й. 96-100 б
2. Василик М.А. Вершинина М.С. Избирательная система России; Словар. СПб, 2000 г. 53 с.
3. Даль Р. О. Демократия М; 2000 г. 86 с.
4. Мирзаев А “Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти” , Ўқув қўлланма Т; 2013. 48 бет

КОМПЬЮТЕРНЫЕ РЕПЕТИТОРЫ В ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СИСТЕМАХ

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМЛАРИДА КОМПЬЮТЕР РЕПЕТИТОРЛАРИ

COMPUTER TUTORS IN INTELLIGENT EDUCATIONAL SYSTEMS

Сагатов М.В. (Доктор технических наук., профессор, ТашГТУ.)

Компьютеризация учебного процесса является мощным средством повышения эффективности обучения, которая позволяет осуществить качественный рывок в системе образования. В статье рассмотрены методы построения и технологии использования компьютерных репетиторов в интеллектуальных образовательных системах. Проанализированы особенности интеллектуальных компьютерных репетиторов, обеспечивающих отсутствие явного вербального диалога с пользователем. Описан концептуальный базис систем коммуникации знаний.

Ключевые слова: интеллектуальные обучающие системы, компьютерные репетиторы, экспертная система, когнитивный тьютор, искусственный интеллект.

Таълим жараёнини компютерлаштириш - таълим самарадорлигини оширишнинг кучли воситаси бўлиб, бу таълим тизимида сифат жихатидан ўзгаришларга олиб келади. Мақолада интеллектуал таълим тизимларида компютер репетиторларини қуриш усуллари ва улардан фойдаланиш технологиялари кўриб чиқилган. Фойдаланувчи билан аён вербал мулоқотни бўлмаслигини таъминловчи интеллектуал компютер репетиторларини хусусиятлари таҳлил қилинган. Билим коммуникация тизимларининг концептуал асослари тавсифланган.

Калит сўзлар: интеллектуал таълим тизимлари, компютер репетиторлари, эксперт тизим, когнитив тьютор, сунъий интеллект.

Computerization of the educational process is a powerful means of increasing the effectiveness of learning, which allows for a qualitative breakthrough in the education system. The article examines the methods of construction and technologies for using computer tutors in intelligent educational systems. The features of intelligent computer tutors that provide the absence of explicit verbal conversation with the user are analyzed. The conceptual basis for knowledge transfer systems is described.

Keywords: intelligent teaching systems, cognitive tutor, expert system, computer tutors, artificial intelligence.

В настоящее время компьютеризация обучения рассматривается как одна из важнейших задач высшей школы. Использование компьютера преобразует деятельность как преподавателя, так и учащихся, изменяя ее содержание, операциональную структуру, оказывая значительное влияние на мотивы участников этой деятельности, в значительной мере перестраивая систему взаимоотношений между ними. Компьютер значительно расширил возможности предъявления учебной

информации. Он дозвољава квалитетно изменит контрол за дејателношћу ученика, обезбеђујући при томе гибкост управљања учебним процесом.

Имаје принципиално значење то, што у модерним компјутерним обучајућим системима ученик сам формулира, у каквог рода помоћи при решању учебних задатака он треба. Никако из раније познатих средстава учења на то не било рачуна. Компјутер доприноси формирању у ученика рефлексии своје дејателности. Првенствено, компјутер дозвољава ученику нагледно представити резултат својих дејстава. Искључивим могућностима у овом односу имају интелектуалне обучајуће системе, које саопштавају обучаваном не само о тачности решења, него и о снажним и слабијим странама изабраних стратегија, приводећи при томе најчешће карактеристичне грешке. [5-7]

Најбоље савршене интелектуалне обучајуће системе по мере сакупљања података по интерактивном дијалогу са учеником у стању савршавају изначалну стратегију учења, чине је више ефикасном. У принципу, компјутерне обучајуће системе у стању, разрађују динамичку модел конкретног ученика, у којој узимају обзир особине његовог мишљења и меморије, перцепције и разумевања текста, спроводе контролу и управљају учењем на основу ове моделе. [8]

Савремени етап развоја вештачког интелекта карактерише проширење фундаменталних основа ове науке, а такође појавом примених и уградених система вештачког интелекта, у посебно, методе пројектовања интелектуалних система учења (локалних и дистанционих). [9]

Важном особиношћу већине примених и уградених система вештачког интелекта је присуство дијалогског интеракција између корисника и система. Дијалогске системе, најчешће, користе се при пројектовању интелектуалних тьютора, обучајућих средстава и компјутерних репетитора.

Главна циљ репетитора је подршка обучајућој активности корисника при извршењу задатака путем трансформације извршених грешака у процедурни искуство. Репетитор не интервенише у процес решања задатака док не открије грешке дејстава. На тај начин, репетитор спроводе непрестано и неопаметно праћење активности корисника и прекида његову радњу само када дејстава корисника не сападају са дејствима, очекиваним системом.

Из гледишта проблематике метода дијалогског понашања генетички граф је једним од ретких приступа, који може разматрати се као унифицирана мрежна (сценарна) модела, укључујућа као стратегију учења, тако и стратегију дијагностики и обезбеђујућа средства персонализованог приступа к учењу.

Серија програма под општом називом "когнитивни тьютор", разрађених у универзитету Карнеги Мелон (САД) је једним од најбоље познатих примера интелектуалних компјутерних репетитора. Главним идеологом когнитивних тьютора је Џон Андерсон, разрађивши неколико варијанти унифициране теорије познања, познате под називом *ACT* (*Adaptive Control of Thought*). Когнитивни тьютори првобитно разрађивали су са циљем провере кључних идеја *ACT*, главном из којих је уверење у то, да процедурно знање човек чува у облику система продукционних правила,

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЈА

упорядоченных иерархией целей. Когнитивные тьюторы разработаны для обучения в двух предметных областях: программирование на алгоритмических языках (LISP, Pascal) и элементарная математика (геометрия, алгебра).

Стратегия репетиторства, используемая в когнитивных тьюторах, называется "трассировка модели" (model tracing) и напоминает классический принцип регулирования по отклонению в системах автоматического регулирования. Когнитивный тьютор хранит эталон процедурных знаний, которые должен освоит пользователь, в виде последовательности шагов-действий. В том случае, если фактическая последовательность шагов-действий пользователя совпадает с эталонной, то когнитивный тьютор никак не вмешивается в действия пользователя. Если действия пользователя отклоняются от эталонных, то тьютор реагирует выводом сообщения, содержащего расшифровку ошибки и рекомендации о дальнейших действиях. Тьютор содержит множество вариантов ошибок пользователя и, поэтому в состоянии дает персонализированные рекомендации. Как при описании эталона, так и при описании возможных отклонений используется система продукционных правил, упорядоченных иерархией целей.

На рис. 1. приведен пример правила, используемого в LISP тьюторе.

IF цель - кодирование функции с табличным входным параметром и функция должна иметь доступ к каждому элементу таблицы, и структура таблицы произвольно сложная
THEN кодируйте cond для обеспечения car-cdr рекурсии и устанавливайте подцелью кодирование случаев останова и кодируйте случаи рекурсии.

Рис. 1. Пример правила, используемого в LISP тьюторе.

Одной из особенностей когнитивных тьюторов, как систем коммуникации знаний, является отсутствие явного вербального диалога с пользователем. Интерфейс программы разделяет экран на две части, одна из которых является полем действий пользователя, а другая - полем для вывода сообщений тьютора.

На рис. 2. приведено несколько начальных шагов решения задачи по программированию функции при помощи языка программирования LISP "под надзором" LISP тьютора.

В работах последних лет концепция когнитивных тьюторов развивается, главным образом, в направлении использования АСТ-R для моделирования более тонких элементов поведения студента при решении задачи, направленных на передачу процедурных знаний. Отсутствуют публикации по адаптации когнитивных тьюторов к технологии World Wide Web.

Кратко опишем концептуальный базис систем коммуникации знаний.

Рассматриваемые системы коммуникации знаний можно характеризовать четырьмя базовыми компонентами:

- экспертные знания о предметной области (модель предметной области);
- модель пользователя;
- экспертные знания о методе обучения (стратегия обучения);
- интерфейс обучающая система - пользователь.

Модель предметной области (domain knowledge, domain expertise) выполняет

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

двойные функции. С одной стороны, она представляет собой источник предметных знаний, «порционно» предоставляемых пользователю, а с другой - желаемый стандарт знаний пользователя (или цел обучения), используемый для оценки его текущих знаний.

Модел пользователя (student model) предназначена, главным образом, для того, чтобы предсказывать наблюдаемое поведение пользователя с целью его интерпретации. Идеальная модель пользователя должна делать точные предсказания поведения любого пользователя в любом контексте предметной области. Например, в виде множества возможных реакций на последний обучающий эпизод.

Окно тьютора
Определите функцию с именем <code>pal</code> и списком параметров, которая возвращает палиндром. Палиндром – это список, который одинаково читается вперёд и назад. Например, <code>(pal '(a b c))</code> возвращает <code>(a b c c b a)</code> .
Окно с кодом
<pre>(defun <name> <parameters> <body>)</pre>
Окно тьютора
Помните, что вы пытаетесь получить параметр <code>list</code> вашей функции. Вам не следует вызывать функцию <code>list</code> . Если вы думаете использовать <code>list</code> как параметр, то это плохая идея потому что вы можете спутать имя функции с именем параметра.
Окно с кодом
<pre>(defun pal (list) <process>)</pre>
Окно тьютора
Да, вам понадобится использовать функцию <code>REVERSE</code> , но не сейчас. Помните, что вам необходимо создать новый список, который объединяет исходный список и перевернутый список. Поэтому вначале вам необходима функция объединения списков.
Окно с кодом
<pre>(defun pal (origlist) (reverse</pre>

Рис.2. Начальные шаги работы с LISP тьютором, иллюстрирующие специфику его интерфейса.

С моделью пользователя часто связывается понятие диагностического процесса, под которым, обычно, понимается адаптация модели пользователя на основании данных, полученных в процессе диалога.

Стратегия обучения определяет, какой обучающий эпизод и, в какой момент

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

времени должен быть передан пользователю. В наиболее общем случае стратегия обучения не кодируется жестко, а выводится из текущей ситуации и метода, хранящегося в виде набора принципов или правил. Дидактические решения принимаются на основе предсказания реакции пользователя, генерируемой моделью пользователя, его реальной реакцией и отношениями между обучающими эпизодами, хранимыми в модели предметной области.



Рис.3. Основные концепты системы коммуникации знаний и отношения между ними.

Стратегии обучения варьируются по отношению к степени «свободы», предоставляемой пользователю, и могут быть упорядоченно расположены между двумя полюсами: от полного контроля всех действий пользователя и выполнения «лоцманских» функций при проведении пользователя через обучающие эпизоды до полной свободы навигационной активности пользователя и выдачи рекомендаций по его запросу. Рис.3 иллюстрирует отношения между отмеченными четырьмя основными концептами систем коммуникации знаний. Интерфейс в приведенных выше системах варьируется вокруг вариантов ограниченного естественного языка.

Таким образом, авторы отмеченных систем рассматривают диалог как сугубо вербальный процесс. Графические элементы включаются в интерфейс только для презентации обучающих эпизодов в системах - обучающих средах. Организация интеллектуальных тьюторов, обучающих сред и компьютерных репетиторов отражает эмпирические закономерности обучения, характерные для конкретной предметной области и не базируется на развитых формальных или формализованных моделях. Диалог в этих системах является средой передачи знаний.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан "Об образовании" № 639 от 23 сентября 2020 года.- Ташкент. www.lex.uz
2. Указ Президента Республики Узбекистан № 6108 от 6 ноября 2020 года "О мерах по развитию образования и науки в новый период развития Узбекистана"- Ташкент.2020 г.
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 6 сентября 2019 года УП-5812 "О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования", -Ташкент.2019 г.
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 мая 2020 года ПКМ № 287 "О мерах по организации деятельности национальной системы повышения профессиональной квалификации, знаний и умений в Республике Узбекистан".-Ташкент.2020 г.
- 5.Магазанник В.Д. Человеко-компьютерное взаимодействие: учеб. пособие для вузов. 2-е изд., доп. и перераб. М.: Университетская книга, 2016. 406 с.
- 6.Ставрова О.Б. Применение компьютера в профессиональной деятельности учителя // Изд-во: Интеллект-Центр, 2007 г., -144 стр.
- 7.Акимова, И. В. Использование информационных технологий в образовании: учебное пособие для студентов и учителей [Текст] /И.В. Акимова, И. А. Баландин. - Пенза, 2010.
- 8.Рыбина Г. Интеллектуальные обучающие системы на основе интегрированных экспертных систем // Изд.: Директ-Медиа, М: 2023 г., -132 стр.
- 9.Scotty D.Craig. Tutoring and Intelligent Tutoring Systems (Education in a Competitive and Globalizing World) // Pub.: Nova Science Pub Inc. 2018, 373 p.

УДК: 37.013.2

МЕСТО И РОЛЬ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ ВЫСОКОКОМПЕТЕНТНОСТНЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YUQORI MALAKALI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA DUAL TA'LIMNING O'RNI VA ROLI

THE PLACE AND ROLE OF DUAL EDUCATION IN THE TRAINING OF HIGHLY COMPETENT SPECIALISTS IN THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION

Уматалиева К.Т. (Институт развития профессионального образования)

В данной статье предоставлена информация о реализации дуального образования в системе профессионального образования. Подготовки наставников к педагогической деятельности и рол дуального образования в подготовке высококомпетентностных специалистов. Также отмеченна рол участия работодателя в подготовке будущих специалистов обеспечивающее интеграцию образовательного процесса и получение практических навыков на производстве одновременно.

Представлен анализ состояния готовности к профессиональной деятельности специалистов профессиональных образовательных учреждений предполагает исследование развития профессиональной компетентности по направлениям специализации и сферам производства, разработку и внедрение в образовательный процесс дуального образования.

Ключевые слова: дуальное образование, профессиональная компетентность, профессиональное образование, деятельность наставников.

Ushbu maqolada professional ta'limi tizimida Dual ta'limni amalga oshirish to'g'risida ma'lumot berilgan. O'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda Dual ta'limning roli, shuningdek, ish beruvchining kelajakdagi mutaxassislarni tayyorlashda ishtirok etishining roli qayd etildi, bu o'quv jarayonining integratsiyasini va bir vaqtning o'zida ishlab chiqarishda amaliy ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydi. Professional ta'lim muassasalari mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga tayyorlik holatini tahlil qilish ixtisoslashuv yo'nalishlari va ishlab chiqarish sohalari bo'yicha kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, Dual ta'limni ishlab chiqish va o'quv jarayoniga joriy etishni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, kasbiy kompetensiya, professional ta'lim, murabbiylik faoliyati.

This article provides information on the implementation of dual education in the vocational education system. The training of mentors for pedagogical activity and the role of dual education in the training of highly competent specialists. The role of the employer's participation in the training of future specialists was also noted, ensuring the integration of the educational process and obtaining practical skills at the same time. The analysis of the state of readiness for professional activity of specialists of professional educational institutions is presented. It involves the study of the development of professional competence in areas of specialization and areas of production, the development and implementation of dual education in the educational process.

Key words: dual education, professional competence, professional education, mentoring activities.

Согласно Закону, об образовании Республики Узбекистан, профессиональное образование является системой по приобретаемой профессии и специальности включает следующие уровни: начальное профессиональное образование, среднее профессиональное образование, среднее специальное профессиональное образование. Начальное профессиональное образование осуществляется в профессиональных школах на базе выпускников IX классов на основе двухлетних интегрированных учебных программ общеобразовательных предметов и предметов специальностей по дневной форме обучения на бесплатной основе. Среднее профессиональное образование осуществляется в колледжах на базе общего среднего, среднего специального и начального профессионального образования по дневной, вечерней и заочной формам обучения продолжительностью до двух лет, исходя из сложности профессий и специальностей на основе государственного заказа или платного контракта. Среднее специальное профессиональное образование осуществляется в техникумах на базе общего среднего, среднего специального, начального профессионального и среднего профессионального образования по дневной, вечерней

и заочной формам обучения продолжительностью не менее двух лет, исходя из сложности профессий и специальностей на основе государственного заказа или платного контракта.

Основным приоритетом профессионального образования Узбекистана на сегодняшний день является подготовка высококвалифицированных специалистов с высоким уровнем профессиональной и общей компетентности, в этой связи основным условием является создание необходимой инфраструктуры, позволяющей усовершенствовать условия подготовки будущих специалистов для развивающейся экономики», что в свою очередь обеспечит требуемое рынком труда качество профессионального образования.

Также немаловажно участие работодателя в подготовке будущих специалистов обеспечивающее интеграцию образовательного процесса и получение практических навыков на производстве одновременно, с предоставлением необходимого оборудования и материалов, непосредственное участие в разработке и совершенствовании образовательных программ и оценке результатов обучения как в ПОУ, так и на производстве.

Данная задача не является новой для профессионального образования. Основные проблемы, связанные с трансформацией и модернизацией в том числе структурными изменениями степеней в профессиональном образовании, большому выбору и возможностям получения образования в системы высших образовательных учреждений, естественно влияют меньшее количество поступающих в ПОУ, также нехватка квалифицированных педагогических кадров с инженерными специальностями, данные проблемы обусловили крайне негативные условия для ПО.

В связи с этим изучение состояния готовности к профессиональной деятельности специалистов профессиональных образовательных учреждений предполагает исследование развития профессиональной компетентности по направлениям специализации и сферам производства, разработку и внедрение в образовательный процесс дуального образования.

Изучая труды ряда учёных педагогов практиков, производственников, касательно вопросов модернизации профессионального образования Р.Х.Джураева, Н.А.Муслимова, С.Ю.Ашуровой, Н.Н.Каримовой многих других, сделано заключение о таких важных вопросах профессионального образования, как:

- сложность интеграции образовательных и профессиональных стандартов, обобщение квалификационных требований, в процесс практической подготовки специалистов профессионального образования;
- недостаточная профессионализация учебной деятельности - «отрыв» от потенциального работодателя, недостаточный объем практико-ориентированной учебно-профессиональной деятельности;
- недостаточно отработанный формат взаимодействия образования и производства;
- недостаточная разработанность научно-методического обеспечения процесса профессиональной подготовки учащихся ПОУ, обуславливающего научную, организационную, психолого-педагогическую, методическую функции образования.

Эти вопросы на сегодняшний день находятся в центре пристального внимания педагогов, работодателей, работников министерств и ведомств.

В целях их устранения принят ряд нормативных документов, отправным в которых является Новая редакция закона Узбекистана от 23 сентября 2020 года №637

“Об образовании”, [1] Указ Президента Республики Узбекистан от 6 сентября 2019 года № УП-5812 “ О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования”, [2] Указ Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года № УП-6108” о мерах по развитию образовательной и научной сфер в период их развития“, [3] Постановление кабинета министров Республики Узбекистан от 15 мая 2020 года " о профессиональных квалификациях в Республике Узбекистан, “о мерах по организации деятельности Национальной системы развития знаний и умений”, ПКМ-287, [4] "О мерах по организации двойного образования в системе профессионального образования", ПКМ-163, [5] от 29 марта 2021 года, а также Указ Президента Республики Узбекистан от 1 февраля 2019 года № "Меры по дальнейшему расширению многостороннего сотрудничества между Республикой Узбекистан и Федеративной Республикой Германия - 10 июня 2019 года, [5] и постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 декабря 2023 года ПКМ № 4356 “О внесении дополнений в Постановление Правительства Республики Узбекистан от 10 июня 2019 года № ПКМ-4145 "О внесении изменений в отдельные постановления Правительства Республики Узбекистан в связи с введением системы круглогодичного приема обучающихся в профессиональные образовательные учреждения ПКМ-647, [6] и другие нормативные правовые акты. Данные нормативно правовые документы подчеркивают значимость дуального образования и определяют ряд мер для мотивации производственных организаций при включении их в практико-ориентированную дуальную модел обучения.

На сегодняшний ден учебная нагрузка направлена на увеличение практико-ориентированной учебной деятельности. На настоящий момент многие производственные предприятия продолжают развивают механизмы дуального образования, характерной чертой которого является взаимодействие между государством, предприятиями, профсоюзами и ПОУ.

Дуальная форма образования на производственных организациях может варьироваться, например, при необходимости может быт ротация учебных мест с предприятиями-партнерами для освоения каких-либо навыков, част обучения может происходить в учебных мастерских или же в экспериментальных центрах компетенций при профессионально образовательных организациях. [7]

По результатам исследования ряда специалистов, система профессионального образования Германии, дала следующий результат на сегодняшний ден более 50% молодежи выбирают дуальную форму образования для подготовки профессионально деятельности.

Дуальное обучение начало своё развитие начиная со «штучного» ремесленного обучения, упирая на идею «единой экономики» и педагогической идее деятельностного обучения, дуальное образование является перспективным не только в контексте совершенствования качества профессиональной подготовки будущих специалистов, но важным аспектом развития экономики государства.

Система дуального образования позволяет учащемуся ПОУ примерно 70% учебного времени провести на производстве для формирования профессиональных и общих компетенций, также все финансовые расходы несет само производство; уже со второго года обучения в дуальной форме качественный результат учебно-профессиональной деятельности учащегося позволяет предприятию окупит расходы на его образование и получит качественный продукт производства. [8]

Успешный опыт реализации дуального образования в развитых странах

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

(Германия, Австрия, Швейцария, Франция, Финляндия и т.д.) позволил нам определить существенные характеристики.

Итак, дуальное образование целенаправленно на организационно-педагогическую форму, в которой имеется:

- разделение места реализации учебно-профессиональной деятельности (образовательная организация - предприятие);
- синтез теории (20-40%) и практики (60-80%);
- мониторинг учебно-профессиональной деятельности (педагог-наставник).

На основе нормированного и документированного деятельности предприятия (будущие работодатели), в которых реализуется практическая часть учебно-профессиональной деятельности в рамках дуального образования (на правах социальных партнеров), принимают участие в:

методической деятельности (разработка требований к результатам обучения, участие в разработке программ обучения, тематик квалификационных работ, повышение квалификации педагогов);

диагностической деятельности (проверка курсовых, дипломных работ, участие в защите дипломов и проч.);

организационной деятельности (разработка учебного плана, календарного графика обучения, трудоустройство выпускников).

Дуальное образование на современном этапе активно внедряется в отечественное профессиональное образование в рамках различных научных проектов. Анализ опыта внедрения системы дуального образования в разных странах показывает важность и возможность его адаптации к национальным условиям, традициям, менталитету. Однако главными характеристиками дуального образования является: практико-ориентированная направленность, тесное социальное партнерство (государства, работодателей, образования) и ведущая роль наставника производственного обучения в подготовке учащихся профессионально образовательных учреждений остающимися неизменными в различных вариациях ее реализации. [9]

Реализация дуального образования в систему профессионального образования предусматривает разработку нормативного, организационного, учебно-методического, кадрового, диагностического обеспечения этого процесса в соответствии с региональными, производственными потребностями, имеющимися кадровыми и материально-техническими ресурсами для каждого профессионально образовательного учреждения и предприятия. От успеха взаимодействия этих социальных партнеров в полной мере зависит обеспечение региональной экономической системы высококвалифицированными рабочими кадрами.

Проведенный нами опрос молодых специалистов на предприятиях Республики Узбекистан определил необходимость акцентирования на педагогическую деятельность наставников производственного обучения, особенно для дуального образования, когда перед наставником поставлены явно выраженные образовательные задачи формирования профессиональной компетентности будущего специалиста. Необходимо отметить, что анализ психолого-педагогических исследований показал отсутствие работ по исследованию системы наставничества для дуального образования, в том числе, и по разработке научно-методического обеспечения их подготовки.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан "Об образовании" № 637 от 23 сентября 2020 года. <https://lex.uz/ru/docs/5013009>
2. Указ Президента Республики Узбекистан № 6108 от 6 ноября 2020 года " О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана" <https://lex.uz/docs/5086015?ONDATE=04.07.2023%2000>
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 6 сентября 2019 года УП-5812 " О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования". <https://lex.uz/ru/docs/4500929>
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 мая 2020 года ПКМ № 287 " О мерах по организации деятельности Национальной системы развития профессиональной квалификации, знаний и навыков в Республики Узбекистан" <https://lex.uz/ru/docs/4814157>
5. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 29 марта 2021 года ПКМ-163 "О мерах по организации дуального образования в системе профессионального образования". <https://lex.uz/ru/docs/5347766? ONDATE=29.03.2021>
6. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 декабря 2023 года ПКМ-647 " О внесении изменений и дополнений в некоторые решения Правительства Республики Узбекистан в связи с введением системы приема студентов в профессиональные образовательные учреждения в течение года в форме дуального обучения" . <https://lex.uz/uz/docs/6692772>
7. S. Y. Ashurova., N.N.Karimova., "Dual ta'limda komretentli yondashuv doirasida modulli ta'limni joriy etish" "Oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida innovatsion o'qitish texnologiyalarini qo'llash masalalari", Respublika ilmiy-uslubiy anjumani, Toshkent, 4-5-yanvar, 2024 – yil, B.- 420-423.
8. S. Y. Ashurova., T.Mamatmusaev., "Professional ta'lim tizimi negizida dual ta'limni tashkil etish imkoniyatlari" "O'zbekistonda professional ta'lim" ilmiy, ma'naviy, ma'rifiy jurnal, -T,: 2023, 3-son(4), B.-28-21.
9. S. Y. Ashurova., N.N.Karimova, T.Matmusaev "Dual ta'lim shaklida mutaxassisning kasbiy standartlarini loyihalash" Metodik qo'llanma. Professional ta'limni rivojlantirish instituti. Toshkent, 2024.

SHAXS KAMOLATI ILMIY TADQIQOTLARNING MUAMMOSI

РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ – НАУЧНАЯ ПРОБЛЕМА

HUMAN DEVELOPMENT IS A SCIENTIFIC PROBLEM

Orif Avlayev (Chirchiq davlat pedagogika universiteti, dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc))

Yaqut Aliyeva (Boku davlat universiteti, dotsenti, sotsiologiya falsafa doktori)

Mazkur maqola mazmuni shaxs sotsial intellektining darajaviy xususiyatlarini chastotali tahliliga qaratilgan. Bunda sotsial intellektning o'rtachadan quyi darajasi – inson xulq-atvorini anglashga o'rtachadan past qobiliyatlilik, sotsial intellektning o'rtacha meyordagi darajasi – inson xulq-atvorini o'rtachadan meyordagi qobiliyatlilik, sotsial intellektning o'rtachadan yuqori darajasi – shaxsning xulq-atvorini anglashga o'rtachadan yuqori qobiliyatlilik, sotsial intellektning yuqori darajasi – inson xulq-atvorini anglashga yuqori qobiliyatlilik ekanligi aniqlangan va psixologik tahlil amalga oshirilgan.

Калит сўзлар: Shaxs, sotsial intellekt, sotsial intellektning quyi, o'rta, yuqori darajalari, qobiliyat, sotsial intellekt funksiyalari.

Содержание данной статьи сосредоточено на частотном анализе уровневых характеристик социального интеллекта человека. Уровень социального интеллекта ниже среднего – способность понимать поведение человека ниже среднего, средний уровень социального интеллекта – способность понимать поведение человека выше среднего, уровень социального интеллекта выше среднего – способность понимать поведение человека выше среднего, высокий уровень социального интеллекта – определена высокая способность понимать поведение человека и проведен психологический анализ.

Ключевые слова: Личность, социальный интеллект, низший, средний, высший уровни социального интеллекта, способности, функции социального интеллекта.

The content of this article is focused on the frequency analysis of the level characteristics of human social intelligence. Below average social intelligence level – the ability to understand human behavior is below average, average social intelligence level – the ability to understand human behavior is above average, above average social intelligence level – the ability to understand human behavior is above average, high social intelligence level – a high ability to understand human behavior is determined and a psychological analysis is carried out.

Key words. Personality, social intelligence, lower, average, higher levels of social intelligence, abilities, functions of social intelligence.

“Kamolot” tushunchasi psixologiyaga oid adabiyotlarda keng qo'llaniladi. Uni hozirgi zamon tadqiqotlarida ham, o'tgan asrning o'rtasidagi klassik adabiyotlarda ham uchratish mumkin; undan mahalliy tadqiqotchilar ham, xorijlik tadqiqotchilar ham foydalanishadi.

A.G.Portnova kamolotni shaxsning integral fazilati sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi, chunki u nafaqat psixologlar tomonidan, balki falsafa, sotsiologiya, huquqshunoslik, etika, pedagogika va boshqa ko‘plab fanlarning vakillari tomonidan ham o‘rganiladi. Manbalarning tahlili “kamolot” so‘zi kiritilgan katta miqdordagi so‘z birikmalarini uchratish imkonini berdi va bu so‘z birikmalari alohida reallikka urg‘u beradigan tushunchalar roliga da‘vogarlik qiladi: shaxs kamoloti, psixologik kamolot, ijtimoiy kamolot, psixosotsiologik kamolot, [3], [4], [5], [6], [7] akmeologik kamolot va defenitiv kamolot, motivatsion kamolot.

Ingliz tilidagi adabiyotlarda kamolotning har xil turlarini ifodalovchi atamalar ko‘p: psixologik kamolot (psychological maturity), psixosotsiologik kamolot (psychosocial maturity), rivojlanish kamoloti (developmental maturity), ego kamoloti (ego maturity).

Kamolot turlari uchun baholash mezonlari taklif qilingan. Masalan, rivojlanish kamolotini F.Kramer [9] biror bir xarakteristikaning yoshga oid o‘zgarishlari (kuchlar, himoya mexanizmlari, identifikatsiya uslubi) va uning spesifik tabiatiga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar (maqsadlar va qadriyatlar xarakterining o‘zgarishlari) orqali baholashni taklif qiladi. Masalan, himoya mexanizmlaridan foydalanish tadqiqotlari natijalariga muvofiq, yoshlikning kechki davri va kamolot davrida identifikatsiya mexanizmidan foydalanish kamayganligini, inkordan foydalanish ko‘payganligini kuzatish mumkin va proeksiya mexanizmidan foydalanishda ba‘zi o‘zgarishlar qayd etilgan. F. Kramer qayd qilganidek, o‘smirlik davrida identifikatsiyadan foydalanish va kamolot yoshida undan foydalanishning kamayishi kuchning ko‘payganligi belgisidir. Identifikatsiya mexanizmidan foydalanishning kamayishi himoya mexanizmlarining rivojlanishi nazariyasi bilan muvofiqlashadi, chunki himoya shaxsning rivojlanish davri bilan bog‘liq va qachon bu davr tugasa, tegishli himoyadan foydalanish darajasi kamayadi. Shaxsning psixologik kamolotini baholash uchun katta beshlik shkalasidan, identifikatsiya mezonlaridan, avtonomlikdan, mehnatga bo‘lgan orientatsiyasidan [7], yaqin (intim) munosabatlarga bo‘lgan qobiliyatidan foydalanish taklif qilinadi.

Shaxs kamoloti insonning ijtimoiy, hissiy, axloqiy va intellektual rivojlanishining yuqori darajasini ko‘rsatadi. Shaxs kamoloti quyidagilar bilan tavsiflanadi: yutuqning aniq motivatsiyasi; barqaror “men-kontsepsiya”; mas’uliyat; hissiy muvozanat; boshqa shaxs bilan psixologik yaqinlik qobiliyati va uning yuqori moslashuvidan dalolat beruvchi boshqa fazilatlar.

I.Grinberger va uning hammualliflarining fikrlariga muvofiq, ijtimoiy-psixologik kamolot insonning uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit oldidagi mas’uliyat bilan uning ayni paytdagi mustaqilligining birikmasi sifatida tushuniladi. Tadqiqotchilar ijtimoiy-psixologik kamolot modelini taklif qilishdi. Uning tarkibida shaxs adekvatligi, shaxslararo adekvatlik, ijtimoiy adekvatlik ajratilgan. Bundan tashqari, soxta kamolot tushunchasi ajralib chiqadi (o‘smirda allaqachon ijtimoiy kamolot boshlangan, biroq psixologik kamolotga hali erishilmagan). Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar asosida N. Galambos, kamolotga erishgan o‘smirlar kamolotga erishmagan va soxta kamolotga erishgan tengdoshlaridan o‘zlarining intellektual ko‘rsatkichlari bilan farq qilishini namoyish qilgan. Natijalar bo‘lingan e’tibor, ingibitor nazorat, kognitiv qayishqoqlik, axborotga ishlov berish tezligi bo‘yicha keltiriladi. Tadqiqotda “kristallashgan” va “harakatchan” intellekt bilan kamolot o‘rtasida bog‘liqlikning bor-yo‘qligi o‘rganiladi. Bu tadqiqotlarda shaxsda oldingi tajribadan qat’iy nazar masalalarni hal qilish, ularni tahlil qilish imkonini beradigan harakatchan intellekt bilan psixologik kamolot o‘rtasida ahamiyatli darajadagi bog‘liqliklari aniqlanmagan (Galambos, MacDonald, Naphtali, Cohen, Cindy M. de Frias 2005).

Qator tushunchalar o‘z ma’nosiga ko‘ra shaxs kamoloti tushunchasiga yaqin: “ruhiy

salomatlik”, “o‘z-o‘zini faollashtirish”, “to‘laqonli ishlash”. G.Olport aqllilik, sog‘liq va kamolotni bir-birining o‘rnini bosuvchi tushunchalar sifatida qo‘llashni taklif qiladi. Ba’zi mualliflarning ishlari kamolotning turli ko‘rinishlari va sog‘liq, psixologik farovonlik, yosh, stressli vaziyatlarni boshqarish strategiyalari, kognitiv qobiliyatlar singari jihatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xarakterini aniqlashga bag‘ishlangan. Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda aniqlangan qonuniyatlardan misollar keltiramiz: talabalarning psixologik kamoloti va identifikatsiyasining to‘liq mazmuni ularning sog‘lig‘iga bo‘lgan xavflar haqida mulohaza yuritish imkonini beradi; psixologik kamolot yoshlikdan boshlanadi va erta yetuklikka tomon o‘sib boradi; o‘smirlar va yoshlardagi ijtimoiy-psixologik kamolotning yuqoriroq darajasi kognitiv qobiliyatlar testlarining ancha yuqori natijalari bilan bog‘liq.

V.M. Rusalovning ta’kidlashicha [2; 83-97-b], kamolot parametri har qanday murakkab tizimli ruhiy hosilaga (inson, shaxs, xarakter, intellekt) ega, inson kamoloti jihatlar ro‘yxatiga esa muallif ma’naviy, fuqarolik va kasbiy kamolotni qo‘shadi. V.M. Rusalovning fikriga ko‘ra [2], kamolot tushunchasini ikkita jihatdan ko‘rib chiqish mumkin: defenitiv va akmeologik. Alohida ruhiy funksiyalarning defenitiv kamolotga erishishi haqida qachonki ularning parametrlari mazkur populyatsiyada jinsiy jihatdan yetilgan insonning belgilari darajasiga yetishganda gapiriladi. Akmeologik kamolot ruhiy funksiyalar o‘zining eng yuqori nuqtasiga erishishini xarakterlaydi.

“Kamolot” tushunchasi ko‘pincha yoshga oid bo‘lgan, yetuklik yoki qarilikka mos keladigan rivojlanish bosqichini ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday kalitda “kamolot” atamasidan E. Eriksonning epigenetik nazariyasida foydalanilgan.

Kamolot deb muallif shaxsning integratsiyasi va yaxlitligiga erishiladigan yoshni aytadi (ikkinchi ego-o‘xshashlik). Bunda barcha o‘tgan yosh bosqichlarida qo‘lga kiritilgan yangi fazilatlar (asosiy ishonch, avtonomiya hissi, tashabbus hissi, mehnatsevarlik va erishish hissi, identifikatsiya, intimlik, mahsuldorlik) shaxs tomonidan yaxlitlikni qo‘lga kiritish va kamolotga erishish sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.

“Kamolot” tushunchasiga boshqa interpretatsiya akmeologiya kontekstida berilgan, bu - “inson tomonidan qobiliyatlar, iqtidor, ijodkorlik cho‘qqisiga erishish, insonning o‘shini fuqaro, shaxs, turmush o‘rtoq yoki ota-ona, o‘z kasbining ustasi sifatida xarakterlovchi ko‘p o‘lchamli holati”. Akmeologiya – bu “alohida inson, insonlar jamiyati va ularning yutuqlarga erishish sharoitlarining rivojlanishi cho‘qqilarini o‘rganuvchi fanlar yig‘indisidir”.

Psixologiya fanlari doktori, professor G‘.B.Shoumarov yetuklik tushunchasiga “kamolot” tushunchasi orqali izoh beradi. Agar odamning u yoki bu faoliyatga “kamolot”i haqida gapiradigan bo‘linsa, demak bu uning ma’lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanishi mumkin emasligini bildiradi. “Kamolot” haqida gapirilganda bu tushunchadan ma’lum bir umum qabul qilingan standart, o‘rtacha meyor, ma’lum bir shartli “o‘lchov birligi”, ko‘rsatkichlar va shu kabilar sifatidagina foydalaniladi. Shu nuqtai nazardan olganda “kamolot” – rivojlanishning ma’lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga yetilganlikning sifatiy va miqdoriy xarakteristikasini ma’lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.” Psixologiyaga oid adabiyotlarda “kamolot” tushunchasidan foydalanish kontekstlarini umumlashtirar ekan, N.P.Patturina uning uchta asosiy ma’nosini ajratadi:

- yoshga oid rivojlanish meyoriga moslik sifatidagi kamolot;
- ma’lum bir yosh bosqichini ifodalash sifatidagi kamolot;
- shaxs xarakteristikasi sifatidagi kamolot.

Oxirgi holatda ijtimoiy tajribani egallash muvaffaqiyati, mas’ul harakatlarga nisbatan qobiliyat, jamiyatda samarali ishlash va yanada rivojlanishga bo‘lgan qobiliyat tushuniladi. Y.P. Ilin esa, kamolotni hayot bosqichi va rivojlanish bosqichi sifatida taklif qiladi.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

Shaxs kamoloti insonning hayotiy muammolarini hal qilish zarurati bilan bog‘liq holda amalga oshiriladigan va subyektiv ravishda idrok etiladigan inson taqdiri talablari va ijtimoiy intellekt bilan doimiy aloqada hayotning dinamik saqlanishini ta‘minlaydigan xususiyatini saqlash qobiliyati sifatida tushuniladi. Shaxs kamolotining darajaviy ifodalanishiga ko‘ra muloqotda suhbatdosh fikrlarini tushunishning erishganlik motivatsiyasi, o‘z meniga munosabat, hayotiy ustanovkalarining, noverbal va verbal ekspressiyalarni anglash esa, shaxs xususiyatlarining integrativ namoyon bo‘lishi tufayli sotsial intellekti ustuvor rivojlanishi asoslandi [1].

Bunda ijtimoiy kamolot konkret madaniy-tarixiy sharoitlarda o‘z-o‘zini eng to‘liq ifodalay olish sifatida tushuniladi, motivatsion kamolot – psixologik kamolot turlaridan biri sifatida, psixologik kamolot esa mustaqillik, onglilik va axloqiylikning yuqori darajasi, atrof olamdagi orientirovkaning aniqligi, boshqalar bilan munosabatlarning haqiqiyliigi, voqelik va o‘zini o‘zgartirishdagi faollik va ijodkorlik kabi hodisalar orqali tasvirlanadi.

Mazkur nazariy mulohazalar asosida shaxs kamolotining asosiy sharti sifatida tadqiqotda ikkita metodikani tatbiq etishga jazm etildi. Har bir metodikaning baholash ko‘rsatkichlari alohida tahlil obyektiga asos bo‘ladi va alohida-alohida yoritiladi.

Bunda tatbiq etilgan birichni metodika o‘zbek olimi E.G‘.G‘oziyevning “Barkamol insonni baholash testi” bo‘ldi. Mazkur metodikaning meyoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra barkamol shaxsning to‘rt darajasini aniqlash mumkin bo‘ldi. Birinchisi 0-55 ballgacha barkamollik darajasi quyi, 56-110 ball – barkamollik darajasi o‘rtacha, 111-164 ball – barkamollik darajasi o‘rtachadan yuqori; 165-220 ball – barqarorlik darajasi yuqori. Ushbu tadqiqot metodikasining xususiyatiga muvofiq tahlil natijasida shaxs kamolotining uch xil darajasi aniqlandi. Chunki chastotali tahlilga ko‘ra tadqiqotda ishtirok etgan respodentlarning 58, 77 foizi (325 nafar) o‘rtacha kamolot darajasi, 31,83 foizi esa (176 nafari) o‘rtachadan yuqori va 9,40 foizi (52 nafari) yuqori kamolot darajasini aks ettirdi va bunda shaxs kamolotining quyi darajasiga, ya‘ni asotsial xulq-atvorga ega bo‘lgan respodentlar aniqlanmadi (1-jadval).

1-jadval

Barkamol shaxs darajalarining chastotali tahlili ko‘rsatkichlari

Darajalar	Chastota	Foiz li ulushi
Barkamollikning quyi darajasi	-	-
Barkamollikning o‘rtacha darajasi	325	58,77
Barkamollikning o‘rtachadan yuqori darajasi	176	31,83
Barkamollikning yuqori darajasi	52	9,40
Jami	553	100.0

Shunday qilib, kamolot tushunchasi psixologiyada turli darajadagi ruhiy funksiyalarning yetilishi bilan bog‘liq muammolarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Shaxs kamoloti muammosining genezisi chuqur tarixiy ildizlarga ega. Insoniyat tarixi davomida kuzatilgan ushbu hodisaga qiziqish hozirgi bosqichda dolzarbdir. Shaxs kamoloti muammosiga bag‘ishlangan asarlarning nazariy tahlili natijalari mazkur masalaga turlicha

yondashuvlar mavjudligini (falsafiy, tarixiy, sotsiologik, pedagogik, psixologik, etnik, estetik va boshqalar) ko'rsatdi hamda shaxs kamoloti muammosini ilmiy ko'rib chiqishning asosiy kontinuumini shakllantirdi, uning eng umumiy va asosiy xususiyatlarini ta'kidladi, shu bilan birga bu masalani ko'rib chiqishda asosiy pozitsiyalar psixologiyaga tegishli ekanligini ko'rsatib berdi.

Mahalliy va xorijiy psixologiyada shaxs kamolotini tushunish – mavjud yondashuvlarni tahlil qilish natijalari uning konseptual noaniqligi, mazmuni va tarkibiy qismlarining noaniqligi, uning rivojlanish darajasi mezonlari haqida gapirishga imkon beradi.

Mahalliy ilmiy qarashlar doirasida shaxs kamoloti va uning ijtimoiy-ma'naviy rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlar va omillar o'ziga xos murakkab tuzilish sifatida qaraladi, shaxs kamolotining shakllanishi va rivojlanishi uning erkin ongli tanlash va xulq-atvorni ixtiyoriy boshqarish, shaxsiy va hayot istiqbolini mustaqil ravishda qurish qobiliyatiga asoslangan.

Chet el psixologiyasida yetuk shaxsning quyidagi xususiyatlari aniqlanadi: avtonomlik, ichki erkinlik, ijodkorlik, hissiy ijobiy barqarorlik, o'ziga va boshqalarga nisbatan qadriyatli munosabat, o'zini o'zi bilishga intilish, yaxlit hayot falsafasiga egalik.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Авлаев, О. У. Талабалар камолотида ижтимоий интеллектнинг гендер фарклари. *Psixologiya*, (1), 2021. 22-29.
2. Крайг Г. Психология развития / Г. Крайг. – СПб.: Питер, 2000. –992 с.
3. Мамардашвили М.К. Форма и социальные мышления / М.К. Мамардашвили.– М., 1968. – 380 с.
4. Маркова О. Н. Отношение к собственности у предпринимателей с разным типом личностной зрелости: Дис. ... канд. психол. наук / О.Н. Маркова. – Тамбов, 2006. – 207 с.
5. Маркова С. В. Развитие личностной зрелости педагога детского дома в профессиональной деятельности: Дис. ...канд. психол. наук / С.В. Маркова. – Елец, 2012. – 201 с.
6. Морозова Е. А. Психологические механизмы становления зрелости личности у подрастающего поколения средствами образовательной среды [Электронный ресурс] / Е.А. Морозова // Психологическая наука и образование: Электронный журнал. – 2011. – № 3. – Режим доступа: <http://psyedu.ru/journal/2011/3/2413.shtml> [дата обращения 23.02.2015].
7. Портнова, А. Г. Личностная зрелость: подходы к определению / А.Г. Портнова // Сибирский психологический журнал. – 2008. – № 27. – С. 37-42.
8. Психологическая зрелость личности / Под общ. ред. Л.А.Головей. – СПб.: Скифия-принт, СПбГУ, 2014. – 240 с. 117-б.
9. Cramer Ph. Psychological maturity and change in adult defense mechanisms / Ph. Cramer // *Journal of Research in Personality*. – 2012. – № 46 [3]. –Pp. 306–316.

ZAHIRA KADRLARI MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ПЕРСОНАЛА РЕЗЕРВА

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF RESPONSIBILITY DEVELOPMENT OF RESERVE PERSONNEL

Butaeva U.A. (Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti)

Mazkur maqolada zahira kadrlari mas'uliyatini rivojlantirishning psixologik omillarini o'rganish bo'yicha to'plangan empirik natijalar tahlil qilingan. Tajribalarda inpunitiv atributsiya va situativ mas'uliyat o'rtasida manfiy korrelyatsiya qayd etilishi va ekstrapunitiv atributsiyaning nosituativ mas'uliyat bilan teskari aloqadorligi ham voqea-hodisalar, xatti-harakatlarning ular sodir bo'lgan vaqtdan uzoqligi turli darajadagi natijalariga diqqatni qaratish ko'rsatkichi asosida mas'uliyat darajasini tashxis qilish mumkinligini isbotlangan.

Ikki qarama qarshi atributsiya turi ustunlik qiluvchi sinaluvchilar guruhlarida nosituativ mas'uliyat ko'rsatkichi bo'yicha nisbatdan ham yaqqol tafovut aniqlangan.

Tajribalarda ekstrapunitiv, inpunitiv atributsiyalar va situativ mas'uliyat o'rtasidagi aloqadorlik o'rganilgan. To'plangan natijalar asosida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar. Shaxs, zahira kadrlar, mas'uliyat, situativ mas'uliyat, ekstrapunitiv, inpunitiv, atributsiya.

В статье анализируются эмпирические результаты, собранные по изучению психологических факторов развития ответственности личного состава резерва. В экспериментах отрицательная корреляция между карательной атрибуцией и ситуационной ответственностью и обратная связь экстрапунитивной атрибуции с внеситуационной ответственностью также основана на показателе внимания к результатам событий и действий на разных уровнях дистанции от времени их возникновения. Доказано, что можно диагностировать уровень ответственности. В группах тестируемых, где преобладали два противоположных типа атрибуции, наблюдалась четкая разница по показателю внеситуационной ответственности. В экспериментах изучалась связь экстрапунитивных и импунитивных атрибуций с ситуационной ответственностью. На основе собранных результатов сделаны выводы.

Ключевые слова. Лицо, запасной персонал, ответственность, ситуативная ответственность, экстракарательный, импунитивный, атрибуция.

The article analyzes the empirical results collected in the study of psychological factors in the development of responsibility of reserve personnel. In the experiments, the negative correlation between punitive attribution and situational responsibility and the feedback of extrapunitive attribution with extra-situational responsibility are also based on the indicator of attention to the results of events and actions at different levels of distance from the time of their occurrence. It is proven that it is possible to diagnose the level of responsibility. In the

groups of test subjects, where two opposite types of attribution prevailed, a clear difference in the indicator of extra-situational responsibility was observed. The experiments studied the relationship of extrapunitive and impunitive attributions with situational responsibility. Based on the collected results, conclusions are made.

Key words. Person, reserve personnel, responsibility, situational responsibility, extrapunitive, impunitive, attribution.

Mas'uliyatga shaxs xususiyati, ishda va hayotda inson o'ziga o'zi talab qo'ya olishini ta'minlovchi muhim fazilat sifatida, uning inson va jamiyat taqdiridagi o'rniga ortiqcha baho berish shart emas. Ushbu sifatning yetarlicha rivojlanmaganlik darajasi nafaqat alohida olingan inson hayoti, balki davlat miqiyosida ayanchli oqibatlariga olib kelishini isbotlovchi misollar ko'plab topiladi. Aksincha, mas'uliyat yuqori darajada rivojlangan holatlarda inson qanday yuksak natijalar ko'rsatishi, qanday jasoratlarga qodir bo'lishini ham hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotchilar nima uchun hayotiy kuzatuvlar va ilmiy tekshiruvlarga asoslanib, mas'uliyatni inson psixologik yetukligining muhim mezoni qilib ajratishini tushunish mumkin. Tadqiqotlarda zahira rahbar kadrlarning mas'uliyat hissi va motivatsiyasi qanday shakllanishi va rivojlanishi mumkinligi tahlil qilingan. Bunda ichki va tashqi motivatsiya omillari, mas'uliyatni his qilishning tarzlari va ularning ish samaradorligiga ta'siri nazarda tutilgan.

Jumladan, V.P.Pryadeinning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ilk o'spirinlik va yetuklik davrida mas'uliyat tarkibida sotsiotsentrizm, anglanganlik, natijaga yo'nalganlik, internallik, stenizm, ergetizm kabi sifatlarning ustunligi qayd etiladi [10]. Mas'uliyat sifati bilan aloqadorligi qayd etilgan ushbu xususiyatlarning har biri kamolot shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Xususan, odam o'z xatti-harakatlariga jamiyat nuqtai nazarda baho berishi (sotsiotsentrizm), har bir ishda ongli motivlarga asoslanib, natijani aniq tasavvur qilishi (anglanganlik, natijaga yo'nalganlik), o'z hayotida ro'y berayotgan voqea-hodisalar sabablarini o'zidan qidirishga moyilligi (internallik), unda faoliyatga rag'bat beruvchi hissiyotlarning ustunligi (stenizm), shubhasiz, psixologik jihatdan kamolotning muhim alomatlari sifatida gavdalanadi.

Mas'uliyat kamolotning muhim mezoni ekan, demak, uni tashxis qilish orqali ushbu tuzulmaning rivojlanish darajasini aniqlash mumkin. Ma'lumki, psixodiagnostika amaliyotida mas'uliyat hissining rivojlanish darajasini tekshirish uchun lokus nazorat nazariyasi asosida ishlab chiqilgan metodikalardan keng foydalaniladi. Bunday yondashuvga internal lokus nazorat tipida odam o'z hayotida ro'y berayotgan voqea-hodisalar uchun mas'uliyatni o'ziga olishi, sabablarni o'zidan qidirishi haqidagi tasavvurlar asos bo'ladi. Darhaqiqat, maxsus ilmiy tadqiqotlarda ham mas'uliyat yaxshi rivojlangan odamlar nafaqat o'zining, balki boshqalarning xulq-atvorini izohlashda ko'proq internalizmga moyilligi isbotlangan. Masalan, N.V.Leyfritning dissertatsiya ishida isbotlanishicha, muvaffaqiyat qozongan odam haqidagi tasavvurlar, ularning qanchalik yaxlitligi, anglanganligi, dinamikasi, to'laqonligi, ratsional ekanligi mas'uliyat sifatining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, mas'uliyatli shaxs tipi odamning muvaffaqiyatlarini shaxs ichki zahiralari bilan, javobgarlikni o'ziga olish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la ro'yobga chiqarish, qiyinchilik mavjudligiga qaramay undan chiqish yo'lini topish kabi sifatlari bilan bog'lab tushuntiradi.

Tadqiqot natijalari: Yoshlarni psixologik jihatdan yetuk shaxslar qilib voyaga yetkazish jarayonida keng ko'lamdagi guruhlar (pedagoglar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari vakillari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, ommaviy axborot vositalari mutaxassislari,

madaniyat va san'at nomoyondalari va h.) ishtirok etishi va ularning barchasi o'z faoliyati samarasini o'lchashga, aniq ko'rsatkichlarda aks ettirishga muhtoj bo'ladilar. Shunday ekan, bu sohada chuqur ilmiy izlanishlarga xizmat qiluvchi murakkab psixodiagnostika apparatidan tashqari qo'llanishi nisbatdan sodda, ammo testologoiya talablari asosida asoslab berilgan ixcham, tezkor qo'llash va qayta ishlash imkoniyatini beruvchi tashxis vositalariga zaruriyat mavjud. Aynan shu ehtyojdan kelib chiqib, tadqiqot ishimizda kamolotning asosiy mezonlaridan biri sifatida ko'pchilik mutaxassislar tomonidan tan olinadigan mas'uliyat hissi darajasini tashxis qilish uchun yangi psixodiagnostika vositasini ishlab chiqib, sinovdan o'tkazish vazifasi qo'yildi.

Tadqiqot ishimiz doirasida ishlab chiqilgan metodika shartli ravishda "VAS – vaziyatning asosiy sababi" deb nomlanib, yopiq turdagi so'rovnoma shaklida tuzilgan. So'rovnomada sinaluvchiga 10 xil hayotiy vaziyat va ularga odatda olib keladigan 3 xil sabab yuzasidan mulohaza yuritish topshirig'i beriladi. Bunda sinaluvchi har bir vaziyat bilan birga berilgan sabablardan qaysi birini haqiqatga yaqinroq, hayotda ko'proq uchraydigan, deb bilishini belgilashi lozim bo'ladi. Ilovada metodikaning stimul materiali to'liq keltiriladi.

"VAS" metodikasining asosiy psixometriya ko'rsatkichlarni tekshirish uchun tadqiqotimiz doirasida zahira kadrlar bilan empirik sinov ishlari tashkil etildi. Dastlab metodikaning kriterial validligini tekshirish maqsadida mazkur vosita yordamida zahira kadrlar guruhida ta'kidlovchi eksperiment ishlari o'tkazildi. So'ngra validizatsiya mezoni sifatida ilmiy manbalarda keltirilgan tavsiyaga asoslanib [5], zahira kadrlarni shaxs darajasida yaxshi bilgan mutaxassislar-pedogoglarning bahosi to'plandi. Matematika-statistika metodlari, jumladan, K.Pirson r-chiziqli korrelyatsiya koeffitsentini hisoblash metodi yordamida ikki guruh ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqadorlik qiymatlari aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Zahira kadrlarlarning mas'uliyat hissini psixodiagnostika metodikasi va ekspert baholar asosida korrelyatsion tahlil qilish natijalari (Ch.Pirson r-korrelyatsiya koeffitsenti asosida)

Mas'uliyatning dominant atributsiyasi	Zahira kadrlar mas'uliyatiga berilgan ekspert baho	
	r	p
Ekstrapunitiv atributsiya	-0,57**	p≤0,01
Impunitiv atributsiya	0,45*	p≤0,05

2-jadvalda keltirilgan korrelyatsiya ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki, zahira kadrlar mas'uliyatiga berilgan ekspert baho "VAS" metodikasining impunitiv atributsiya shkalasi bo'yicha to'plagan ko'rsatkichlari o'rtasida statistik ahamiyatli bog'lanish aniqlandi. Bu esa turli hayotiy vaziyatlarda ro'y berayotgan xodisalarning sababini o'z shaxsi va xatti-harakatlarida ko'rish sifati nisbatdan yuqori zahira kadrlar ekspertlar tomonidan ham yuqori baholanganini ko'rsatadi. Ayni vaqtda ekspert zahira kadrlar mas'uliyat darajasini berilgan baho va ekstrapunitiv atributsiya, ya'ni ro'y berayotgan hodisalar uchun sababni vaziyat yoki boshqa shaxslardan ko'rish xususiyati o'rtasida manfiy korrelyatsiya aniqlangani, mas'uliyatni situativ yoki birovning harakatlari bilan tushuntirishga urinish ko'rsatkichlari o'qituvchilar bergan baho qancha past bo'lsa, shunchalik yuqorilab borayotganidan darak beradi. Ikki qator o'zgaruvchilari o'rtasida ahamiyatli bog'liqlik mavjudligi ularni ko'rgazmali ifodalashda ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

Ko‘rinib turganidek, aksariyat hollarda “VAS” metodikasi impunitiv atributsiya shkalasi ko‘rsatkichlari yuqorilab borgan o‘rinlar bilan ekspertlar ijobiy baholashi o‘zaro mos kelmoqda. Aksincha, ekstrapunitiv atributsiya ko‘rsatkichlari ustun bo‘lgan o‘rinlarda ekspertlarning ham zahira kadrlar mas’uliyat darajasiga berayotgan bahosi pasayib borayotganini ko‘rish mumkin. Mazkur holatlar ikki qator o‘zgaruvchilari, ya’ni “VAS” metodikasi natijasida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar va ekspert baholar o‘rtasidagi ahamiyatli bog‘lanish mavjudligini tasdiqlaydi. Bu o‘z navbatida biz taklif etayotgan metodika kriterial validlik nuqtai nazaridan talabga javob berishini isbotlaydi.

“VAS” metodikasining ishonchlik darajasini tekshirish uchun bir oylik tanaffus bilan retest tekshiruv o‘tkazildi. Ikki bosqich ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi statistik munosabat Studentning t-mezeni asosida tekshirildi.

2-jadval

**“VAS” metodikasi ishonchilik darajasini retest usulida tekshirish natijalari
(Student t-mezeni bo‘yicha)**

Tadqiqot bosqichi	Statistik ko‘rsatkichlar		Statistik farq	
			t	p
1	M ₁	4,6	0,24	p ≤ 0,05
	S ₁	1,3		
2	M ₂	4,5		
	S ₂	2,6		

Statistik tahlildan ma’lum bo‘lishicha, retest tekshiruv ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli tafovut yo‘q. Bu esa natijalarning vaqt kesimida barqarorligini, metodika yordamida ishonchli ma’lumot olish mumkinligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida impunitiv atributsiya ustunlik qiluvchi zahira kadrlar miqdorida ham sezilarli o‘zgarish kuzatilmayotgani diagrammada ham aks etyapti.

Shunday qilib, ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida zahira kadrlarda mas’uliyatli yondashish sifatining rivojlanish darajasini tekshirish uchun xizmat qiluvchi nisbatdan sodda va mobil metodikani ishlab chiqishga qaratilgan izlanishlarimiz quyidagi xulosalar uchun asos bermoqda:

1) ikki xil atributiv reaksiya-ekstrapunitiv va impunitiv atributsiyaning qaysi biriga ko‘proq moyillik mavjudligini tekshirish asosida zahira kadrlarda mas’uliyat sifatini obyektiv baholash mumkin;

2) “VAS-vaziyatning asosiy sababi” metodikasidan zahira kadrlarning turli hayotiy vaziyatlarga qanchalik mas’uliyatli yondasha olishini prognozlashda ishonchli tashxis vositasi sifatida foydalanish imkoniyati mavjud;

3) mazkur yo‘nalishdagi tadqiqot ishi keyingi bosqichlarda “VAS” metodikasi uchun validlikning boshqa turlarini tekshirish, standart baholar tizimini ishlab chiqishga qaratilishi o‘rinlidir.

Nositativ mas’uliyat shaxs psixologik yetukligining ko‘rsatkichi sifatida: Psixologik jihatdan kamolot shaxsning qat’iy ravishda o‘zining qator tayanch xususiyatlari bilan ajralib turishini hayotning o‘zi ko‘p karra isbotlaqda. Aslida ushbu sifatlarning har birini alohida-alohida tahlil qilib, ularni psixodiagnostika usullari bilan tekshirish choralarini izlash mumkin. Shu bilan birga bu mavzuda nafaqat kengaytirish, ya’ni kamolotning yangi-yangi muhim mezon va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish, balki chuqurlashtirish – hozirgacha ma’lum bo‘lgan qaysidir mezonning yangicha qirralarini ochish ham samarali bo‘ladi, deb

hisoblaymiz. Chunki bunday yonlashuvda kamolot mezoni sifatida ajratilgan biror sifat va alomatning aynan qaysi jihatlari, tomonlari, unsurlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi aniqlanadi. Bu esa, shubhasiz, psixologik tashxis ishini yanada nozikroq darajaga o'tkazish va o'z o'zidan insonning kelajadagi xulq-atvorini aniqroq bashorat qilish imkoniyatini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotimizning mazkur qismida e'tiborni kamolotning mas'uliyatdan boshqa mezonlariga emas, aynan shu ko'rsatkichning, nazarimizda, muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir jihatiga qaratishni rejalashtirganmiz.

Umumiy ravishda, mas'uliyatni qanday qabul qilish va oqibatlarini qanchalik chuqur anglay olish aloqadorligini tahlil qilib, quyidagi xulosalarni shakllantirishni o'rinli deb bilamiz:

1. Voqea-hodisalar, xatti-harakatlarning uzoq va yaqin kelajakdagi natijalarga mo'ljallanishdagi individual tafovutlar shaxsda mas'uliyat sifatining rivojlanganlik darajasi haqida tasavvur hosil qila oladi.

2. Mas'uliyatni ko'proq o'ziga olishga sabab va omillarni o'z shaxsidan qidirishga moyillik vaziyatida odatda voqea-hodisalarning uzoq kelajakdagi natijalariga e'tiborliroq bo'lish holati kuzatiladi.

3. Nosituativ mas'uliyat ko'rsatkichlari odam o'z xatti-harakatlari oqibatlarini qanchalik anglay olishini aks ettiruvchi alomat bo'lib, uning yuqori darajalari kamolotning muhim alomati sifatida qabul qilinishi mumkin.

4. Zahira kadrlarning ijtimoiy psixologik rivojlantirish komponentlaridan biri uning mas'uliyatligi hisoblanadi. Tajribalarda inaktiv atributsiya va situativ mas'uliyat o'rtasida manfiy korrelyatsiya qayd etilishi va ekstrapunitiv atributsiyaning nosituativ mas'uliyat bilan teskari aloqadorligi ham voqea-hodisalar, xatti-harakatlarning ular sodir bo'lgan vaqtdan uzoqligi turli darajadagi natijalariga diqqatni qaratish ko'rsatkichi asosida mas'uliyat darajasini tashxis qilish mumkinligini isbotlaydi. Ikki qarama qarshi atributsiya turi ustunlik qiluvchi sinaluvchilar guruhlarida nosituativ mas'uliyat ko'rsatkichi bo'yicha nisbatdan ham yaqqol tafovut ko'zga tashlanadi.

5. Kadrlarning mas'uliyatni his qilishlari uchun motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Motivatsiyaning ichki (professional rivojlanishga intilish, shaxsiy maqsadlar) va tashqi (sovg'alar, mukofotlar) ko'rinishlari bo'lishi mumkin. Ishchilarning mas'uliyatli bo'lishini rag'batlantirish uchun ularning maqsadlari va intilishlarini hisobga olish kerak.

6. Kadrlarning mas'uliyatini rivojlantirish uchun amalga oshirish usullari va taqdim etilgan vazifalarning aniq bo'lishi muhim. Mas'uliyatli ishchi o'ziga aniq va real vazifalarni qo'yish va ularga nisbatan murojaat qilishni yoqtiradi.

7. Samarali kommunikatsiya va fidbek kadrlarning mas'uliyat hisini oshirishda yordam beradi. Mehnat jamoasi orasida aniq va konstruktiv muloqotlarni yo'lga qo'yish muhim.

8. Kadrlarning o'z vazifalari uchun mas'uliyatni qo'lga olishlari va xatolarni e'tirof qilishlari, o'rganish va rivojlanishga bo'lgan ishtiyoqlari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avlayev O.U., Abdusalilova Sh. A. The role of social intelligence in personality maturity. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Scopus. Vol. 24, Issue 06, 2020 ISSN: 1475-7192. Page No. 428 – 436
2. Avlayev O.U., Burkhanov A.A., Ismoilova D.M., Norkuziyeva M.A. Factors Affecting the Intellectual Dynamics of the Individual. "TEST engineering & management". Scopus. May-June 2020 ISSN: 0193-4120 Page No. 693 – 702

3. Акмеологический словарь / Под общ.ред. А.А.Деркача. –М.: Изд-во РАГС, 2004. – 161с.
4. Butayeva U. A., Avlayev O.U., Abdumannotova N. Scientific and practical studies of psychological maturity of students Journal of critical reviews. Scopus. JCR. 2020; 7(12): 3063-3070 doi: [10.31838/jcr.07.12.463](https://doi.org/10.31838/jcr.07.12.463)
5. Бурлачук Л.Ф. «Словарь-справочник по психодиагностике».3-еизд. - СПб.: Питер,2007. – 688 с.
6. Востресов Е.Ю., Симонова И. А. Историческая ответственность в полигенеративной среде: версии и инверсии практики //Педагогическое образование в России. - 2015. - № 5. - С. 6-12.
7. Клепсова Е.Ю. Влияние индивидуальных особенностей педагога на процесс адаптации школьников// Начальная школа. 2007. №4. С.3-8.
8. Косова У.П. Мотивация волонтерской деятельности//Вестник КРАУНС. СЕРИЯ «Гуманитарные науки» 2012. - №2 (20). – Ч.124-127.
9. Петровский В.А. Психология неадаптивной активности. – М.: ТОО «Горбунок», 1992. – 224 с.
10. Прядеин В.П. Комплексное исследование ответственности как системного качества личности: автореф. дис. д.психол.н. – Новосибирск: Урал. гос. пед. ун-т., 1999. - 41 с.

УДК:37.034

AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ

PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMING INFORMATION CULTURE

Allambergenov A.J. (TATU Nukus filiali ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va pedagog kadrlarni tayyorlash bolimi boshligi, f.f.n. dotsent.)

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi inson hayotining turli jabhalarida, jumladan, ta'lim sohasida ham muhim o'zgarishlarni amalga oshirdi. AKTning ta'lim jarayonlariga integratsiyalashuvi o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish uchun yangi vazifalar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Axborot madaniyati tushunchasi shaxsning turli sharoitlarda axborotni samarali izlash, baholash va undan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Ushbu maqolada biz axborot madaniyatini shakllantirishning pedagogik jihatlarini ko'rib chiqamiz va o'qituvchilar ushbu muhim mahoratni rivojlantirishga yordam beradigan strategiya va usullarni muhokama qilamiz.

Kalit so'zlar. Axborot madaniyati, pedagogik jihatlar, mutaxassislar, metodika, ta'lim.

Бурное развитие информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в XXI веке внесло важные изменения в различные стороны жизни человека, в том числе в сферу образования. Интеграция ИКТ в образовательный процесс привела к появлению новых задач и возможностей для формирования информационной культуры у студентов. Понятие информационной культуры подразумевает способность человека эффективно искать, оценивать и использовать информацию в различных ситуациях. В этой статье мы рассматриваем педагогические аспекты информационной грамотности и обсуждаем стратегии и методы, которые могут помочь учителям развить этот важный навык.

Ключевые слова. Информационная культура, педагогические аспекты, специалисты, методология, образование.

In the 21st century, the rapid development of information and communication technologies (ICT) has brought about significant transformations in various spheres of human life, including education. The integration of ICT in educational processes has led to the emergence of new challenges and opportunities for the formation of information culture among students. The concept of information culture refers to the ability of an individual to effectively search, evaluate, and use information in various contexts. In this article, we will examine the pedagogical aspects of formation of information culture and discuss the strategies and methods that educators can employ to foster the development of this essential skill.

Keywords. Information culture, pedagogical aspects, professionals, methodology, education.

O'qitish jarayoni - bu insonning o'rganish va uning faoliyatini oshirish salohiyatini oshirishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Har qanday profildagi mutaxassislarining malakasini oshirish murabbiylik va ta'limda zamonaviy amaliy fanlardan foydalanishni taqozo etadi. Maktab ta'limini axborotlashtirish deganda ta'limning psixologik-pedagogik muammolarini hal qilishga qaratilgan zamonaviy faktlar texnologiyalarini metodologiya, takomillashtirish va ideal foydalanish bilan ta'lim sohasini ta'minlash usuli tushuniladi. "Axborot madaniyati" davri birinchi marta 70-80-yillarda ilmiy nashrlarda paydo bo'lgan va ko'plab fanlar bo'ylab tarqalib ketgan. "Informatika va madaniyat" nomli ilmiy ishlarda bu davr birinchi marta tizimlashtirilgan va zaruriy ilmiy yo'nalish sifatida aniq baho berilgan, zamonaviy jamiyatni axborotlashtirishdagi ustuvor taraqqiyot o'rnini va faktlar fanini shakllantirish usullari o'rganilgan va inson turmush tarzining bir qator sohalarida aqilli tuzilmalar bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqildi. Kasbiy ta'lim butunlay istisno yondashuvlarga asoslanadi. Dastlabki bosqichda bajariladigan ishlarning quyidagi turlari qo'llaniladi: operativ-faol, funksional-subyekt va predmet-operativ. Mutaxassislik an'analarning asosi - bu mutaxassisning mukammalligining barcha talablariga qat'iy rioya qilish istagi. Kasbiy odatlar ekspert madaniyatining asosidir. Mutaxassisning hozirgi statistik turmush tarzi zamonaviy texnologiyalardan, shuningdek, tegishli vaziyatda qo'llaniladigan dasturiy ta'minot va apparat vositalaridan to'g'ri foydalanish imkoniyatidan iborat.

Axborot madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq pedagogik jihatlarni o'rganish ta'lim muassasalarida axborot savodxonligi dinamikasini tushinishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu adabiyot sharhi turli ta'lim kontekstlarida axborot savodxonligi bo'yicha o'qitishning ko'p qirrali xususiyatini birgalikda yorituvchi bir qator ilmiy maqolalarning asosiy fikrlarini sintez qiladi. Walter (2007) akademik kutubxonalarda axborot savodxonligini oshirishda madaniy istiqbollarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, bunday

tashabbuslarning samaradorligiga ta'lim tajribasini shakllantiradigan meyorlar, qadriyatlar va amaliyotlarni o'z ichiga olgan kampus madaniyati katta ta'sir ko'rsatadi. Walter (2007) ta'kidlashicha, qo'llab-quvvatlovchi kampus madaniyati, ayniqsa, ular kengroq o'quv rejasiga kiritilganda axborot savodxonligi dasturlari muvaffaqiyatini oshirishi mumkin. Bu istiqbol oliy ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida axborot savodxonligini oshirishda institutsional majburiyat va yetakchilikning muhimligini ta'kidlaydi.

Axborot savodxonligining asosiy tushunchasiga asoslanib, Uolton va Xepvort (2013) miqdoriy yondashuv orqali axborot savodxonligini o'rganishning kognitiv o'lchovlarini o'rganadilar. Ularning ta'kidlashicha, axborot savodxonligi nafaqat ko'nikmalar yig'indisi, balki tobora axborotga asoslangan jamiyatda samarali ishtirok etish uchun asosdir. Ularning topilmalari ishchi kuchi o'rtasida funksional axborot savodxonligining yetishmasligini ko'rsatib, axborot savodxonligini mustaqil mavzu sifatida ko'rib chiqishdan ko'ra o'quv dasturiga kiritish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu integratsiya talabalarning kasbiy hayotida duch keladigan murakkab axborot davrini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish uchun juda muhimdir. McNicol, (2014) texnologiya va hamkorlikda o'rganishni o'z ichiga olgan kelajakdagi sinflar uchun modelni taklif qilish orqali suhbatni yanada rivojlantiradi. Uning ta'kidlashicha, axborot savodxonligi nafaqat bilimlarni baholash va undan foydalanishni emas, balki uni yaratishni ham o'z ichiga olishi uchun rivojlanishi kerak. M.Nicol (2014) o'quv jarayonida ijodkorlik va hamkorlikning muhimligini ta'kidlab, o'quvchilarni XXI asr ishchi kuchi talablariga tayyorlaydigan pedagogik siljishlarni qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikrlari axborot savodxonligi bo'yicha ta'lim o'quvchilarning axborotni samarali ishlab chiqarish va almashish qobiliyatini rivojlantirish uchun kengroq kompetensiyalarni, jumladan, media va vizual savodxonlikni o'z ichiga olishi kerak degan tushunchaga mos keladi. M.Dawes (2017) fonomiografiya tadqiqotida birinchi kurs talabalariga axborot savodxonligini o'rgatish bo'yicha professor-o'qituvchilarning fikrlarini o'rganadi. U uchta takrorlanadigan mavzuni aniqlaydi: axborotning haddan tashqari yuklanishi, axborotdan foydalanish imkoniyati va axborot xilma-xilligi, ular talabalarga axborotdan samarali foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berishda professor-o'qituvchilar duch keladigan muammolarni ko'rsatadi.

M.Dawes (2017) fakultetning tanqidiy tanlov jarayonlarini modellashtirish va talabalarga ma'lumot uchun o'zlarining baholash mezonlarini ishlab chiqishda rahbarlik qilish zarurligini ta'kidlaydi. O'qitishga nisbatan bunday munosabat o'quv jarayonini chuqurroq tushunishni aks ettiradi, bunda o'rganish akti fan doirasida kontekstualashtiriladi bu esa talabalar va ma'lumotlar o'rtasidagi boy o'zaro ta'sirni o'z ichiga oladi. Birgalikda ushbu maqolalar axborot madaniyatini shakllantirishning pedagogik jihatlarini har tomonlama ko'rib chiqadi, madaniy kontekst, kognitiv faollik, hamkorlik amaliyoti va axborot savodxonligini oshirishda professor-o'qituvchilarning ishtiroki muhimligini ta'kidlaydi. Har bir tadqiqot ta'lim muassasalari axborot savodxonligi gullab-yashnaydigan muhitni qanday rivojlantirishi va natijada o'quvchilarni axborotga boy jamiyatda muvaffaqiyatga tayyorlashi mumkinligi haqidagi nozik tushunchaga hissa qo'shadi.

Axborot madaniyati tushunchasi birinchi marta 1980-yillarda amerikalik ta'lim nazariyotchisi Pol G.Xekett tomonidan kiritilgan bo'lib, uni shaxslarga axborotdan samarali foydalanish imkonini beruvchi qadriyatlar, ko'nikma va bilimlar yig'indisi sifatida ta'riflagan. Vaqt o'tishi bilan axborot madaniyatining ta'rifi kognitiv, affektiv va ijtimoiy jihatlarni o'z ichiga olgan kengroq aspektlarni qamrab olgan holda rivojlandi. Kognitiv o'lchov axborotni tanqidiy baholash va uning dolzarbligi va aniqligini aniqlash qobiliyatini anglatadi. Affektiv o'lchov shaxsning axborotdan foydalanishga bo'lgan munosabati va

motivlarini o'z ichiga oladi, ijtimoiy o'lchov esa axborotni qidirish va undan foydalanish jarayonida boshqalar bilan bo'lishish va hamkorlik qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Axborot madaniyatini shakllantirish axborot savodxonligining kognitiv, affektiv va ijtimoiy jihatlarini hisobga oladigan pedagogik yondashuvni talab qiladi. O'qituvchilar talabalarda ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun bir qator strategiya va usullardan foydalanishlari kerak. Asosiy pedagogik mulohazalardan biri - bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'lib, bu o'quvchilarga axborotni tanqidiy baholash va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bunga erishish uchun o'qituvchilar o'quv dasturiga axborot muammolarini hal qilish, qarorlar qabul qilish va media savodxonligi kabi faoliyatni kiritishlari mumkin. Yana bir muhim pedagogik mulohaza samarali qidiruv ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bugungi raqamli asrda talabalar turli manbalardan, jumladan, internet, ijtimoiy media va akademik ma'lumotlar bazalaridan katta hajmdagi ma'lumotlar bilan xabardor qilinmoqda. O'qituvchilar o'quvchilarga samarali qidiruvlar o'tkazish, manbalarni baholash va tegishli ma'lumotlarni aniqlashni o'rgatishlari kerak. Bunga ma'lumotlar bazasini qidirish, kalit so'zlarni tahlil qilish va manbalarni baholash kabi amaliy mashg'ulotlar orqali erishish mumkin.

Talabalar o'rtasida axborot madaniyatini rivojlantirish uchun bir qancha metodik yondashuvlardan foydalanishlari mumkin. Yondashuvlardan biri o'quv dasturiga texnologiya takomillashtirilgan ta'lim tajribalarini integratsiya qilishdir. Bunga onlayn ta'lim platformalari, ta'lim dasturlari va multimedia resurslaridan foydalanish kiradi. Ushbu vositalar talabalarga yo'naltirilgan ta'limni osonlashtirishi, hamkorlikni rag'batlantirishi va o'quvchilarning ma'lumot bilan yanada interaktiv va immersiv tarzda ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Yana bir yondashuv loyihaga asoslangan ta'limni birlashtirish bo'lib, u o'quvchilarga yechimlarni ishlab chiqish uchun ma'lumotlarni qidirish, baholash va foydalanishni talab qiladigan real muammolarni belgilashni o'z ichiga oladi. Bu yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga axborot madaniyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Axborot madaniyati ko'nikmalarini baholash pedagogik amaliyotning hal qiluvchi jihatlari hisoblanadi. Pedagoglar o'quvchilar taraqqiyotini kuzatish va yaxshilash yo'nalishlarini aniqlash uchun bir qator baholash usullaridan, jumladan, formativ va summativ baholashdan foydalanishlari kerak. Formativ baholash o'quvchilarga fikr-mulohaza bildirish va o'qitishni xabardor qilish uchun, umumlashtiruvchi baholash esa o'quvchilarning ta'lim natijalarini baholash uchun ishlatilishi mumkin. Baholashning yondashuvlaridan biri o'quvchilar faoliyatini baholashning aniq va tizimli asosini ta'minlovchi rubrikalardan foydalanishdir. O'qituvchilar tanqidiy fikrlash, ma'lumot qidirish va hamkorlik kabi sohalarida o'quvchilarning ko'nikmalarini baholovchi rubrikalar ishlab chiqishi mumkin. Yana bir yondashuv o'quvchilarning o'z-o'zini baholashidan foydalanish bo'lib, u o'quvchilardan o'z bilimlari haqida fikr yuritishni va yaxshilash yo'nalishlarini aniqlashni so'rashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, kognitiv, affektiv va ijtimoiy jihatlarni hisobga olgan holda pedagogik yondashuvni talab qiladi. O'qituvchilar ushbu muhim ko'nikmaning rivojlanishiga yordam berish uchun tanqidiy fikrlash, samarali qidiruv qobiliyatlari va texnologiya ta'minlangan o'rganish tajribasini o'z ichiga olgan bir qator strategiya va usullardan foydalanishlari kerak. Baholash doimiy va tizimli bo'lishi kerak, bunda shakllantiruvchi va summativ baholash, o'quvchilarning o'zini o'zi baholash kabi bir qator usullardan foydalanish kerak. Axborot madaniyatini shakllantirishga kompleks yondashuvni qo'llash orqali o'qituvchilar talabalarni

tez o'zgaruvchan axborot landshaftida muvaffaqiyatga tayyorlashlari mumkin. Bundan tashqari, axborot madaniyatining rivojlanishi ta'lim va butun jamiyat uchun kengroq ta'sir ko'rsatadi. Axborot tobora raqamli va foydalanish mumkin bo'lgan sari axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchilarning roli yanada muhimroq bo'ladi. Axborot madaniyatini rivojlantirishga ko'maklashish orqali o'qituvchilar talabalarga global axborot jamiyatining faol va xabardor ishtirokchilari bo'lislari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hackett P.G. Axborot madaniyati: adabiyotni ko'rib chiqish. Kutubxona va axborot fanlari jurnali, 5(1), 1983-y. 15-33.
2. Milliy tadqiqot kengashi. Odamlar qanday o'rganadilar: miya, aql, tajriba va maktab. Milliy Akademiya matbuoti. 2000-y.
3. Owusu-Ansah, E. K. Axborot savodxonligi va ijtimoiy fanlar: tanqidiy tahlil. Axborot savodxonligi jurnali, 4(1), 2004-y. 17-30.
4. YUNESKO. Axborot jamiyati kontekstida o'rganish, o'qitish va jamoatchilik amaliyoti. YUNESKO-Edinburg tadqiqoti hisoboti. 2008-y.
5. Semushina L.G., Yaroshenko N.G. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'qitish mazmuni va texnologiyalari: O'rta kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari uchun o'quv qo'llanma. - M.: Мастерство, 2001. - 272 p.
6. Gendina N.I. Axborot madaniyati va axborot ta'limi // Axborot jamiyati: madaniy muammolar: Xalqaro materiallar. ilmiy konf. - Krasnodar, 1997. - S. 102-104.

УДК:37.034

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING PEDAGOGIK ASARLARI ORQALI TALABALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASI

МЕТОДОЛОГИЯ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРУДЫ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ

THE METHODOLOGY OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE PEDAGOGICAL WORKS OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI

Axrarova Z.B. (O'zMU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi)

Maqolada XX asrda Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg'onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo'lgan, o'z davri ijtimoiy ongining uyg'onishida muhim rol o'ynagan ajdodimiz, jadid ma'riftparvari Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan Behbudiy o'z asarlarida islom dinini noto'g'ri talqin etilmasligi, ma'rifiy jihatlariga e'tibor qaratishga chaqirgan. Behbudiyning maqsadi xalqni ma'rifatli qilish va ularni dunyoning yuksak rivojlangan xalqlari darajasiga olib chiqish, har tomonlama rivojlangan jamiyat, insonparvarlik va demokratiyaning mustahkam tamoyillariga asoslangan davlat qurish edi. Maqolada Behbudiy merosida ilm-ma'rifat, axloq, san'atning yoshlar ma'naviy madaniyati, milliy o'zlikni anglashga ta'siri masalalarining yoritilishiga e'tibor qaratilgan,

asarlarining zamonaviy ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Калит сўзлар: jadidchilik, ma'naviy madaniyat, ilm, ma'rifat, din, axloq, san'at, siyosat, ma'naviy barkamollik.

В статье анализируется вклад в развитие духовной культуры просветителя Махмудходжи Бехбуди, который был одним из выдающихся лидеров движения национального возрождения, возникшего в Туркестане в XX веке, сыгравшего важную роль в пробуждении общественного сознания узбекского народа в тот период. Обладая широким кругозором и глубокими знаниями, он всегда выступал против консерватизма и невежества и в своих произведениях призывал к правильному пониманию и толкованию исламской религии. Он ставил перед собой цель просветить народ и вывести его на уровень высокоразвитых народов мира, построить передовое во всех отношениях общество, государство, основанное на незыблемых принципах гуманизма и демократии. В наследии Махмудходжа Бехбуди уделяется внимание освещению вопросов науки, морали, влияния искусства на духовную культуру молодежи, на понимание национальной идентичности. В статье исследовано современное значение произведений Бехбуди.

Ключевые слова. Джадидизм, духовная культура, наука, религия, просвещение, мораль, политика, искусство, духовное совершенство.

The article analyzes the contribution to the development of spiritual culture of the educator Mahmudhoja Behbudi, who was one of the outstanding leaders of the national revival movement that emerged in Turkestan in the XX century, who played an important role in awakening the public consciousness of the Uzbek people at that time. Possessing a broad outlook and deep knowledge, he has always opposed conservatism and ignorance and in his works called for the correct understanding and interpretation of the Islamic religion. His goal was to enlighten the people and bring them to the level of highly developed peoples of the world, to build an advanced society in all respects, a state based on the unshakable principles of humanism and democracy. In the legacy of Mahmudhoja Behbudi, attention is paid to highlighting the issues of science, morality, the influence of art on the spiritual culture of youth, on the understanding of national identity. In satya, the modern meaning of Behbudi's work is investigated.

Keywords. Jadidism, spiritual culture, science, religion, enlightenment, morality, politics, art, spiritual perfection

O'zbekistonda mustaqillik yillarida pedagogik ta'lim jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan yangi uslubiy yondashuvlar paydo bo'ldi, ilm-fanning muammoli sohasiga ilgari ishlab chiqilmagan mavzular kirib keldi, ko'plab tarixiy, ijtimoiy-pedagogik voqealar yangicha talqin qilindi, yangi ta'lim standartlari, dasturlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratildi. Mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llash natijasida ularning o'zini, o'z ildizlarini tushunishi, fuqarolik, madaniy, ko'p madaniyatli va konfessiyali jamiyatga integratsiyalashuviga imkoniyatlar kengaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida yangi mazmundagi uzluksiz ta'lim tizimini yaratishning huquqiy-meyoriy asoslarini modernizatsiyalash ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Natijada milliy mental xarakterimizga mos keladigan yuksak axloqiy dunyoqarashga ega bo'lgan respublikamiz

yoshlarini ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy axloqiy fazilatlar, empatik g'amxo'rlik bilan bog'liq ma'naviy tuyg'ular, ruhiy altruistik yo'nalishdagi fazilatlarini namoyon qiluvchi psixologik-pedagogik tizimni takomillashtirishga katta imkoniyatlar yaratildi. Shu o'rinda, buyuk ma'rifatparvar ajdodlar ma'naviy boyligidan foydalanish, ularning ta'sirchan mexanizmlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish asnosida bo'lajak kasbi uchun zarur bo'ladigan pedagogik qarashlar tizimini tarkib toptirish zarurati mavjud bo'lib, bunda pedagogik ta'limotlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ma'rifatparvarlar, allomalar ijodini o'rganish, ularning faoliyatiga zamonaviy pozitsiyadan turib, xolisona baho berish ehtiyoji mavjud. Turkiston zaminida ta'lim-tarbiyaning rivojiga ulkan hissa qo'shgan Maxmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini o'rganish mexanizmlarini takomillashtirish vositasida yoshlarda o'tmishga hurmat bilan munosabatda bo'lish, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash, tarixiy tafakkur ko'nikmalarini egallashga xizmat qilishi shubhasiz. Bo'lajak mutaxassis sifatida talabalar har qanday vaziyatda tanqidiy fikrlash va muammolar yechimini topish, o'zaro hamkorlik asosida yetakchilik qobiliyatini namoyon etish, innovasion bilimlarga chanqoqlik va vaziyatga moslashuvchanlik, tadbirkorlik va ishbilarmonlik, insonlar bilan samarali muloqotni tashkil etish, ishlab chiqarish jarayonida ma'lumotlarni baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimni ishlab chiqishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari tahsil oluvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish strategiyasini o'quv jarayoniga tatbiq etish dolzarb muammo hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son, 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmonlari, shuningdek, boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan dolzarb vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda ma'rifatparvarlar qarashlarini o'rganish, pedagogik ta'limotlar tarixiga xolisona baho berish, xususan, Turkistonda jadidchilik harakati va uning yirik namoyandasi Maxmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari va ijodiga bo'lgan qiziqish xorijlik olimlarning doimiy diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, amerikalik olimlar - Adib Xolid [1], E.Olvort, fransiyalik A.Benningson, germaniyalik I.Baldauf [2] orleanlik professor E.Lazzeri, yaponiyalik H.Komansu kabi sharqshunos, tarixchi olimlarning jadidshunoslikka oid tadqiqotlarida mazkur masalaning u yoki bu jihatlari tadqiq qilingan. Umumjadidchilikka bag'ishlangan bu tadqiqotlarning barchasida Behbudiy Turkiston jadidlarning yetakchisi sifatida e'tirof etiladi va uning faoliyatidagi o'ziga xos jihatlar atroflicha talqin qilingan.

MDH davlatlarida A. Maniyozov, G.Ashurov, M.Shukurov, O.Sayfullayev, R.Hodizoda, A.Mirahmedov, I.Nurillin kabi tadqiqotchi va olimlar jadidlarni adabiy-tarixiy faoliyatini tadqiq qilgan. Ularning ham ishlarida M.Behbudiyning faoliyati alohida e'tirofga sazovor bo'ladi.

O'zbekistonlik tarixchi olimlardan D.Alimova [3], D.Rashidova, D.Ziyayeva, R. Sharipov, R.Shamsuddinov, Q.Rajabov, H.Sodiqov, adabiyotshunoslardan A.Aliyev, B.Qosimov, B.Nazarov, B.Do'stqorayev, I.Sulton, M.Xudoyqulov, N.Karimov, O.Sharafiddinov, P.Ravshanov, S.Qosimov, Sh.Rizayev, E.Karimov, G'.Mahmudov, H.Boltaboyevlar tomonidan tarixiy va adabiy jihatdan tadqiq eiltgan. Jadidlarning ijtimoiy-

falsafiy qarashlari faylasuf olimlardan A.Jalolov, A.Aliyev, G.Maxmudova, J.Yaxshiliev [4], Z.Ahrorova, N.Avazov, S.Ahmedov, U.Dolimov, Sh.Turdiyev, E.Yusupov, H.Saidov, Sh.Abdullayeva, P.Begbudiyeva va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda jadid mutafakkirlar ma'naviy merosining ijtimoiy-siyosiy va falsafiy ahamiyati o'rganilgan va shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ularning har biri Turkiston jadidlarining yetakchisi sifatida M.Behbudiy ijodi va faoliyatiga alohida to'xtalib o'tgan. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, uning ma'naviy – axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan Oliy ta'lim tashkilotlari tarbiya jarayonlarida samarali foydalanish mexanizmlari, deyarli o'rganilmagan.

Yuksak ma'naviyat va axloqiy barkamollik har qanday xalq, har qanday davlat rivojining bosh mezonini bo'lib xizmat qilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko'lamlil islohotlarimizning yaqqol ifodasidir”, – deb ta'kidlashlari bejiz emas.

Bo'lajak mutaxassis sifatida talabalar har qanday vaziyatda tanqidiy fikrlash va muammolar yechimini topishni, o'zaro hamkorlik asosida yetakchilik qobiliyatini namoyon etishni, zamonaviy bilimlarga chanqoqlikni va vaziyatga moslashuvchanlikni, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni, insonlar bilan samarali muloqotni tashkil etishni, ishlab chiqarish jarayonida ma'lumotlarni baholashni va tahlil qilishni, yangiliklarga qiziquvchanligini va tasavvur hosil qilish ko'nikmalarini egallashlarini ustuvor vazifalar qilib qo'yilgan.

Ma'lumki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi yoki o'sha davrda nomlangan, Turkistondagi mustamlakachilik siyosati faqatgina siyosiy hukmronlikni emas, iqtisodiy hukmronlikni ham anglatar edi. Ishlab chiqarish, sanoat korxonalarining yaratilishi, texnika, transport tarmog'ining kengayishi mehnatga yangicha munosabatni talab qilar edi. Chor Rossiyasi uchun aynan mana shu jarayon yangi rus Turkistonini tashkil etishga yordam berdi berdi.

Ishlab chiqarishning yangilanishi, yangi aloqalari vujudga keldi, sanoat, temir yo'llar, qurilish va boshqa sohalarda dastlabki ishchi guruhlari paydo bo'ldi.

Keyingi vaqtlarda olib borilgan tadqiqotlar, kuzatuvlar tufayli Chor Rossiyasi Turkistonni mustamlakaga aylantirish jarayonida mahalliy xalqlarga nisbatan kamsituvchilik siyosatini olib borgan, deya olamiz. Aynan bu g'oya o'sha davr ma'murlarining O'rta Osiyodagi strategik rejalarini asosini tashkil qilgan. Bunday harakat Turkistonda amal qilgan ijtimoiy hayot qonunlari va an'alarini izdan chiqarish, mahalliy jamiyatning diniy-ma'naviy negizini barbod qilishi, milliy madaniyat va ta'limni obro'sizlantirish va sekin-asta betaraflashtirish, pirovard natijada Turkistonni yangicha ruslashtirishdan iborat bo'lgan.

O'lkani Rossiyaning xomashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishi, cheksiz talanishi va qashshoqlanishi jadidlarning hamda milliy burjuaziyaning nafratini uyg'otib, yurtning iqtisodiy mustaqilligini tiklash g'oyasi va kurashini shakllantirdi.

Turkistonning o'sha davrdagi ziyoli qatlami rus hukmronligini chetdan sun'iy ravishda yaratilganligi, bu milliy qadriyatlarni ifodalay olmasligiga ishonch hosil qilib, o'z mamlakatini o'zgalar emas, o'zlari boshqarishlari lozimligini tushunib yetdilar. Buning uchun esa kurashish lozimligini, bu yo'lda bor imkoniyatdan foydalanish Vatanining ozodligi shunchaki oddiy kurash bilan emas, balki yetuk siyosiy iroda bilan amalga oshirilishi lozimligini bor bo'yi bilan anglab yetdilar. Mahmudxo'ja Behbudiy shuning uchun ham “haq olunur, berilmas”, degan bo'lsa, Fitrat, “...yerimiz bosildi, molimiz talandi. Sharafimiz yemirildi, nomusimiz g'asb qilindi. Insoniyligimiz oyoq-osti qilindi. Tuzimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har bir buyruqqa bo'ysundik. Butun borlig'imizni berdik”

[4].

Bunday holat XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston zaminida mustamlakachilik va ulug‘ millatchilikka asoslangan siyosiy-ma‘muriy tizimni boshlab berdi.

Ozodlikning yo‘qotilishi, siyosiy haqsizlik va adolatsizlik butun jamiyat ahlini rus davlatiga qarshi kuchli muxolifatga aylantirdi. Muxolifat orasida mahalliy yuqori tabaqalarning ilg‘or vakillari ham bo‘lib, ozodlik g‘oyasi kuch-quvvatga to‘lib bordi. Ozodlik, erkparastlik g‘oyalari jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etib, mazlum xalqni ozodlik kurashiga da‘vat etdilar. Huquqsizlikka, kamsitishlarga va och, yalang‘och yashashga mahkum etilgan Turkiston xalqining bosqinchilarga nisbatan g‘azabi kundankunga orta bordi. Haddan ortiq ijtimoiy va milliy mustamlakachilik zulmi xalq ommasining istilochilarga qarshi milliy ozodlik harakatining boshlanib ketishiga sabab bo‘ldi.

Chor hukumati, eng avvalo, din peshvolarini eng xavfli dushman hisoblab, ularni imkon boricha har qanday ishlardan chetlashga harakat qildi.

Yangi hukumat maktab va madrasani yot hisoblagan ya‘ni, ruslarga qarshi dushmanlik paydo qiluvchi muassasa deb bilib ularni obro‘sizlantirish uchun harakat qilgan. Hukumat ishlovchi lavozimlarga bu maktab va madrasalarni bitirganlar olinmagan. Madrasa va maktabni bitirganlarga jamiyat va davlatning ehtiyoji yo‘q deb e‘lon qilgan. Hukumatning bu masaladagi harakati milliy maktablarni sekin-asta tugatishi edi. Bu hukumat qozilik sudini saqlagan bo‘lsa-da, lekin qozilar qattiq nazorat ostida ushlab turildi.

Chor ma‘muriyatining qozilariga nisbatan qo‘llagan adolatsizligi jamoa ahlini noroziligi va nafratini orttirdi. Viloyat harbiy gubernatori A.A.Abramov qo‘zg‘olon ko‘tarishdan qo‘rqib, agar tartibsizliklar ro‘y bersa, qozilarni Sibirga surgun qilishini ma‘lum qiladi. Qo‘qon uezdining boshlig‘i agar din peshvosi tartibsizlikda qatnashsa, madrasalarning yopilishini va vaqf yerlarini tamomila davlat ixtiyoriga o‘tkazishni bildiradi [6].

Shuni ta‘kidlashimiz lozimki, jadilchilik harakatining vujudga kelishining obyektiv va subyektiv sabablarini Ahmad Donishning “Navodir al-vaqoye” (“Nodir voqealar”), “Risolai tarixi amiron mang‘it” (“Mang‘it amirlari tarixi risola”)sida, tarixchi Mirza Muhammad Abdulazim Somiy Bustoniyning “Tarixi salodini mang‘itiya dor us-saltanai Buxoroi sharif” (“Buxoro sharif saltanatidagi mang‘it hukmdorlari tarixi”), tarixchi Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahimning “Tarixiy Salimiy” asarlariga tayanib va Abdurauf Fitratning “Munozara” va “Bayonati sayyohi hindi” asarlarini asos qilib olishimiz mumkin.

Fitrat yurtda sodir bo‘layotgan bunday holatlar haqida kuyunib: “Olamga to‘rt yuz olimni hadya etgan Buxoroi sharif shunchalik mustahkam kuchga ega bo‘lib edi, oh. Buyuk badbaxtlik bilan iqror bo‘lamanki, hozir bu madaniyat quyoshining osmoni, bu insoniyat jannati, bu fozillar dunyosining ma‘mur xonadoni, bu ma‘rifat jahonining darsxonasi taraqqiyot uchun barcha vositalariga ega bo‘lsa ham, jaholatning asl makoni, xorlik zanjirining asirligicha qolmoqda. Tirikchilik uchun barcha vositali bo‘lishiga qaramasdan, yoqasini ajal panjasiga topshirgan”, deb yozadi. [7]

Jadidlar xorijga chiqib, turli mamlakatlardagi madaniyat va ta‘lim taraqqiyoti darajasini ko‘zatdi, o‘z o‘lkalari bilan ularni solishtirdilar. Bu kabi, ilg‘or, zehnli yoshlarda jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonda ham ko‘rish ishtiyog‘i boshlandi. Ularning diqqat markazida birinchi bosqichda ta‘limni isloh qilishdek ulkan vazifa turgan. XIX asrning ikkinchi yarmida o‘lkamizning mustamlakachilar tomonidan bosib olinishi natijasida o‘lka xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy huquqlardan butunlay mahrum qilinishi va xalqlarning ayanchli ahvoli jadidchilik harakatining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Jadidchilik harakatining paydo bo‘lishining tashqi omili sifatida tashqi dunyoda sodir bo‘lgan inqilobiy o‘zgarishlarning ham ta‘siri bo‘ldi. Yangicha fikrli jadidlarning, xalqning

xohish-irodasini, manfaatlarini bilan bogʻlanib, negizi mustaqillik va ozodlik gʻoyalari bilan sugʻorilgan edi.

Jadidchilik harakati shakllanish va rivojlanish bosqichlarini uch davrga boʻlish mumkin: IX asrning 90-yillaridan 1905-yilgacha boʻlgan birinchi davr.

2. 1905-yildan 1917-yilgacha boʻlgan ikkinchi davr.

3. 1918-yildan 1930-yilgacha boʻlgan uchinchi davr.

Jadidchilik harakati haqidagi olib borilgan barcha tadqiqot gʻoyalarining Turkistonda vujudga kelishi XIX asrning oxirgi choragiga toʻgʻri kelganligini eʼtirof etadi.

“XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng tarqalgan maʼrifatchilik harakati xalqimiz tarixida milliy ongini oʻstirish, uni ijtimoiy taraqqiyotning yuqori pogʻonalariga olib chiqish yoʻlida qilingan beminnat va fidoyilarcha urinishlar edi. Bu harakat tariximizning eng yorqin sahifalaridan biri boʻldi. U ayovsiz kurashlar, muvaffaqiyat va magʻlubiyatlar, quvonch va fojialar bilan toʻla” [8] edi. Oʻlkadagi ogʻir tarixiy vaziyat jadidchilik harakatining rivojlanishi, faoliyati darajasiga oʻzining ulkan taʼsirini oʻtkazdi.

Jadidlar tafakkurining mohiyati oʻsha davr tarixiy vaziyatlari bilan bogʻlik ekanligi ayni haqiqat boʻlgani xolda, u ham ancha murakkab yoʻllarni bosib oʻtgan, deya olamiz. Bu harakat dunyoqarash sifatida shu davrda sodir boʻlayotgan dolzarb, voqea va hodisalar bilan bogʻliq holda paydo boʻldi. Jadidlarlarning asl muddaosi inqilobiy yoʻl emas, balki islohot yoʻlidan borib, ilm-maʼrifatni keng koʻlamda yuksaltirish orqali taraqqiyotga erishishdan iborat edi. Chunki, Turkiston barcha taraqqiyot yoʻllaridan juda orqada qolib ketgan edi. Bu davrda rivojlangan mamlakatlar oʻrtasida ijtimoiy-iqtisodiy sohada vujudga kelayotgan raqobatlariga duch kelib, chor Rossiyasi mustamlakasiga tobe edi. Taraqqiyparvar jadidlar bunday vaziyatni teran tushunib, mohiyatan anglaganlari tufayli jonajon oʻlkani dunyo sivilizatsiyasi tizimidagi rivojlangan mamlakatlar safiga olib chiqishning yagona yechimi- bu fan-texnikani taraqqiy ettirish, deb xulosaga kelishgan edilar.

Oʻlkamiz jadidlari mamlakatni qoloqlik, tarqoqlik, savodsizlik botqogʻidan faqat maʼrifat orqali qutqarish mumkinligini yaxshi tushunib, dastlab asosiy say-harakatlarini yangi usuldagi maktablarni tashkil yaratishga, ularning mazmun na shaklini takomillashtirishga bel bogʻlashdi. Avvalo, jadid usuldagi maktablarni Turkistonning oʻsib kelayotgan ishbilarmon boylari va ilgʻor maʼrifatparvar ziyolilari qoʻllab-quvvatladilar. Ushbu maktablar boshlangʻich taʼlim oʻquv yurtlari boʻlib, ularda toʻrt yoki olti yillik taʼlim berilardi. Dastlab (Xusaynov mablagʻi hisobiga) 1893-yili Samarqandda, 1898-yili Qoʻqonda Salohiddin domla, 1899-yili eski Toshkentda Munavvar Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari tashkil etildi. 1900-yili Buxoroda Joʻraboy qori tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil etildi. 1903-yili M.Behbudiy oʻz mablagʻi hisobidan Jomboyda xuddi shunday maktab ochdi. Jadid Hoji Muin va Shakuriylar bu maktabda dars berdilar. [9]

Bu yangi usuldagi maktablarni bitirib chiqqan tub joy aholi vakillari oʻqituvchilikka ishga olingan. Bu usul maktablarining mutasaddilari tomonidan muallimlikka qabul qilinganlar oldiga muayyan talablar qoʻyilgan. Masalan, Samarqand atrofida tashkil qilingan yangi usuldagi maktabda ishlash uchun besh nafar muallim kerakligi haqida “Oyina” jurnalida eʼlon chiqarilgan edi: “...Muallimlarni turkistoniy boʻlishi shart boʻlib, yana ushbu nimarsalarni bilmogʻi lozim kelur: Qiroati Quroʻni Karim, maʼa tajviya (Qurʻon oʻqish qoidasi), savodi forsiy va oʻzbaki, hisobdan aʼmoli arbaʼa (toʻrt amal), oʻrta qismga xat yozmoq, amaliyoti islomiya, zaruriyoti diniyya, aqidai ahli sunnat va jamoatdan xabardorlik, nos, chilim, popirus, koʻknorgʻa chid va ogʻushta emaslik va ham yamon axloq ila mashgʻur boʻlmaslik shartdur...”. [10]

Jadidchilik tarixining tadqiqotchilari shu bilan birga adabiyotshunos olimlar 1905

yildan boshlab, to 1918 yil boshlarigacha, ya'ni Turkiston muxtor hukumati kuch bilan tugatilguncha o'tgan qisqagina bir davrni «Milliy uyg'onish davri» degan atamani qo'llaydilar. Ularning fikricha, 1910 yili o'z tashkilotini tuzgan jadidlar fevral inqilobidan keyin ikki guruhga bo'linib ketganlar. Ulardan bir guruhi istiqlolga дума va islohot yo'li bilan, boshqasi esa inqilob orqali erishmoqchi bo'ldilar. Bunga chorizmning jadidchilikka salbiy munosabati, uni yo'q qilishiga urinishi, milliy burjuaziyaga zarba berishi, milliy burjuaziya va unga mansub ziyolilarning yuqoriga tobeligi, hamda jadidlarning ijtimoiy tabaqa jihatidan har xilligi, Turkiyada tahsil olib kelgan bir guruh yoshlarning munozaralari sabab bo'ldi.

Samarqand jadidlari dunyoqarashining shakllanishida an'naviy-oilaviy ta'lim va tarbiyaning o'rni bor, u ma'rifatparvarlik olamiga qo'yilgan dastlabki qadam, desak bo'ladi. Samarqand jadidlarining eng to'ng'ichi Saidahmad Siddiqiy-Ajziy dastlabki savodini oilada chiqargan. Mahmudxo'ja Behbudiyning otasi fikshunoslik bo'yicha yirik olim hisoblangan bu sohada bir necha asarlar yaratgan. XIX asrning 80-yillarida Turkiston o'lkasida vujudga kelgan demokratik xarakterdagi ma'rifatparvarlik ham Samarqand jadidchiligi paydo bo'lishining ilk manbalaridan biri hisoblanadi. Bu davrdagi ma'rifatparvarlikning o'ziga xos xususiyati, uning bevosita adabiy-publisistik xarakterga egaligida edi. Ammo bundan ma'rifatparvarlik jamiyatning ijtimoiy-falsafiy muammolarini chetlab o'tgan degan xulosaga kelish mumkin emas.

G'arb ma'rifatparvarlari asosan ateistlar bo'lishgan Jadid ma'rifatparvarlari hech qachon ateistlar bo'lishmagan va dinni hech qachon inkor qilmaganlar. Aksincha ular islom dinini ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi va musulmonlarni birlashtiruvchi muhim omil, inqirozli ahvoldan chiqishda xalqni birlashtiruvchi, birodarlikka chaqiruvchi, jipslashtiruvchi, o'lka xalqlarini yuksak axloqiy, vatanparvar, do'st, birodarlikka chaqiruvchi kuch sifatida munosabatda bo'ldilar.

Jadidlar islom dinida ma'naviy yuksaklikning muhim vositasi sifatida o'zini namoyon qiladi. Ular islomiy dunyoqarashdan yangi davrda foydalandi va yanada boyitdi. Shuni ta'kidlash lozimki, Mahmudxo'ja Behbudiy va Fitratning bir nom bilan ataluvchi "Islomning qisqacha tarixi" asarlari jadidlarning islom diniga munosabatini bor bo'yicha ko'rsatib bergan. Umuman jadidlar g'oyalari talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda bugungi kunning eng dolzarb sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, deymokratik O'zbyekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.; O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Abdazimov A.A. XX asr boshlarida Turkistonda ta'lim tarbiya tizimini shakllantirishning pedagogik jihati. Ped.f.f.dis. PhD. Tosh - 2022 y. 137 b.
3. Quronov M. O'zbyekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning pedagogik asoslari: Ped. fan. d-ri. ...dis // –T.; 1998. – 316 b.
4. Behbudiy Mahmudxo'ja. Kitobat ul-atfol. Samarqand. Behbudiya, 1908.
5. Ahrorova 3. Jadid pedagogikasi asoslari. T.: Universitet, 2006, - B. 66.

ОПТИМИЗАЦИЯ КОММУНИКАЦИИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

PEDAGOGIK FAOLIYATDA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KOMMUNIKATSIYANI OPTIMALLASHTIRISH

OPTIMIZATION OF COMMUNICATION IN PEDAGOGICAL ACTIVITY ON THE BASIS OF INTEGRATIVE APPROACH

Рахматова Ф.М. (ТашГТУ старший преподаватель)

Коммуникация относится, прежде всего, к акту передачи и обмена мыслей, идей, мнений, чувств и информации устной речью, но общаться с другими можно также и молчанием, языком тела, жестами и выражениями лица, написанными словами, графическими изображениями, музыкой, картинами и другими творческими формами человеческого выражения.

Ключевые слова: коммуникация, мастер, невербальный, ирония, упреки, угрозы, оскорбления, придирки, индивидуальная, групповая, фронтальная, защищенность, факт, ситуация, мотивирование, игровая провокация, получатель информации.

Kommunikatsiya, birinchi navbatda, ogʻzaki nutq orqali fikrlar, gʻoyalar, his-tuygʻular va maʼlumotlarni uzatish va almashish harakatini anglatadi, ammo boshqalar bilan sukunat, tana tili, imo-ishoralar va yuz ifodalari, yozilgan soʻzlar, grafik tasvirlar, musiqa, rasmlar va boshqa inson ijodiy ifodasi shakllari orqali muloqot qilish ham mumkin.

Kalit soʻzlar: kommunikatsiya, usta, noverbal, kinoya, tanbehlar, tahdidlar, haqoratlar, individual, guruh, frontal, xavfsizlik, fakt, vaziyat, motivatsiya, oʻyin provokatsiyasi, maʼlumot oluvchi.

Communication refers primarily to the act of transmitting and exchanging thoughts, ideas, opinions, feelings and information through spoken language, but one can also communicate with others through silence, body language, gestures and facial expressions, written words, graphic images, music, paintings and other creative forms of human expression.

Key words: communication, master, nonverbal, irony, reproach, threats, insults, nagging, individual, group, frontal, defensiveness, fact, situation, motivation, play provocation, receiver of information.

Коммуникация происходит всегда в тот момент, когда люди вступают в отношения друг с другом и один человек влияет на поведение другого – и также тогда, когда никто не говорит.

Многие социальные и организационные проблемы можно объяснять недостаточной коммуникацией между людьми. Поэтому необходимо понимать принципы и правила коммуникации – особенно тогда, когда необходимо передавать

знания другим [1].

Коммуникация в учебном процессе должна быть направлена на ясность и по возможности более однозначное понимание. Поэтому мастер или преподаватель должен сам владеть способностью говорить ясным и понятным языком, владеть телесными, так называемыми «невербальными» сигналами, предвидеть их действие, а также определять коммуникативные барьеры и устранять их. Учебный успех зависит, таким образом, в большой мере от хорошей способности мастера и преподавателя к коммуникации.

В преподавательской деятельности различают следующие формы общения: монологическая и диалогическая форма. Это отличие и составляет сущность педагогического сотрудничества.

Различают следующие уровни общения [2]:

- Высокий – характеризуется теплотой во взаимоотношениях, взаимопониманием, доверительностью.
- Средний – занимает промежуточное положение между высоким и низким уровнями.
- Низкий – характеризуется отчужденностью, непониманием, неприязнью, холодностью, отсутствием взаимопомощи.

Уровень общения непосредственно связан с воздействиями педагога, которые соответствуют парциальным (частичным) оценкам, хорошо изученным Б.Г. Ананьевым.

Эти воздействия можно разделить на два вида:

- положительные – одобрение, поощрение самостоятельности, похвала, юмор, просьба, совет, предложение;
- отрицательные – замечания, насмешка, ирония, упреки, угрозы, оскорбления, придирки.

Существует шесть основных функций взаимодействия субъектов педагогического процесса при оптимальном педагогическом общении [3].

1. Конструктивная – педагогическое взаимодействие при обсуждении и разъяснении содержания знаний и практической значимости по предмету.
2. Организационная – совместная учебная деятельность, взаимная личностная информированность и общая ответственность за успехи учебно-воспитательной деятельности.
3. Коммуникативно-стимулирующая – сочетание различных форм учебно-познавательной деятельности (индивидуальной, групповой, фронтальной), организация взаимопомощи с целью педагогического сотрудничества; осведомление учащихся о том, что они должны узнать, попятить на занятии, чему научиться.
4. Информационно-обучающая – показ связи учебного предмета с производством для правильного миропонимания и ориентации в событиях общественной жизни; подвижности уровня информационной емкости учебных занятий и ее полноты в сочетании с эмоциональным изложением учебного материала, опорой на наглядно-чувственную сферу.
5. Эмоционально-корректирующая – реализация в процессе обучения принципов «открытых перспектив» и «победного обучения» в ходе смены учебной деятельности, доверительного общения.

б. Контролно-оценочная – организация взаимоконтроля обучающего и обучаемого, совместное подведение итогов и оценка самоконтролем и самооценкой.

Рассмотрим коммуникативные приемы оптимизации педагогического общения.

Установлению оптимального педагогического общения на занятиях помогает использование следующих коммуникативных приемов [4]:

1. Приемы профилактики и снятия блокирующих коммуникативных аффектов.
2. Приемы оказания коммуникативной поддержки.
3. Приемы инициирования встречной учебно-познавательной активности.

Приемы профилактики и снятия блокирующих коммуникативных аффектов:

- создание на занятии атмосферы защищенности;
- одобрение, поддержка посредством придания ценности самой попытки ответа, участия в диалоге;

- одобрение практики обращения к преподавателю или товарищу;
- поощрение устных ответов по собственной инициативе;
- создание щадящих условий при ответе учащегося с ярко выраженной коммуникативной заторможенностью;

- недопущение действий со стороны отдельных учащихся, подавляющих творческую активность товарищей на занятии.

Приемы оказания коммуникативной поддержки:

- своевременная помощь в подборе адекватной лексики, в правильном построении высказываний;

- разъяснение смысла коммуникативных норм в конкретной ситуации общения;
- обучение (прямое и косвенное) коммуникативным приемам, технике выступления и общения;

- подчеркнуто позитивная критика (если такая необходима) поведения учащегося в диалоге с преподавателем;

- демонстрация вербальными и невербальными средствами заинтересованного внимания к учащимся, поддержка их стремления к участию в диалоге с преподавателем;

- предоставление возможности сориентироваться в ситуации.

Приемы инициирования встречной учебно-познавательной активности:

- прямое побуждение к активному взаимодействию с преподавателем на занятии;
- мотивирование перед группой поощрений за проявленную инициативу;
- критика собственных ошибок в качестве демонстрации эталона отношения к ним;

- «игровая провокация».

Во время передачи информации на коммуникацию могут влиять коммуникативные барьеры - мешающие факторы, как шум, отвлечение внешними факторами, а также психологические факторы как внимание, мотивация и интерес.

Барьеры в общении могут носить информационный и личностный характер [5].

Типы коммуникативных барьеров:

1. Возникновение барьера связано с расхождением смысла в содержании требования, т. е. отправитель информации – преподаватель и получатель информации – обучающийся вкладывают различный смысл в одно и то же требование. Получатель информации не понимает требований потому, что иначе смотрит на определенные факты.

2. Расхождение смысла относится к особенности предъявления требований независимо от их содержания. Получатель информации обучающийся не принимает требования, потому что оно приобретает для него особый смысл (смысл придирки, насмешки и т. д.). Этот смысловой барьер может возникнуть разными путями:

- требование, приемлемое для обучающегося, по существу, может не приниматься из-за формы предъявления, например иронической, грубой, унижительной. Отрицательные эмоции по отношению к форме требований переносятся и на их содержание:

- требование, даже самое благожелательное по форме, предъявляется слишком часто, по каждому пустяку;

- требование непосильно или у обучающегося нет необходимых условий для его выполнения.

3. Барьер по отношению к конкретному человеку, обусловленный личностными особенностями. На основании одного или нескольких взаимодействий у обучающегося складывается определенное представление об отношении к нему преподавателя, и он в свою очередь начинает конкретным образом реагировать на это отношение.

Обучающийся не принимает и не выполняет требований данного человека, но охотно выполняет требования, предъявляемые другими людьми. Причинами могут быть:

- постоянное отрицательное оценивание обучающегося и его деятельности;

- безапелляционное настаивание на требованиях (неправильное преодоление барьера первого типа);

- предъявление требований, неправильных по форме. Возникновение смыслового барьера определяется не только объективной справедливостью или несправедливостью действий преподавателя, но и внутренними психологическими особенностями обучающегося, связанными с его самооценкой и отношением к себе.

Выводы: профессионально важные качества педагогического общения:

- интерес к людям и работе с ними; наличие потребности и умения общения, общительность;

- способность эмоциональной эмпатии и понимания людей;

- гибкость, оперативно-творческое мышление, обеспечивающее умение быстро и правильно ориентироваться в меняющихся условиях общения;

- умение ощущать и поддерживать обратную связь в общении;

- умение управлять собой;

- способность к спонтанности (неподготовленности) коммуникации;

- умение прогнозировать возможные педагогические ситуации, последствия своих воздействий;

- хорошие вербальные способности: культура, развитость речи, богатый лексический запас, правильный отбор языковых средств;

- владение искусством педагогических переживаний, которые представляют сплав жизненных, естественных переживаний педагога и педагогически целесообразных переживаний, способных повлиять на студентов в требуемом направлении;

- способность к педагогической импровизации, умение применять все разнообразие средств воздействия (убеждение, внушение, применение различных приемов воздействия).

Список использованной литературы:

1. Khushnaev O.A. Rakhmatova F.M., Scientific and methodical basis for evaluation of design competencies of future engineers. Journal of Critical Reviews. 274-276 pp.
2. Рахматова Ф.М. Профессионал таълим тизимида кластерли ёндашув асосида талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш тамойиллари. Муғаллим ҳам ўзлуксиз билимлендириш илимий-методикалык журнали. №3/1-1, 2022. 71-74 б.
3. Rakhmatova F.M., Cluster system as an innovative approach in higher education. “Qishloq xo‘jaligi va transportda innovatsion texnika va texnologiyalar: muammolar, yechimlar va istiqbollor” mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. – Qarshi, QarMII, 2023 y. 457-460 bb.
4. Rakhmatova F.M., Methods of teaching special disciplines in technical universities. “Qishloq xo‘jaligi va transportda innovatsion texnika va texnologiyalar: muammolar, yechimlar va istiqbollor” mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. – Qarshi, QarMII, 2023 y. 465-468 bb.
5. Хакимов Ж.О., Рахматова Ф.М. Формирование готовности студентов к профессиональной проектно-конструкторской деятельности на основе интегративного подхода. Рецензируемый научный журнал «Цифровая трансформация». Том 30, № 2 (2024). 11-15 с.

УДК 65.9

ИНФОРМАЦИОННО-ПРЕДМЕТНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УЧЕБНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ В КОНТЕКСТЕ ПАРАДИГМАЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

TA'LIMNING PARADIGMAL TRANSFORMATSIYASI KONTEKSTIDA O'QUV FANINI AXBOROT-TA'LIMIY TA'MINLASH

INFORMATION AND SUBJECT SUPPORT OF EDUCATIONAL DISCIPLINE IN THE CONTEXT OF PARADIGM TRANSFORMATION OF EDUCATION

Хакимов Ж.О. (ТашГТУ профессор)

Абралов М.М. (ТашГТУ доцент)

Последнее время в учебном процессе стали интенсивно использоваться аудиовизуальные технологии обучения, которые позволяют сместить акцент с деятельности преподавания на деятельность учения. Следует отметить, что эта разновидность технологий направлена на реализацию средств предъявления информации, а универсальность их заключается в том, что они могут быть включены в учебный модуль и как самостоятельный фрагмент, и как отдельный эпизод.

Ключевые слова: средства, технические средства обучения, аудиовизуальная, видео лекции, мультимедийные средства, сетевые технологии, телеконференция, кибернетическая система, практикум.

So‘nggi paytlarda o‘qitish jarayonida audiovizual o‘qitish texnologiyalari jadal

qo'llanila boshlandi, bu esa asosiy e'tiborni o'qitish faoliyatidan o'rganish faoliyatiga o'tkazish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu turdagi texnologiya axborotni taqdim etish vositalarini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ularning ko'p qirraliligi shundaki, ular o'quv moduliga mustaqil fragment sifatida ham, alohida epizod sifatida ham kiritilishi mumkin.

Kalit so'zlar: vositalar, texnik o'quv vositalari, audiovizual, video ma'ruzalar, multimedia vositalari, tarmoq texnologiyalari, telekonferentsiya, kibernetik tizim, seminar.

Recently, audiovisual learning technologies have been intensively used in the educational process, which allow shifting the focus from teaching to learning activities. It should be noted that this type of technology is aimed at the realization of means of presenting information, and their universality lies in the fact that they can be included in the training module as an independent fragment and as a separate episode.

Key words: media, technical teaching aids, audiovisual, video lectures, multimedia, network technology, teleconference, cybernetic system, workshop.

Технократичность современного процесса обучения напрямую связана с использованием его дидактических средств.

Дидактические средства – средства, с помощью которых реализуются цели обучения.

Усиливая наглядность, осуществляя дидактическую направленность, они обеспечивают ориентировку в учебном материале, ускоряют темп изучения материала, освобождают время для использования на учебном занятии разных видов учебной работы. Дидактические средства не только влияют на привлекательность учебного процесса, но и способствуют развитию личности, так как позволяют обучаемым приобретать знания активно, стимулируют их перенос на реальную действительность [1].

Дидактическими средствами являются предметы, которые обладают определенными сенсомоторными стимулами и, воздействуя на зрение, слух, осязание, облегчают студентам непосредственное и косвенное познание действительности. Слово «предмет» в данном контексте употребляется в отношении, как к предметам реальной действительности, так и к их модельным образным, словесным или символическим заменителям.

В процессе обучения дидактические средства выполняют следующие функции:

- дидактическую, так как представляют собой важный источник знаний, умений и навыков, приобретаемых студентами; облегчают закрепление проработанного материала, проверку степени овладения и усвоения знаний;
- формирующую, поскольку являются средством развития познавательных способностей, а также чувств и воли студентов;
- познавательную, так как служат непосредственному познанию студентами определенных фрагментов действительности.

Технические средства обучения (ТСО) являются составной частью дидактических средств обучения, и они дают студентам возможность усвоить, переработать, проконтролировать уровень собственного усвоения учебного материала, а преподавателям – расширить возможности получения такой информации, которая не может быть получена студентом иным средством. По выполняемым педагогическим функциям ТСО разделяются на аудиовизуальные, т.е. технические средства

информации; информационно-контролирующие, т.е. технические средства программированного обучения, тренажеры [2].

В связи с актуальностью их применения разберем эту группу дидактических средств более подробно. К средствам динамической проекции относятся: видеозапись, видео лекции, учебное кино и учебное телевидение. Все они ускоряют освоение знаний, создавая максимальный контакт обучаемых с действительностью; расширяют границы аудитории обучаемых, обеспечивая независимость выбора места и времени пользования, а также дают студентам быстрый доступ к необходимой в данный момент информации; позволяют произвольно варьировать темп изучения учебного материала, возвращаться к ранее просмотренному материалу.

Мультимедийные средства являются важной составляющей современных информационных технологий, появление которых обусловлено новыми целями и задачами современного образования, изменяющими роль обучающего в учебном процессе. Поэтому главной функцией педагога становится создание условий для того, чтобы образовательный процесс стал творчеством личности, самой осуществляющей свое образование. Благодаря проникновению практически во все области человеческой деятельности компьютерной техники и современных информационных технологий разнообразная информация становится объектом труда многих людей [3].

Информационная технология обучения – это совокупность методов, производственных процессов и программно-технических средств, объединенных в технологическую цепочку, обеспечивающих сбор, обработку, хранение, распространение и отображение информации с целью снижения трудоемкости процессов использования информационного ресурса, а также повышения их надежности и оперативности.

Информационные технологии разделяются на сберегающие, экономящие труд, время, материальные ресурсы; рационализирующие, улучшающие автоматические системы; создающие, включающие обучаемых в процесс переработки и использования информации [4].

Кроме того, информационные технологии – это:

- ✓ гипертехнологии, отличающиеся нелинейной организацией содержащейся информации и предоставляющие возможность работы с текстом за счет выделения ключевых объектов;
- ✓ сетевые технологии, опирающиеся на использование локальных, региональных, глобальных компьютерных сетей;
- ✓ телеконференции, выступающие средством интерактивного общения;
- ✓ учебные телекоммуникационные проекты, позволяющие организовывать совместную учебно-познавательную, творческую, игровую деятельность.

Информатизация образования влечет за собой сложную кибернетическую систему «преподаватель – компьютерная среда обучения – обучаемый». В связи с этим выделяют такие направления информационных технологий [5]:

- универсальные информационные технологии, представленные текстовыми редакторами, графическими пакетами, экспертными системами и т.д.;
- компьютерные средства телекоммуникаций;
- компьютерные обучающие и контролируемые программы, электронные учебники;
- мультимедийные программные продукты. Мультимедиа представляют собой несколько технологий, позволяющих компьютеру вводить, обрабатывать, хранить, передавать, отображать такие типы данных (текст, графику, анимацию, аудио- и

видеозаписи) для презентации различных элементов курса.

В целом возможны следующие направления использования в учебном процессе средств информатики [6]:

- ✓ обучение с помощью автоматизированных систем (информационных, моделирующих и обучающих);
- ✓ постановка и решение задач на компьютере;
- ✓ обучение профессиональному применению новых информационных технологий в избранной сфере деятельности;
- ✓ использование компьютера в качестве дидактического средства для динамического моделирования различных объектов и процессов, повышения степени наглядности при изложении учебного материала и т.п.

Для эффективного использования любого из перечисленных дидактических средств обучения преподавателю следует обратить внимание на ряд предъявляемых к ним требований.

Дидактические средства должны быть [7]:

- источником учебной информации и в содержательном аспекте должны отражать требования Государственного образовательного стандарта среднего профессионального образования;
- адекватны целям, задачам, содержанию образовательной программы подготовки специалиста среднего образования;
- направлены на стимулирование самообразования студентов;
- разработаны с учетом требований информатизации образования;
- помощниками в организации творческой продуктивной деятельности студентов на занятиях и во внеаудиторной самостоятельной работе;
- стимуляторами инновационной деятельности преподавателя;
- инициаторами, решая задачи диверсификации образования. Кроме этого, и сам преподаватель должен соблюдать ряд условий:
 - определить, на каком этапе или этапах учебного занятия он будет применять то или иное средство обучения;
 - знать, какое средство можно применять для лучшего усвоения учебной информации;
 - знать, сколько средств одновременно будет задействовано на учебном занятии;
 - иметь представление о том, как средство обучения сочетается с выполнением студентами учебно-познавательных заданий по ходу учебного занятия.

Использование дидактических средств обучения подчиняется ряду принципов:

- принцип адекватности системы средств обучения целям, содержанию, используемым методам и организационным формам обучения заставляет отбирать такие средства обучения, которые на учебном занятии позволили бы преподавателю в полном объеме реализовать все запланированные программные требования к студентам;
- принцип научности требует от преподавателя использования таких дидактических средств, которые отвечали бы современным достижениям в области науки, культуры, позволяли бы студентам использовать их в своей практической деятельности;
- принцип безопасности – это учет санитарно-гигиенических требований к использованию средств обучения;
- принцип хронометрического соответствия определяет характер

приспособленности конструктивных и информативных средств к временным возможностям их использования на учебном занятии;

- принцип эстетичности предполагает наличие у дидактического средства определенного дизайна его оформления, привлекательности, удобства конструкции.

В деятельности преподавателя профессионального колледжа следует говорить о комплексном подходе к подбору дидактических средств обучения, поэтому понятие «дидактические средства» отождествляют с двумя другими понятиями, такими, как учебно-методический комплекс и информационно-предметное обеспечение учебной дисциплины. Два эти термина имеют более широкое значение, поскольку помимо серии традиционных дидактических средств туда входят учебные программы по дисциплине, компьютерные обучающие программы и программы для осуществления контроля знаний студентов; рабочие тетради по предмету и для организации педагогической практики; рекомендации по выполнению курсовых и выпускных квалификационных работ и методические рекомендации по изучению курса и организации самостоятельной деятельности студентов; материалы психолого-педагогических практикумов; хрестоматии, дополняющие учебные пособия; методические разработки по отдельным курсам, нужные студентам при самостоятельной работе; список литературы по предмету и база библиотечных данных; опорные конспекты лекций по основным темам курса; серия опорных схем и т.д.

Создание информационно-предметного обеспечения учебной дисциплины является важной составляющей авторской технологии обучения конкретного преподавателя и базируется на основе сложившегося опыта и интуиции педагога с учетом им особенностей теоретической профессиональной деятельности специалиста, комплекса решаемых им задач, а также с учетом тех типичных ошибок и затруднений, которые возникают у преподавателя и студентов во время использования того или иного дидактического средства.

Список использованной литературы:

1. J.Khakimov. Development of design competence of future engineers through studying engineering graphics. *Universum: технические науки: электронный научный журнал*. 2024, № 4(121). 9-10 с.
2. J.Khakimov. The role of multimedia in developing students' information design competence. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*. Vol. 11 No. 04 (2024). Pages 161–168.
3. Хакимов J.O. Ta'limda axborot texnologiyalari. *Darslik*. – Toshkent, “Shamsuddinxon Boboxonov” NMIU, 2022. – 274 b.
4. Khakimov J.O. Documenting procedures for implementing the process of project teachers to computer projects. *International Journal of Advanced Science and Technology*. 019, 28(20), pp. 881–889.
5. Khimmataliev D., Khakimov J., Daminov O., Rakhmatova F., Criteria and indicators for assessing the level of professional training of future teachers of vocational training at a training module. *Journal of Critical Reviews*. 428-431 pp.
6. Хакимов J.O., Jalilov A.A. Yangi informatsiyani taqdim etishning faol metodlari. “Innovatsion texnika va texnologiyalarning muammo va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy va ilmiy-texnik anjumani. *Ilmiy ishlar to'plami*. – Toshkent. ToshDTU, 5-6 aprel, 2019. – 421-423 b.

IJTIMOIIY PLATFORMALARDA UZATILAYOTGAN DESTRUKTIV AXBOROTLARNING HARBIY XIZMATCHILARGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ ДЕСТРУКТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ, ПЕРЕДАВАЕМОЙ НА СОЦИАЛЬНЫХ ПЛАТФОРМАХ, НА ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

PSYCHOLOGICAL EFFECT OF DESTRUCTIVE INFORMATION TRANSMITTED ON SOCIAL PLATFORMS ON MILITARY SERVANTS

Нуруллаев А.А. (Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси катта ўқитувчиси, психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD))

Мазкур мақолада ахборот воситасида таъсир кўрсатиш, деструктив ахборотларнинг ҳарбий хизматчиларга психологик таъсири ҳамда шахс, жамият ва давлат хавфсизлиги бўлиб, асосий эътибор ҳарбий хизматчиларнинг психологик соғлиғини ҳимоялашга қаратилгандир. Деструктив ахборотларнинг таъсирига тушган ҳарбий хизматчиларнинг психологик коррекциясини ўтказишда компендиумли тарзда ёндашиш таклиф этилган, ҳамда муаллифнинг фикрича ҳарбий психологнинг касбий тайёргарлиги ҳарбий амалиёт даврида амалий-психологик фаолиятнинг самарадорлигини таъминловчи омиллардан саналади.

Калит сўзлар: “Destructive”, деструктив таъсир, психологик ҳимоя, ҳарбий жамоа, ахборот, истеъмолчи, психокоррекция, сепаратист, контент таҳлили, психотехника, кибермакон, рефлексив, диагностик, прогностик.

В данной статье анализируется проблема воздействия посредством информации, психологической защиты от деструктивных воздействий на военных, акцентируя внимание на охране государства и граждан. Предложен комплексный подход к психологической коррекции военнослужащих, подвергшихся воздействию деструктивной информации, и автор считает, что профессиональная подготовка военных психологов является одним из факторов обеспечения эффективности практической психологической деятельности в процессе военной службы.

Ключевые слова: деструктивное воздействие, психологическая защита, деструктивное действие, военное сообщество, информация, потребитель, психокоррекция, сепаратист, обсуждение данного контента, психотехника, киберсфера, рефлекс, диагностика, прогноз.

This article analyzes the problem of influence through information, psychological protection from destructive influences on the military, focusing on the protection of the state and citizens. A comprehensive approach to the psychological correction of military personnel exposed to destructive information is proposed, and the author believes that the professional training of military psychologists is one of the factors in ensuring the effectiveness of practical psychological activity in the process of military service.

Key words: destructive impact, psychological defense, destructive action, military community, information, consumer, psychocorrection, separatist, discussion of this content,

psychotechnics, cybersphere, reflex, diagnostics, prognosis.

Bugungi axborot asridagi evrilishlar nafaqat insonning turmush tarziga, balki ongu shuuriga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda shaxs fikrini boshqarish istagidagi kuchlar ijtimoiy platformalar orqali o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqda. Afsuski, bu jarayonda asosiy iste'molchi bo'lgan jamiyat a'zosi bo'lgan harbiy xizmatchilarning aksariyati, ularning qurboniga aylanishmoqda. Bu esa harbiy xizmatchilarning destruktiv axborotlar ta'siriga tushishining oldini olishda yanada bizlarni ogoh va hushyor bo'lishga chorlamoqda.

Shu o'rinda ommaviy axborot vositalarida o'zatilayotgan salbiy axborotlar ayrim harbiy xizmatchilarni ham chetlab o'tmayotganligi ko'rishimiz mumkin. Bu esa harbiy psixologlardan doimiy izlanishlar diagnostik qilib borishni taqozo etadi. Chunki xavf xatarlarning yangilari paydo bo'lishi esa destruktiv ta'sirga tushgan harbiy xizmatchilar sonining oshib ketishiga sabab bo'ladi. Shuni ta'kidlash joyizki, "TikTok", "Instagram", "Youtube" va boshqa ijtimoiy platformalarda hech qanday tahrirsiz ma'lumotlar joylanmoqda [2]. Agarda, axborot o'zida ma'lum ma'no-mazmuni mujassam etib, axborot iste'molchisini dunyoqarashi, munosabatlar tarzi va xulq-atvorini o'zgartirishga yo'naltirilganligini inobatga olsak, "TikTok", "Instagram" va "Youtube" vositasida yetkazilayotgan axborot saralashni, zararlantirishni taqozo etadi. Saralash, zararlantirish ikki darajada birinchi darajada, axborot iste'molchisi tomonidan, ikkinchisi o'sha axborotga izoh beruvchilar tomonidan amalga oshirish mumkinki, bunda psixokorreksiya faoliyat masalasi dolzarblashadi.

Destruktiv axborot vositasida ta'sir ko'rsatish turli ko'rinishda ifodalanib, separatistik qarashlar, o'z jonini qandaydir "g'oya" uchun qurbon qilish, siyosiy radikalizm, diniy ekstremizm, turli ko'rinishdagi terrorism, ichkilikbozlik, kashandalik va giyohvandlikni "hayot mazmunini ta'minlovchi" va "tabiiy qiyinchiliklardan xalos qiluvchi yo'l" tarzida targ'ib etish, noan'anaviy oilaviy hayot tarzini ommaviylashtirish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Agarda, subyektni (axborot iste'molchisini) tashqi ta'sirlarga (qo'zg'auvchilarga) nisbatan reaksiyasini tez yoki sustligini inobatga olsak, "TikTok", "Instagram" va "Youtube" vositasida jamiyatda bir qator ijtimoiy-madaniy, siyosiy-psixologik, maishiy-iqtisodiy kabi muammolar vujudga kelishi mumkin.

Shunday vaziyatda Harbiy xizmatchilarni mustaqil fikrlashga-axborotni saralashga o'rgatish, kasbiy qadriyatlarga sodiq qolishga, mustahkam iroda sohibi etib tarbiyalash harbiy ta'lim-tarbiyaning bosh g'oyasi bo'lib qolishi lozim. Bu o'z navbatida harbiy boshqaruv amaliyotida ham, harbiy ta'lim-tarbiya tizimida ham axborotning psixologik xavfsizligi masalasiga majmuaviy yondashishni talab etadi.

Harbiy xizmat kundalik faoliyatida, axborotning psixologik xavfsizligini individual va guruhiy darajada samarali ta'minlash uchun G.Lassuell tomonidan ilgari surilgan Kommunikatsiya modelini R.Samarov tomonidan takomillashtirilgan model variantidan foydalanish mumkin. "Xabar(axborot)ni kim yetkazmoqda (soha vakilimi? yoki faqatgina bu masala bo'yicha tashqaridan xabardor vakilimi?) → Xabar(axborot) qaysi kanal vositasida yetkazmoqda (rasmiy tarzda yoki razvedka kanallari orqalimi?) → Xabar(axborot) kimga yetkazmoqda (alohida shaxsgami? guruhgami? yoki barchagami?) → Xabar(axborot) qaysi ta'sirchanlik darajasida (qo'rqitish, yo'naltirish, boshqarish uchun hayajon bilanmi? Qayg'uribmi?, g'azab bilanmi?) → Xabar(axborot) nima maqsadda yetkazmoqda (havas qilish uchunmi? qasd olish maqsadidami? namuna uchunmi?) → Xabarni qabul qilgach, xabar qabul qiluvchining galdagi harakatlar majmuasi qanday tarzda kechadi (axborot iste'molchisining g'azabi qo'zg'aydimi, nafrati oshadimi, mehri uyg'onadimi?) → Harakatlar

ketma-ketligi nimalarga olib keladi (agarda g‘azabi qo‘zg‘asa qanday holat, mehri oshsa qanday holat vujudga keladi?) → Qanday mazmundagi choralarni ko‘rish lozim” (g‘azabni, nafratni xavf sifatida zararsizlantirish uchun nima qilish kerak? Yoki mehrini yanada oshirish uchun, ishonchini shakllantirish uchun qanday yo‘l tutish kerak? Qaysi doira va darajada chora - tadbirlar ko‘rish lozim?) [3]. G.Lassuel-R.Samarovni axborotning psixologik xavfsizligini ta‘minlash modeli harbiy faoliyatning mazmundorligini, harbiy boshqaruvni aniq maqsadga yo‘naltirilganligini ta‘minlash uchun xizmat qiladi.

Agarda, mazkur modelni bizning tadqiqotimiz nuqtai nazaridan izohlaydigan bo‘lsak, harbiy xizmatchilarga xabarni kim yetkazayotganligiga, qaysi kanal vositasida yetkazayotganligiga, kimga yetkazayotganligiga (askar, serjant yoki ofitsergami?), qaysi effekt bilan yetkazayotganligiga (ya‘ni hayajonlanibmi, qayg‘u yoki g‘azab bilanmi?), nima maqsadda? yetkazayotganligiga e‘tibor qaratib, Axborotning psixologik xavfsizligini ta‘minlashda psixologik himoyadan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozim.

Manbalarning kontent tahlili shuni ko‘rsatadiki, destruktiv tushunchasiga (konseptiga) doir turli nazariy yondashuvlar mavjud. Ayrim manbalarda destruktiv so‘zi lotincha destructio-yo‘q qilish, biror narsaning normal tuzilishini buzish ma‘nosida ifodalanib, insonning tashqi ta‘sirga tushishi, obyektlarga yoki ichkariga, o‘z-o‘zidan va bu munosabatga mos keladigan xatti-harakatlarga salbiy munosabati [4] sifatida ta‘riflanadi. Destruktiv ta‘sir lanish jarayoni bu bevosita inson psixologik holatining buzilishi, ya‘ni bunyodkorlik faoliyatini, vayronkorlikka aylanishi bilan izohlanadi. Britaniya-ingliz tilida “Destructive” so‘zi yo‘q qilishga olib keladigan yoki olib kelishga moyillik, salbiy, halokatli, zarar, shikast, qurollarining halokati, quvvatning ijodiy yoki halokatli tarzda [5] ishlatish sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur termin amerika-ingliz tilida vayron qilish, vayronagarchilikni keltirib chiqaradigan yoki ishlab chiqaradigan, yo‘q qilish, shunchaki salbiy, foydali emas, halokatli [5] singari ma‘nolarni ifoda etadi. Har ikkala holatda ham, destruktiv termini bir-biriga nisbatan semantik hisoblanib, negativ oqibatlar olib keluvchi holat va jarayon sifatida bayon etilgan. P.Korolenkoning fikricha, tashqi dunyo obyektlariga qaratilgan destruktiv xatti-harakatlarning maqsadi bor, ularni quyidagi atributlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

tirik mavjudotlarni yo‘q qilish (qotillik, bezorilik, qiynoq, kannibalizm);

jamoatchilik bilan aloqalarni qasddan buzish (terroristik harakatlar, davlat to‘ntarishlari, inqiloblar);

tabiiy muhit obyektlariga yoki jonsiz narsalarga zarar yetkazish tushiniladi [6].

Destruktiv ta‘sir mohiyatan turli obyekt yoki tizimlarni vayron qilishga qaratilganligi bilan ajralib turib, uning oqibatini harbiy tizim namunasida quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

harbiy xizmatchilarni ijtimoiy mavqeini noaniqlikka keltirishni;

harbiy xizmat insonni psixofiziologik holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini, ularni keyinchalik zaif qilib qo‘yishini;

xohish-istaklar beqarorligi natijasida ko‘pchilik harbiy xizmatni tanlaganligini;

harbiy jamoalarda madaniy me‘yor va salbiy “ustanovka”larni shakllantirishni;

ofitser va askarlar orasida “biz” va “ular” kabi dilemalarni, ya‘ni psixologik qarama-qarshiliklar kabilarni vujudga keltiradi.

Yuqoridagilar, faqatgina harbiy tizim doirasida kechadigan ijtimoiy-psixologik jarayon sanalib, ochiq sotsiumda turli axborot kanallari vositasida harbiy xizmatchilarga destruktiv ta‘sir ko‘rsatilishi mumkin. Shu sababli, Ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy ishlar soatida axborotning funksiyalari, axborot kanallari, axborotning psixologik ta‘siri kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratib, harbiy xizmatchilarda destruktiv axbortlardan psixologik himoya

kompetensiyasini shakllantirish tavsiya etiladi. Buning uchun, harbiy psixologlarni Mudofaa va xavfsizlik sohasida axborotning psixologik xavfsizligi mavzusida malakasini oshirishni yo'lga qo'yib, uning doirasida psixoprofilaktika va psixokorreksiya masalasiga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Chunki, guruhiy yoki individuallik psixotexnikalardan (ya'ni, psixologiyaning usullaridan vosita sifatida mohirona foydalanish) foydalanishda alohida inobatga olinishi lozim.

Agarda, ayrim harbiy xizmatchilarni psixologik xarakteristikasi bo'yicha qiziqqon, xavf-xatarga "shaydo", o'zining kimligini ko'rsatib qo'yish ishtiyoqini yuqori ifodalanganligi kabi jihatlarini inobatga olsak, harbiy xizmat davomida ularni destruktiv axborotning ta'siriga tushganligi shaxsiy, guruhiy, tashkiliy-texnik kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 3-fevralida qabul qilingan "Internet tarmog'ida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'PQ-117-son Qarorida "...kibermakonda huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish sohasiga zamonvay texnologiyalarni joriy etish, bu sohadagi huquqbuzarliklarni aniqlash, tergov qilish, barvaqt oldini olish uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, aholining, jumladan o'quvchi-yoshlar, talabalar va ota-onalarning Internet tarmog'idan foydalanish borasida bilimlarini oshirish ehtiyoji tobora ortib bormoqda" [8] deb ko'rsatilganligi, kibermakonda destruktiv axborotlar hajmi ortib borilayotganligidan darak bermoqda.

Harbiy xizmatchilarni destruktiv axborotlar ta'siridan samarali himoyalash mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shu boisdan bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta'minlash maqsadida 2018-yil 4-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-sonli Qarori amaliy ahamiyat kasb etadi. Unda "Harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'analirimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimni yaratish" [9] alohida belgilangan. Bu qarorda ko'rsatilgan vazifalarni bajarishda harbiy-ma'naviy omildan keng foydalanish maqsadga muvofiqdirki, uning tarkibida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, milliy harbiy meros, psixologik tayyorgarlik, harbiy fan va boshqa bir qator tarkiblar ifodalangandir. Professor, polkovnik R.Samarov va dotsent, kapitan S.Sadriddinovlarning ta'kidlab o'tishicha "Yangi O'zbekistonning mudofaasini ta'minlash yo'lida harbiy fan harbiy-tibbiy yo'nalishda; harbiy-iqtisodiy yo'nalishda; harbiy-texnik yo'nalishda; harbiy-siyosiy yo'nalishda; xususiy-harbiy yo'nalishda; harbiy-tarixiy yo'nalishlarda rivojlanib, dunyoqarashli; refleksiv; yo'naltiruvchi; integrativ; diagnostik; prognostik kabi funksiyalarni bajarishi lozim [10]. Bizningcha, bugungi kunda harbiy-tarixiy yo'nalish psixologik himoyani ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etib, harbiy xizmatchilarni destruktiv v axborotlar ta'siriga tushmasliklarini ta'minlash uchun profilatik manba bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, doimiy tarzda harbiy xizmatchilarni destruktiv axborotlar ta'siridan psixologik himoyasini ta'minlash lozim bo'ladi. Buning uchun, "Harbiy xizmatchi – OAV – Harbiy jamoa – Harbiy xizmatchining oilasi – Harbiy psixolog – Komandir – Harbiy-psixologik ish" tarzida amaliy-psixologik faoliyat yuritish taklif etiladi. Bizningcha, bu jarayonda masalaning institutsionallashuvi ta'minlanib, harbiy xizmatchilarning destruktiv ta'sirlardan himoyalash mexanizmi shakllanadi. Turli kanallar vositasida har xil mazmunli axborotlar hajmini ortib borishi, axborot-zo'riqish holatini keltirib chiqarishi bilan birga, harbiy xizmatchilarning shaxsiy,

kasbiy, oilaviy va harbiy-jamoaviy faoliyatida bir qator muammolarni keltirib chiqarish holatlarini vudjudga keltirmoqda. Shu sababli, destruktiv ta'sirga tushgan harbiy xizmatchilarni sog'lom hayot tarziga qaytarishning psixologik mexanizmini yaratish harbiy amaliyot uchun ham, harbiy fan uchun ham dolzarb mavzu sanaladi. Shuning uchun:

- harbiy xizmatchilarni destruktiv axborotlar ta'siridan psixologik himoya qilish, bu O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo'shin turlari va harbiy tuzulmalari, boshqaruv organlari, qo'mondonlari, komandir(boshliq)lar, shtablar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari tomonidan bevosita harbiy psixologlar tomonidan olib boriladigan faoliyat turi sanaladi. Uning asosiy maqsadi, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, harbiy jamoalarni salbiy g'oyalarning ta'siriga tushmasligini ta'minlash, tushganlarni esa, bu holatdan chiqarish, ya'ni psixologik korreksiyasini amalga oshirishdan iboratdir;

- destruktiv axborotlar ta'siriga tushgan harbiy xizmatchilarni psixokorreksiyasini o'tkazish uchun individual darajada psixokorreksiya dasturini tayyorlash, psixodiagnostika usullarini tanlash (saralash), diagnostika uchun vaqt ajratish (belgilash), psixologik maslahat berib, psixokorreksiya tadbirlarini belgilashni taqozo etad;

- psixokorreksiya tadbirlari qatoriga individual suhbat, musiqaterapiya, artterapiya, biblioterapiya, ekoterapiya kabilardan qo'shimcha tarzda foydalanib, harbiy xizmatchining psixologik salomatiligi qadriyat hamda milliy mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashda birlamchi ma'naviy resurs ekanligini inobatga olishni taqozo etadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Самаров Р.С. Ахборотнинг психологик хавфсизлигини таъминлаш механизми (услугий қўлланма). - Т.: Университет, 2015. - Б.91.
2. Зинченко, Ю.П. Военно-психологический: словарь-справочник / Ю.П Зинченко, И.Д Куприянова. – М.: Москва, 2010. – 592 с.
3. Collinc X. words in a foreind: languade / X. Collinc. – Edition.: Collins, 2002. – 203.s.
4. Бузгунчи хатти-ҳаракатларнинг мақсадлари [Электронный ресурс].– URL: <https://www./searchq> – Мурожаат санаси: 24.10.2024.
5. Ўзбекистон Респбуликаси Президентининг 2022 йилнинг 3-февралидаги “Интернет тармоғида содир этилаётган ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги УПК-117-сон Қарори [Электронный ресурс]. – URL: <http://lex.uz/home/mj.html>. – Мурожаат санаси: 24.10.2024.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Куролли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-3898-сонли Қарори [Электронный ресурс]. – URL: <http://lex.uz/home/mj.html>. – Мурожаат санаси: 16.02.2022.
7. Самаров Р., Садриддинов С. Мудофаа ва хавфсизликни таъминлашда ҳарбий илм-фан: тизимли-функционал талқин // Ўзбекистон армияси 2021, 4-сон [28]. 25-27 бетлар.
8. Мўминов А. Ўзбекистон: ахборотлашган жамият сари (монография). -Т.: Turon zamin ziyo, 2013. – Б.140-141.
9. Самаров Р.С., К.А.Хайдаров Ахборот хавфсизлик психологияси (ўқув қўлланма). – Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2018. – 148 б.
10. Умаров Б., М.Ахмедова Очик ахборот тизимларида ахборот психологик хавфсизлик (ўқув қўлланма). - Т.: Chashma Print, 2013. – 252 б.

KREATIVLIK POTENSIALINING TARKIBIY ASOSLARI VA USTUVOR TAMOYILLARI

СТРУКТУРНЫЕ ОСНОВЫ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА И ПРИОРИТЕТНЫЕ ПРИНЦИПЫ

THE STRUCTURAL FOUNDATIONS OF CREATIVE POTENTIAL AND PRIORITY PRINCIPLES

Rakhmonova D.S. (AndMI katta o'qituvchisi)

Shaxsning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Shaxs, kreativ potentsial, an'anaviy tafakkur, ijodiy faoliyat, ijodiy xatti-harakatlar, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilish, zakovatli bo'lish.

Творческий потенциал человека отражается как его общая черта. Он считается предварительным условием и результатом творческой деятельности. Это качество выражает владение и готовность человека к самовыражению. Кроме того, на основе творческого потенциала индивидуальные способности, природная и социальная сила каждого профессионала проявляются в целостном виде.

Ключевые слова: личность, творческий потенциал, традиционное мышление, творческая деятельность, творческое поведение, оригинальность, инициативность, терпимость к неопределенности, интеллект.

A person's creative potential is reflected as his common feature. It is considered a prerequisite and the result of creative activity. This quality expresses the possession and willingness of a person to express himself. In addition, on the basis of creative potential, the individual abilities, natural and social strength of each professional are manifested in a holistic way.

Key words: personality, creative potential, traditional thinking, creative activity, creative behavior, originality, initiative, tolerance for uncertainty, intelligence.

Kreativ potentsial, birinchi navbatda, imkoniyatdir. Bu yerda imkoniyat falsafiy emas, balki empirik ravishda – "ijodiy voqealar" paydo bo'lishi ehtimoli nuqtai nazaridan tushuniladi. Shaxsning kreativ potentsiali, hech bo'lmaganda, uch xil munosabatlarda baholanishi mumkin. Birinchidan, shaxsning kreativ potentsial va ijodiy xatti-harakatlar (va uning mahsulotlari) o'rtasidagi muayyan munosabatlar nazarda tutiladi. Ijodiy xatti-harakatlarni shaxsning kreativ potentsialidan bashorat qilish mumkin. Ikkinchidan, bu shaxsning kreativ potentsial va uning shartlari o'rtasidagi muayyan munosabatlar haqida.

Ikkinchisi - bu shaxsning kreativ potentsialni bashorat qiluvchi mexanizmlar, shartlar, omillar.

Uchinchidan, biz shaxsning kreativ potentsiali va shaxsning ijodiy xususiyatlari o'rtasidagi muayyan munosabatlarni nazarda tutamiz. Shaxsning kreativ potentsialiga ko'ra, shaxsning ijodiy xususiyatlarining shakllanishini bashorat qilish mumkin. Shaxsning kreativ potentsiali va ijodiy xulq-atvori (va uning mahsulotlari) o'rtasidagi munosabatlar quyidagicha ifodalanishi mumkin. Ijodiy xatti-harakatlarning samaradorligini bashorat qilishga imkon beradigan shaxsiy xususiyatlar shaxsning kreativ potentsiali sifatida talqin qilinishi mumkin.

Ikkinchisi samarali ijodiy xatti-harakatlar uchun shart bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan shaxsiy xususiyat yoki shaxsiy profil sifatida belgilanadi. E'tibor bering, shaxsga nisbatan "ijodiy" atamasi bu yerda ko'proq metafora sifatida qaralishi kerak: shaxsning o'zida deyarli hech qanday ijodiy narsa yo'q. Ammo "ijodiy" atamasi ijodiy xatti-harakatlar mahsulotlari bilan bevosita bog'liq. Ijodiy xatti-harakatlar, masalan, ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni bilan ko'rsatilishi mumkin. Eynshteyn 248, Darvin 119, Freyd 330 ta asarini nashr etdi. Tomas Edison 1093 ta patent oldi. Pablo Pikasso 20000 dan ortiq rasm, rasm va haykaltaroshlik asarlarining muallifi. Sebastyan Bax 1000 dan ortiq musiqiy asarlar yaratgan.

Eysenck (1995) psixotizmning o'rtacha darajasi ijodiy xulq-atvor mahsulotlari bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Ammo psixotizm o'ziga xos "ijodiy" deb hisoblanmaydigan shaxsiy xususiyatdir. Ijodkorlik bilan bir qatorda, psixotizm tajovuzkorlik, sovuqqonlik, egosentrizm, empatiya qila olmaslik va o'zini boshqasining o'rniga qo'ya olmaslik, befarqlik, ehtiyotkorlik kabi shaxsiy xususiyatlarni tavsiflaydi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Shaxsning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi: tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi; yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati; bir qolipda fikrlamaslik; o'ziga xoslik; tashabbuskorlik; noaniqlikka toqat qilish; zakovatli bo'lishdir.[1] Kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- ◆ kasbiy faoliyatiga ijodiy yondoshish;
- ◆ yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ◆ ilg'or yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- ◆ hamkasblar bilan yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir mutaxassisning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda mutaxassislarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Shaxs o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Bo'lajak mutaxassislarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda mutaxassisning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. [2] Mutaxassis ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, ahamiyatli ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, mutaxassisning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Shaxs o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib-o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Barcha mutaxassislarni pedagoglar o'qitadi va ular kreativlikni rivojlantirishga turtki beruvchi omil hisoblanadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik

potensialini yanada rivojlantiradi. [3] Natijada pedagog: ijodiy fikrlashga odatlanadi; ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi; pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi; pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

Shu o'rinda pedagoglarda namoyon bo'ladigan kreativlik sifatlarini rivojlantirish yuzasidan Devid Lyuis tomonidan amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. [4]

1. Pedagogning maxsus bilimlarni egallaganligi, o'z predmetini ilmiy darajada bilishi. Mazkur fanning zamonaviy yutuqlari va istiqboli yo'nalishlarini va rivojlanishi darajasini bilish. Ushbu tarmoq ishlab chiqarishning bugungi kundagi yutuqlarini bilish. O'z sohasi bo'yicha davlat standartlaridan xabardorlik.

2. Oliy o'quv yurti bo'yicha va predmetiga ko'ra, qo'llaniladigan darsliklarni bilish. Predmetni o'qitishning maqsad va vazifalarini bilish. Mutaxassislar tayyorlash tizimida o'z mutaxassisligi qanday ahamiyat kasb etishini bilish.

3. Maxsus bilish, ko'nikma. Aniq bir kasbni mukammal bilishi. Mutaxassisning pedagogik va psixologik tayyorgarligi. Muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan pedagogika va psixologiya sohaları bo'yicha zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalari.

4. Pedagogik-psixologik bilimlar. Oliy maktab pedagogika va psixologiya bilimlari, faoliyat nazariyasi bo'yicha bilimlar, oliy kasbiy ta'limning zamonaviy konsepsiyalari to'g'risida bilimlar, o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlarga ega bo'lish.

5. Pedagogik bilimlar: diagnostika; prognostik; loyihalash; konstruktivlik; kommunikativlik; tashkilotchilik; tahlil qilish.

6. Diagnostik bilim. shaxslarning bilim, ko'nikma, tajriba va kompetensiyasi tizimida dastlabki, o'rta va yakuniy darajasini aniqlab berish, xodimlar guruhida vaziyatlarni aniqlash, xodimning umumadaniy va tarbiya darajasini aniqlash va boshqalar.

7. Mutaxassisning prognostik bilishi. Oldindan aytib berishi, biron-bir vazifani aniq belgilab olib, uni yechish shakllarini aniqlash, ishlarning rejalarini tuzib olish, ish jarayonida xodimlar uchun yuzaga keladigan qiyinchiliklar va xatolarni oldindan bilish va boshqalar.

8. Mutaxassisning konstruktiv bilishi. Ish jarayonlarini ilmiy asosda qurish, tashkil etish, samarador kasbiy tarbiya texnologiyalari, metodlari, shakllari, usullari va vositalirini tanlash hamda qollash, amaliy ishlarini tashkil qilish va boshqarish, xodimlarning ijodiy ishlarini faollashtirish va boshqalar.

9. Mutaxassisning kommunikativligi. Xodimlar bilan maqsadga muvofiq munosabatlar o'rnatish, ular bilan munosabatlarda individual va o'ziga xos yondoshuvlarni topish, ish davomida ijobiy-ruhiy muhitni tashkil qilish, xodimlar xulq-atvorini boshqara bilish, o'zini xayolan xodim o'rniga qo'yib ko'ra bilish, xodimni ezgu ishlarga qiziqtirish, faoliyatning eng yaxshi shakllarini izlab topish.

10. Mutaxassisning tashkilotchilik qobiliyati. Xodimlar ish faoliyatini tashkil etish, turli kasbga yo'naltirilgan va boshqa ruhdagi tadbirlarni tashkil etish va boshqalar.

11. Mutaxassisning tahliliy bilishi. Kasbiy faoliyatidagi kamchiliklar va yutuqlar yuzaga kelish sabablari hamda xodimlarning tajribalarini tahlil qilish.

Biz tilga olgan mutaxassislarga qo'yiladigan talablar ichida uning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish va davlat standartlari talablariga javob bera olish masalasi ham eng muhim vazifa hisoblanadi. Tomas Edison "Kreativlik - g'ayriixtiyoriy jarayon", deydi. Lekin har kuni ko'plab mutaxassislar muammolarga duch keladi, noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g'ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi "sehrli tayoqcha" yo'q, biroq har

qanday mutaxassisning kreativ o'ylashiga ko'maklashadigan ko'plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim. [5]

Jorj Bernard Shou shunday deydi: "Ko'pchilik yiliga ikki-uch marta o'ylaydi. Mening butun dunyoga mashhurligim sababi - haftada bir yoki ikki marta o'ylaganim"dir. Demak, xayolga kelgan yangi fikrlarni e'tiborsiz qoldirmaslik, o'ylash uchun imkon yaratish muhim. Ijodkorlik chegarasini belgilash xam muxim. [6] Uolt Disney ko'ngilochar sohada o'z sanoatini yaratgan, animatsion multfilmlari bilan butun dunyoga tanilgan shaxs. U dunyoga mashhur personajlarini yaratishda kreativlikning uch fazasi - xayolparast, realist, tanqidchi obrazidan foydalanadi. Ya'ni, xayolparast rolida hech qanday chegarasiz xayol suradi, fantaziya yaratadi. Bu jarayonda u Baxning "Tokkata, fuga re minar" musiqasini eshitishini aytgan. Xayolida obrazlar yaratilgandan keyin uni reallik bilan uyg'unlashtiradi. Personaj qanday harakatlanadi, qanday gapiradi - barchasini konstruktor sifatida jonlantiradi, reallashtiradi. Shundan keyin xayolparast va realist ishini tanqidchi ko'rib chiqadi. Tanqidchi "filtr" vazifasini bajaradi. Uolt Disneyning yutug'i xayolparast, realist, tanqidchini bitta shaxsda jamlay olganidir. Odatiy fikrlovchilarda ularning bittasi ustuvorlik qiladi. [7]

Har qanday davlatning jahon hamjamiyatida tutgan nufuzi uning intellektual kamoloti bilan belgilanadi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida iste'dodli, fidoyi ijodkor yoshlar muhim o'rin tutadi. Muammoni o'rta tashlash, uni har tomonlama o'rganish, muammoning kelib chiqish sabab va oqibatlarini mushohada qilish, muammo ustida mustaqil fikr yuritish, muammoni yechishning turli imkoniyatlarini tahlil qilish va uni yechishning eng maqbul yo'lini topishga qodir bo'lishlari uchun ularda kreativ potentsialni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Педагогические технологии: учебное пособие для студентов педагогических специальностей /под общей ред. В.С.Кукушкина. Серия «Педагогическое образование». - Ростов н/Д: издательский центр «Март», 2002.-320с.
2. Психологические механизмы. Условия развития творческой личности студента в учебной и неучебной деятельности: отчет о НИР /КГУ, науч. руководитель Л.М.Попов. Казань, 2012. - 43 с.
3. Левина М.М. Основы технологии обучения профессиональной педагогической деятельности /М.М. Левина. Минск, 2016.
4. Абрамова Л.Д. Модель интеграции российской и западной систем послевузовского образования /Л.Д.Абрамов, Д.Ю.Столяров //Экономика. Политика. Культура. - 2019. - Вып.4. - С. 55-71.
4. Ермолаев О.Ю. Математическая статистика для психологов: Учебник /О.Ю.Ермолаев. 2-е изд., испр. - М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 2013. - 336 с.
5. Rakhmonova Dilnurakhon Saidovna. Pedagogical creativity as a factor of student development. International Scientific Research journal (WoS). ISSN:2776-0979 (Volume 2, Issue 5, May, 2021)
6. Rakhmonova Dilnura Saidovna Tirishga systematic approach to the development of students' creative abilities. "Berlin Studies" – Transnational journal of science and humanities. Vol. 1 No. 15. Pedagogical sciences (2021): <http://berlinstudies.de/>
7. Maxammadovna S. I. Pedagogical opportunities for the development of professional and creative abilities in students //International Journal for Innovative Engineering and Management Research – 2021

ТАЛАБАЛАРНИНГ УМУМТЕХНИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ЭВРИСТИК МАСАЛАЛАР МАЗМУНИ ВА УНГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

СОДЕРЖАНИЕ И ТРЕБОВАНИЯ ЭВРИСТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ, НАПРАВЛЕННЫХ НА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБЩЕТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ

THE CONTENT AND REQUIREMENTS OF THE HEURISTIC PROBLEMS DIRECTED TO IMPROVING THE GENERAL TECHNICAL PREPARATION OF STUDENTS

Турдиев Ж.П. (Тошкент давлат техника университети, катта ўқитувчиси)

Ушбу мақолада профессионал таълимдаги назарий ва амалий касбий таълим мазмунини яхлит жараён ва натижа сифатида тавсифланиб, унинг асосий термин ва тушунчалар мажмуи ифодаланган. Профессионал таълимдаги ўқитиш жараёнида эвристик ёндашувнинг асосий мақсади ва вазифаси ўқувчиларда танлаган касби (мутахассислиги) бўйича касбий маҳорат асосларини шакллантириб, уларни эгаллаётган касби бўйича бўлғуси касбий-меҳнат фаолиятига амалий тайёрлашдан иборатдир. Шунингдек, эвристик ёндашув ўқитиш жараёнида тегишли зарурий кўникмаларни шакллантириш учун касб (мутахассислик) бўйича билимлар берилиши ёритиб берилган.

Калит сўзлар: профессионал таълим, эвристик ёндашув, эвристика, дидактик эвристика, мутахассислик, эвристик таълим, умумтехник тайёргарлик, умумкасбий, ўқитиш мазмуни.

В данной статье описывается содержание теоретического и практического профессионального образования в профессиональном образовании как целостный процесс и результат, а также выражаются его основные термины и понятия. Основная цель и задача эвристического подхода в педагогическом процессе профессионального образования - сформировать основы профессиональных умений по избранной профессии (специальности) обучающихся и подготовить их к будущей профессиональной и трудовой деятельности по занимаемой профессии. Также поясняется, что эвристический подход дает знания о профессии (специальности) для формирования соответствующих необходимых навыков в процессе обучения.

Ключевые слова: профессиональное образование, эвристический подход, эвристика, дидактическая эвристика, специализация, эвристическое образование, общетехническая подготовка, общепрофессиональное, содержание обучения.

This article describes the content of theoretical and practical vocational education in vocational education as an integral process and result, and also expresses its basic terms and concepts. The main goal and task of the heuristic approach in the pedagogical process of vocational education is to form the foundations of professional skills in the chosen profession (specialty) of students and prepare them for future professional and labor activities in their

profession. . It is also explained that the heuristic approach provides knowledge about the profession (specialty) for the formation of the appropriate necessary skills in the learning process.

Key words: vocational education, heuristic approach, heuristics, didactic heuristics, specialization, heuristic education, general technical training, general professional, training content.

Техника олий таълим муассасалари умумкасбий фанлари масалалари тизимида, албатта, маълум бир маҳоратни ривожлантиришга йўналтирилган масалалар, тасвифий характердаги масалалар, модел бўйича бажариладиган ўқув машқлари зарур. Аммо талабаларда умумкасбий фанларни ўрганишга доимий қизиқиш, ўқув фаолиятига ижодий муносабатни тарбиялашга қаратилган техник масалалар ҳам зарурдир. Техника олий таълим муассасалари талабаларига мустақил фаолият усулларини, масалаларни ечишнинг умумий усулларини, ҳақиқатни илмий билиш усуллари ва техниклар маълум бир масалани ечишда фойдаланадиган самарали ақлий фаолият усулларини ўзлаштиришлари учун махсус машқлар керак.

Талабаларнинг умумтехник тайёргарлиги учун энг муҳим бўлган мазмунни танлаш тамойиллари кўпгина ишларда кўриб чиқилган бўлсада, лекин умумтехника тайёргарлик соҳасида узлуксиз таълим концепцияси деярли тақдим этилмаган. Бизнинг назаримизда, узлуксиз таълим тизимининг яхлитлиги унинг мазмунида тузилмалаштириш тамойилларини, бир-бирини тўлдирувчи ғояларни, шунингдек, умумлаштирилган кўникмалар ва асосий ўқув фаолият турларини аниқлаш йўли билан таъминланади. Шунини таъкидлаб ўтиш жоизки, таълим мазмуни ва ўқитиш методларини танлаш, албатта, талабаларнинг индивидуал сифатларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши керак.

Бўлажак профессионал таълим ўқитувчисининг умумтехник тайёргарлигини такомиллаштиришга йўналтирилган касбий ва эвристик масалаларнинг мазмунини белгилашда қуйидагилар эътиборга олиниши зарур:

– талабаларнинг билим олишидаги изчилликни ҳисобга олган ҳолда, ягона фанлараро тизимга боғланиши;

– турли ўқув соҳаларидан билимларни бирлаштиришга имкон берувчи ўқув ва методик тайёргарликни таъминлайдиган фанларнинг турли ўзаро боғлиқлигини акс эттириш;

– келгусида касбий масалаларни амалга оширишга йўналтирилган касбий-педагогик мазмунга эга бўлиши;

– ўқув фаолиятини ташкил этишнинг турли шакллари назарда тутиш;

– илгарилаб кетиш характерга эга бўлиш.

Биз ўз тадқиқот ишимизда умумтехника фанларини ўқитиш жараёнида бўлажак профессионал таълим ўқитувчисининг умумтехник тайёргарлигини такомиллаштиришга йўналтирилган комплекс эвристик масалаларни тузиш учун юқорида келтириб ўтилган талабларга таяндик.

Касбий ички табақаланиш ва ихтисосликлар бўйича ажратишни ҳисобга олган ҳолда, касбий йўналтирилган эвристик масалалар бир нечта умумкасбий фанлар ёки махсус фанларни бирлаштириши ва талабаларнинг ўқиши ҳамда фаоллашишига ижобий мотивацияни яратишга имкон берадиган мақсадли йўналишни, албатта, ўз ичига олиши керак. Ана шу мақсадда ечиладиган масалаларнинг айрим элементлари келгусида бошқа фанларни ўрганишда, педагогик амалиёт жараёнида ёки келгусидаги

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

касбий фаолиятда қўлланилиши ойдинлаштирилади. Бакалаврлар ўқув материални юқори даражада ўзлаштирганларида масалаларни ечиш усуллари қўллаш имкониятини уларнинг ўзлари тушунтирадilar.

Бўлажак профессионал таълим ўқитувчисининг умумтехник тайёргарлигини такомиллаштиришга йўналтирилган эвристик масалалар комплексини лойиҳалашда умумий эътироф этилган талаб – бу ўқув жараёнида ҳар хил турдаги масалалардан фойдаланиш шартидир. Эвристик масалалар мазмуни, мақсади ва уларни ечиш методлари, шунингдек, методик қадриятлар уларнинг турига боғлиқ.

Эвристик масалаларни мазмунга бўлган талаблар тизими орқали аниқлаш мумкин: латентлик (шартларнинг хилма-хиллиги, муаммолилик); ноаниқлик (ошкоралик, шарт-шароитларнинг “мавҳумлиги”, ечимнинг кўп вариантлилиги); фойдаланиш имконияти (мураккаблик, қийинчилик); аниқ контекстнинг мавжудлиги.

Биз эвристик масалаларни қуйидагиларга кўра турларга ажратишни мақбул ҳисоблаймиз:

– масала шартдаги ҳаракат предмети компонентларининг тавсифи бўйича (бажариш, қиёслаш, исботлаш, қиёслаш, тиклаш, ўзгартириш, лойиҳалаш, қайта ўзгартириш, конструкуциялаш, тадқиқот масалалари);

– масаланинг шартлари ва талабларини ифодалаш услуби бўйича (матнли, график, масала-чизма, тадқиқотчилик, ижодий, техник масалалар);

– масала объектларининг характери бўйича (идеал объектли масалалар – мавҳум ва назарий, реал объектли масалалар – аниқ, маиший, техник, ишлаб чиқариш, ишлаб чиқариш-техник, политехник, лабораторияга оид маълумотли масалалар);

– ечиш воситаларини топиш усули бўйича (стандарт, ностандарт, масалали, тадқиқот, ижодий);

– ечимнинг мураккаблиги бўйича (оддий ва мураккаб);

– ечимлар сони бўйича (битта ечимга эга масалалар, бир нечта ечимли масалалар, ечимлари кўп масалалар, ечимлари бўлмаган масалалар);

– масала мазмунидаги маълумотларнинг етарлилиги бўйича (аниқ, ноаниқ, ортикча маълумотли масалалар);

– қўлланилаётган назарий материалнинг характери бўйича (аниқ мавзу ва бўлимлар бўйича масалалар, комплекс масалалар, фанлараро мазмундаги масалалар, интегратив масалалар, тармоқ масалалари);

– мақсад-вазифаси бўйича (аудиторияда, уйда, мустақил ишлаш учун, касбий йўналиш, билим ва кўникмаларни эгаллашга мўлжалланган, билим ва кўникмаларни қўллашга қаратилган, билим, кўникма, кўникмаларни назорат қилишга мўлжалланган масалалар);

– масалаларнинг билимнинг тузилмавий элементларини шакллантиришдаги роли бўйича (тушунчалар мазмунини, муайян тушунчалар гуруҳинини ўзлаштиришга, тушунчалар ўртасидаги боғлиқликларни аниқлаш, қонунлар, илмий фактларни ўзлаштиришга, ҳодисаларни тушунтириш ва башорат қилишга, назариянинг асосий қоидаларини тушунтиришга оид масалалар).

Хулоса қилиб айтганда, техника олий таълим муассасалари профессионал таълим йўналиши бакалаврларининг умумтехник тайёргарлигини эвристик масалалар воситасида такомиллаштиришда ҳам процессуал, ҳам шахснинг ижодий сифатлари такомиллашиб бориши лозим.

Демак, техника олий таълим муассасалари профессионал таълим йўналиши бакалаврларининг умумтехник тайёргарлиги касбий педагогик тайёргарликнинг

мураккаб тузилмаси бўлиб, унинг фаолиятини аниқлаб беради ва умуммаданий, умумтехник билимлар, маҳорат, кўникмалар, умумтехник ижодий ёндашув, шахсинг ижтимоий йўналтирилганлиги, умуман, умумтехник масалалар самараси ечим топишни таъминловчи мажмуадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон Фармони. www.lex.uz.
2. Турдиев Ж.П. Таълим жараёнида умумтехник тайёргарликни такомиллаштиришга йўналтирилган эвристик масалаларни қўллаш методикаси. Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар, №4, 2023.
3. Турдиев Ж.П. Касб-хунар коллежларида назарий ва амалий таълимни ташкил этиш Ж-л: Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар, №1, 2020.

UDK:331.1:331.4(575.1)

AKADEMIK SAMARADORLIKNI OSHIRISH: ISH MUHITINING PROFESSOR-O'QITUVCHILAR SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

ПОВЫШЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ УСПЕВАЕМОСТИ: ВЛИЯНИЕ РАБОЧЕЙ СРЕДЫ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАБОТЫ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ

ENHANCING ACADEMIC PERFORMANCE: THE IMPACT OF WORK ENVIRONMENT ON FACULTY EFFICIENCY

Qayumova M. (O'zMU tayanch doktoranti)

Ilmiy maqola akademik xodimlar samaradorligini oshirishda mehnat sharoitlarining ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda ish muhitining qulayligi, zamonaviy texnologiyalarning mavjudligi va ishni tashkil etish usullari ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, qulay mehnat sharoitlari akademik hodimlarning motivatsiyasini, ijodkorligini va umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mehnat sharoitlarining sifatini yaxshilash, nafaqat xodimlar farovonligini, balki ta'lim va tadqiqot sifatini ham oshirishga xizmat qiladi. Maqola amaliy tavsiyalarni, jumladan, ish muhitini yangilash va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish strategiyalarini taklif etadi.

Kalit so'zlar: ish muhiti, xodimlarning samaradorligi, akademik xodimlar, qoniqish, hosildorlik, motivatsiya, kasbiy rivojlanish, hamkorlik.

Научная статья анализирует важность условий труда для повышения производительности академического персонала. В исследовании рассматриваются комфортность рабочего окружения, доступность современных технологий и методы организации труда. Результаты показывают, что благоприятные условия труда значительно улучшают мотивацию, креативность и общую продуктивность академических сотрудников.

Улучшение качества условий труда не только способствует благополучию

работников, но и повышает качество образования и исследований. В статье предлагаются практические рекомендации, включая обновление рабочих пространств и стратегии для содействия сотрудничеству между сотрудниками.

Ключевые слова: рабочая среда, производительность сотрудников, преподавательский состав, удовлетворение, производительность, мотивация, профессиональное развитие, сотрудничество.

The scientific article analyzes the importance of working conditions in enhancing the productivity of academic staff. The study examines the comfort of the work environment, the availability of modern technologies, and methods of organizing work. The results indicate that favorable working conditions significantly improve academics' motivation, creativity, and overall productivity. Improving the quality of working conditions not only enhances employee well-being but also contributes to the quality of education and research. The article proposes practical recommendations, including upgrading workspaces and strategies to foster collaboration among staff.

Key words: work environment, employee performance, academic staff, satisfaction, productivity, motivation, professional development, collaboration.

Akademik xodimlar samaradorligi zamonaviy ta'lim tizimining muhim omillaridan biridir. Ushbu samaradorlik faqat bilim va malakaga bog'liq emas, balki mehnat sharoitlari bilan ham bevosita bog'liqdir. Mehnat sharoitlari, o'z navbatida, xodimlarning motivatsiyasi, ijodkorligi va ishga bo'lgan munosabatini shakllantiradi (Sonnentag, 2018; Bakker va Demerouti, 2017).

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qulay mehnat sharoitlari akademik xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi (González et al., 2020). Bunga ish muhitining ergonomikasi, zamonaviy texnologiyalarning mavjudligi va ish vaqti boshqaruvi kiradi. Masalan, yuqori sifatli ish muhitlari va zamonaviy uskunalarning xodimlarning innovatsion fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi (Fayolle va Gailly, 2015).

O'zbek olimlari ham mehnat sharoitlarining akademik xodimlar samaradorligiga ta'sirini o'rganishga katta e'tibor berishmoqda. Misol uchun, Shodmonov (2020) o'z tadqiqotida mehnat muhitining ijobiy o'zgarishlari akademik xodimlarning ijodkorligini oshirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Abdullayev (2021) akademik muassasalarda mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali xodimlarning saqlanishini oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

Bundan tashqari, mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali akademik muassasalar o'z xodimlarini saqlash va yangi iste'dodlarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi (Klein et al., 2019). Ushbu maqola akademik xodimlar samaradorligini oshirishda mehnat sharoitlarining o'rnini o'rganishga qaratilgan. Maqola davomida mehnat sharoitlarining asosiy jihatlari, ularning samaradorlikka ta'siri va amaliy tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Bakker va Demerouti (2017) tomonidan ishlab chiqilgan Job Demands-Resources (JD-R) nazariyasi mehnat sharoitlari va xodimlar samaradorligi o'rtasidagi bog'lanishni tushuntirishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, mehnat sharoitlari xodimlarning ishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va ularning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qulay ish muhitlari va zarur resurslarning mavjudligi xodimlarning ijodkorligini oshiradi (Sonnentag, 2018).

Ergonomik tadqiqotlar mehnat muhitining xodimlar samaradorligiga ta'sirini

o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Fayolle va Gailly (2015) ergonomik sharoitlar va ish joylarining dizayni xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishiga va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Boshqa tadqiqotlar, masalan, González et al. (2020), ish joyidagi ergonomik muvozanat xodimlarning sog'lig'i va farovonligini oshirish orqali ularning ish samaradorligini yaxshilashga yordam beradi.

Mehnat sharoitlarining motivatsiya va ish qoniqishiga ta'siri haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud. Klein et al. (2019) o'z tadqiqotlarida mehnat sharoitlarining yaxshilanishi xodimlarning qoniqishini oshirishi va ularni saqlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdilar. Shuningdek, O'zbek tadqiqotchilari Shodmonov (2020) va Abdullayev (2021) mehnat sharoitlari va xodimlarning motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishdi, bu esa mahalliy sharoitlarda ham muhim natijalar berdi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mehnat sharoitlarini takomillashtirish orqali akademik muassasalar o'z xodimlarining ish samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega. Tahlil qilingan tadqiqotlar asosida, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ish joylarini ergonomik jihatdan optimallashtirish va xodimlarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili akademik xodimlar samaradorligini oshirishda mehnat sharoitlarining o'rnini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va kelgusidagi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotda akademik xodimlar samaradorligini oshirishda mehnat sharoitlarining o'rnini aniqlash maqsadida bir qator metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot sifatida tasviriy va analitik metodlar kombinatsiyasi qo'llanildi. Bu, mehnat sharoitlarining samaradorlikka ta'sirini tahlil qilish uchun keng ko'lamli ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish imkonini berdi.

Ma'lumotlar ikki asosiy manba orqali yig'ilgan:

- So'rovnoma: O'zbekistonning turli akademik muassasalarida faoliyat yuritayotgan 200 dan ortiq akademik xodimlar orasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada mehnat sharoitlari, motivatsiya darajasi va ishga qoniqish kabi ko'rsatkichlar o'z ichiga olindi.

- Intervyu: Shuningdek, 15 nafar akademik rahbarlar bilan chuqur intervyu o'tkazildi. Bu intervyular mehnat sharoitlarining yaxshilanishi bo'yicha amaliy tavsiyalar va rahbarlarning tajribalarini o'rganishga qaratilgan.

Olingan ma'lumotlar statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, natijalar SPSS dasturi orqali tahlil qilindi. Tahlilning asosiy maqsadi mehnat sharoitlari va xodimlarning samaradorligi o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashdir.

Tadqiqotda ishlatilgan nazariy asoslar sifatida Job Demands-Resources (JD-R) nazariyasi va Ergonomika tamoyillari qo'llanildi. Bu nazariyalar mehnat sharoitlari va xodimlarning ish faoliyatiga ta'sirini tushuntirishda yordam beradi (Bakker va Demerouti, 2017).

Tadqiqot yakunida olingan natijalar asosida akademik muassasalarda mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar mehnat muhitini optimallashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xodimlarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqotning ishonchliligini va natijalarining dolzarbligini ta'minlaydi, shuningdek, akademik xodimlar samaradorligini oshirishda mehnat sharoitlarining o'rnini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotda akademik xodimlar samaradorligini oshirishda mehnat sharoitlarining

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

o'rnini aniqlash maqsadida olingan ma'lumotlar statistika tahlili orqali qayta ishlanib, natijalar quyidagi jadvallarda keltirilgan.

So'rovnoma 200 nafar akademik xodim ishtirok etdi. Natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

1-jadval

Mehnat sharoitlari jihatlari bo'yicha akademik xodimlar qoniqish darajasi va samaradorlik ta'siri

<u>Mehnat Sharoitlari Jihatlari</u>	<u>Qoniqish Darajasi (%)</u>	<u>Samaradorlik Ta'siri (%)</u>
<u>Ergonomik muhit</u>	78%	75%
<u>Zamonaviy texnologiyalar</u>	85%	80%
<u>Ish vaqti boshqaruvi</u>	70%	65%
<u>O'zaro hamkorlik</u>	82%	78%
<u>Malaka oshirish imkoniyatlari</u>	90%	88%

1-jadval dan ko'rinib turibdiki, zamonaviy texnologiyalar va malaka oshirish imkoniyatlari akademik xodimlar tomonidan eng yuqori qoniqish darajasiga ega. Biroq, ish vaqti boshqaruvi va ergonomik muhit bo'yicha qoniqish darajasi nisbatan past qolmoqda. Bu, o'z navbatida, ushbu sohalarda muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Intervyu natijalari asosida xodimlar va rahbarlar orasida mehnat sharoitlariga oid fikrlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

2-jadval

Intervyu natijalari bo'yicha asosiy muammolar va takliflar

<u>Intervyu Ishtirokchilari</u>	<u>Asosiy Muammolar</u>	<u>Takliflar</u>
<u>Akademik xodimlar</u>	<u>Ish muhitining noqulayligi</u>	<u>Ergonomik yaxshilanishlar</u>
<u>Rahbarlar</u>	<u>Malaka oshirish imkoniyatlari</u>	<u>Doimiy treninglar</u>
<u>Akademik xodimlar</u>	<u>Zamonaviy uskunalar yetishmasligi</u>	<u>Zamonaviy texnologiyalar joriy etish</u>
<u>Rahbarlar</u>	<u>O'zaro hamkorlikning yetishmasligi</u>	<u>Jamoaviy ishni rag'batlantirish</u>

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, akademik xodimlar ish muhitining noqulayligi va zamonaviy uskunalar yetishmasligini ta'kidlaydilar. Rahbarlar esa malaka oshirish imkoniyatlarining yetarli emasligini va o'zaro hamkorlikni rag'batlantirish zarurligini ko'rsatadilar.

Ushbu tadqiqotda aniqlangan asosiy muammolar quyidagilardir:

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

1. Ish Muhitining Noqulayligi: Akademik xodimlar ko‘plab holatlarda ish joyining ergonomik jihatdan noqulayligini va zarur qulayliklar yetishmasligini ta’kidladilar. Bu, ularning ish qobiliyatini pasaytirishi mumkin.

2. Zamonaviy Uskunalar Yetishmasligi: Zamonaviy texnologiyalar va uskunalarining etishmasligi xodimlarning innovatsion ishlash qobiliyatini cheklaydi. Bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Malaka Oshirish Imkoniyatlarining Yetishmasligi: Xodimlar malaka oshirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega emaslar, bu esa ularning professional rivojlanishini to‘xtatadi.

4. O‘zaro Hamkorlikning Yetishmasligi: Jamoaviy ish va o‘zaro hamkorlikda kamchiliklar mavjud. Bu, xodimlarning o‘zaro tajriba almashinishini va bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashini kamaytiradi.

Olingan ma’lumotlar SPSS dasturi yordamida tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, mehnat sharoitlari va xodimlar samaradorligi o‘rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud ($r = 0.76$, $p < 0.01$). Bu natija, mehnat sharoitlarining yaxshilanishi xodimlarning motivatsiyasini va ish samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi natijalar, akademik xodimlar samaradorligini oshirishda mehnat sharoitlarining muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Ergonomik muhit, zamonaviy texnologiyalar va malaka oshirish imkoniyatlari xodimlarning qoniqish darajasini va ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu tadqiqot natijalari asosida mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi.

Ushbu tadqiqotda akademik xodimlar samaradorligini oshirishda mehnat sharoitlarining o‘rni va ta’sirini aniqlash uchun turli xil ekonometrik modellar qo‘llanildi. Ekonometrik tahlil yordamida mehnat sharoitlari va xodimlar samaradorligi o‘rtasidagi bog‘lanishlarni yaxshiroq tushunish mumkin.

Tadqiqotda quyidagi iqtisodiy model tanlandi:

$$S = \beta_0 + \beta_1 E + \beta_2 T + \beta_3 M + \beta_4 C + \epsilon$$

- SS — samaradorlik ko‘rsatkichi (masalan, ishga qoniqish darajasi).
- EE — ergonomik muhit ko‘rsatkichi.
- TT — zamonaviy texnologiyalar mavjudligi.
- MM — malaka oshirish imkoniyatlari.
- CC — o‘zaro hamkorlik darajasi.
- $\epsilon\epsilon$ — xatolik termi.

Modelni tahlil qilish uchun OLS (Ordinary Least Squares) usuli qo‘llanildi. Tahlil natijalari quyidagi ko‘rsatkichlar bilan ifodalandi:

3-jadval

OLS model natijalari

<u>Ko‘rsatkich</u>	<u>Baholash (β)</u>	<u>p-qiyamat</u>
<u>Ergonomik muhit (E)</u>	0.35	0.002
<u>Zamonaviy texnologiyalar (T)</u>	0.40	0.001
<u>Malaka oshirish (M)</u>	0.30	0.005
<u>O‘zaro hamkorlik (C)</u>	0.25	0.010

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha ko‘rsatkichlar uchun baholar ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0.05$). Bu, mehnat sharoitlari jihatlarini xodimlar samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

- Ergonomik muhit ($\beta = 0.35$): Ushbu natija ergodinamikaning muhimligini ko‘rsatadi. Ergonomik jihatlar yaxshilanganda, xodimlarning ish qobiliyati va qoniqishi oshadi.

- Zamonaviy texnologiyalar ($\beta = 0.40$): Bu ko‘rsatkich, zamonaviy texnologiyalarning mavjudligi va ularning joriy etilishi xodimlarning ijodkorligi va samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

- Malaka oshirish imkoniyatlari ($\beta = 0.30$): Malaka oshirish imkoniyatlari xodimlarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa natijada ularning ish samaradorligini oshiradi.

- O‘zaro hamkorlik ($\beta = 0.25$): O‘zaro hamkorlik va jamoaviy ish xodimlarning innovatsion fikrlashini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa samaradorlikni oshiradi.

Tahlil davomida modelni buzish holatlari ham kuzatildi. Ba‘zi xodimlar o‘zlariga qulay bo‘lmagan sharoitlarda ishlashlari sababli, ularning samaradorligi pasayganini bildirganlar. Bu esa mehnat sharoitlarini yaxshilash zarurligini yana bir bor ta‘kidlaydi.

Ushbu ekonometrik tahlil natijalari, mehnat sharoitlarining xodimlar samaradorligiga ta‘sirini statistik jihatdan isbotlaydi. Ergonomik muhit, zamonaviy texnologiyalar, malaka oshirish imkoniyatlari va o‘zaro hamkorlik akademik xodimlar samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu natijalar asosida mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi ko‘rsatildi. Ekonometrik modellar yordamida olingan natijalar, akademik muassasalarda samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilishda foydali bo‘lishi mumkin.

Ushbu tadqiqot akademik xodimlar samaradorligini oshirishda mehnat sharoitlarining o‘rnini o‘rganishga qaratildi. Olingan natijalar, mehnat sharoitlari va xodimlar samaradorligi o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi. Ekonometrik tahlil yordamida aniqlangan asosiy jihatlar quyidagilar:

1. Ergonomik muhit: Ergonomik muhitning yaxshilanishi xodimlar qoniqishi va samaradorligini oshiradi. Biroq, joriy tadqiqotda ko‘rsatilganidek, ko‘plab akademik muassasalarda ish joylarining ergonomik jihatdan noqulayligi muammosi mavjud.

2. Zamonaviy texnologiyalar: Zamonaviy uskunalar va texnologiyalarning etishmasligi xodimlarning innovatsion fikrlash qobiliyatini cheklaydi. Bu, ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va xodimlarning ish samaradorligini pasaytiradi.

3. Malaka oshirish imkoniyatlari: Xodimlar malaka oshirish imkoniyatlarining yetarli emasligini va bu holat ularning professional rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotganini ta‘kidladilar. Malaka oshirish dasturlarining mavjudligi va ularni amalga oshirish zarur.

4. O‘zaro hamkorlik: O‘zaro hamkorlik va jamoaviy ishlashda muammolar mavjudligi xodimlarning o‘zaro tajriba almashinishini va bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashini kamaytiradi. Bu esa samaradorlikni pasaytiradi.

Ushbu tadqiqot davomida tahlil qilingan asosiy muammolar quyidagi omillarni o‘z ichiga oladi:

- Noqulay ish muhiti: Ergonomik jihatlar va ish joylarining qulayligi muammolari xodimlarning ish qobiliyatini pasaytiradi. Bu masala ta‘lim muassasalarida tez-tez uchraydi va xodimlarning sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

- Zamonaviy uskunalar yetishmasligi: O‘zbekiston akademik muassasalarida zamonaviy texnologiyalar va uskunalarining etishmasligi xodimlarning innovatsion ishlash qobiliyatini cheklaydi. Bu, ta‘lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

- Malaka oshirishning yetarli bo'lmashligi: Malaka oshirish imkoniyatlarining kamligi xodimlarning kasbiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu holat, o'z navbatida, ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi.

- O'zaro hamkorlikdagi kamchiliklar: Jamoaviy ish va o'zaro hamkorlikka to'siqlar, xodimlarning bir-birlariga qo'llab-quvvatlashini kamaytiradi va umumiy ish muhitini salbiy ta'sir qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari akademik xodimlar samaradorligini oshirishda mehnat sharoitlarini yaxshilash zarurligini ko'rsatadi. Ergonomik muhit, zamonaviy texnologiyalar va malaka oshirish imkoniyatlarini rivojlantirish orqali xodimlarning qoniqish darajasi va ish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shuningdek, o'zaro hamkorlik va jamoaviy ish muhitini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqish zarur. Ushbu tavsiyalar akademik muassasalarda samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sonnentag, S. (2018). The role of work environment in employee well-being. *Journal of Organizational Behavior*.
2. Bakker, A. B., & Demerouti, E. (2017). Job demands-resources theory: Taking stock and looking forward. *Journal of Occupational Health Psychology*.
3. González, A., et al. (2020). Work environment and employee performance: A systematic review. *International Journal of Environmental Research and Public Health*.
4. Fayolle, A., & Gailly, B. (2015). The impact of work environment on employee performance: A review of the literature. *Management Decision*.
5. Klein, H. J., et al. (2019). Retention of academic staff: The role of work environment. *Educational Management Administration & Leadership*.
6. Shodmonov, M. (2020). Mehnat muhitining ta'siri: O'zbek akademik xodimlari misolida. O'zbekiston Ta'limi.
7. Abdullayev, R. (2021). Akademik muassasalarda mehnat sharoitlarini takomillashtirish. O'zbekistonda Ta'lim Rivoji.

KLASTER IQTISODIYOTINING INNOVATSIYALARNI UZATISHDAGI ROLI

РОЛ КЛАСТЕРНОЙ ЭКОНОМИКИ В ТРАНСМИССИИ ИННОВАЦИЙ

THE ROLE OF THE CLUSTER ECONOMY IN THE TRANSMISSION OF INNOVATIONS

Usmonov Sh.P. (NamMTI tayanch doktoranti)

Zamonaviy iqtisodiyot global raqobat, tez o'zgarishlar, axborot va kommunikatsiyalarning tobora tez oqimi, o'sib borayotgan biznes murakkabligi va keng tarqalgan globallashuv bilan tavsiflanadi. O'zgarishlar tezligi shunchalik yuqori bo'ldiki, biz o'z mohiyatiga ko'ra innovatsion biznesning yangi davri tug'ilishi haqida gapirishimiz mumkin. Ushbu yangi iqtisodiy va ishbilarmonlik muhiti tez-tez texnologik yutuqlar, bozorlarda o'yin qoidalarini tez o'zgartirishi va ushbu tez o'zgarishlarga moslashgan va ustuvorliklari ham katta tezlikda o'zgarib boshlagan yangi xaridorning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: klaster, innovatsiya, potensial, korxonalar, ishlab chiqarish, korporatsiya, daromad, foyda.

Современная экономика характеризуется глобальной конкуренцией, быстрыми изменениями, все более быстрыми потоками информации и коммуникаций, растущей сложностью бизнеса и повсеместной глобализацией. Скорость изменений стала настолько высокой, что можно говорить о зарождении новой эры инновационного бизнеса. Эта новая экономическая и деловая среда часто характеризуется технологическим прогрессом, быстро меняющимися рыночными правилами и появлением нового покупателя, который адаптируется к этим быстрым изменениям и чьи приоритеты также начинают меняться с высокой скоростью.

Ключевые слова: кластер, инновация, потенциал, предприятие, производство, корпорация, доход, прибыль.

The modern economy is characterized by global competition, rapid changes, increasingly rapid flow of information and communications, growing business complexity and widespread globalization. The speed of changes has become so high that we can talk about the birth of a new era of innovative business. This new economic and business environment is often characterized by technological advances, rapidly changing market rules, and the emergence of a new buyer who adapts to these rapid changes and whose priorities also begin to change at high speed.

Key words: cluster, innovation, potential, enterprise, production, corporation, income, profit.

Yangi bilimga asoslangan iqtisodiyotning tez o'zgaruvchan muhitida kiruvchi ma'lumotlarning ishonchligi, tezligi va hajmi hamda eng ilg'or bilimlar kompaniya muvaffaqiyatining kaliti, ba'zan esa uning omon qolishi masalasidir. Foydalanilmayotgan bilimlar juda tez eskiradi, ishlatilgan bilim esa yangi imkoniyatlar yaratadi, bu esa o'z

navbatida yangi bilimlarni hosil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, innovatsion paradigmalarning global rivojlanishning yangi iqtisodiy tendensiyasi bo'lib, u uchta harakatlantiruvchi kuchga: bilim, o'zgarish, globallashtirishga asoslanadi, deyishimiz mumkin [1].

Klaster iqtisodiyoti ijodkorlik muhitini yaratish va butun biznes hamjamiyatining innovatsion tafakkurini shakllantirishni ta'minlash imkonini beradi. Bizda innovatsiyalarni tijoratlashtirish uchun haqiqatan ham ishlaydigan mexanizmlarni takomillashtirish lozim. Klaster iqtisodiyoti ushbu mexanizmlarni yaratish va amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Klaster tahlili qabul qilingan mezonlar bo'yicha tarmoq innovatsion tuzilmasining potensialini belgilovchi tanlangan omillarni asosiy omillar asosida maqsadli pozitsiyalarga va rivojlanish strategiyalariga erishish uchun harakatlar vektorini tanlashga imkon beradi. Faktorning individual qiymati o'zgarganda, boshqa omillarning ahamiyati o'zgaradi va klaster tahlili vaqt o'tishi bilan ushbu o'zgarishlarni samarali kuzatish imkonini berdi.

Klaster tahlili ilmiy yo'nalish sifatida 60-yillarning o'rtalarida o'zini namoyon qildi va o'sha paytdan boshlab jadal rivojlanib, statistika fanining eng jadal rivojlanishining tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Klaster tahlilining asosiy maqsadi ma'lumotlar namunasida o'xshash obyektlar guruhlarini topishdir. Yagona ta'rifning yo'qligiga qaramasdan, yuqorida ta'kidlanganidek, klasterlar umumiy xususiyatlarga ega, ulardan eng muhimi: zichlik, dispersiya, o'lcham, shakl va ajralish [2].

Klaster tahlilidan maqsadli pozitsiyaga erishish maqsadida strategik harakatlar majmuini amalga oshirish uchun omillar tasnifini yaratish va ularning ta'sir darajasini aniqlash usuli sifatida foydalanish strategik joylashishni aniqlash muammolarini muvaffaqiyatli hal qiladi. Strategik joylashishni aniqlashda klaster tahlilining maqsadlari:

- tarmoq innovatsion tuzilmasi strategiyasini tanlashga ta'sir etuvchi sifat jihatidan o'xshash, o'zaro bog'liq omillar tasnifini ishlab chiqish;
- ta'sir darajasini hisoblash va innovatsion klasterning strategik pozitsiyalarini belgilovchi asosiy omillarni aniqlash;
- muvaffaqiyatning asosiy omillari mavjudligi haqidagi farazlarni sinab ko'rish.

Klaster tahlili asosida tarmoq innovatsion tuzilmasining potensialini belgilovchi asosiy omillarni aniqlash asosiy omillar ta'siriga adekvat javob berish orqali korxonani strategik joylashtirish jarayonining sifat jihatidan yaxshilanishini ta'minlaydi. Klaster tahlilidan foydalanish strategik muqobil variantlarni ishlab chiqishga imkon beradi, ular asosida ma'lum strategik harakatlar korxonaning pozitsiyasiga nisbatan baholanishi mumkin. Bundan tashqari, allaqachon shakllantirilgan alternativani tanlash ikki yoki uchta emas, balki raqobatbardoshlik kabi yaxlit yoki natijaviy xususiyatlarni ifodalovchi ko'plab omillarga asoslanadi. Klaster tahlilidan foydalanishning afzalligi klasterning ichki va tashqi muhitiga bog'liq bo'lgan sezilarli darajada ko'proq omillardan foydalanishdir. Bundan tashqari, klaster tahlili tadqiqot vaqtida ma'lum bir omilning ahamiyatini aniqlash imkonini beradi [3].

Grafik usuli asosida klaster innovatsion tuzilmasining salohiyatini baholashning umumiy mezon ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular uni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [4]. Ekspertlar tahlili asosida 20 ta ko'rsatkichdan eng muhimi aniqlandi: klasterning to'liq aylanishi, hamkorlik aloqalari tizimi va texnologik transfer.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy korxonalar innovatsion g'oyalarni izlashda asosan o'z imkoniyatlariga yo'naltirilgan va ichki manbalarga, birinchi navbatda, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish va marketing bo'limlari faoliyati natijalariga tayanadi. Biroq, bu resurs korporativ fan sektorining zaif rivojlanish darajasi tufayli cheklangan. Yangi g'oyalar va loyihalarni ishlab chiqaruvchi yuqori texnologiyali korxonalar bundan mustasno

bo'lishi mumkin, bu yerda iste'molchilarning xohish-istaklarini yetkazadigan bozor kanallariga katta ahamiyat beriladi.

Yirik va o'rta korporatsiyalar, kichik innovatsion korxonalar va oliy o'quv yurtlari o'rtasida integratsion aloqalarni yaratishga kirishish zarur. Ushbu strategik hamkorlik, avvalroq ta'kidlanganidek, mintaqaviy ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirishga olib keladigan integratsiya jarayonining birinchi bosqichi bo'lib, uning maqsadi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishdir. Innovatsion rivojlanish samaradorligi nafaqat mustaqil xo'jalik subyektlari faoliyati qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga, balki ular o'rtasidagi munosabatlarning samaradorligiga, balki mintaqaviy innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning to'g'ri tanlangan strategiyasiga ham bog'liq.

Umuman olganda, klasterni rivojlantirishdan biznes uchun foyda joriy faoliyat va bozorni rivojlantirishda samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish, yangi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratishda moslashuvchanlik va innovatsion salohiyatni oshirishdan iborat.

Innovatsion jarayonlarni boshqarishda klaster yondashuvidan foydalanish Yevropa mamlakatlarida rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi klaster birlashmalarining shakllarini diversifikatsiya qildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) 2008 yildagi "Firmalarning innovatsion darajasini oshirish: siyosat va amaliy vositalarni tanlash" tahliliy sharhida klasterlarning quyidagi asosiy xususiyatlari ta'kidlangan:

- geografik konsentratsiya (yaqin joylashgan firmalar tezkor ishlab chiqarish o'zaro ta'siri, ijtimoiy kapital almashuvi va o'quv jarayonlarini tejash imkoniyati bilan jalb qilinadi);

- ixtisoslashuv (klasterlar barcha ishtirokchilar bog'liq bo'lgan muayyan faoliyat sohasi atrofida to'plangan);

- iqtisodiy agentlarning ko'pligi (klasterlar faoliyati nafaqat ular tarkibiga kiruvchi firmalarni, balki jamoat tashkilotlari, akademiyalar, moliyaviy vositachilar, hamkorlikka ko'maklashuvchi institutlar va boshqalarni ham qamrab oladi);

- raqobat va hamkorlik (firmalar – klaster a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy turlari sifatida);

- klaster o'lchamida kerakli "kritik massa" ga erishish (ichki dinamika va rivojlanish ta'sirini olish uchun);

- klasterlarning hayotiyliigi (uzoq muddatga mo'ljallangan);

- innovatsion jarayonga jalb qilish (klaster tarkibiga kiruvchi firma va korxonalar odatda texnologik mahsulot, bozor yoki tashkiliy innovatsiya jarayonlariga kiritiladi).

Umuman olganda, klasterning paydo bo'lishi, kamdan-kam holatlardan tashqari, o'z-o'zidan, ma'lum omillarning kombinatsiyasi ta'siri ostida sodir bo'ladi, ular orasida tadbirkorlik tashabbusini asosiy deb hisoblash mumkin. Klasterlarni shakllantirishning asosi ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bir yoki bir nechta birlashtiruvchi omillarni bo'lishish imkoniyati yoki zarurati hisoblanadi, masalan: asosiy texnologiyalar, mahsulotlarning marketingini ilgari surish kanallari, kadrlar tayyorlash tizimi, bilimlarni ishlab chiqarish tizimi, bitta mahsulot maydoni bilan qanday bog'liqligi.

Klasterni shakllantirish uchun quyidagi vositalar to'plami mavjud:

- klasterni rivojlantirish subyektini shakllantirish va biznesning faol ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmaydigan aloqa muhitini rivojlantirishni o'z ichiga olgan tashkiliy va kommunikativ;

- ishlab chiqarish, muhandislik yoki klasterni shakllantirish uchun zarur bo'lgan

boshqa infratuzilmani yaratishni nazarda tutuvchi investitsiyalar;

- normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish va kadrlar, axborot, marketing va boshqa dasturlarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan tashkiliy-huquqiy.

Har qanday klaster ma'lum bir qator bosqichlardan o'tadi. Ular barcha klasterlar uchun bir xil bo'lmasligi mumkin va ularning rivojlanish sur'ati har xil bo'lishi mumkin. Biroq, klasterlarning rivojlanish yo'lida ba'zi xarakterli naqshlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradigan ichki mantiq mavjud.

Analitik vazifaga qarab, potensial klasterning turli sxemasidan foydalanish mumkin. Eng ko'p ishlatiladigan klaster sxemalariga quyidagilar kiradi:

- bosqichli-strukturaviy, klaster tuzilmasi rivojlanishini dinamikada qayd etish, uning asosiy vazifasi klaster tuzilmasida uning rivojlanishi uchun paydo bo'lishi kerak bo'lgan yangi elementlarni aniqlashdan iborat;

- ishlab chiqarish va texnologik, bunda asosiy ishlab chiqarish va texnologik jarayon bosqichlarini klasterda, qo'llab-quvvatlovchi ishlab chiqarish va asosiy infratuzilmani qayd etadi;

- muammoli, potentsial klaster tuzilmasi va mavjud vaziyat o'rtasidagi tafovutlarni yoki potentsial klasterning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi muammolar.

Aniq shakl va yo'nalish ma'lum holatlarga bog'liq bo'lsa ham, klaster hayot siklining quyidagi bosqichlaridan o'tadi: klasterning paydo bo'lishi; klasterning rivojlanishi; yetuk klaster; klaster transformatsiyasi.

Klasterning o'ziga xos jihati shundaki, u yagona yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tmagan va yagona xo'jalik yurituvchi subyekt emas. Klasterning paydo bo'lishi va rivojlanishi ba'zi hollarda ma'lum bir ssenariyga muvofiq amalga oshiriladi, masalan, hokimiyat tomonidan klasterni rivojlantirishda faol ishtirok etgan taqdirda. Qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun vaqtincha birlashgan xo'jalik yurituvchi subyektlar guruhlarini tomonidan iqtisodiy faoliyatni birgalikda rejalashtirish juda keng tarqalgan [5].

Sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, klasterlarning quyidagi turlari ajratiladi [6].

1. Diskret klasterlarga diskret butlovchi qismlardan tashkil topgan mahsulotlar (va tegishli xizmatlar) ishlab chiqaruvchi korxonalar, shu jumladan, avtomobilsozlik, aviatsiya sanoati, kemasozlik, dvigatelsozlik, mashinasozlik kompleksining boshqa tarmoqlari korxonalarini, shuningdek, qurilish industriyasi va ishlab chiqarish sohasidagi tashkilotlar kiradi. Qoida tariqasida, bu klasterlar yig'ish zavodlari va qurilish tashkilotlari atrofida rivojlanayotgan kichik va o'rta yetkazib beruvchi kompaniyalardan iborat.

2. Texnologik klasterlar kimyoviy, sellyuloza-qog'oz, metallurgiya sanoati, shuningdek, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati va boshqalar kabi texnologik tarmoqlar deb ataladigan korxonalar tomonidan shakllantiriladi.

3. Turistik klasterlar hududdagi turistik aktivlar asosida shakllanadi va turistlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan turli soha korxonalarini, masalan, turoperatorlar, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish sektori, suvenir ishlab chiqaruvchilar, transport korxonalarini va boshqalardan iborat.

4. Transport-logistika klasterlariga tovarlar va yo'lovchilarni saqlash, qo'llab-quvvatlash va yetkazib berishga ixtisoslashgan infratuzilma va kompaniyalar majmuasi kiradi. Klaster tarkibiga port infratuzilmasi obyektlariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, dengiz, daryo, quruqlik va havo transportiga ixtisoslashgan kompaniyalar, logistika majmualari va boshqalar ham kirishi mumkin. Katta tranzit salohiyatiga ega hududlarda

transport-logistika klasterlari rivojlanmoqda.

5. Axborot texnologiyalari, biotexnologiyalar, yangi materiallar kabi “yangi tarmoqlar” deb ataladigan sohalarda, shuningdek, ijodiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohalarida (masalan, kinematografiya) innovatsion va “kreativ” klasterlar rivojlanmoqda. Innovatsion klasterlarga oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda amalga oshirilayotgan texnologiyalar va ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish jarayonida paydo bo‘layotgan ko‘plab yangi kompaniyalar kiradi.

6. Bir necha turdagi klasterlarning xususiyatlarini birlashtirgan aralash turdagi klasterlar. Innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish klasteri raqobatbardoshlikning yuqori darajasiga erishishning eng samarali shakli bo‘lib, turli tashkilotlar (sanoat kompaniyalari, ilmiy markazlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, davlat organlari, universitetlarning jamoat tashkilotlari va boshqalar) sa‘y-harakatlarini norasmiy birlashtirishdir [7].

Oliy o‘quv yurtlari va korxonalar o‘rtasidagi strategik hamkorlik mintaqaviy ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirishga olib keladigan integratsiya jarayonining birinchi bosqichi bo‘lib, uning maqsadi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishdir.

Rivojlanish strategiyasiga ko‘ra klasterlar quyidagi turlarga bo‘linadi.

1. Infratuzilma-innovatsion klaster mahsulotlarni kafolatlangan iste‘mol qilish tizimi atrofida shakllantiriladi va mavjud infratuzilmalardan foydalanadi, lekin prinsipial jihatdan yangi texnologik yechimlardan foydalanadi.

2. Innovatsion klaster ilgari mavjud bo‘lmagan prinsipial yangi infratuzilmalar negizida shakllanadi. Ushbu klasterda mahsulotga bo‘lgan kafolatlangan talabni hisoblab bo‘lmaydi va bu klasterni shakllantirish faqat davlat kafolatlari asosida amalga oshiriladi.

3. Mavjud sanoatni o‘zgartirish asosida ultratuzilmaviy yoki metasanoat klasteri shakllantiriladi va eng ilg‘or texnologiya yaratiladi, uning atrofida zarur korxonalar tizimi shakllanadi.

4. Qarzga olingan klaster amaliy texnologiyalarning xorijiy tajribasi misolida shakllantirilib, import o‘rnini bosuvchi texnologiyalarga asoslanadi.

Yirik va o‘rta korporatsiyalar, kichik innovatsion korxonalar va oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida integratsion aloqalarni yaratish ham innovatsion jarayonni samarali tashkil etishning eng maqbul yo‘lidir. Innovatsion rivojlanishning samaradorligi nafaqat mustaqil xo‘jalik subyektlari faoliyati qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lishiga, balki ular o‘rtasidagi munosabatlarning samaradorligiga va innovatsion tadqiqot va ishlab chiqarish klasterining salohiyatiga ham bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иммельт, Джеф, ШИЧКИНА М. И. Экономический кризис — триггер перехода к инновационной экономике [Электронный ресурс] / «Жизн без опасностей. Здоровье. Профилактика. Долголетие»- 2009. - № 2 <http://www.ns-mbz.ru/infocenter/articles/109-ns-mbz.html>
2. Мандель, И. В. Кластерный анализ [Текст] / И. В. Мандел - М.: Финансы и статистика, 1988. – 176 с.
3. Брюханов, В. В. Стратегическое позиционирование предприятий полиграфической промышленности на основе кластерного анализа: автореф. дис. канд. экон. наук [Электронный ресурс] / Брюханов Валентин Васильевич; [Сиб. гос. аэрокосм. ун-т им. М. Ф. Решетнева]. - Красноярск, 2006. [Электронный ресурс] //Режим доступа:
4. Развитие инновационной экономики: теория и практика, под ред. д-ра экон. наук, проф. А. В. Бабкина [Текст]. – СПб.: Изд-во Политех. Ун-та, 2012. -484 с. 352-355.

5. Лазарева, Е. И. Кластерная политика эффективной интеграции региона в процесс качественного экономического роста [Текст] / Е. И. Лазарева // Экономический вестник Ростовского государственного университета. - 2006. - № 3. - С. 283-287.
6. Методические рекомендации по реализации кластерной политики в субъектах Российской Федерации [Текст документа по состоянию на июль 2011 года]. – [Электронный ресурс] // Режим доступа: <http://www.bestpravo.ru/federalnoje/ea-instrukcii/ybr.htm>:
7. Денисова, Т. П. Проблемы формирования новой эффективной инфраструктуры для инновационного развития экономики [Текст] / Т. П. Денисова, Е. М. Ильинская // Вузовская наука: теоретика - методологические проблемы подготовки специалистов в области экономики, менеджмента и права: материалы Международного научного семинара. – Выпуск 9. / под ред. М. Л. Белоножки. – Тюмень: ТюмГНГУ, 2011. -340 с.

UDK: 338.45

INNOVATSIYA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM SHARTI

ИННОВАЦИИ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

INNOVATION IS AN IMPORTANT CONDITION FOR ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT

Mirzayev K.N. (NamMTI, o‘qituvchisi, PhD)

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda yangi muammolarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, mavjud nazariy tushunchalar innovatsion jarayonini tadbirkorlik subyektiga yo‘naltirishdagi yangi amaliy yondashuvlarni yaratishni taqozo qilmoqda. Zamonaviy innovatsion nazariyani tadbirkorlik subyektlariga tatbiq qilish uchun iqtisodiy nazariya va tadbirkorlik g‘oyalarining umumlashtiruvchi yo‘nalishlarini hisobga olish kerak.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion jarayon, tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, raqobat, foyda, sifatli mahsulot, ishlab chiqarish.

Сегодня экономика стран мира сталкивается с новыми проблемами в производстве качественной продукции. В то же время существующие теоретические концепции требуют создания новых практических подходов к направлению инновационного процесса на субъект хозяйствования. Чтобы применить современную теорию инноваций к субъектам предпринимательства, необходимо учитывать общие тенденции экономической теории и идеи предпринимательства.

Ключевые слова: инновация, инновационный процесс, предпринимательство, предпринимательская деятельность, конкуренция, прибыль, качественный продукт, производство.

Today, the economy of the countries of the world is facing new problems in the

production of quality products. At the same time, existing theoretical concepts require the creation of new practical approaches to directing the innovation process to the business entity. In order to apply modern innovation theory to business entities, it is necessary to take into account general trends of economic theory and entrepreneurship ideas.

Key words: innovation, innovation process, entrepreneurship, entrepreneurial activity, competition, profit, quality product, production

Jahonda integratsiyalashuv va globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish sharoitida mamlakatning barcha faoliyat sohasini, o'z navbatda, tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirishda fan-texnika va innovatsiyalarning zamonaviy ilmiy yondashuv va qarashlarini hisobga olinishi lozim. Innovatsion jarayonning uzluksizligini ta'minlash, shuningdek, raqamli texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishlarni takomillashtirish hisobiga iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish hamda sof raqobatli bozor iqtisodiyotiga o'tish Yangi O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga ko'maklashuvchi zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti tadbirkorlikning mahalliy va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, innovatsiyani tadbirkorlikning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi. Hozirgi paytda bu tadbirkorlikning barcha sohasining eng asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib, tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyaning zamonaviy nazariyasini belgilab beradi.

E'tiborli jihati, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ham nazariy ham amaliy qo'llanilayotgan "innovatsiya" atamasiga yanada mazmunli va batafsil yondashish talab qilinishi muqarrar.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida innovatsiyalarning roli, innovatsion mahsulotlarni joriy etish yo'nalishlarida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatini raqamlashgan faoliyatga asoslangan iqtisodiy sektorning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Innovatsiyaning mohiyati va ahamiyati bo'yicha bir qator xorijiy iqtisodchi olimlarning o'z tadqiqot ishlarida o'z nazariyalarini keltirib o'tganlar. Jumladan, iqtisodchi olim D.Rikardo qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar va resurslarni tejashga asoslangan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini asoslab berdi[1].

Rossiya davlati olimi N.D. Kondratev "Uzoq to'lqinlar" nomli kashfiyotida ushbu to'lqinlar bilan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda texnologiya va vositalarning tubdan o'zgarishi bo'lgan texnologik jarayonlarning o'zgarishi bilan bog'liq[2]. Keyinchalik uning nazariyasi S.Y.Glazev tomonidan davom ettirilib, u texnologik jarayonlarning o'zgarishini jamiyatning innovatsion yangilanishi bilan bog'ladi[3]. Avstriyalik iqtisodchi Y.A.Shumpeter esa innovatsiyaning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili sifatidagi ahamiyatini asoslab berdi, shuningdek, innovatsiyaning bozor iqtisodiyotida aylanishini tadqiq qildi va unga ko'ra, amaldagi iqtisodiy tizimning yangi bosqichga o'tilishi izohlab berdi[4].

Shuningdek, iqtisodchi olim G.Mensh o'z ilmiy qarashlarida, innovatsiyalar, iqtisodiy bosqichlar ketma-ketligining xususiyati hamda iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni innovatsiya bilan asosladi va bu yangi korxonalarni tashkil etish uchun turtki hisoblanadi, deb aytib o'tdi[5]. F.Yansen esa, innovatsion transformatsiyalar strategiyasini "o'zaro mustahkamlash halqalari" deb ataladigan "zanjir" bilan bog'lab, ijtimoiy rivojlanish jarayonini yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlar va xizmatlar, yangi bozorlar, shuningdek,

boshqaruvga yangi yondashuvlar kabi ketma-ketlikda taqdim etdi[6]. Iqtisodchi olim J.K.Gelbreyt esa turli iqtisodiy sohalarning rivojlanishida texnologik tuzilmaning rolini asoslab berdi[7]. M.Y.Porter o'zining innovatsiyaga bo'lgan ilmiy yondashuvida dunyoning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyotining yuzdan ortiq tarmoqlari raqobatbardoshligini tahlil qilish asosida korxonalar o'zlarining raqobatbardosh ustunliklariga, jumladan, innovatsiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni yaxshilashga e'tibor qaratishlari zarur, degan xulosaga keldi[8].


Yuqorida berib o'tilgan ta'riflarni umumlashtirib shuni aytishimiz mumkinki, "Innovatsiya – bu shunday faoliyatki, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etilishi natijasida amaldagi texnologiyani takomillashtirishga, shuningdek, raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarning yangi turini yaratish orqali korxonaning istiqboldagi iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan barcha ilmiy, texnologik va iqtisodiy jarayonlar majmuidir".

Bizga ma'lumki, tadbirkorlik subyektlari doimo mahsulot ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va sof foyda miqdorini oshirishni o'z oldilariga maqsad qilib oladilar. Shunday ekan, ular o'z faoliyatlari davomida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, yangi va takomillashgan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazishning eng qulay sharoitlarini yaratish, amalda foydalanilayotgan texnologiyalarini modernizatsiyalash va yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish hamda mahsulot ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashni nazarda tutuvchi faoliyatni joriy etish natijadorligini asos qilib oladilar.

Tadbirkorlik subyektlarida innovatsiyalarni joriy etish asosida tadbirkorlikni rivojlantirishning hududiy ishlab chiqarish-maslahat guruhlarini faoliyatini tashkil etishdan maqsad, hududiy sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarida, ayniqsa, mahsulot ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlarida innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar ulushini muntazam ravishda o'sib borishini ta'minlash hisobiga tadbirkorlik subyektlari va innovatsion infratuzilmalarning o'zaro manfaatli hamkorligini tashkil etish hamda samarali natijadorlikka erishishdan iborat. Tadbirkorlik subyektlari va innovatsion infratuzilmalarning o'zaro bunday hamkorligi moslashuvchanlik, aloqa kanallarini rivojlantirish va uning barcha tarkibiy qismlari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun zamonaviy talablarga javob berishi talab etiladi. Ushbu tizimda markaziy bo'g'in vazifasini o'taydigan hududiy ishlab chiqarish – maslahat guruhlarini faoliyatini Davlat-xususiy sheriklik tamoyiliga bevosita aloqador bo'lib, innovatsion faoliyatni tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etish va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Tadbirkorlik subyektlarida innovatsiyalarni joriy etish asosida tadbirkorlikni rivojlantirishning hududiy ishlab chiqarish-maslahat guruhlarini faoliyatini tashkil etish mexanizmi 1-rasmda berilgan.

Amaliyotda tadbirkorlik subyektlarining mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zaro hamkorligi davlat-xususiy sheriklikni (keyingi o'rinlarda DXSh deb yuritiladi) tashkil etish yo'li bilan yo'lga qo'yiladi. Innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional tizimini takomillashtirish orqali innovatsion faol tadbirkorlik subyektlari ulushini oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu hamkorlikni yo'lga qo'yishdan maqsad, tadbirkorlik faoliyatida innovatsion faoliyatining tadbirkorlik subyektlari, mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zaro munosabatlarning dolzarbligini ilmiy, amaliy asoslab berishdan iborat.



1-rasm. Tadbirkorlikda innovatsiyalarni joriy etish asosida tadbirkorlikni rivojlantirishning hududiy ishlab chiqarish-maslahat guruhlari faoliyatini tashkil etish mexanizmi.

Tadbirkorlik subyektlari doimiy ravishda moliyalashtirish manbalarini hamda qulay bozor konyunkturasini izlashda bo'lganligi sababli, taklif etilayotgan yo'nalishlar bu muammoni ma'lum darajada hal qilishga yordam beradi. Shu asosda tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy yordam ko'rsatishning yangi usullari shakllantirilishi mumkin, bu esa tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat-xususiy sherikligi yordamida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga e'tiborni quyidagi tarzda shakllantirish mumkin:

- munitsipal tuzilmalari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida shartnoma tuzish;

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun mahalliy hududlardagi kichik sanoat zonalaridagi obyektlarni keyinchalik sotib olish bilan moliyaviy lizing shartnomasi yoki ijara shartnomasini tuzish;

- infratuzilma subyektlaridan foydalanish huquqini beruvchi shartnomalarni tuzish;

- mahalliy hokimiyat organlari tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlari doimo yangi innovatsion va ilmiy yondashuvlar ustida tadqiqotlar o'tkazish orqali faoliyat doiralarini kengaytirib takomillashtirib boradilar. Buning uchun tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda tadbirkor rivojlangan mamlakatlardagi innovatsiya bo'yicha o'zgarishlarni hisobga olish zarur.

Bizning fikrimizcha, innovatsiyani tadbirkorlik faoliyatiga joriy qilish natijasida tadbirkorlik subyektlari quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

- tadbirkorlik subyektlarida rentabellik ko'rsatkichlarining oshishiga turtki beruvchi iqtisodiy samaraga erishiladi;

- tashqi investitsiya mablag'lariga bo'lgan ehtiyojning kamayishi hisobiga tadbirkorlik subyektlarining o'z mablag'lari manbalarini kengaytirish bo'yicha shart-sharoitlar yaratiladi;

- iste'molchilar tanlovini qondirish hisobiga kafolatlangan mahsulotlarni yetkazib berish bozorini ta'minlash;

- mahalliy byudjet daromadlari manbaini oshirish imkoniyati;

- mahalliy hokimiyat organlarining innovatsion faoliyatdagi ishtiroki tufayli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Рикардо, Д. Начало политической экономики и налогового обложения / Д. Рикардо; пер. с англ. П. Сраффа. – Москва: Эксмо, 2007. – 960 с.
2. Большие циклы конъюнктуры и теория предвидения: избранные труды / Н.Д. Кондратов, Ю.В. Яковец, Л.И. Абалкин. – Москва: Экономика, 2002. – 767 с.
3. Глазев, С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития / С.Ю. Глазев. – Москва: ВладДар, 1993. – 310 с.
4. Шумпетер, Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й.А. Шумпетер; пер. с нем.: В. С. Автономов, М. С. Любский, А. Ю. Чепуренко; пер. с англ.: В. С. Автономов и др. – Москва: Эксмо, 2007. – 864 с.
5. Менш, Г. Технологический пат: инновации преодолевают депрессию / Г. Менш. – Москва: Экономика, 2001. – 211 с.
6. Янсен, Ф. Эпоха инноваций: как занимается бизнесом творчески постоянно, а не от случая к случаю: пер. с англ. / Ф. Янсен. – Москва: ИНФРА-М, 2002. – 308 с.
7. Гэлбрейт, Дж.К. Новое индустриальное общество / Дж.К. Гэлбрейт. – Москва: АСТ, 2004. – 602 с.
8. Портер, М.Ю. Международная конкуренция. Конкурентные преимущества стран: пер. с англ. – Москва: Международные отношения, 1993. – 896 с.

UDK: 334.72.012.64

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA IQTISODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОКРАЩЕНИИ БЕДНОСТИ

SHAPING ECONOMIC THINKING IN POVERTY REDUCTION

Xolmirzayev A.X. (NamMTI o‘qituvchisi, PhD)

Maqolada yoshlarning iqtisodiy tadbirkorlik tafakkurini zamonaviy islohotlarga moslashtirish, yangicha iqtisodiy tadbirkorlik tafakkuri, mamlakatimizda kambag‘al aholi qatlamlarini qisqartirishda iqtisodiy tadbirkorlik tafakkurini shakllantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, iqtisodiy tadbirkorlik tafakkuri, kambag‘allikni qisqartirish, iqtisodiy tarbiya, yangicha iqtisodiy muhit, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.

В статье даются предложения и рекомендации по адаптации экономического предпринимательского мышления молодежи к современным реформам, новому экономическому предпринимательскому мышлению, формированию экономического предпринимательского мышления в сокращении бедного населения в нашей стране.

Ключевые слова: предпринимательство, экономическое предпринимательское мышление, сокращение бедности, экономическое образование, новая экономическая среда, малый бизнес и частное предпринимательство.

The article provides suggestions and recommendations for adapting the economic entrepreneurial thinking of young people to modern reforms, new economic entrepreneurial thinking, and the formation of economic entrepreneurial thinking in reducing the poor population in our country.

Key words: entrepreneurship, economic entrepreneurial thinking, poverty reduction, economic education, new economic environment, small business and private enterprise.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi aholining turmush darajasini oshirishdan iborat. Bunga milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq, sohalarida tadbirkorlikni muntazam rivojlantirish yo‘li bilan erishiladi. Tadbirkorlik mamlakat aholisini bandligini ta‘minlash orqali ularning daromadlilik darajasini oshirishga va turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar xalq uchun, ularning bugungi kundan rozi bo‘lib yashashlari uchun xizmat qilishi zarur. Bunda jamiyatning iqtisodiy negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Muhimi tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o‘z faoliyati yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqliligi bosh Qomusimizda belgilab qo‘yilgan[1]. Demak, O‘zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish orqali aholi daromadligini ta‘minlash, doimiy ish o‘rinlariga ega bo‘lishi, kambag‘allikni kamaytirishning huquqiy meyoriy asoslari mavjud.

2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo‘lgani kabi bizda ham kam ta’minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, ular taxminan 12 - 15 foizni tashkil etadi. Bu o‘rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda”, deya alohida ta’kidladilar [2].

Milliy iqtisodiyotimizga kambag‘allik tushunchachini kirib kelishi bilan, kambag‘allikning mohiyati, kelib chiqish sabablari va kambag‘al aholi qatlamini kamaytirish bo‘yicha iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodchi Sh.Mustafaqulov kambag‘allikka nisbatan o‘z yondashuvini bayon etib, “kambag‘allik – turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolining ko‘rsatkichidir”[3], iqtisodchi M.G‘anniev “Kambag‘allik – bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘zgaruvchan daromadlar tengsizligi va ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy, ekologik, demografik jarayonlar bilan bog‘langan munosabatlarning mahsuli bo‘lib, insonlarning minimal iste’moli uchun hayotiy zarur ne’matlarning yetarli bo‘lmasligi”[4] deb ta’riflaydilar.

Bizningcha, kambag‘al aholi qatlamini qisqartirishda aholida, ayniqsa, yoshlarda iqtisodiy tadbirkorlik tafakkurini shakllantirib borish zarur deb hisoblaymiz. Iqtisodiy tadbirkorlik tafakkurning madaniy yondashuvi natijasida kundalik hayotimizga “biznes”, “ishbilarmonlik” va “tadbirkorlik” kabi tushunchalar kirib kelishi islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biznesmen faoliyat bilan shug‘ullanar ekan, uning tafakkurida yangicha iqtisodiy bozor tamoyili, muhitiga mos bo‘lgan qoidalarni o‘zlashtirishga olib keluvchi intilish va ko‘nikmaning shakllanishi namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, iqtisodiy tadbirkorlik tafakkurning rivojlanishi yakka tartibdagi va jamoat iqtisodiy ongining shakllanishi bilan bog‘langan. Mutaxassislar fikricha, iqtisodiy tafakkur – shaxsning iqtisodiy voqelikni bevosita aks ettiruvchi va ularning mazkur rivojlanishi jarayonida jamiyatning xo‘jalik, iqtisodiy hayoti hodisalariga munosabatini ifodalaydigan g‘oyalari, qarashlari, tasavvurlari majmuidir. Iqtisodiy tarbiya bilan birgalikda iqtisodiy ta’lim ana shunday ongni shakllantirishning muhim vositalari hisoblanadi.

Bizningcha, kambag‘allikni bartaraf etish uchun hozirgi yoshlarning tafakkurini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha shakllantirish lozim:

- zamonaviy iqtisod fani darajalari bilan fikrlashga va uning yutuqlarini amaliyotda samarali qo‘llash;
- oqilona biznes yuritish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, o‘z faoliyatini amalga oshirish;
- foyda olish maqsadidagi faoliyati uchun iqtisodiy qonun-qoidalarni, me‘yoriy-huquqiy xujjatlarni tushunish va ulardan samarali foydalanish;
- davlatning moliyaviy iqtisodiy qudratini oshirishda faol, ijodiy ishtirok etishga o‘rgatish.

Jamiyat a‘zolari, ayniqsa, yoshlarda bunday iqtisodiy tafakkurning shakllanishi iqtisodiy rivojlanishining bir darajadan ancha yuqori darajaga muvaffaqiyatli o‘tish va kambag‘allikni qisqartirish uchun ishonchli shart-sharoit yaratadi. Zero, iqtisodiy tadbirkorlik tafakkuri bilan biznes yuritish amaliyoti o‘zaro juda ham uzviy bog‘liklikka ega. Albatta, ularning bog‘liqligi oddiy emas. Iqtisodiy tadbirkorlik tafakkuri iqtisodiy bilim asosiga qurilgan bo‘lib, ishonchli bo‘lishi, iqtisodiy, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan jarayonlarni haqqoniy aks ettirishi kerak. Iqtisodiy tadbirkorlik tafakkuri asosida yoshlarni tarbiyalash,

shakllantirish uchun faoliyatning xilma-xil shakllari bo'lishligini taqozo etadi. Buning uchun yoshlarda ijtimoiy-iqtisodiy bilimlar, sohadagi mahorat va malaka, ko'nikmalardan tashqari muayyan imkoniyat, shart-sharoit ham zarur. Bular yaxlitlikda bamisoli tashqariga chiqib bo'lmaydigan doira shaklini hosil qiladi: iqtisodiy shart-sharoitni o'zgartirish uchun zamonaviy talab darajasidagi tafakkur zarur; iqtisodiy shart-sharoitni umume'tirof etilgan iqtisodiy tafakkursiz o'zgartirib bo'lmaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy tadbirkorlik tafakkuri orqali hamkorlik munosabatlarda o'z o'rnini anglash, o'zining faoliyat tamoyillarini, uslublarini ishlab chiqish muayyan ijtimoiy guruhga, jamiyatga xos jarayon sifatiga bog'liq. Yuz berayotgan iqtisodiy voqelikni makon va zamonda anglash, xo'jalik yurituvchi subyektlar faol ishtiroki, tashabbuskorlikda yangicha fikrlashni talab qiladi. Aynan xo'jalik yurituvchi subyektlarning zamon talabiga hamohang xatti-harakatlari bu jarayonlarni amalga oshirishdagi samarali yechimini aniqlashning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy fikrlash (iqtisodiy psixologiyani o'zlashtirish orqali) bevosita va bilvosita xo'jalik yuritishning axloqiy qoidalarini shakllantiradi. U iqtisodiy madaniyatni ham shakllantiradi hamda tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Bunday vaziyatda ko'p narsa yoshlarning iqtisodiy tayyorgarlik darajasiga, ularda biznes yurita olish, tavakkalchilik yoki tejamkorlik singari hislatlar shakllanishiga, subyekt, ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohasida haqiqiy iqtisodiy faoliyatga iloji boricha ertaroq va faol jalb etishga bog'liqdir.

Shu bilan birga iqtisodiy tafakkur insonning aql-zakovat xususiyati, uning iqtisodiy hodisalarni aks ettirish, mushohada etish qobiliyati, ularning mohiyatini bilish, o'zlashtirish hamda iqtisodiy tushunchalar, tasavvur, nazariyalar, qonunlarni haqiqiy voqelikka tatbiq etish va tegishli tarzda iqtisodiy hayotda o'z yo'nalishini topish, iqtisodiy faoliyatni savodli tuzish qobiliyati sifatida ham maydonga chiqadi.

Har qanday murakkab hodisa singari, iqtisodiy fikrlash ham mukammal ko'p tomonli tizimga ega. Iqtisodiy fikrlashning obyektleri va subyektlari farqini, shuningdek, uning individual, guruh va jamiyat miqyosidagi keng ko'lamini aniq belgilash kerak.

Uning xususiyatlari u yoki bu sotsial guruhga xos bo'lgan, ularning manfaatlarini, kishilar tomonidan hal qilinuvchi muammolar yechimining birligini o'z ichiga qamrab olgan. Ayni paytda bu xususiyatlarni faoliyat sharoitlarining umumiyliги birlashtiradi. Iqtisodiy fikrlash subyektlarning yoshiga qarab guruhlar bo'yicha o'ziga xos xususiyatni vujudga keltiradi. Yoshlar asosan faol ijtimoiy guruh bo'lib, ularning fikrlashi, jamiyatdagi islohotlar sharoitida, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga ancha moyilroq. Ijtimoiy tadqiqotlar natijalari ham, katta yoshdagi avlod vakillariga nisbatan yoshlarning bozor munosabatlariga yaxshiroq moslashishi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

O'zbekistonda yoshlarni iqtisodiy tadbirkorlikka oid savodxonligini oshirish va malaka, amaliyot ko'nikmalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, amaldagi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tizimida ularning manfaatleri to'liq himoya qilinadi. Bu esa:

Bir tomondan – yoshlar o'rtasida iqtisodiy savodxonlikni oshirish va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga olib keladi. Sababi, tadbirkorlik faoliyati bilan band bo'lganlarning ijtimoiy hayotda yuksak martabaga ega bo'lishlari, bevosita yoshlar qatlamini befarq qoldirmaydi va ular uchun tadbirkor shaxs zamonaviy qahramon sifatida namoyon bo'ladi;

Ikkinchi tomondan – yoshlarning iqtisodiy munosabatlarning faol ishtirokchisi bo'lishini ta'minlash, bu bozor munosabatlari sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanishning muhim qonuniyati hisoblanadi. Shundagina, jamiyatda islohotlarni amalga

oshirishda, jamiyatda yangiliklarni joriy etishda namoyon bo‘ladi;

Uchinchi tomondan esa, yoshlar qatlamida tadbirkorlik salohiyati ortadi va biznesda bilan band bo‘lgan yoshlar qatlami o‘rtasida milliylikni, ma’naviyatni va o‘zlikni anglash his-tuyg‘usi ortadi. Chunki, ularning barcha qonuniy xatti-harakatlari bevosita jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladi. Bu yoshlarda bilim, tajriba va tadbirkor shaxsga xos madaniyatning bo‘lishi uchun unga qo‘shimcha mas’uliyat, motivatsiya bo‘lishiga olib keladi.

Shuningdek, islohotlar sharoitida yoshlarda yangicha iqtisodiy tadbirkorlik tafakkurni shakllantirish va kengaytirish jamiyat a’zolari o‘rtasida kambag‘allikni kamaytirishni ta’minlaydi. Qolaversa, bu hozirgi kunda mamlakatimizdagi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalalardandir.

Yoshlarda yangicha iqtisodiy tadbirkorlik tafakkurini kengaytirish – kambag‘allikni qisqartirish va bartaraf etish omili sifatida quyidagi muhim masalalar echimini hal etish bilan bog‘liq:

– zamonaviy iqtisodiyot qonuniyatlarini tushungan holda iqtisodiy fikrlashga o‘tish va iqtisodiy yuksalish sari amaliyotda samarali faoliyat yuritish;

– iqtisodiy munosabatlarda tezkor qaror qabul qilishga xos fazilat va fe‘l-atvorni shakllantirish;

– jamiyat tarkibida iqtisodiy voqelik rivojida vatanparvarlik tuyg‘usi ila ishtirok etib, milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga baholi qudrat ijobiy hissa qo‘shish.

O‘zbekistonda, bizningcha, yangicha iqtisodiy tadbirkorlik tafakkurni kengaytirish modelini shakllantirish lozim. Yangicha iqtisodiy fikrlashning maqbul modeli o‘z-o‘zidan shakllanadi va kengaydi deb o‘z holiga tashlab qo‘yish noto‘g‘ri. Chunki, noxolis yondashuv iqtisodiy tadbirkorlik tafakkuriga jiddiy ravishda to‘g‘anoq bo‘lishi aniq. Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiyotining hozirgi sharoitida eng avvalo rahbar kadrlarda va shu bilan birga zamonaviy ishlab chiqarishning barcha xodimlarida chuqur iqtisodiy bilimlarga va ularni amaliyotda qo‘llash malaka ko‘nikmalariga asoslangan yuksak darajadagi iqtisodiy bilimdonlikni hosil etish talabi o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishda, ayniqsa, yoshlarda iqtisodiy tarbiya va yangicha iqtisodiy fikrlashning rolini ham sezilarli darajada oshirish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, iqtisodiy bilimlar, iqtisodiy jihatdan xabardorlik, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni nazariy jihatdan bilimdonga aylantirishi mumkin, xolos. Zamonaviy iqtisodiy tafakkurni shakllantirish uchun ishlab chiqarish va xizmatga oid faoliyatning xilma-xil shakllari bo‘lishligini taqozo etiladi.

Buning uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning madaniy-iqtisodiy darajasini tashkil etuvchi bilimlar, bu sohadagi mahorat va ko‘nikmalardan tashqari, muayyan iqtisodiy muhit ham bo‘lishi kerak. Bunda o‘zaro bir biriga bog‘liq doiraviy vaziyat yuzaga keladi: iqtisodiy tafakkurni shakllantirish va kengaytirish asosida yangicha iqtisodiy muhit yuzaga keladi va iqtisodiy tafakkurni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Yangicha iqtisodiy tafakkur yoshlarda ishga manfaatdorlik bilan yondashish, davlat miqyosida fikrlash, muayyan iqtisodiy jarayonga, o‘zining shaxsiy ishiga ijtimoiy baho berish xislatini hosil qiladi. Kambag‘allikni qisqaruviga olib keladi va unga chek qo‘yadi. Ayni davrda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

Birinchidan, jamiyat a’zolari va yoshlarda iqtisodiy tayyorgarlik, xo‘jalik yurita olish, tejamkorlik singari xislatlar shakllanishi uchun yoshlarni maktab va maktabdan tashqari muassasalar, ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohasida haqiqiy iqtisodiy faoliyatga iloji boricha ertaroq va faol jalb etish uchun imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘z

navbatida yoshlarni boqimandalikdan asralish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, kadrlar masalasi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish zarur, ya'ni boshqaruv tizimining asosiy, hal qiluvchi bo'g'inlarida zamonaviy fikrlaydigan, o'z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlarini bilan uyg'unlashtira oladigan, yuqori malakali kadrlar ishlashi lozim. Mahalliy boshqaruv tizimida ayrim rahbar kadrlarning eskicha fikrlashlariga chek qo'yish hozirgi davrning dolzarb masalalaridandir.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi qonunlar, farmonlar va qarorlarni mukammal bo'lishini ta'minlab, barcha huquqiy davlatlar qatorida qonun asosida yashashni o'rganish zarur. Bunga esa bilim olish va iqtisodiy savodxonlikni oshirish tufayli erishiladi.

To'rtinchidan, kambag'allikni qisqartirish va bartaraf etish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat, notijorat tashkilotlar tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlangan va rivojlangan mamlakatlarning ilg'or namunalari asosida, ularga o'xshatib takomillashtirish maqsadga muvofiqdir va bu to'xtovsiz davom etadigan jarayonga aylanishi kerak.

Bugungi kunda O'zbekiston jamiyati a'zolari – yoshlarning iqtisodiy tadbirkorlik tafakkurini kengaytirish kambag'allikni qisqartirishning asosiy omilidir. Chunki kelajakda aholi qatlamining tarkibida yoshlarning iqtisodiy bilim salohiyati qanchalik oshib borsa, jamiyatda aholini farovon yashashiga zamin yaratgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023 y. 38-39 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2020-yil 25-yanvar №18 (7521).
3. Mustafaqulov Sh.I., Murodullyaev N., Xamidov R. O'zbekistonda kambag'allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnal. № 1, 2020.
4. G'aniyev M.X. "Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari" dissertatsiya. Toshkent – 2023-y.

OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОГО БИЗНЕСА

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF FAMILY BUSINESS DEVELOPMENT

Abdumutalliyev A.A. (NamMTI tayanch doktoranti)

Dunyoning turli mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatining umumiy ko'rinishlaridan biri oilaviy tadbirkorlik bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Oilaviy tadbirkorlik mavzusi xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy qiziqishlari sohasida ancha keng tarqalgan bo'lib, ikkinchisi oilaviy tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Ushbu maqolada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, oila, oilaviy tadbirkorlik, korxonalar, biznes, model, zamonaviy nazariya, daromad.

Одной из распространенных форм предпринимательской деятельности в разных странах мира был и остается семейный бизнес. Тема семейного предпринимательства достаточно широко распространена в сфере научных интересов зарубежных исследователей, последние из которых пытаются определить особенности развития и управления предприятиями семейного предпринимательства. В данной статье описаны конкретные аспекты развития семейного бизнеса.

Ключевые слова: Предпринимательство, семья, семейный бизнес, предприятие, бизнес, модель, современная теория, доход.

One of the general forms of business activity in different countries of the world was and remains family business. The topic of family entrepreneurship is quite widespread in the field of scientific interests of foreign researchers, the latter of which tries to determine the specific features of the development and management of family entrepreneurship enterprises. This article describes the specific aspects of family business development.

Key words: Entrepreneurship, family, family business, enterprise, business, model, modern theory, income.

Mavjud tadqiqotlar natijalariga asoslanib, xorijiy iqtisodchilar oilaviy tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirishning ikkita modelini ajratib ko'rsatadilar, ularda oilaviy tadbirkorlik korxonalarining asosiy nazariy konsepsiyasi, tarkibiy qismlari, asosiy jarayonlari va rivojlanish dinamikasi aks ettiriladi:

- uchta doiraning uch komponentli modeli (oilaviy tadbirkorlikning uch doirali modeli);

- rivojlanishning uch o'lchovli modeli (rivojlanish modeli) bu borada asosiy hisoblanadi.


Oilaviy tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirishning uch komponentli modeli (uch doira modeli) R.Tagiuri va D.A.Devis tomonidan shakllantirilgan bo'lib, u firmaning

makroiqtisodiy nazariyasiga (firmaning zamonaviy mikroiqtisodiy nazariyasi) A. 1932 yilda Berle va K. Gardiner.

Firmaning makroiqtisodiy nazariyasining asosiy dogmasi zamonaviy iqtisodiy tashkilotning ikkita tarkibiy qismi “Mulchilik” va “Biznes”ni ajratishni nazarda tutgan va mulkdorlarning manfaatlarini direktorlar kengashi himoya qilgan.

Oilaviy tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirishning uch komponentli modeli 1989-yilda R.Tagiuri va D.A.Devis tomonidan taklif qilingan ikki doira modelidan olingan (1-rasm) [1].


1-b-rasmda keltirilgan oilaviy tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirishning ikki doirasi modeli oilaviy tadbirkorlik korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirmagan, balki oila va biznes o‘rtasidagi ziddiyatga qaratilgan bo‘lib, ilmiy doiralarda hukmron bo‘lgan qarashni namoyish etadi. Ular orasida oilaviy biznes hissiy, o‘zini o‘zi yo‘naltiruvchi, intuitiv xulq-atvoriga ega konservativ o‘zgarishga qodir emas.



1-rasm. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ikki doirasi modeli

Oilaviy biznes korxonalarini oilaviy bo‘lmagan firmalardan farq qiladi va o‘ziga xos qadriyatlar majmuasi va boshqa tuzilmasi bilan ajralib turadi, deb faraz qilib, R.Taghiuri va D.A.Devis oilaviy biznesning uchta doirasi modelini ishlab chiqdilar (oilaning uch doirali modeli biznes) (2-rasm) [2].

R.Taghiuri va D.A.Devisning uch doirali modeli Eyler diagrammasi bo‘lib, oilaviy biznesning kategorik konsepsiyasini tushunish uchun katta ahamiyatga ega. D.A.Devis ta’kidlaganidek, modelning kuchli tomoni shundaki, u oddiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqiqiy yuzga ega va tadqiqotchilar, olimlar, menejerlar va oilalarga kuchli tomonlar haqida aniqroq fikr yuritishga yordam berish uchun oilaviy biznes tizimidagi ko‘pgina qiyinchiliklarni qamrab oladi.




1. Oila a'zolari
2. Ozchilik aksiyadorlar
3. Oilaviy bo'lmagan xodimlar
4. Ishlaydigan oila egalari bo'lmaganlar
5. Ishlaydigan oila bo'lmagan mulkdor-menejerlar
6. Oila xodimlari
7. Oilaviy tadbirkorlikning yuqori rahbariyati

2-rasm. Uch doiraning umumiy modeli

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, uch doirali model oilaviy biznesni o'zaro bog'langan, o'zaro ta'sir qiluvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan uchta kichik tizim – “Mulchilik”, “Boshqarish” va “Oila” sifatida qanday modellashtirish mumkinligini ko'rsatadi. Har bir quyi tizim uni boshqa quyi tizimlardan ham, umuman tashqi muhitdan ham ajratib turuvchi chegaralarni saqlaydi, bu butun tizim uchun bir xil.

Oilaviy tadbirkorlik korxonasi murakkab va dinamik ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaraladi, bu yerda ushbu uchta kichik tizim bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiladi. Oilaviy tadbirkorlik korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun har uchala quyi tizim butun tizim doirasida yaxlit funksional yaxlit sifatida optimal ishlashi kerak. “Oila” quyi tizimi “Mulch” va “Biznes” ga ta'sir qiladi va aksincha. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, eng muvaffaqiyatli bo'lganlar uning uchta tarkibiy qismi o'rtasidagi muvozanatni topa olgan oilaviy tadbirkorlik korxonalaridir. Uchta quyi tizimning bir-biriga mos kelishi natijasida oilaviy tadbirkorlik korxonalarida tarkibi, manfaatlari, istiqbollari, maqsadlari va dinamikasi bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi o'zaro hamkorlikning yettita segmenti shakllantirilib, ularni beshta funksional guruhga tizimlashtiradi: oilaviy tadbirkorlikda ishlaydiganlar, xodimlar, mulkdorlar, oilaviy korxonalar rahbariyati va biznes oilasi.

Funksional guruhlar



3-rasm. R.Tagiuri va D.ADevisning oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning uchta doirasi modelining umumiy va funksional guruhlari.

1-bo'lim. Biznesga bevosita aloqador bo'lmagan oila a'zolari. Shu bilan birga, ular oilaviy tadbirkorlik korxonalarining boshqaruv organlarida ishlashlari va oilaviy yig'ilishlarda, tadbirkorlik faoliyati to'g'risida qaror qabul qilish uchun yig'ilishlarda qatnashish huquqiga ega bo'lishlari mumkin. Ular oilaviy yig'ilishlarni o'tkazishda yoki Oila idorasi ishida mas'uliyatga ega bo'lib, muhim qarorlar qabul qilinishiga yoki oilaviy tadbirkorlik Ustavini ishlab chiqishga ta'sir ko'rsatuvchi oilaviy tadbirkorlikning soyali tomonini yaratishi mumkin. Ta'kidlash joizki, birinchi bo'lim a'zolarining farzandlari oilaviy biznesda ishlash, unda o'z karerasini qurish huquqiga ega.

2-bo'lim. Biznesda ishlamaydigan va oila a'zosi bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik subyektlarining tashqi egalari. Ushbu guruh a'zolariga aksiyadorlar, aksiyadorlar va venchur kapitalistlar, banklar yoki biznes farishtalari (homiylar) kabi tashqi investorlar kiradi. Ular o'z investitsiyalarini qaytarish yoki yaxshi dividendlar olishdan manfaatdor va ko'pincha biznes qarorlari oilaning xohishlariga zid bo'lsa ham, biznesga foyda keltirishini kutishadi.

3-bo'lim. Oilaviy bo'lmagan menejerlar va oila bo'lmagan xodimlar. Biznesning o'sishi va murakkablashuvi jarayonida, rivojlanishning ma'lum bir bosqichida, oilaning inson resurslari biznesni normal boshqarishni qondira olmaydi. Bunda oilaviy korxonada tashqi malakali menejerlarni taklif qiladi va firmaning o'zi professional boshqaruvga o'tadi.

4-bo'lim. Oilaviy tadbirkorlik subyektlarining faol bo'lmagan oila egalari mulkdor bo'lgan, lekin ayni paytda tadbirkorlik faoliyatida ishlamaydigan oila a'zolari hisoblanadi. Bunday guruh oilaviy biznesda ikkinchi avlodda mulkni meros qilib olish natijasida paydo bo'lishi mumkin. Ularning manfaatlari, qoida tariqasida, tashqi investorlarni kutish bilan birlashtirilgan, lekin ayni paytda oilaning sodiqligi. Oilada nizolar yuzaga kelgan taqdirda, ularning asosiy manfaatlari foydadan iborat bo'ladi va bunday sharoitda ular oilaga tegishli bo'lmagan mulkdorlarni qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

5-bo'lim. Oila egalari bo'lmagan - oilaviy tadbirkorlik subyektlarining rahbarlari. Bir vaqtning o'zida oilaviy biznesning egalari aylangan rahbariyatdan kompaniya top-menejmentining kichik qatlami. Ular yuqori sifatli ish uchun rag'batlantirish, kompaniya sharoitida martaba o'sishi mumkin bo'lmagan taqdirda kompensatsiya siyosati yoki uning ulushini ichki boshqaruv tomonidan sotib olish yo'li bilan bonusli aksiyalar shaklida egalik ulushini olishlari mumkin [3; 4]. Ushbu segment a'zolari oilaviy biznesning uzoq muddatli istiqboli uchun ishlaydi.


6-bo'lim. Oilaviy tadbirkorlik subyektlarining oilaviy xodimlari - korxonada ishlaydigan, lekin ulushga ega bo'lmagan oila a'zolari. Ularning asosiy maqsadi o'z karerasini rivojlantirishdir. Ularning oilaviy biznesga bo'lgan sadoqati va martaba imkoniyatlari ortib bormoqda va agar ular yaxshi asosiy ma'lumotga (kasbiylik) yoki amaliy tajribaga ega bo'lsa, tashkilot uchun foydali bo'lishi mumkin. Lekin asosan ular kompaniyaning qisqa muddatli foydasiga qaratilgan.

7-bo'lim. Oilaviy korxonada egalari nazorat qilish. Ushbu guruhning oila a'zolari oilaviy tadbirkorlik korxonalarining yuqori boshqaruvini tashkil qiladi. Ushbu segment a'zolari bosh direktor yoki biznesning asosiy ishlab chiqarish bo'linmalari rahbarlari kabi muhim lavozimlarni egallaydi. Ular oilaviy tadbirkorlik korxonalarini nazorat qiladi va boshqaradi, hal qiluvchi boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda, strategik rejalashtirishda, vorislik va uzluksizlik jarayonlarida (ko'p vorislik) bevosita ishtirok etadi.

4, 6, 7-bo'limlar birgalikda oila a'zolari guruhini tashkil qiladi, ular biznes oilasi deb ataladi. Ta'kidlash joizki, olimlar ishbilarmonlar oilasini oilaviy tadbirkorlik korxonalarini o'rganishning asosiy birligi sifatida asoslashga harakat qilmoqdalar.

R.Taghiuri va D.A.Devisning oilaviy tadbirkorlik korxonalarini bo'yicha uch

komponentli modelining hosilasi to‘rt komponentli modeldir [5], to‘rtinchi doira “Shaxsiy oila” yoki “Jismoniy shaxs” bo‘lib, u individual ravishda farqlanadi, oilaning boshqa a‘zolaridan xususiyatlar, fazilatlar va ko‘nikmalar va uch komponentli modelda turli funksional rollarni bajarishga qodir (3-rasm, a).



3-rasm. R. Tagiuri va D.A. Devisning oilaviy biznes korxonalarida manfaatdor tomonlarning o‘zaro ta’siri modelining o‘zgarishi.

“Jismoniy shaxs”ning kiritilishi oilaviy tadbirkorlik tadbirkorning shaxsiy oilasidagi munosabatlarga qanday ta’sir qilishining sabablarini va ikkinchi avlod vakillari ko‘pincha qaysi sabablarga ko‘ra oilaviy tadbirkorlik korxonalari faoliyatida ishtirok etishdan bosh tortayotganini ko‘rib chiqish uchun maqsadga muvofiqdir. Shuni ta’kidlash kerakki, to‘rt komponentli modelda manfaatdor tomonlarning o‘n uchta segmentga bo‘linishi mavjud bo‘lib, bu munosabatlarning umumiy tarmog‘ini va ularni o‘rganishni sezilarli darajada murakkablashtiradi (3-rasm, b).

Oilaviy tadbirkorlik sohasidagi amaliy maslahatchilar o‘z ishlariga ajralish, ko‘chmas mulk va sheriklik masalalarini qo‘shadilar (3-rasm, v).

Umuman olganda, uch doira modeli o‘zining hayotiyiligini vaqt o‘tishi bilan isbotladi, biroq turkumlashtirishga haddan tashqari ko‘p e’tibor qaratilishi haqiqatda oilaviy tadbirkorlik korxonalari jarayonini haddan tashqari soddalashtirishga olib keladi, bu har doim ham o‘zini oqlamaydi va uning ayrim ichki chuqur jarayonlarini yashirishi mumkin.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning uch komponentli modelining (uchta doira modeli) kamchiligi shundaki, u statik xususiyatga ega, lekin oilaviy tadbirkorlik dinamik ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida vaqt o‘tishi bilan bog‘liq ko‘plab muammolarga duch kelmoqda, ularning ba’zilar vorislik xarakterga ega.

Odatiy vorislik - bu birinchi avlodning biznesni yoshi bo‘yicha tark etishi, bu shunday vorislikni keltirib chiqaradi. Bu masalalarning barchasi oilaviy tadbirkorlik korxonalari faoliyatidagi o‘zgarishlar, oila va mulkchilikni taqsimlash bilan bog‘liq, shuning uchun oilaviy tadbirkorlik korxonalari dinamikasini samarali tushunish uchun vaqtni hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tagiuri R. & Davis J.A. On the Goals of Successful Family Companies. Family Business Review. 1992. V(1). P. 43-62.
2. Tagiuri R., & Davis D. J. Bivalent Attributes of the Family Firm. Family Business Review. 1996. Vol. IX, No. 2. P. 199–208.
3. Sawers D. and Whiting R. H. Chartered accountants: key players in business succession planning? Paper presented at the SEANZ Conference, Wellington, New Zealand, September, 2009. 31 p.
4. Sharma P., Chrisman J.J. and Chua J. «Predictors of satisfaction with the succession process in family firms», Journal of Business Venturing. 2003. Vol. 18, P. 667–687.
5. Sten J. Transfer of family business to non-family buers. The selling business family perspective. Edita Prima Ltd.,Helsingfors, 2006. 244 p.

UDK: 658.5:330.101

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIGA XALQARO STANDARTLARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY NAZARIYALARI

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕОРИИ ВНЕДРЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СУБЪЕКТОВ БИЗНЕСА

MODERN THEORIES OF IMPLEMENTATION OF INTERNATIONAL STANDARDS IN THE ACTIVITY OF BUSINESS SUBJECTS

Oqboyev A.R. (NamMTI dotsenti)

Maqolada to'qimachilik tarmog'idagi tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda xalqaro standartlarni joriy etishning zamonaviy nazariyalari tahlil etilgan.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xalqaro standartlarni joriy etishning eksportga ta'siri bo'yicha xorijiy olimlar fikrlari o'rganilib, xalqaro standartlarni joriy etishning tadbirkorlik subyektlariga imkoniyatlari va afzalliklari bo'yicha xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: xalqaro standart, to'qimachilik sanoati, sertifikat, eksport, ISO 9001:2015, BCI, Sedex, Oeko-Tex, GOTS, samaradorlik, talab, ishonch, xavfsizlik.

В статье анализируются современные теории внедрения международных стандартов в целях повышения экспортного потенциала субъектов предпринимательства текстильной отрасли. Также изучены мнения зарубежных ученых о влиянии внедрения международных стандартов на деятельность субъектов предпринимательства по экспорту, сделаны выводы о возможностях и преимуществах внедрения международных стандартов для субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: международный стандарт, текстильная промышленность, сертификат, экспорт, ISO 9001:2015, BCI, Sedex, Oeko-Tex, GOTS, эффективность, спрос, доверие, безопасность.

The article analyzes the modern theories of the introduction of international standards in increasing the export potential of business entities in the textile industry. Also, the opinions of

foreign scientists on the impact of the introduction of international standards on the activities of business entities on export were studied, and conclusions were drawn on the opportunities and advantages of the introduction of international standards for business entities.

Key words: international standard, textile industry, certificate, export, ISO 9001:2015, BCI, Sedex, Oeko-Tex, GOTS, efficiency, demand, trust, safety.

Mamlakatimizda tashqi savdo sohasi milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim shakllaridan biriga aylandi. Tashqi savdo, shuningdek, eksport faoliyatini rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga bir qator imkoniyatlarni yaratadi. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarib, daromadni oshiradi, bu esa iqtisodiy o'sishga turtki beradi va yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi.

Eksport mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga ham imkon yaratib, mamlakatlar yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni o'zlashtirishiga imkoniyat yaratadi, bu esa ichki ishlab chiqarishni samaradorligini oshirishga yordam beradi, xalqaro bozorlarda raqobatlashishga undaydi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni o'z mahsulotlarini sifatini va xavfsizligini oshirishga majbur qiladi. Shuningdek, eksport orqali mamlakatga xorijiy valyuta tushumlari kelib tushadi, bu esa milliy valyuta barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Eksport faoliyatini rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, aynan eksport mamlakatning iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. O'zbekistonda ham qisqa davrda eksport faoliyati rivojlanib, ko'plab mamlakatlar bilan savdo hamkorliklarni kuchaytirish va eksport hajmini ko'paytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga esa ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyat turlarini chuqur tahlil qilish va o'z vaqtida huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy qarorlarni qabul qilish hamda ijrosini ta'minlash asosida erishilmoqda.

Mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishda to'qimachilik sanoati muhim o'rin tutadi. To'qimachilik sanoati O'zbekistonning asosiy eksport yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, sanoat tarmoqlari orasida eng ko'p ish o'rinlari yaratgan ham, eng ko'p aholini band qilib turgan soha ham bu – to'qimachilik sanoati hisoblanadi. Bugungi kunda to'qimachilik tarmog'idagi 6 mingdan ziyod korxonada 570 ming aholini doimiy ish bilan ta'minlayapti. Bu esa o'sha yerdagi mahalliy aholi uchun muhim daromad manbai hisoblanadi.

To'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotini ham diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Bu esa mamlakatning tabiiy resurslar eksportiga bog'liqligini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, to'qimachilik sanoati qo'shilgan qiymat yaratishda muhim yo'nalish hisoblanadi. Paxta xomashyosini qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha daromad keltiradi. To'qimachilik sanoati rivojlanishi bilan shunga mos holda infratuzilma, jumladan, transport va logistika tarmoqlari ham rivojlanadi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish faollashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186-son qarori asosida 2019-2025-yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish Konsepsiyasini ishlab chiqilgan bo'lib, unda 2025-yilga borib to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini 7 milliard AQSh dollariga yetkazish ko'zda tutilgan [1].

Bu O'zbekistonning paxta xomashyosi eksportidan keladigan daromaddan qariyb 10

barobar ko‘p deganidir.

Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda xalqaro bozor va xalqaro talablarga javob beradigan xalqaro standartlarni joriy etishni jaddalashtirish va muvofiqlik sertifikatlarini olish har jihatdan muhimdir.

To‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish va eksport imkoniyatlariga qarab xorijiy davlatlarning bozor talablari bo‘lgan ISO 9001:2015, BCI, Sedex, Oeko-Tex va GOTS kabi zamonaviy xalqaro standartlarini joriy etish soha tadbirkorlik subyektlarini eksport salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sabab, xalqaro standartlar talablarini to‘liq o‘rganish, eksport yo‘nalishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ushbu standartlarni joriy etish va sertifikatlashtirish alohida ahamiyatga ega.

Xalqaro standart – bu turli mamlakatlar va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida kelishilgan va qabul qilingan qoidalar, meyorlar yoki talablar to‘plami bo‘lib, ular mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarning sifatini, xavfsizligini va samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan. Xalqaro standartlar mahsulotlar va xizmatlarning sifatini yaxshilashga, iste‘molchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun xavfsizlikni ta‘minlashga imkon yaratadi va xalqaro savdoni yengillashtirishga va xalqaro bozorlarga kirishni osonlashtiradi. Shuningdek, xalqaro standartlar innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlaydi.

To‘qimachilik tarmog‘ida xalqaro standartlar mahsulotlarning sifati, xavfsizligi va ekologik ta‘sirini ta‘minlashga qaratilgan. To‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlarini eksport salohiyatini oshirishda quyidagi xalqaro standartlarni joriy etish va muvofiqlik sertifikatini qo‘lga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ISO 9001-sifat menejmenti tizimi, bu dunyo miqyosida qabul qilingan sifat menejmenti tizimi bo‘lib, mijozlarning talab va ehtiyojlarini tartibga soluvchi, talablarni qondirish orqali mijozlar ehtiyojini oshirishni nazarda tutadi. ISO 9001 xalqaro standarti asosan boshqarish mexanizmidir.

Oeko-Tex Standards 100-ba‘zi kimyoviy moddalardan foydalanishni cheklaydigan to‘qimachilik mahsulotlarini sinovdan o‘tkazish va sertifikatlash bo‘yicha xalqaro tizimdir. Oeko-Tex standartini ishlab chiqishdan maqsad – to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish zanjirida xavfsizlik standartini yaratish va mahsulotni ishlab chiqarish jarayonining istalgan bosqichida zararli moddalar mavjudligini tekshirish.

GOTS (Global Organic Textile Standard) – bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ekologik toza va tabiiy ekanligining tasdiqlovchi standart. GOTS sertifikatini olishda qo‘yiladigan asosiy talab paxta yetishtirish va chuqur qayta ishlashning barcha bosqichlarida ekologik va ijtimoiy mas‘uliyat to‘liq bajarilishi hisoblanadi. Ya‘ni atrof-muhitga salbiy ko‘rsatadigan kimyoviy vositalar ishlatilmasligi, majburiy va bolalar mehnatiga yo‘l qo‘yilmasligi, tayyor mahsulot tarkibida 70-75 foizi organik tola bo‘lishi shart.

SEDEX – bu SEDEX savdo-iqtisodiy hamkorligi doirasida axloqiy meyorlarga rioya qilish tashabbusiga qo‘shilgan turli sohalaridagi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy javobgarlik auditori. Ushbu standartlarga rioya qilish tadbirkorlik subyektlariga nafaqat o‘zlarining axloq qoidalarini hamda odamlarga va ish muhitiga madaniyatli yondashuv qadriyatlarini namoyish etish, balki ushbu qadriyatlarni yetkazib beruvchilar darajasiga ko‘tarilish imkonini beradi.

BSCI – Biznesning ijtimoiy mas‘uliyat tashabbusi standarti bo‘lib, BSCI maqsadi jahon savdosida ijtimoiy javobgarlik monitoringini joriy etish orqali yetkazib beruvchi mamlakatlar faoliyatini barqaror ravishda yaxshilash uchun zamin yaratishdir. BSCI ta‘minotchilarning ijtimoiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga yo‘naltirilgan

bo‘lib, bu sohada ilg‘or tajribalarni joriy etishga yetaklaydi.

WRAP – to‘qimachilik mahsulotlarini AQShga eksport qilish uchun talab qilinadigan barcha standartlarga javob berishini tasdiqlaydi va “AQSh bozorining kaliti” hisoblanadi. Potensial xaridorlarning axloqiy va mas’uliyatli biznes standartlariga sodiq ekanligini ko‘rsatadi. Uni olish uchun 12 tamoyilga amal qilish lozim bo‘ladi.

Xalqaro standartlarni joriy etish bevosita eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada olimlar turlicha fikr yuritadilar. Ayrim olimlarning fikricha, xalqaro standartlarga rioya qilish mahsulotlar sifati va xavfsizligini oshirish, jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Ularning ta’kidlashicha, ushbu standartlarga javob berish mamlakat mahsulotlarining obro‘cini oshirishi va xalqaro xaridorlar tomonidan talabning oshishiga olib kelishi mumkin. Biroq, boshqa olimlar esa xalqaro standartlarni joriy qilish kichik va o‘rta biznes subyektlariga murakkabligi va joriy qilish qiymati qimmatligi bo‘yicha muammolar keltirishi mumkin, bu esa ularning jahon bozorida raqobatlashish qobiliyatiga to‘sqinlik qilishi mumkin, deb hisoblaydilar.

Umuman olganda, xalqaro standartlarni joriy qilish eksport hajmini oshirishga ta’siri bo‘yicha olimlarning fikrlari xilma-xil bo‘lib, xalqaro standartlarni joriy etish tadbirkorlik subyektlarining faoliyatining o‘ziga xosligidan kelib chiqib ta’sir etishini ta’kidlaydilar.

Porter raqobatbardoshlik va xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha bir qator fikrlarni ilgari surgan. Porterning ta’kidlashicha, xalqaro standartlar, ishlab chiqarish samaradorligini ortishiga va tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarda iste’molchilarning kutilgan ehtiyojlarining qondirishga yordam beradi va ularga xalqaro bozorlarga yanada samarali kirishga imkonini beradi. Porterning fikricha, xalqaro standartlarga rioya qilish tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalar va raqobatbardoshlik qobiliyatini oshiradi, bu esa global ta’minot zanjirlari va xalqaro bozorlarga kirishni osonlashtiradi.

L.R.Brikman xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha bir qator fikrlarini ilgari surib, u savdoni osonlashtirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Xalqaro standartlar turli mamlakatlar o‘rtasidagi savdo to‘siqlarini kamaytirishga va mahsulotlar sifatini ta’minlashga imkon yaratadi. Uning fikricha, xalqaro standartlar savdo jarayonlarini soddalashtiradi, chunki ular mahsulotlar, xizmatlarning sifatini va xavfsizligini ta’minlaydi. Bu esa iste’molchilarning ishonchini oshiradi va bozorga kirishni yengillashtiradi. Birikmanning bu fikrlari xalqaro savdo va standartlashtirish sohasidagi tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular savdo siyosatini shakllantirishda va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda qo‘llaniladi.

Alan Sayks xalqaro standartlarning iqtisodiy ahamiyatiga alohida to‘xtalib, xalqaro standartlar turli mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytiradi, mahsulotlar va xizmatlarning sifatini ta’minlashga yordam beradi deb hisoblaydi. Uning fikricha, xalqaro standartlar savdo to‘siqlarini kamaytirishga, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Xalqaro standartlar iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini oshiradi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro bozorda raqobatlashishga tayyorlaydi deb ta’kidlaydi.

J.Svonn xalqaro standartlashtirishning iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, standartlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va mahsulotlar sifatini yaxshilaydi, bu esa iqtisodiy o‘sishga yordam beradi, innovatsiyalarni rag‘batlantiradi va texnologiyalar transferini osonlashtiradi. Svonning fikricha, xalqaro standartlashtirish iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U davlatlar va kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

F.S.Shelling xalqaro standartlarning savdo integratsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, xalqaro standartlar turli mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini yaxshilaydi va integratsiya jarayonlarini osonlashtiradi. Uning ta'kidlashicha, rivojlanayotgan bozorlar xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lishi uchun ushbu standartlarni qabul qilishlari kerak. Shelling fikricha, o'z eksport tovarlarini xalqaro standartlarga faol ravishda moslashtirgan mamlakatlar global savdo tizimlari bilan iqtisodiy integratsiyalashuv imkoniyatini oshiradi, bu esa eksportning barqaror o'sishiga olib keladi.

Umuman olganda, xalqaro standartlarni joriy etish tadbirkorlik subyektlariga bir qator imkoniyatlar beradi:

- sifatni oshiradi: xalqaro standartlar mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilashga yordam beradi, bu esa mijozlarning qoniqishini oshiradi;

- raqobatbardoshlikni oshiradi: xalqaro standartlarga muvofiqlik korxonalariga xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

- ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi: xalqaro standartlar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi, bu esa samaradorlikni oshiradi va chiqimlarni kamaytiradi.

- ekologik barqarorlik: ekologik standartlar atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga yordam beradi, bu esa tadbirkorlik subyekting ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi.

- ishchilarning xavfsizligi va salomatligini ta'minlaydi: mehnat xavfsizligi standartlari ishchilar uchun xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini ta'minlaydi.

- ishonch va obro'ni oshirish: xalqaro standartlarga muvofiqlik tadbirkorlik subyektiga mijozlar va hamkorlar o'rtasida ishonch va obro'ni oshirishga yordam beradi.

- qonunchilikka muvofiqlik: standartlar ko'pincha mahalliy va xalqaro qonunchilik talablariga muvofiqlikni ta'minlashga yordam beradi.

Bu imkoniyatlar tadbirkorlik subyektlariga o'z faoliyatini samaraliroq va barqaror qilishga yordam beradi, shuningdek, ularning bozordagi mavqeini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186-son qaror.
2. Okboev A.R., O.J.Ashurkulov Directions for the introduction of an integrated quality management system to increase the competitiveness of light industry enterprises // South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR). Vol.10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF#23 2020= 7.11. pp. 107-10.
3. <https://mift.uz/> - Ministry of Investments and Foreign Trade of the Republic of Uzbekistan.
4. <https://www.standart.uz/> - Uzstandard Agency.

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINING IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDAGI MUHIM O‘RNI

ВАЖНАЯ РОЛЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

AN IMPORTANT ROLE OF INVESTMENT ACTIVITY IN UZBEKISTAN IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY

Nematova Sh.E. (o‘qituvchi, FarDU)

Ushbu maqolada O‘zbekistonda olib borilayotgan faol investitsiya siyosati va uning milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi o‘rni haqida so‘z boradi. Investitsiya faoliyatining mohiyati va uning makro va mikro ko‘lamda moliyalashtirilishi zarurligi hamda davlatning bu jarayondagi roli va barqaror rivojlantirish va modernizatsiya qilishdagi muhim o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsiya siyosati, xorijiy investitsiya, moliyalashtirish, kapital, daromad, sarmoya, iqtisod, makro daraja, raqobat

В данной статье рассматривается проводимая в Узбекистане активная инвестиционная политика и ее роль в повышении конкурентоспособности национальной экономики. Проанализированы сущность инвестиционной деятельности и необходимость ее финансирования на макро-и микроуровне, а также роль государства в этом процессе и важная роль в устойчивом развитии и модернизации экономики.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная политика, иностранные инвестиции, финансирование, капитал, доход, инвестиции, экономика, макроуровень, конкуренция

This article will talk about the active investment policy in Uzbekistan and its role in increasing the competitiveness of the national economy. The essence of investment activity and the need for its financing on a macro and micro scale and the role of the state in this process and the important role in the sustainable development and modernization of the economy are analyzed.

Keywords: investment, investment policy, foreign investment, financing, capital, income, investment, economy, macro level, competition

O‘zbekistonda yuritilayotgan faol investitsiya siyosati mamlakat milliy iqtisodiyotining istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim moliyaviy omili sifatida xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturida: 850,5 trln. so‘m investitsiyalar, shu jumladan 35,5 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilishini nazarda tutuvchi kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirishning yig‘ma prognoz parametrlari, shuningdek, investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish hamda jalb etishning prognoz parametrlarida 206 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari va 31 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratilishini nazarda tutuvchi 2020-yilda yirik ishlab chiqarish obyektlari

va quvvatlarini ishga tushirish manzilli dasturi ko'rsatilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday keng ko'lamli islohotlar va faol investitsiya siyosati samaradorligini yanada oshirish, avvalo, investitsiya faoliyatini makro va mikroko'lamda mukammal tizimli moliyalashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda davlatning ro'lini takomillashtirish tadqiqot ishining dolzarbligini belgiladi. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish, investitsiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda investitsiya resurslari hosil qilinishi natijasiga tayanadi va yuz beradi. O'z navbatida, u investitsiyalashdan ko'zlangan maqsadga bevosita bog'lanadi. Zero, ko'zlangan maqsadga erishish ishtiyoqi investorni kapital to'plab, so'ng uni shu maqsad yo'lida safarbar etishga undaydi. Zotan, maqsad muayyan natijaga qaratilar ekan, natija ham o'z navbatida, muayyan maqsadlarni keltirib chiqaradi va tegishlicha, investitsiya jarayonini aks ettiruvchi ketma-ketlikni hosil qiladi. Investitsiyalarning bu tarzda harakatlanishi investitsiya faoliyati orqali yuz beradi. Shunday ekan, investitsiya faoliyatining mohiyatini bilish juda muhimdir.

Turli iqtisodiy adabiyotlarda "investitsiya faoliyati" tushunchasi mazmunmohiyatiga turlicha ta'riflar berilgan. Ularni chuqur va keng tadqiq etgan holda, muallifning fikricha, investitsiya faoliyati mazmuniga berilgan quyidagi ta'riflarga alohida to'xtalib o'tish lozim. Iqtisodchi olim A.S.Neshitoyning fikricha, "Investitsion faoliyat daromad olish va foydali samaraga erishish maqsadida mablag'larni joylashtirish (investitsiyalash) va amaliy harakatlarni amalga oshirishdir".

AQSHning taniqli iqtisodchi olimlari Frank Reilly va Keith Brownning fikricha, "investitsiya kelajakda to'lovlarni olish uchun ma'lum bir davrda qilingan sarmoyadir".

Shuningdek, "investor" – shaxs, hukumat, pensiya jamg'armasi yoki korporatsiya bo'lishi mumkin. Ular qanday bo'lmasin, bugungi kunda ma'lum miqdorda mablag' yo'naltiradi va kelajakda hozirgi miqdoridan yuqori bo'ladigan to'lovlarga ega bo'lishga qaratilgan faoliyat yig'indisidir. Muallifning fikricha bu ta'rif o'rinli, lekin investitsiyalarni kiritishda tashqi omillarga ham e'tibor qaratish lozim.

Bunga o'xshash ta'riflarni yana quyidagi olimlarning fikrlarida ham kuzatish mumkin. Jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim V.Bocharevning fikricha: "Investitsiya faoliyati – davlat, fuqarolar va huquqiy shaxslarning investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlari yig'indisi"ni anglatadi. Mualliflar A.Arzimiyana va boshqalar: "Investitsiya faoliyati investitsiya kiritish yoki investitsiyalash hamda investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlar yig'indisi", deb ta'riflaydilar.

L.L.Igonina esa investitsiya faoliyati mazmuniga ham keng, ham tor mazmunda ta'rif berish mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Ushbu atamaga keng ta'rif berilsa, "investitsiya faoliyati – mablag'larni investitsiyalash obyektlariga daromad (samara) olish maqsadida kiritish bilan bog'liq faoliyat" sifatida tushuniladi. L.L.Igonina investitsiya faoliyati mazmuniga bergan ta'rifini Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida ushbu atamaga bergan ta'rifga o'xshash mazmunga egaligini qayd etadi, ya'ni ushbu mamlakat qonunchiligiga ko'ra: "Investitsiya faoliyati – foyda olish va (yoki) boshqa foydali samaraga erishish maqsadida investitsiyalarni kiritish va amaliy harakatlarni amalga oshirishdir". O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida: "Investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui" sifatida ifodalanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qilish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, "investitsiyalar" tushunchasi "kapital" va "kapital qo'yilma" tushunchasiga nisbatan keng ma'noga ega ekan. Kapital va kapital qo'yilmalar investitsiyalarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning bilan birgalikda investitsiyalarning tarkibida kapital va kapital

qo'yimalardan tashqari aylanma mablag'lar ham mavjud. Demak, ko'rinib turibdiki, kapital va kapital qo'yimlar tushunchasi aynan investitsiyalar tushunchasini anglatmaydi.

Umumlashtiradigan bo'lsak, investitsiyalar bu faqat uzoq muddatli kapital qo'yimlar bo'libgina qolmasdan, balki qisqa muddatli qo'yimlarni ham o'z ichiga oladi. Demak, "investitsiyalar – bu bo'sh turgan kapitalni iqtisodiy-ijtimoiy daromad olish maqsadida harakatga keltirishdir".

Bizga ma'lumki, investitsiyalarga xos bo'lgan eng muhim belgi, eng avvalo foyda olishga qaratilganligidir. Investitsiyalar tabiatan va mohiyatan foyda keltirish uchun salohiyatli hisoblanadi.

Investitsiyalarni yana bir muhim belgisi shundan iboratki, ular mablag' va resurslar ko'rinishida mavjud bo'ladi.

Investitsiyalash kim tomonidan amalga oshirilganligi nuqtai nazaridan investitsiyalar ikki turga ajraladi:

1) Ichki investitsiyalar - bu mazkur davlat hududida ichki investorlar tomonidan yo'naltiriladigan investitsiyalardir.

2) Tashqi investitsiyalar - bu xorijiy investorlar tomonidan yo'naltiradigan investitsiyalar bo'lib, chet el mulkdorlari tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va h.k) uzoq muddatga qo'yilgan kapital mablag'laridir.

Umuman olganda, investitsiyalarni amalga oshirish investitsiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda investitsiya resurslari hosil qilinishi natijasiga tayanadi va yuz beradi. O'z navbatida, u investitsiyalashdan ko'zlangan maqsadga bevosita bog'lanadi. Zero, ko'zlangan maqsadga erishish ishtiyoqi investorni kapital to'plab, so'ng uni shu maqsad yo'lida safarbar etishga undaydi. Zotan, maqsad muayyan natijaga qaratilar ekan, natija ham o'z navbatida, muayyan maqsadlarni keltirib chiqaradi va tegishlicha, investitsiya jarayonini aks ettiruvchi ketma-ketlikni xosil qiladi. Investitsiyalarning bu tarzda harakatlanishi investitsiya faoliyati orqali yuz beradi. Shunday ekan, investitsiya faoliyatining mohiyatini bilish juda muhimdir.

Turli iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya faoliyatiga turlicha ta'riflar berilgan. Iqtisodchi olim Neshitoyning fikricha, "Investitsion faoliyat –bu daromad olish va foydali samaraga erishish maqsadida mablag'larni joylashtirish(investitsiyalash) va amaliy harakatlarni sodir etishdir".


O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunda: "Investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlar majmui" sifatida ifodalanadi.

Fikrimizcha, investitsion faoliyatga berilgan ta'riflar, uning mohiyatini to'la ochib berolmaydi. Chunki investitsion faoliyatda investitsiyalarning ketma- ketligi va ularning o'zgaruvchanligi, ya'ni resurslar (qiymatliklar) - qo'yish (xarajatlar) va investitsiya natijasida samara (foyda, daromad) olish yotishi kerak. Agar samara olinmasa investitsiyalashga rag'bat ham bo'lmaydi. Investitsion faoliyat investitsiyalashning eng asosiy markaziy bo'g'ini hisoblanadi, chunki aynan ana shu jarayonda investitsiya bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tadi, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yimlar (xarajatlar), kapital mulk (tayyor mahsulot), iqtisodiy yoki ijtimoiy samara (daromad, foyda) shaklini oladi.

Fikrimizcha, investitsion faoliyat - bu g'oyalarni ishlab chiqish va investitsiya loyihalarini asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, buning natijasida barpo etilayotgan obyekt faoliyatini boshqarish va investorlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlarini ham aks ettiradi.

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi, eng avvalo, o'z manfaatlarini

ko'zlab, ya'ni foyda olish maqsadida harakat qiladilar. Chunki, yuqori foyda investorning kapital qiymati o'sishga imkon beradi. Investitsion faoliyatda investorlar investitsiya resurslarini iqtisodiyot sohalariga foyda (daromad) olish yoki samaraga erishish uchun joylashtiradi. Bunda uning tarkibiy tizimini investitsion faoliyatning obyekti va subyektlari tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Investitsion faoliyatning obyekti va subyektlari[1]

Investitsiya faoliyati iqtisodiyot rivojining jadal sur'atlarini belgilab berish bilan birga u har qanday tizimda ko'p jihatdan mintaqa va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sib borishini hamda taraqqiy etish darajasini ifoda etishi lozim. Investitsiyalar sanoat korxonalarini faoliyatini barqaror rivojlantirishda muhim omil bo'lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosini tashkil etadi. Sanoat korxonalarini faoliyatida samaradorlikka erishish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, qolaversa, mamlakatning aholi bandligini ta'minlashda investitsiyalarning o'rni va ahamiyati juda katta.

Investor investitsiyalashni amalga oshirish uchun ma'lum miqdordagi mablag' yoki investitsiya resurslariga ega bolishni yoki jamg'arishni talab etadi. Buning uchun jamg'arma mablag'larini banklarda to'plash va ular orqali kapital mablag'larni iqtisodiyotning istiqbolli sohalariga yo'naltirilishini ta'minlashga erishish mumkin. Bu, avvalo, investitsiya faoliyatida banklar ishtirokini oshirishni talab etadi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun, nafaqat, hududlar balki, tarmoqlarda, shuningdek investitsiya faoliyatining subyekti va obyektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish zarurdir. Bunda, asosan, chet el investitsiyasini iqtisodiyot sohalari bo'yicha mutanosib jalb etishning kompleks dasturini ishlab chiqish va unda tarmoqlarni, asosan, 3 guruhga, ya'ni ishlab

chiqarish, hizmat ko'rsatish va ijtimoiy sohalarga bo'lib, investitsiyani ustuvor darajada real sektorga yo'naltirib, so'ng qolgan sohalarni rivojlantirishga hamda iqtisodiyot rivojlanishi va zaruriyatidan kelib chiqib, hizmat ko'rsatish va ijtimoiy sohalarga ham jalb etilsa, maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish - bu nafaqat xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, ayni vaqtda, - bu avvalo yangi zamonaviy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va nou-xaularni joriy etish, shu asosda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning yuksak sifatini ta'minlashga qaratilgan. Eng muhimi, chetdan imtiyozli sarmoyalarni olib kelish - bu pirovard natijada mamlakatimizda raqobatbardosh, kuchli iqtisodiyotni barpo etish va jahon bozorida o'z munosib o'rnimizni egallashga qodir bo'lish demakdir.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyoy, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda.

Investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirishda investitsiya faoliyati va uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Investitsion faoliyat faqat investitsiyalarni amalga oshirish va investitsiyalarni amalga oshirish hamda investitsiya jarayonlari bilan bog'liq faoliyat hisoblanadi. Investitsiya faoliyati uchun nisbatan katta miqdordagi mablag'larni sarflash, foydaga yoki boshqa foydali samaraga ega bo'lish muhimdir.

Demak, O'zbekiston iqtisodiyotining taraqqiyotini ta'minlashda investitsiyalarning roli benihoya katta bo'lib, u, eng avvalo, iqtisodiyotni intensiv rivojlantirish asosida hamda yangi texnika-texnologiyalar jalb qilish va o'zlashtirish negizida rivojlantirishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020 yil 9 yanvardagi PQ-4563-sonli "O'zbekistonning 2020-2022 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 1998-yil, 24-dekabr.
3. Нематова, Ш. Э. (2023). Важные аспекты формирования инвестиционной среды в Узбекистане. *Scientific Impulse*, 1(9), 499-505.
4. Teshabaeva, O., & Karimova, M. (2023). O'zbekiston iqtisodiyotini investitsiyalash jarayonlari, uning rivojlanish tendensiyalari va xususiyatlari. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(5 Part 4), 93-100.
5. Teshabaeva, O. N. (2023). Analysis of industrial policy and investment processes in the production and enterprises of innovative products in the economy of Uzbekistan. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 1(3), 48-58.

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИЙ В РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА

EFFECTIVE USE OF INNOVATIONS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT

Rashidov R.A. (NamMTI, DSc, dotsent)

Ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va yondashuvlardan samarali foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Innovatsiyalar raqobatbardoshlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilish hamda mijozlarga ko'proq qulaylik yaratish imkonini beradi. Maqolada kichik biznesda innovatsiyalarning turlari, ularni joriy etish usullari va kutiladigan natijalar tahlil qilinadi. Shuningdek, dunyo tajribasidan misollar keltirilib, O'zbekistonda kichik biznesni innovatsion rivojlantirish imkoniyatlari va mavjud muammolar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, innovatsiya, texnologiya, raqobatbardoshlik, raqamli transformatsiya, mahsulot diversifikatsiyasi, tijorat strategiyasi, biznes model, iqtisodiy samaradorlik, ijodiy yondashuvlar, boshqaruv texnologiyalari.

В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования инновационных технологий и подходов в развитии малого бизнеса. Инновации позволяют повысить конкурентоспособность, снизить затраты, диверсифицировать продукцию и услуги, создать большее удобство для клиентов. В статье анализируются виды инноваций в малом бизнесе, методы их внедрения и ожидаемые результаты.

Также приводятся примеры из мирового опыта, обсуждаются возможности инновационного развития малого бизнеса в Узбекистане и существующие проблемы.

Ключевые слова. Малый бизнес, инновации, технологии, конкурентоспособность, цифровая трансформация, диверсификация продукции, коммерческая стратегия, бизнес-модель, экономическая эффективность, креативные подходы, технологии управления.

This article discusses the issues of effective use of innovative technologies and approaches in the development of small business. Innovations allow to increase competitiveness, reduce costs, diversify products and services, and create greater convenience for customers. The article analyzes the types of innovations in small business, their implementation methods and expected results. Also, examples from the world experience are given, opportunities for innovative development of small business in Uzbekistan and existing problems are discussed.

Keywords: Small business, innovation, technology, competitiveness, digital transformation, product diversification, commercial strategy, business model, economic efficiency, creative approaches, management technologies.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni va ahamiyati tobora ortib

bormoqda. Bu soha nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Innovatsiyalar esa kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlik darajasini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali kichik biznes yuqori darajadagi samaradorlikka erishishi mumkin, bu esa oxir-oqibat iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Ushbu maqolada kichik biznesda innovatsiyalarning roli, ularni joriy etish usullari va kutiladigan natijalar tahlil qilinadi.

Milliy xo'jaliklarning rivojlanishidagi hozirgi sifat o'zgarishlari xo'jalik faoliyati sharoitlari, uning mohiyati va amalga oshirish mexanizmlarining chuqur o'zgarishi bilan bog'liq; unumdorlikni oshirish va barqaror raqobatdosh ustunliklarni yaratishda bilim va innovatsiyalarning ahamiyati tobora ortib borayotganligi sababli ular o'zaro bog'langan tadbirkorlikning zamonaviy tizimini shakllantirish bilan birga keladi. Shu munosabat bilan madaniyatning roli va uning iqtisodiy jarayonlarning eng muhim parametrlarini shakllantirishga tizimli ta'siri sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda iqtisod fanining noan'anaviy yo'nalishining tobora ko'proq vakillari iqtisodiy voqelikning ilmiy manzarasini va iqtisodiy fan asoslanishi mumkin bo'lgan tegishli tamoyillar tizimini ishlab chiqish, uning ijtimoiy dunyoning ajralmas tomonini o'rganishga ishonishga moyil. Voqelik dastlab madaniyatni iqtisodiyotga to'g'ri singdirish muammosi bilan belgilanadi. F.Xara ta'kidlaganidek, "aylana va kumulyativ sabab bog'lanishning boshlang'ich nuqtasi madaniyatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayondagi rolini tahlil qilishdir. Mafkura, qadriyatlar, turli me'yor va urf-odatlar naqadar muhim ekanini anglab yetmoq kerak. Agar biz iqtisodiy agentlar tomonidan voqelikni baholash va ular o'rtasidagi munosabatlar o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni tushunsak, biz texnologiya darajasida faktlarni aniq shakllantirishimiz mumkin [1]".

O'tgan asrda iqtisodiy fanning rivojlanishi uning mavjud bo'lgan ikkita yonma-yon va o'zaro ta'sir qiluvchi zaif qismga - asosiy va muqobil nazariyalarga bo'linishi bilan birga keldi, ular doirasida tadbirkorlik haqidagi g'oyalar shakllandi. Shu bilan birga, u iqtisodiy hayotning turli jabhalarini qamrab oluvchi uslubiy holati va tadqiqot usullari, ishonchlilik darajasi va amaliy ahamiyati jihatidan bir-biridan farq qiladigan bilim sohasining tabaqalanishi va parchalanishi natijasida murakkab tuzilishga ega bo'ldi. Shu bilan birga, raqobatbardosh tadqiqot dasturlarining hech biri madaniy, institutsional va texnik-iqtisodiy omillarning kompleks o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda iqtisodiyot va tadbirkorlikning yaxlit va yetarlicha to'liq tasvirini taqdim eta olmadi. Ko'pgina tadqiqotchilar iqtisodiyotdagi mavjud vaziyatni asosiy oqim doirasida o'rnatilgan tadqiqot paradigmasini qayta ko'rib chiqish zarurati bilan bog'liq inqiroz deb hisoblashadi. Ko'pgina tadqiqotchilar an'anaviy ta'limotlar inqirozidan chiqish yo'lini iqtisodiy va madaniy-qiyamatli komponentlarni birlashtira oladigan yangi nazariyani yaratishda ko'rishadi, chunki qadriyatlar muammolari iqtisodiy konstruksiyalarning mohiyatiga ta'sir qiladi [2].

Iqtisodiyot fani hozirgi vaqtda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hozirgi moddiy, madaniy va institutsional sharoitdagi xatti-harakatlarini va bu sharoitlarni o'zgartirishga ta'sirini yanada realroq tasvirlashga mo'ljallangan yangi paradigmani izlamoda [3]. Bugungi kunda madaniyatning ahamiyati hamma tomonidan tan olingan. Ko'pgina zamonaviy tadqiqotlar madaniy xususiyatlar iqtisodiy faoliyat natijalariga, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga va iqtisodiy o'zgarishlarga sezilarli darajada ta'sir qilishini empirik ko'rsatdi.

Bugungi kunda tadbirkorlikni innovatsion faoliyatning o'ziga xos turi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish shartlari sifatida o'rganishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqishning ahamiyati ortib bormoqda. Biroq, qo'llaniladigan tushunchalar va modellar ko'pincha tadbirkorlik rivojlanishining sabablari va

harakatlantiruvchi kuchlarini turlicha talqin qiladi. Iqtisodiyotning madaniy o'lovchidan uzoqlashish ta'sirida vujudga kelgan bugungi kunda iqtisodiyotda g'oyalarning hukmronligi natijasida inson faoliyatining madaniy va iqtisodiy sohalari o'rtasidagi ekzogen bog'liqlikni talqin qilishga asoslangan turli xil tushunchalar keng tarqaldi.

Tadbirkorlikni o'rganish bilan bog'liq hozirgi yondashuvlarning konseptual xususiyatlari iqtisodiy fanning asosiy yo'nalishi metodologik individuallik tamoyilidan kelib chiqishi bilan belgilanadi. Bunday sharoitda tadbirkorlik faoliyatining sabablari va motivatsion-xulq-atvor mexanizmlari haqida mazmunli javob izlash, odatda individualistik metodologiyaning oqilona tanlash nazariyasiga asoslangan standart vositalar, faol qo'llaniladigan tushunchalar va iqtisodiy modellarning yetarli emasligini muqarrar ravishda ochib beradi.

XX asrda ishlab chiqarilgan ko'plab tadqiqotlar tadbirkorlik fenomenini tushunishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Tadbirkorning shaxsini, uning o'ziga xos xususiyatlari va xulq-atvor xususiyatlarini tekshirishdan boshlab, tadqiqotchilar tahlilning muammoli maydonini kengaytirdilar; ular orasida ma'lum bir tadbirkorlik harakati qanday va nima uchun sodir bo'lishini tushunishda madaniy omillarning ahamiyati haqida ishonch kuchayib bormoqda.

Biroq, paydo bo'lgan kognitiv vaziyat shundan iboratki, madaniyat va biznes o'rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirish va tadbirkorlik tanlovini amalga oshirishda madaniy-qadriyat vositalarining rolini aniqlashning ahamiyati yaxlit jamiyatni qurish uchun fundamental asos ekanligi bilan murakkablashadi. Tadbirkorlikning motivatsion va xulq-atvor mexanizmlarini shakllantirish jarayonini ko'rish etarli darajada baholanmaydi. Ko'pgina zamonaviy tadqiqotchilar madaniyatning mamlakatlar va kompaniyalarning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirining ahamiyatini tan olishdan kelib chiqadilar, keng ko'lamli empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, madaniyatni tavsiflovchi o'zgaruvchilar turli xil tadbirkorlik qarorlarini belgilaydi. Madaniyat iqtisodiyoti tadqiqotchilari fanning ushbu sohasi rivojlanishining dastlabki bosqichini va madaniyat va biznes o'rtasidagi o'rnatilgan munosabatlarni ko'rsatadilar. Shu bilan birga, madaniyatning qaysi ma'noda muhimligi va u tadbirkorlarning iqtisodiy xatti-harakatlariga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida umumiy fikr mavjud emas.

Individualizm metodologiyasiga asoslangan iqtisodiy "Asosiy oqim" doirasida shakllangan turli nazariyalar iqtisodiy jarayonlar amalga oshirilayotgan makonni strukturalashning o'ziga xos xususiyatlarini paradigmatic ko'rishi tufayli madaniy o'zgaruvchilarning endogenizatsiyasi muammosini hal qila olmaydi. Ikkinchisi, madaniy kontekstning ta'sirini tushuntiruvchi iqtisodiy bo'lmagan o'zgaruvchilar sifatida ishtirok etsa ham, individual harakatlarning ekzogen, ekologik omillari sifatida ishlaydi. Shu munosabat bilan, tadbirkorlikning hozirgi hukmron bo'lgan tushunchalaridagi eng muhim kamchilik shundaki, ular muqarrar ravishda madaniyatning rolini juda cheklangan tarzda - odatda to'siq vazifasini bajaradigan va hajmiga ta'sir qiluvchi omillardan biri sifatida izohlaydilar[4].

Kichik biznes – bu iqtisodiy faoliyatning bir turi bo'lib, aholining tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishini oshirish va bozor iqtisodiyotida o'z o'rnini topish imkoniyatini yaratadi.

Innovatsiyalar esa yangi mahsulot, xizmat yoki texnologiyalarni yaratish va ulardan samarali foydalanish jarayonidir. Kichik biznes uchun innovatsiyalar asosan ikki asosiy yo'nalishda rivojlanadi:

1. Mahsulot va xizmatlardagi innovatsiyalar – yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni yaratish va ularga qo'shimcha qiymat qo'shish.
2. Texnologik innovatsiyalar – ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki boshqaruv jarayonlariga yangi texnologiyalarni tatbiq etish.

Kichik biznes subyektlari innovatsiyalarni joriy etishda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Bozorni o'rganish va tahlil qilish: Mahsulot yoki xizmatga talab va raqobatbardoshlikni o'rganish orqali bozor ehtiyojlarini aniqlash.
- Innovatsion g'oyani ishlab chiqish: Yangi mahsulot yoki xizmat uchun g'oyalarni yaratish va ularga kreativ yondashish.
- Loyihani rejalashtirish: Innovatsion loyihani amalga oshirish uchun strategiyani ishlab chiqish, moliyaviy va inson resurslarini aniqlash.
- Innovatsiyani tatbiq etish: Texnologik yangiliklarni amaliyotga joriy etish jarayoni.
- Natijalarni baholash: Innovatsiyaning muvaffaqiyatini baholash va keyingi strategiyalarni belgilash.

Ko'pgina rivojlangan davlatlarda kichik biznesni rivojlantirishda innovatsiyalardan samarali foydalanish keng qo'llanilmoqda. Jumladan, AQShda Silikon vodiysi, Janubiy Koreyada texnologik startaplar va Germaniyada sanoat innovatsiyalari sohasidagi yutuqlar kichik biznesni rivojlantirishda katta rol o'ynadi. Bu davlatlar kichik biznesni innovatsion rivojlantirish uchun maxsus dasturlar va grantlar taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston" dasturi mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida innovatsiyalarni joriy etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Xususan, so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va onlayn tijorat sohaslarida sezilarli o'sish kuzatilmoqda[5]. O'zbekistonning kichik biznes sohasidagi imkoniyatlari:

- Raqamli texnologiyalar: Mamlakatda internet infratuzilmasining rivojlanishi va elektron tijoratning keng tarqalishi kichik biznesni raqamli transformatsiyaga jalb qilish imkonini bermoqda.
- Davlat qo'llab-quvvatlovi: Innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va moliyaviy yordamlar kichik biznesga texnologik yangiliklarni joriy qilishda yordam beradi.

Kichik biznes subyektlari innovatsiyalarni joriy etishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi:

- Moliyaviy cheklovlar: Kichik biznes ko'pincha innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun yetarli mablag'ga ega bo'lmaydi. Bu muammoni yechish uchun davlat grantlari, kreditlar va xalqaro moliyaviy institutlarning yordamidan foydalanish mumkin.
- Kadrlar yetishmasligi: Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun malakali ishchilar kerak bo'ladi. Bu borada o'quv dasturlarini kengaytirish va texnologik sohada mutaxassislarni tayyorlash muhim hisoblanadi.
- Tajriba yetishmasligi: Kichik biznesda innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun tajriba yetishmasligi ko'pincha muammo bo'ladi. Bu muammoni hal qilish uchun biznes inkubatorlari va mentorlik dasturlaridan foydalanish mumkin.

Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsiyalardan samarali foydalanish hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsiyalar raqobatbardoshlikni oshirish, samaradorlikni ta'minlash va bozor imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish orqali kichik biznes subyektlari yuqori darajadagi o'sishga erishishlari mumkin. O'zbekistonda ham kichik biznesni innovatsion rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud, ammo bu borada davlat ko'magiga tayanish va malakali kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. О'Хара, Ф. Современные принципы неортодоксальной политической экономики / Ф. О'Хара // Вопросы экономики. 2009. № 12. С
2. Drucker, P. F. Innovation and Entrepreneurship. Harper Business. 2012
3. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2020. OECD Publishing. 2020
4. Davidoff, D. S., & Balkin, J. M. Entrepreneurship and Small Business Management. McGraw-Hill. 2021
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-sonli farmoni. "Raqamli O'zbekistonga o'tish to'g'risida".

UDK: 338.482.224

О'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA FAOLIYAT KO'RSATISHI TENDENSIYALARI

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ СФЕРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

TRENDS IN THE DEVELOPMENT AND FUNCTIONING OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN

Teshabayeva O.N. (katta o'qituvchi (PhD), FarDU)

Turizmning raqobatbardoshligini oshirish, uning iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirish, xavfsizlikni ta'minlash va samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati ta'kidlangan. Turizm sohasini rivojlantirishda bir nechta dasturlar ishlab chiqilgan, ular turizm infratuzilmasini yaxshilash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va turistik xizmatlarni modernizatsiya qilish.

Kalit so'zlar: turizm, raqobat, turistik korxonalar, boshqaruv, resurslar, xizmat, sifat, iste'mol, tijorat, foyda.

Подчеркивается важность научных исследований, направленных на повышение конкурентоспособности туризма, увеличение его влияния на экономику, обеспечение безопасности и разработку эффективных стратегий управления. В развитии туристской отрасли было разработано несколько программ, направленных на улучшение туристской инфраструктуры, укрепление международного сотрудничества и модернизацию туристских услуг.

Ключевые слова: туризм, конкуренция, туристическое предприятие, управление, ресурсы, услуги, качество, потребление, коммерция, прибыль.

The importance of scientific research aimed at increasing the competitiveness of tourism, enhancing its impact on the economy, ensuring safety, and developing effective management strategies is emphasized. In the development of the tourism industry, several programs have been developed aimed at improving the tourism infrastructure, strengthening international cooperation and modernizing tourist services.

Keywords: tourism, competitive, tourist enterprise, start-up, resource, service, quality, consumption, commercial, profit.

Dunyoda turizmning rivojlanishi va xilma-xilligining tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini o'rganish bir qator ilmiy va amaliy xulosalarga olib keldi. Xususan, mahalliy va jahon bozorlarida turizmning raqobatbardoshligini oshirish, sohaning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini oshirish, turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlash va ushbu sohada samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish maqsadida mavjud ichki resurslarni aniqlash va optimallashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Mamlakatimiz turizmiga ham pandemiya salbiy ta'sir ko'rsatgan, ya'ni 2020-yilda respublikamizga 1504,1 nafar sayyoh tashrif buyrgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 1881,35 kishini tashkil qilgan.

Aytish mumkinki O'zbekiston Respublikasida turizmni yangi sharoitda to'liq tiklash, sohani rivojlantirish hamda yuqori pog'onalarga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Harakatlar samarasi o'laroq 2022-yilda mamlakatimizga turistik maqsadlarda tashrif buyurganlar soni 5232,8 ming kishiga yetgan.

2022-yilda respublikamizga kelgan chet el fuqarolari safar maqsadini o'qish uchun deb belgilanganlar soni 8,8 ming kishiga (jami kelganlarning 0,2 % i) teng, tijorat maqsadida kelganlar – 20,4 ming kishi (0,4 %), davolanish uchun – 70,0 ming kishi (1,3 %), xizmat safari uchun – 83,8 ming kishi (1,6 %), bo'sh vaqt va dam olish uchun – 392,2 ming kishi (7,5 % ga to'g'ri kelgan). Eng ko'p sayohatlarning maqsadlariga esa qarindoshlarni yo'qlash deb belgilanganlari – 4 657,6 ming kishi (89,0 % ga teng bo'lgan). Tegishli davrning o'tgan 2021-yilga nisbatan o'qish maqsadidagi safarlar 37,5 % ga, xizmat safarlari 38,1 % ga, tijorat maqsadidagi safarlar 48,9 % ga oshgan. Davolanish uchun amalga oshirilgan safarlar 2,2 baravarga, bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun 2,5 baravarga va qarindoshlarni yo'qlash uchun 2,9 barobarga oshgan.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 592 371 birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida 392 787 birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining 66,3 % ini tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,0 % ni tashkil etgan.

Hozirgi vaqtda turizm sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish darajasi mamlakat ichki mahsulotining umumiy hajmining real o'sishini, iqtisodiyotning turli tarmoqlari tarkibidagi o'zgarishlarni, shuningdek, mamlakatdagi har bir kishi uchun asosiy ko'rsatkichlarning hajmini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida mamlakatimiz ayrim asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning vaqtli qatori asosida xizmatlar sohasi, xususan, uning alohida yo'nalishi bo'lgan turizm xizmatlari hajmining o'zgarishi tahlil qilindi (1-jadval).

2014-2022-yillar davomida mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida xizmatlar sohasining ulushi ma'lum bir tebranish asosida o'zgarib borgan, ya'ni 2014-yilda ushbu ko'rsatkich 36,4 %ni tashkil etib, 2018-yilgacha barqaror o'sib borib, 37,1 %ga yetgan. 2019-yildan boshlab dunyo miqyosida yuzaga kelgan koronavirus pandemiyasi ta'sirida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasini ham tebratmasdan qolmadi, ya'ni aynan shu davrda yalpi ichki mahsulot tarkibidagi xizmatlar hajmi ko'rsatkichi 35,5 %ga pasaygan va 2020-yil yakuniga kelib 36,7 % ga o'zgargan. 2022-yildan boshlab pandemiya ta'sirining yumshashi hisobiga 40,2 % ga o'sish tendensiyasiga erishgan.

So'nggi to'qqiz yil ichida muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida aniqlangan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi kuzatildi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga xizmat ko'rsatish sohasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tomonidan yaratilgan xizmatlar vaqt o'tishi bilan tez sur'atlar bilan o'sib bordi.

2018-2022- yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurganlarning maqsadlar bo‘yicha tarkibi[1]

Maqsadlar	Tashrif buyurganlar soni, ming kishi					Umumiy sonidagi ulushi, %				
	2018	2019	2020	2021	2022	2018	2019	2020	2021	2022
Qarindoshlarni yo‘qlash	4708,9	5520,6	1321,4	1613,1	4657,6	73,2	66,68	87,8	85,7	89,0
O‘qish	12,9	21,4	4,7	6,4	8,8	0,2	0,26	0,3	0,34	0,2
Ish	38,6	54,0	0	0	0	0,6	0,65	0	0	0
Davolanish	51,5	55,5	15,0	32,4	70,0	0,8	0,67	1,0	1,72	1,3
Bo‘sh vaqt va dam olish	456,7	1043,9	129,6	155,1	392,2	7,1	12,61	8,6	8,24	7,5
Xizmat yuzasidan	57,9	53,1	17,4	60,7	83,8	0,9	0,64	1,2	3,22	1,6
Doimiy yashash joyi	77,2	53,6	0	0	0	1,2	0,65	0	0	0
Tijorat	51,5	53,9	16,3	13,6	20,4	0,8	0,65	1,1	0,72	0,4
Tranzit	585,4	883,0	0	0	0	9,1	10,67	0	0	0
Boshqa	392,4	540,0	0	0	0	6,1	6,52	0	0	0
Jami	6433,0	8279,0	1504,1	1881,3	5232,8	100	100	100	100	100
Xizmatlar sohasida jami faoliyat ko‘rsayotgan korxonalar	213075	261979	309387	347581	392787	66,3	123	118,1	112,3	113

Milliy statistika tizimidagi 2014-2023-yillar oralig‘idagi turizm sohasining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili o‘tgan 10 yil davomida (pandemiyagacha bo‘lgan davrda) sohaning jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borganligini ko‘rsatadi (2-jadval).

Turizm sohasi rivojlanishini dinamikasini aks ettiruvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi[1]

Ko‘rsatkichlar	Yillar									
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so‘m	186829,5	221350,9	255421,9	317476,4	426641,0	532212,5	605514,9	738425,2	888341,7	
Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m	68032,1	78530,4	97050,0	118811,0	150889,8	193697,8	219978,5	284165,4	357554,5	
Xizmatlar hajmining YalMdag ulushi, %	36,4	35,5	37,9	37,4	37,1	35,5	36,5	38,7	40,2	
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m	37646,2	44810,4	51232,0	72155,2	124231,3	195927,3	210195,1	239552,6	273010,4	
Bunga mamlakatdagi har bir kishi uchun xizmatlar soni kiradi, ming so‘m	2211,9	2509,0	3047,3	3668,3	4578,5	5768,2	6426,1	8145,1	10030,1	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tom onidan xizmatlarning umumiy hajmi, mlrd. so‘m	40187,9	47269,6	61346,2	69212,7	84433,4	103106,6	114052,7	144812,7	173157,7	

So‘nggi o‘n yil ichida turizm sohasi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmining barqaror o‘shishi kuzatildi. Bu turizm sohasida ishlaydigan ishchilar sonining o‘zgarishida aniq namoyon bo‘ldi (3-jadval). Jumladan, 2014-2023-yillar davomida sohada band bo‘lgan mehnat resurslari soni 185,0 ming kishidan 258,7 ming kishigacha ortgan.

O'zbekistonda turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi[1]

	Ko'rsatkichlar	Yillar									
		2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Mamlakat ichidagi turizm iste'moli, mlrd. so'm	13576,2	14010,7	13772,5	16568,3	20561,3	27696,0	5271,2	14012,4	20101,2	25856,8
2	Turizm sohasi tomonidan taklif etilgan xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	6651,7	7203,8	7809,0	8261,9	8658,4	9333,8	8540,4	10267,4	12457,9	16462,4
3	Turizm sohasida band bo'lgan aholi soni, ming kishi	185,0	188,4	170,9	187,6	201,0	230,5	189,2	214,8	228,6	258,7
Turizm sohasi bilan bog'liq xizmat ko'rsatish sohalari faoliyat natijalari											
4	Yashash va ovqatlanish xizmatlari, mlrd. so'm	1118,7	1302,5	1502,5	1693,8	1823,9	1967,1	1690,2	1785,2	1945,4	247,3
	Madaniyat va san'at, mlrd. so'm	354,6	373,5	414,7	439,3	547,8	655,8	624,5	587,7	685,4	792,7
	Tashish va saqlash, mlrd. so'm	14052,3	14905,7	15725,5	17509,0	18713,4	19950,6	19520,2	18945,4	22548,4	25912,4
	Savdo xizmatlari, mlrd. so'm	12717,6	14095,8	15325,2	15483,6	16275,4	17429,9	17724,1	18462,3	21654,8	24756,8

Quyidagi jadvalda 2014-2023-yillar davomida mamlakatimiz hududlarida turistik faoliyatni amalga oshirgan turistik korxonalarining soni va ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning naturadagi ko'rsatkichlari keltirilgan (4-javdal).

O'zbekiston Respublikasida turistik faoliyatni amalga oshirgan turistik korxonalar va ular faoliyati ko'rsatkichlari [1]

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Turistik korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	343	398	433	449	493	517	337	368	408	436
Turistik korxonalar va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan mijozlar soni, ming kishi	514,1	560,4	465,4	670,0	713,2	942,0	212,3	422,1	1610,1	2272,8
Shu jumladan:										
Umumiy ovqatlanish korxonalar xizmatlari	96,3	125,6	154,3	187,9	213,5	289,4	57,7	114,2	286,3	328,7
Turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo'yicha boshqa xizmatlar	176,2	199,3	223,5	289,5	315,6	389,5	81,3	149,8	383,4	425,4

Tahlil qilinayotgan davrda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi turistik korxonalar va tashkilotlar soni turistik oqim hajmiga mutanosib ravishda ortib borgan. Agar 2014-yilda mamlakatimiz hududida jami 343 ta turistik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatib, ular tomonidan jami 514,1 ming nafar mijozga xizmat ko'rsatilgan: umumiy ovqatlanish

korxonalari xizmatlari (96,3 ming nafar kishi) va turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo'yicha boshqa xizmatlar (176,2 ming nafar kishi) bo'yicha turistik xizmatlar ko'rsatilgan. 2023-yilga kelib faoliyat ko'rsatuvchi turistik korxonalar va tashkilotlar soni 1,27 marta ortib, 436 taga yetgan hamda ushbu turistik korxonalar tomonidan yil davomida 2272,8 ming xizmat ko'rsatilgan: umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari (328,7 ming nafar kishi) va turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo'yicha boshqa xizmatlar (425,4 ming nafar kishi) bo'yicha turistik xizmatlar amalga oshirilgan.

Biroq 2020-yilga kelib pandemiya sharoiti ta'sirida faoliyat ko'rsatuvchi turistik korxonalar soni 337 taga pasayib, ular tomonidan jami 212,3 ming nafar mijozga xizmatlar ko'rsatilgan. Jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, 2019-yil oxirida boshlangan COVID-19 pandemiyasi ta'sirida milliy iqtisodiyotning eng ko'p zarar ko'rgan va ish hajmining pasayishi eng yuqori bo'lgan soha turizm sohasi bo'lgan.

Erkin bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar bilan bir qatorda kichik biznes va tadbirkorlik obyektlari ham raqobat jarayonida faol ishtirok etadi. Biz o'rganayotgan tadbirkorlik subyektlari ham iqtisodiy obyekt sifatida turli raqobatchilar bilan to'qnash kelib, o'z o'rnini mustahkamlashga intiladi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarining raqobatbardoshligini to'liq tushunish uchun, avvalo, umumiy raqobatbardoshlik tushunchasini kengroq o'rganish va uni turli biznes faoliyatlariga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Raqobatbardoshlik tushunchasi murakkab tarkibli iqtisodiy kategoriya bo'lib, bu tushunchani iqtisodiy munosabatlarning barcha bo'g'inlarida uchratish mumkin va bu kategoriyani o'lchashning juda keng qamrovli ko'rsatkichlari mavjud. Ko'plab tadqiqotchilarning izlanishlarida korxonaning raqobatbardoshligi omillari turli ko'rinishlarda o'rganilgan bo'lib, quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

YE.V.Borisova tomonidan ham korxonalar raqobatbardoshlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar ikki guruhga, ya'ni ichki omillar va tashqi omillarga ajratilsada, u ichki omillarga korxonaning o'zida paydo bo'luvchi va korxonalar tomonidan boshqarish mumkin bo'lgan korxonaning tashkiliy tuzilishi, inson resurslari, korxonaning madaniyati va imiji, moliya, ishlab chiqarish, ta'minot tizimi, sotish tizimi, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi tizimni, tashqi omillarga esa korxonadan tashqarida yuzaga keluvchi korxonalar tomonidan boshqarilish imkoniyati mavjud bo'lmagan, biroq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarning darajasini pasaytirish imkoni mavjud bo'lgan davlat yoki tarmoqni muvofiqlashtiruvchi organlar, moliya bozori va yetkazib beruvchilar kabi omillarni kiritgan [1].

D.I.Ruziyeva kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati o'rtasida innovatsion yangilik bozorlarida raqobatbardoshlikni 3 ta darajaga raqobatbardoshlik past, raqobatbardoshlik o'rtacha, raqobatbardoshlik yuqori darajalarga bo'lib o'rgangan va raqobatbardoshlikni kuchayishi va yangi innovatsion investitsiyaviy mulklarni sotish bozorlarini tashkil topishida ifodalanadi deb ta'kidlab o'tgan [1].

A.A.Alekseyevning fikricha, raqobatbardoshlikka ikki guruh omillar: tashqi – mikro va makro muhit omillari (siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnika, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy-demografik, madaniy-tarixiy omillar, raqobatchilar, tadbirkorlik infratuzilmasi, mehnat bozori, qonunchilik bazasi va boshqalar) hamda ichki omillar – korxonaning salohiyati (ishlab chiqarish, kadrlar, tashkiliy-boshqaruv, marketing va moliyaviy salohiyat) ta'sir ko'rsatadi.

S.V.Zaxarova esa tashqi omillar tarkibiga davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi, mamlakatning iqtisodiy salohiyati va iqtisodiy o'sish darajasi, mehnat taqsimotida ishtirok etish, fan va texnikaning rivojlanish darajasi, resurslar bilan ta'minlanish darajasi, ichki bozor sig'imi va uning o'zgarishi, moliya tizimining moslashuvchanligi, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat va raqobatchilarni, ichki omillarga esa mahsulot yoki xizmatlar sifati, bozor resurslarini olish imkoniyati, moliyaviy

faoliyat, ijtimoiy siyosat, texnika va texnologiyalar, kadrlar malakasi va xodimlarni boshqarish sifati, samarali marketing strategiyasi va sotish siyosati kabi omillarni kiritgan[2].

Adabiyotlar tahliliga asoslangan holda “raqobat” tushunchasiga turlicha yondashuvlar: xulq-atvor, tuzilmaviy va funksional yondashuvlar asosidagi talqinlarni quyidagi jadvaldagi ma’lumotlarni taqqoslash asosida aniqlik kiritish mumkin (1-jadval).

1-jadval

“Raqobat” tushunchasiga asosiy yondashuvlarning xususiyatlari


Muallif	Tushunchaning talqini
Xulq-atvor yondashuvi	
A. Smit, A. Marshall, P. Keyn	Raqobat bu – iste’molchining mablag‘lari hisobiga cheklangan resurslarga egalik qilish uchun kurash[3].
M. Porter	Raqobatlashuvchi firmaning xulq-atvori resurslarni manfaatli taqsimlashning ikki jihati – xarajatlarni qisqartirish va mahsulot xususiyatlarini tabaqalashtirish bo‘yicha qaraladi
Tuzilmaviy yondashuv	
K. Makkonel, S. Bryu	Raqobat bu – bozorda ko‘p miqdordagi xaridor va sotuvchilarning mavjudligi sharoitida unga erkin kira olish va chiqib ketish imkoniyati dir
F. Nayt	Muallif tomonidan to‘rt asosiy turdagi bozorlar (sof raqobatli, monopol raqobatli, oligopol va monopol bozorlar)ning zamonaviy G‘arb nazariyasiga asos solingan. F. Naytning fikricha, mustaqil faoliyat ko‘rsatuvchi ko‘plab ishlab chiqaruvchi va xaridorlarning raqobatini aks ettiruvchi vaziyatdir
Funksional yondashuv	
A. Gradov	Raqobat korxonalar uchun ustunlik olib keladi, biroq daromadlilik darajasini kamaytirgan holda uning xayotiylik davrini xatarga olib keladi
Y. Shumpeter	Raqobat bu – eskilik va yangilik o‘rtasidagi kurash

Yuqoridagi yondashuvlar doirasidagi “raqobat” tushunchasiga berilgan ta’riflarning aniq bittasi to‘g‘ri, degan xulosaga kelish noto‘g‘ri. Chunki yondashuvlar nuqtai nazaridan berilgan tushunchaning talqinlari bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi.

Ko‘rib o‘tilgan xulq-atvor va funksional yondashuvlar doirasida bir qator olimlar (N.Gazizullin, Y.Ivanov, S.Kondratyukov, M.Porter, V.Boin, R.Fatxutdinov) tomonidan neoliberal yoki jarayonli, institutsional yondashuvlar shakllantirildi (1-rasm).

Ko‘rib chiqilgan yondashuvlar asosida raqobat tushunchasiga berilgan ta’riflar orqali uning mazmunini, o‘ziga xos jihatlarini hamda bozor iqtisodiyoti sharoitidagi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining o‘ziga xos belgilarini aniqlash va baholash mumkin.

Raqobatning turli tarmoqlardagi o‘ziga xos jihatlarini to‘g‘ri tushunish va tahlil qilish, ayniqsa, kichik biznes bozoridagi o‘zaro raqobat muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq raqobatning aniq atributiv (maxsus) belgilari asosida tasnifi yo‘qligi uning qaysi jihatlariga e’tibor qaratish lozimligini va qanday maqsadda o‘rganilishini chegaralab qo‘yishi mumkin.



1-rasm. Raqobat tushunchasini aniqlashga yondashuvlar

Shuni hisobga olgan holda, raqobat turlarining tasnifiy belgilarini o'rganish va ularni kichik biznes faoliyatiga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini samarali oshirishga yordam beradi. (2-rasm).


Raqobat turlarining tasnifiy belgilariga ko'ra ajratilgan to'rt asosiy guruh, iqtisodiy nazariyada va amaliy faoliyatda keng qo'llaniladi. Ushbu tasnif raqobatni chuqurroq tahlil qilish va uning turli shakllarini o'rganishga yordam beradi. Quyida har bir guruhga qo'shimcha ma'lumot keltiriladi:

Rivojlanish ko'lamiga ko'ra (I-guruh):

Bu guruhda raqobat o'z faoliyat maydoniga ko'ra farqlanadi. Misol uchun:

Individual raqobat: Yakka tadbirkorlar yoki kichik korxonalar o'rtasidagi raqobat.

Mahalliy raqobat: Bitta shahar yoki hudud doirasidagi iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi raqobat.



2-rasm. Raqobat turlarining tasnifiy belgilari

Tarmoq va tarmoqlararo raqobat: Bunda turli tarmoqlar o'zaro raqobatlashadi, masalan, transport va axborot texnologiyalari tarmoqlari o'rtasida.

Milliy va global raqobat: Milliy darajadagi raqobat ichki bozorga qaratilgan bo'lsa, global raqobat dunyo bozorida o'zaro kurashni ifodalaydi. Hozirgi davrda globalizatsiya sababli ko'p korxonalar global darajada raqobatlashmoqda.

Rivojlanish xususiyatlariga ko'ra (II-guruh):

Erkin raqobat: Bozorda raqobatchilar uchun kirish va chiqish erkin bo'lib, narxlar taklif va talabga asoslanib belgilanadi.

Narxga bog'liq raqobat: Bu turdagi raqobatda asosiy omil narx bo'lib, sotuvchilar narxni tushirish yoki o'zgartirish orqali ustunlikka ega bo'lishga harakat qilishadi.

Narxga bog'liq bo'lmagan raqobat: Bu yerda korxonalar o'z mahsulotlari yoki xizmatlarining sifatiga, xizmat ko'rsatish darajasiga, brendga yoki texnologik ustunliklarga e'tibor qaratadi.

Xaridor qaroriga bog'liq holda (III-guruh):

Xohish raqobati: Xaridorlar o'z xohishlariga asoslanib turli mahsulotlar yoki xizmatlarni tanlashadi.

Funksional raqobat: Bu turda xaridorlar mahsulotning funksional imkoniyatlariga qarab tanlov qilishadi, masalan, bir xil turdagi, lekin turli funktsiyalarga ega bo'lgan mahsulotlar o'rtasida.

Firmalararo raqobat: Korxonalar o'z brendlari yoki mahsulotlarini bir-biri bilan raqobat qilish orqali bozorga chiqarishadi.

Tovarlararo raqobat: Turli turdagi mahsulotlar o'rtasidagi raqobat bo'lib, bu mahsulotlar bir xil ehtiyojni qondirishi mumkin, masalan, avtoullov va mototsikl.

Bozorda raqobatli muvozanatga ko'ra (IV-guruh):

Sof raqobat: Ko'plab sotuvchi va xaridorlar mavjud bo'lib, hech bir ishtirokchi

bozorda ustunlikka ega emas. Barcha bozor ishtirokchilari erkin kirish va chiqishga ega.

Monopol raqobat: Bozorda bir yoki bir nechta yirik kompaniyalar narxlarni boshqarishi yoki maxsus imtiyozlarga ega bo'lishi mumkin. Bu turdagi raqobatda tovar yoki xizmatlarning noyoblighi katta rol o'ynaydi. Mazkur tasnif raqobatni chuqur o'rganish uchun muhimdir, chunki har bir turdagi raqobat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning bozorga ta'siri turlicha bo'ladi. Yuqoridagi tadqiqotlarning asosiy mazmuni "raqobat" tushunchasining konseptual mazmuni va uning mohiyatiga yondashuvlarni o'rganishga qaratilgan bo'lsa, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi tushunchasini boshqa iqtisodiyot tarmoqlaridagi raqobatbardoshlikdan farqlanishini e'tiborga olgan holda tadqiq etish talab etiladi. Chunki avvalgi bo'limlardagi tahlillar kichik biznes korxonasini bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatuvchi obyekt, mahsulot ishlab chiqaruvchi va bozorda faoliyat yurituvchi subyekt sifatida qabul qilish mumkinligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, "kichik biznes korxonasining raqobatbardoshligi" tushunchasining mohiyatini aniqlashga nisbatan ilmiy yondashuvlarni o'rganib chiqish talab etiladi. Bu esa kichik biznesning o'ziga xos jihatlari, uning raqobat muhitidagi o'rnini va rivojlanish yo'llarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Захарова С.В.Формирование и развитие экономического механизма управления конкурентоспособности предприятия–Саратов,2006–С.21-23.
2. Nasridinova, T. O. (2024). Methods of Assessing the Competitiveness of Entrepreneurial Activity in Tourism Enterprises. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 590-594.
3. Nasridinova, T. O. (2023). Factors affecting the management of competitiveness in tourism enterprises. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 159-163.
4. Ruzieva D.I. "Kichik biznes subyektlar faoliyatini investitsiya faoliyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasni olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2023 yil. 102,163 betlar.

УДК:338.33

KICHIK BIZNESDA DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAZMUN-MOHİYATI

ОСНОВЫ ДИВЕРСИФИКАЦИИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ

ESSENTIALS OF DIVERSIFICATION IN SMALL BUSINESS

Rustambekova F.R. (NamMTI assistenti)

Iqtisodiyotining bozor mexanizmlaridan foydalanishga o'tishi sharoitida, mulkchilik shakli va hajmidan qat'i nazar, har bir korxonada bir qator muammolarga duch keldi. Ularning mahsulotlari bozorini izlash jarayoni murakkablashdi, yetkazib beruvchilar bilan texnologik aloqalar buzildi. Murakkab zamonaviy biznes sharoitlari tadbirkorlar va menejerlar tomonidan yangi texnologik, tashkiliy va iqtisodiy yechimlardan foydalanishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, diversifikatsiya, bozor, mahsulot, biznes muhit, firma, daromad, foyda.

В условиях перехода экономики к использованию рыночных механизмов каждое предприятие, независимо от формы и размера собственности, столкнулось с рядом проблем. Усложнился процесс поиска рынка сбыта своей продукции, нарушены технологические связи с поставщиками. Сложные современные условия ведения бизнеса требуют использования предпринимателями и менеджерами новых технологических, организационных и экономических решений.

Ключевые слова: Малый бизнес, диверсификация, рынок, продукт, бизнес-среда, фирма, доход, прибыль.

In the conditions of the transition of the economy to the use of market mechanisms, every enterprise, regardless of the form and size of ownership, faced a number of problems.

The process of searching for a market for their products has become complicated, and technological relations with suppliers have been disrupted. Complex modern business conditions require the use of new technological, organizational and economic solutions by entrepreneurs and managers.

Key words: Small business, diversification, market, product, business environment, firm, income, profit.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston kichik biznesi oldida nafaqat omon qolish, bozorda o‘z mavqeini saqlab qolish, balki barcha ichki va tashqi imkoniyatlaridan foydalangan holda rivojlanish vazifasi turibdi.

Bu muammolarni hal etishning istiqbolli yo‘li – diversifikatsiyaga asoslangan kichik biznesni rivojlantirishdir. Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish ko‘plab kichik biznes subyektlari uchun dolzarb bo‘lgan omon qolish va barqaror o‘shishni ta‘minlash muammolarini hal qilishga yordam beradi.

"Diversifikatsiya" atamasi lotincha "diversificatio" (o‘zgarish, xilma-xillik) so‘zidan kelib chiqqan. Korxonani rivojlantirishning yuqori samarali usuli sifatida diversifikatsiya O‘zbekistonda xorijiy tadbirkorlikning butun tarixi davomida amalga oshirilganligi ilgari ko‘rsatilgan.

Diversifikatsiya ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi. Ilgari bir sohada ixtisoslashgan firmalarning (sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, moliya va h.k.) boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari, xizmat ko‘rsatish sohalariga, birinchi navbatda, yuqori foyda beradigan sohalarga kirib borishi ularning xo‘jalik faoliyati sohalari va imkoniyatlarini kengaytiradi [1].

Diversifikatsiya natijasida turli-tuman tovarlar ishlab chiqaradigan, xizmat ko‘rsatadigan hamda ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bilan band bo‘lgan keng tarmoqli, ammo hamisha ham texnologik jihatdan o‘zaro bog‘lanmagan majmualar vujudga keladi va bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi deyiladi. Bundan tashqari uning kredit diversifikatsiya ko‘rinishi ham bor. Bunday diversifikatsiya tarmoqlararo kapital konsentratsiyasi jarayoni va korxonalararo ichki beqarorlikning kuchayishi bilan bog‘liq.

Dunyo mamlakatlarida diversifikatsiya jarayoni XX asrning 50-yillari o‘rtalaridan rivojlana boshladi. Dastlab AQSh, Yaponiya, G‘arbiy Yevropa davlatlarida diversifikatsiya sanoat, transport, qurilish, moliya sohalarida vujudga keladi. Shu bois diversifikatsiya xarakteri mazkur davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy omillari, shuningdek, boshqa davlatlarga tegishli bo‘lgan umumiy omillar (ilmiy-texnika inqilobi, yuqori foyda uchun kurash, raqobat kurashi, texnik taraqqiyotdan qolib ketmaslik va b.) bilan belgilanadi [2]. Diversifikatsiyada firmalar, ayniqsa, monopol firmalar ko‘p tarmoqlilik tusini oladi. Ular avvalo ko‘p daromadli,

tez rivojlanadigan sohalar (mas, elektronika, kimyo)da faoliyat boshlaydi. Korxonalar mahsulot ishlab chiqarish bilan birga, shu mahsulot uchun zarur bo'lgan xomashyoni ham o'zlari tayyorlashga kirishadi. Mablag'larni kam daromadli sohadan tejab ko'p foyda beradigan tarmoqlarga sarf etadilar. Masalan, AQSh konsernlari xizmat ko'rsatish, qurilish, yer maydonlari savdosi, nashr ishlari, savdo-sotiq axboroti, jihozlarni ijaraga berish va boshqada faoliyat yuritdi [3].

O'zbekiston iqtisodiyotida yangi barpo etilgan sanoat korxonalarida asosiy mahsulot turidan tashqari qo'shimcha mahsulotlar, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya ko'plab mualliflar tomonidan korxonalar faoliyatining xilma-xilligi sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, turli tadqiqotchilar tomonidan diversifikatsiya ta'riflari ham shakl, ham mazmun jihatidan sezilarli darajada farqlanadi [4].

1) "Diversifikatsiya – firmalarning bevosita ishlab chiqarish aloqasi yoki faoliyatining asosiy tarmog'iga funksional bog'liqligi bo'lmagan tarmoqlarga kirib borishi".

2) "Diversifikatsiya – yirik monopoliyalarning bevosita ishlab chiqarish aloqasi yoki faoliyatining asosiy tarmog'iga funksional bog'liqligi bo'lmagan tarmoqlarga kirib borishi".

3) "Diversifikatsiya – bir vaqtning o'zida bir-biriga bog'liq bo'lmagan ko'plab ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish, bir kompaniya, konsern, korxonalar, firma va boshqalar doirasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini kengaytirishdir".

4) «Diversifikatsiya – korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot turlarini birlashgan ishlab chiqarishdan foyda olishga qaratilgan kengayishi, ishlab chiqarish va boshqa tadbirkorlik faoliyatining bir-biriga bog'liq bo'lmagan ko'plab texnologik turlarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar turlarini kengaytirish".

5) "Diversifikatsiya – korxonalar, firma, korporatsiya faoliyati doirasini asosiy faoliyat doirasidan tashqariga kengaytirish, ko'pincha ular faoliyatining asosiy sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan yangi tovar va xizmatlarning boshqa tarmoqlari va bozorlariga kirib borishi. Bu (korxonalarining) istagi raqobatda o'z mavqeini mustahkamlashga va iqtisodiy o'zgarishlarga o'z vaqtida javob berishga qaratilganligi, kapitalni an'anaviy yoki past rentabelli tarmoqlardan bilim talab qiladigan va istiqbolli yoki yuqori daromadli tarmoqlarga o'tkazish maqsadida amalga oshiriladigan bozor sharoitlari, sanoatning mavsumiy tebranishlarini tekislash va xavflarni kamaytirish, bo'sh mablag'larni investitsiya qilish».

6) «Diversifikatsiya – asosiy korxonalar negizida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va mavjud mahsulot assortimentidan korxonaning asosiy ishlab chiqarishi uchun yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalanish jarayoni, asosiy ishlab chiqarishga nisbatan turli funksional shakllarni olishi mumkin. U asosiy korxonaga nisbatan turli xil mulkchilik shakllarini qabul qilishi mumkin. Diversifikatsiya tijorat yoki ijtimoiy maqsadlarga ega bo'lgan bozor jarayonlari ta'sirida sodir bo'ladi".

7) "Yon tomonlama diversifikatsiya – korxonaning ilgari begona, o'zaro bog'liq bo'lmagan faoliyat sohalariga kirishi bilan bog'liq vaziyat. Korxonada faoliyat yurituvchi texnologiyalarga, savdo kanallari, bunday strategiya katta resurslarni o'zlashtiradi va biznesning o'zi yuqori xavfga ega bo'lgan korxonaga aylanadi".

8) Diversifikatsiya – korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini kengaytirish".

9) «Diversifikatsiya - bir korxonalar doirasida sanoat va tarmoqlar faoliyatining turli turlarini rivojlantirish jarayoni.

10) "Diversifikatsiya - ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish: korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini kengaytirish, samaradorlikni oshirish maqsadida bir vaqtning o'zida bir-biriga bog'liq bo'lmagan ko'plab ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish, bankrotlikning oldini olish, ssudalarni diversifikatsiya qilish: yo'qotish xavfini kamaytirish va yuqori daromad olish maqsadida iqtisodiyotga qo'yilgan yoki kreditga berilgan pul kapitalini turli obyektlar o'rtasida taqsimlash".

11) "Diversifikatsiya – investitsiya obyektlarining keng doiradagi mavjudligi, mumkin bo'lgan investitsiya xavfini kamaytirish uchun mablag'lar".

12) "Diversifikatsiya – investitsiya qilingan mablag'larni bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lmagan turli investitsiya obyektlari o'rtasida taqsimlash jarayoni".

13) "Diversifikatsiya – asosiy faoliyatdan tashqari kompaniya faoliyatining yangi turlariga qaratilgan marketing strategiyasi.

"Bank faoliyatini diversifikatsiya qilish. Quyidagi maqsadlarda bank aktivlarini eng katta qarz oluvchilar qatoriga joylashtirish:

a) kredit riskini kamaytirish (qarz oluvchilarning to'lovga qodir emasligidan zarar ko'rish ehtimoli);

b) kredit portfelini maqbul darajada ushlab turish.

Diversifikatsiya gorizontal. Ilgari ishlab chiqarilmagan analog mahsulotlarni chiqarish orqali kompaniyaning mahsulot assortimentini kengaytirish.

Kapitalni diversifikatsiya qilish. "Kapitalni turli obyektlar va qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish, "qimmatli qog'ozlar portfeli" ni shakllantirishga olib keladi.

Diversifikatsiya konglomeratdir. Mahsulot assortimentini kengaytirish, mahsulotlarga ega kompaniyalar, bu kompaniya uchun prinsipial jihatdan yangi texnologiyani joriy etish va yangi savdo bozorini rivojlantirish [5].

Diversifikatsiya konsentrik. Mahsulot assortimentini kengaytirish, firmalar ilgari ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qo'shimcha ravishda yangi turdagi tovarlarni chiqarish orqali amalga oshirish.

Eksporni diversifikatsiya qilish. Ekspori tovarlari va xizmatlari turlarini kengaytirish".

14) "Diversifikatsiya - bu kompaniyaning faoliyat doirasini har xil turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki turli bozorlarga kengaytirishdir".

15) "Diversifikatsiya – bu bitta alohida firma tomonidan xizmat ko'rsatadigan turli bozorlar sonining ko'payishi".

16) "Diversifikatsiya - bu ko'plab yangi turdagi mahsulotlar (yoki kompaniya faoliyati turlari) yaratiladigan va haqiqiy bozor bo'shliqlarini to'ldiradigan marketing strategiyasi".

17) "Diversifikatsiya – korxonalar resurslarini korxonalar ilgari faoliyat yuritgan muhitdan sezilarli farq qiluvchi boshqa faoliyat sohalariga qayta taqsimlash jarayoni. Bu jarayon, birinchi navbatda, korxonalar diversifikatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin hech qanday aloqasi bo'lmagan yangi texnologiyalar, bozorlar va tarmoqlarga o'tishga taalluqlidir, mahsulotlarning o'zi mutlaqo yangi bo'lishi kerak va har doim yangi moliyaviy investitsiyalar kerak bo'ladi".

Shunday qilib, barcha nazariy qoidalarda umumiy bo'lgan narsa bilan bir qatorda diversifikatsiya korxonalar faoliyatining xilma-xilligini anglatadi, diversifikatsiyaning mohiyati to'g'risidagi fikrlarda sezilarli tafovut mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi nazariyalarda bu tushunchalar toraytirilgan va ushbu ko'p qirrali usulning har qanday jihati ta'kidlangan.

Diversifikatsiyaning murakkab, umumlashtiruvchi qarashlarni bir vaqtda ko'rib chiqish va tadbirkorlik tushunchalari klassik iqtisodchilar A. Marshall, J. Shumpeter

korxonaning rivojlanishi va yashashi usuli sifatida diversifikatsiya bilan ishlab chiqarish omillaridan biri – tadbirkorlik faoliyatining transformativ yo‘nalishi o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, u yoki bu darajada diversifikatsiyani amalga oshirish rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiy tizimlarda tadbirkorlik faoliyatining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Bozorni tark etishni istamagan har qanday tadbirkorlik subyekti ishning diversifikatsiya usullaridan foydalanadi.

Muallifning fikricha, diversifikatsiya ta‘rifini aniqlashtirish uchun korxonalar (tadbirkor) xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi munosabatlar xususiyatini hisobga olish zarur. Tashqi muhit omillari tadbirkorga salbiy yoki ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, shu bilan birga, tadbirkor nafaqat atrof-muhitga moslashadi, balki transformatsion faoliyatni ham amalga oshiradi. Muvaffaqiyatning muhim sharti tadbirkorning (menejerning) atrof-muhitga faol ta‘sir ko‘rsatishi, uni o‘zgartirishi va kerakli natijaga erisha olishiga subyektiv ishonchidir.

Diversifikatsiya strategiyasini qo‘llashning muhim sababi bu kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish istagidir. Diversifikatsiya korxonaning raqobatbardoshligini boshqarishda qo‘llaniladigan yondashuvlarning ko‘p xilma-xilligi, raqobatbardoshlikka erishishning turli darajalari, obyektlari, shakllari va usullari sifatida ta‘riflanadi.

Dissertatsiyada qo‘llaniladigan usul va hodisa sifatida diversifikatsiyaning sabablari va tasnifini o‘rganishga yondashuv muallif tomonidan ko‘rsatilgan. Bu diversifikatsiya korxonalar hayotiy siklining turli bosqichlarida amalga oshirilishi mumkinligiga asoslanadi. Shunga ko‘ra, diversifikatsiya strategiyasini qo‘llash sabablari korxonalar qanday iqtisodiy vaziyatga bog‘liq.

Shu bilan birga, korxonaning hayot sikli bosqichlarining xarakterli xususiyatlari nafaqat kompaniyaning hajmi va sotish hajmi, balki maqsadlar, boshqaruv uslubi, ishni tashkil etish, o‘shirish usullari.

1-bosqich - tashkilotning tug‘ilishi. Ushbu bosqichda yaratilgan kompaniyaning asosiy maqsadi omon qolishdir, lekin ayni paytda doimiy ijodiy izlanish mavjud. Tadbirkor kamida bitta asosiy kompetensiyaga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, u, qoida tariqasida, o‘zini ko‘p tarmoqli deb biladi. Shu bilan birga, katta miqdordagi biznes ishni boshlamasdan o‘z faoliyatini to‘xtatadi va buning sabablaridan biri kamida bitta faoliyat turiga ixtisoslashuvning yo‘qligi hisoblanadi. Kichik korxonaning asosiy vazifasi bozorga chiqishdir, shu bilan birga u maksimal daromad olishga qaratilgan. Tashkilotda, qoida tariqasida, ish vazifalarini taqsimlash mavjud emas. Mehnatning sezilarli darajada universallashtirishi, o‘zaro yordam va o‘zaro almashinish mavjud. Kichik biznes subyektlar sezilarli moliyaviy resurslarga ega emasligi, shuningdek, faoliyat turi va ishlab chiqarilgan asosiy mahsulot (xizmat) yakuniy aniqlanmaganligi sababli ijaraga olingan asbob-uskunalar va ishlab chiqarish maydonlaridan foydalaniladi. Boshqaruv tuzilmasi chiziqli. Qaror qabul qiluvchi bitta. Bosqichning oxirida menejer, odatda egasi, mutaxassislarni jalb qiladi, ya‘ni, tashkilotni boshqarishga yondashuvni o‘zgartirish zarurligi haqida tushuncha mavjud.

2-bosqich - bolalik va o‘smirlik. Funktsional boshqaruv tizimiga o‘tish maqsadga muvofiqdir. Tadbirkor qaysi mahsulot ishlab chiqarishni belgilab oldi va shunga muvofiq maxsus jihozlar va asboblarni xarid qilmoqda. Kichik korxonaning asosiy maqsadlari jadal o‘shirish va tez daromad olishdir. Bosqichning boshida asosiy vazifa bozor ulushini egallash, keyin esa o‘z mavqegini mustahkamlashdir. Kichik korxonalar yangi bozorlarni va yangi mahsulotlarni chiqarish (sotish) imkoniyatlarini qidiradi. Bosqich oxirida faoliyat boshqa kichik korxonalarga nisbatan samarali bo‘lishi mumkin, ammo ichki rivojlanish zaxiralari tugadi. Shu bilan birga, korxonalar rahbariyati, agar bozorda kuchliroq tuzilma paydo bo‘lsa,

kompaniya raqobatga dosh bera olmasligini biladi - avtonomiya inqirozi yuzaga keladi.

3-bosqich - yetuklik. Keyingi rivojlanish imkoniyatlari munosabatlarni diversifikatsiya qilish orqali ta'minlanadi. Barqaror munosabatlarga o'tish; yetkazib beruvchilar, mijozlar bilan biznes/munosabatlar, raqobatchilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. Bu yerda hamkorlarni to'g'ri tanlash muhimdir. Kichik biznes subyektlari o'z imidjini shakllantiradi, bozor ulushini kengaytiradi va mijozlarning turli xil manfaatlarini hisobga oladi. Menejer endi ortib borayotgan ma'lumotlar hajmiga bardosh bera olmasligi, nazorat qilish standartlari oshib ketganligi sababli, chiziqli-funksional tizimga o'tish tavsiya etiladi.

4-bosqich - qarish. Asosiy maqsad – erishilgan natijalarni saqlab qolish va asosiy vazifa barqarorlikni ta'minlashdir. Rivojlanishning keyingi imkoniyatlari bo'linmaviy boshqaruv tizimiga o'tish orqali ta'minlanadi (mahsulot bo'yicha; hududiy asosda). Shu bilan birga, sohalar va xodimlarning foyda olishdagi ishtiroki (ayniqsa, bo'lim boshliqlari) o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash kerak. Ushbu bosqichda kichik korxonalar o'rta korxonalar toifasi chegarasiga yaqinlashadi yoki uni yengib o'tadi, ammo kichik korxonalar shaklida yangi bo'linma bo'linmalari ham tuzilishi mumkin. Asta-sekin kompaniya ichidagi aloqa kanallari yuklarni ko'paytira boshlaydi, buyruqlar tezligi va fikr-mulohazalar pasayadi - byurokratik inqiroz yuzaga keladi.

5-bosqich - jonlanish. Bir tomondan, menejerlarning tajribasi va bilimi oshdi, ikkinchi tomondan, kundalik ishda inersiya va texnik, texnologik, tashkiliy va iqtisodiy yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda turg'unlik. Shu munosabat bilan rahbarlarni gorizontal holatda ko'chirish, malakasini oshirish, ishchilarni qayta tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash sohasida - mehnatni tashkil etishning bepul rejimi, qaydlar joriy etish va jamoaviy mukofotlar. Ushbu bosqichning rivojlanish omili kollektivizmdir.

Ushbu bosqichdagi asosiy maqsad barcha funksiyalar, darajalar, havolalar va quyi tizimlar bo'ylab jonlanishni ta'minlashdir.

O'zbekiston kichik biznesi oldida rivojlanish va barqaror o'sishni ta'minlash uchun diversifikatsiya qilish zaruriyati turibdi. Kichik bizneslar moliyaviy va iqtisodiy faoliyatlarini diversifikatsiyalash orqali ichki va tashqi xavf-xatarlarga bardosh berib, bozorda omon qolish imkoniyatini oshiradi. Umuman olganda, diversifikatsiya O'zbekiston kichik biznesi uchun muhim strategik yo'nalish bo'lib, u korxonalariga o'sish va rivojlanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Плодоовощные консервы «Незаконсервированный бизнес» <http://www.technoshop.ru/papers/2002>.
2. Хлопонин А.Ф. Диверсификация: планы и перспективы// Сталь. 2000. - №10i-C.7-10
3. Aharoni Y. The role of small firms in an interdependent world. In Standing on the Shoulders of International Business Giants 2024 (pp. 237-261).
4. Snorek J, Cummings W, Hryniewicz E, Stevens K, Iannuzzi R. Diversification strategies for the resilience of small New England dairies. Journal of Agriculture, Food Systems, and Community Development. 2023 May 5;12(3):9-29.
5. Ilchuk M, Nikitchenko S, Sytnyk O, Pavlenko V. Diversification of entrepreneurial activities in the agricultural sector of Ukraine's economy in the post-war period. Ekonomika APK. 2023 Jul 17;30(4):25-35.

UDK: 33(330.1)+(43/45)

О‘ЗБЕКISTONDA HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMINI BAHOLASH

ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ РЕГИОНОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

ASSESSMENT OF THE ECONOMIC MECHANISM FOR INCREASING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS IN UZBEKISTAN

Ergashev A.H. (FDU, PhD, dots.)

Malakatimizda so‘nggi yillarda qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, xorijiy investitsiyalar ko‘lamini kengaytirishga yo‘l ochish, investitsion muhitni izchil yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar iqtisodiyotimizga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining oshishiga zaruriy omil bo‘lmoqda.

Jahon iqtisodiyotidagi global o‘zgarishlar va barcha sohadagi rivojlanish tendentsiyalari har bir davlatning o‘z iqtisodiy rivojlanishini tashqi iqtisodiy faoliyatsiz, uning rivojlanishini esa faol investitsiya siyosatisiz ta‘minlay olmasligini yaxshi bilgan holda o‘rta va uzoq muddatga mo‘llangan samarali investitsiya siyosatini olib borishga asosiy e‘tibor qaratishi zarurligini taqozo etmoqda. Shunga muvofiq ravishda mazkur maqolada mamlakatimizda hududlar investitsion jozibadorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmini baholash masalalari

Kalit so‘zlar: hududlar, investitsion muhit, tadbirkorlik, investitsiya, strategiya, investitsion faollik, boshqaruv, rivojlanish tendentsiyalari, iqtisodiyot.

Системные меры по формированию благоприятного инвестиционного и делового климата, открывшие путь к расширению масштабов иностранных инвестиций, последовательному улучшению инвестиционного климата в последние годы являются необходимым фактором увеличения объемов инвестиций, направляемых в нашу экономику. Глобальные изменения в мировой экономике и тенденции развития во всех сферах диктуют необходимость каждому государству уделять основное внимание проведению эффективной инвестиционной политики, нацеленной на среднесрочную и долгосрочную перспективу, прекрасно осознавая, что без внешнеэкономической деятельности его экономическое развитие невозможно, а без активной инвестиционной политики его развитие невозможно. В соответствии с этим в данной статье рассматриваются вопросы оценки экономического механизма повышения инвестиционной привлекательности регионов в нашей стране.

Ключевые слова: регионы, инвестиционный климат, предпринимательство, инвестиции, стратегия, инвестиционная активность, менеджмент, тенденции развития, экономика.


Systemic measures to create a favorable investment and business climate, which have opened the way to expanding the scale of foreign investment and consistently improving the investment climate in recent years, are a necessary factor in increasing the volume of

investments directed into our economy. Global changes in the global economy and development trends in all spheres dictate the need for each state to focus on conducting an effective investment policy aimed at the medium and long term, being well aware that without foreign economic activity its economic development is impossible, and without an active investment policy its development is impossible. In accordance with this, this article examines the issues of assessing the economic mechanism for increasing the investment attractiveness of regions in our country.

Keywords: regions, investment climate, entrepreneurship, investments, strategy, investment activity, management, development trends, economy.

Globalashuv sharoitida dunyo bozorlarida raqobatning shiddatli tus olishi, birinchi navbatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar ko‘rinishida jalb etiluvchi xorijiy kapital uchun raqobat kurashida respublikada mavjud imkoniyatlar va afzalliklardan unumli foydalanishga harakat qilinmoqda. Shunga muvofiq ravishda so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham tashqi iqtisodiy faoliyatga uyg‘un tarzda faol investitsiya siyosatini olib borish va uni yanada takomillashtirishga jiddiy e‘tibor qaratib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayd qilib o‘tganlaridek: “Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to‘la namoyon etish choralari ko‘rishimiz kerak. Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo‘yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin” [3]. Qulay investitsiya muhitini shakllantirmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi. Shu maqsadda O‘zbekiston xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish jarayonini faollashtirish uchun real shart-sharoit yaratish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar hududlarga investitsiyalarni yanada faol jalb etish maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, bugungi kunda hududlar investitsion jozibadorligini yanada oshirish borasida bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. Bizningcha, moliyalashtirish mexanizmi quyidagi to‘rtta qismni tizim sifatida mujassamlashtira olsagina yaxlit va obyektiv bo‘ladi (1-rasm):




1-rasm. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlari [1]

- moliyalashtirish munosabatlari;
- moliyalashtirish muassasalari;
- moliyalashtirish tizimi;
- moliyalashtirish tartib-qoidalari.

ИҚТИСОД

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirishga xalqaro ekspertlarning munosabatlari va bergan baholari ham davlatimizning iqtisodiy islohotlarni to'g'ri yo'lda va samarali amalga oshirayotganligidan dalolat beradi.

So'nggi 6 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 4 martaga ko'payib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Jami investitsiyalar hajmida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 228,4 trln. so'm yoki jami investitsiyalarning 84,6 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2021 yilga nisbatan 3,8 % punktga ko'paydi. Jalb etilgan mablag'lar 159,6 trln. so'm, jamiga nisbatan 59,1 %, o'z mablag'lari 110,3 trln. so'm, jamiga nisbatan 40,9 %ni tashkil etdi.



1-diagramma. Yuqori ulushga ega hududlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar [10], ulushi % da

Mazkur dasturga asosan shu yilda 233 trillion 200 mlrd. so'm, jumladan 7,1 mlrd. AQSh dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan [11]. Hozirda jalb etilgan xorijiy investitsiyalar tuzilmasini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, bunday investitsiyalarning katta qismi eksportga mo'ljallangan tarmoqlarga yoqilg'i-energetika majmuasi, neft-kimyoy, oltin qazib olish va paxtani qayta ishlash sanoatiga yohud o'z-o'zini qorlash muddatlari qisqa bo'lgan va ko'r fond talab qilmaydigan yuqori rentabelli loyihalarga: savdo, telekommunikatsiya, umumiy ovqatlanish, yirik shaharlarda ofis va mehmonxona binolari qurish, oziq-ovqat sanoati va moliya xizmatiga yo'naltirilmoqda. Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida kuzatildi - 66,7 % yoki 7679,2 trln. so'm. Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Sirdaryo viloyatida kuzatilib, 22,7 %ni yoki 2858,1 trln. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich - 75,8 % yoki 9529,9 trln. so'mni tashkil etdi.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamligini ta'minlashga hamda xususiy, shu jumladan xorijiy investitsiyalar uchun respublikaning investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekistonning jahondagi iqtisodiy mavqeini yuksaltirish va raqobatbardosh ilm-fanni talab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiyotni sifatli rivojlantirish bevosita uning innovatsion faoliyatiga bog'liq. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, davlat va xususiy innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish muayyan tarmoqlarda texnologik yutuqni ta'minlaydigan innovatsion rivojlanishga xizmat qiladi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar [10]

	Jami investitsiyalar, mlrd. so'm	jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jami ga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxonalar va aholi mablag'i	Aholi	Xonijiv investitsiya va kreditlar	Suyta' minoti va kanal-izatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	269857,5	7,8	31,3	9,5	41,6	1,1	0,9	7,8
Qoraqalrog'iston Respublikasi viloyatlar:	10099,8	12,7	28,1	11,9	38,9	1,4	1,7	5,3
Andijon	14758,6	7,6	23,9	12,2	47,1	2,5	-	6,7
Buxoro	21138,0	4,8	21,6	11,1	56,8	0,6	-	5,1
Jizzax	10763,1	9,7	23,7	6,0	44,5	1,5	-	14,6
Qashqadaryo	16181,5	9,1	23,6	14,8	46,5	2,0	0,2	3,8
Navoiy	19396,1	3,6	30,7	9,9	54,9	0,3	-	0,6
Namangan	14348,2	6,1	19,8	16,3	34,3	1,1	-	22,4
Samarqand	21955,2	9,1	26,6	7,4	43,7	0,7	-	12,5
Surxondaryo	11507,3	12,1	15,0	16,3	43,1	5,7	-	7,8
Sirdaryo	12574,7	5,5	10,7	1,8	77,5	0,5	-	4,0
Toshkent	34954,7	6,0	39,3	8,0	32,9	0,5	5,4	7,9
Farg'ona	15396,7	7,2	21,4	17,2	46,1	2,3	-	5,8
Xorazm	8806,6	9,3	25,6	24,0	30,7	1,2	1,2	8,0
Toshkent sh.	56725,8	8,2	52,1	3,2	28	-	0,5	8,0

¹⁾Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi RF-60-son Farmoniga asosan «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi» qabul qilinib, unda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, korxonalar va tadbirkorlik subyektlarining innovatsion-investitsion faolligini oshirish bo'yicha maqsadlar aniq belgilab olingan. Xususan, «Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish» [2] deb nomlangan 51-maqsadda ko'zda tutilgan asosiy yo'nalishlar korxonalar innovatsion-investitsion faolligini oshirish bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan ishlar aniq ko'rsatib qo'yilgan.

Bular:

- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarida to'lov-grant asosida o'qishni tashkil etish.
- Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard so'mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish.
- «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi»ning «Global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish» deb nomlangan 52-maqsadi esa yanada kengroq va strategik masalalarni hal qilishga qaratilgan, xususan:

• Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash.

• Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish va b.

2-jadval

Investitsiya loyihalari tashqi moliyalashtirish manbalarining taqqoslanma tahlili [4]

Tashqi moliyalashtirish manbalari	Afzalliklari	Kamchiliklari
<u>Kreditlar</u>	<u>Keng tarqalganligi va qarz beruvchilar korxonaning joriy faoliyatiga aralashmasligi</u>	<u>Garov ta'minoti, korxonaning kredit tarixi va barqaror pul oqimlari bo'lishi shartligi</u>
<u>Davlat byudjeti mablag'lari</u>	<u>Ko'r hollarda uzoq muddatga berilishi, ba'zida esa qaytarish sharti va foizlar yo'qligi hamda ijtimoiy loyihalarga ham yo'naltirilishi</u>	<u>Hajmi cheklanganligi, faqat ma'lum soha loyihalari uchun, muhim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilishi</u>
<u>Aktsiyalarni qo'shimcha emissiyasi</u>	<u>Muddati cheklanmaganligi, dividendlar berilishi faqat aksionerlar kengashida hal etiladi (joriy moliyaviy natijalarga qarab)</u>	<u>Aktsiyalarni sota olmaslik ularni chiqarishga xarajatlarni qoplamaslik, boshqaruvni yo'qotish ehtimolining mavjudligi</u>
<u>Venchurli moliyalashtirish</u>	<u>Yangi korxonalariga qo'llash mumkin, aktsiyalarni asosiy qismi loyiha tashabbuskorlarida qoladi</u>	<u>Venchurli investor joriy faoliyatga aralashish va qarorlar qabul qilish huquqiga ega</u>

Investitsiya kiritish vaqtida O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan eng kam oylik ish haqining 8 500 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda xo'jalik jamiyatlarining aktsiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, xorijiy korxonalar tashkil etish shaklida O'zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ko'p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytirish huquqi berildi" [9].

O'zbekiston Respublikasida investitsiya jozibadorligini oshirishda Harakatlar strategiyasining jahon iqtisodiy hamkorlikni yanada takomillashtirish, chunonchi, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni tubdan kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosat chora-tadbirlarini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan oqilona foydalanish bo'yicha belgilab olingan vazifalardan kelib chiqib "O'zbekistonning investitsion portali" tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha qonunchilik tizimi takomillashtirilib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Investitsion faoliyat to'g'risida"gi qonun hujjatlariga Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 26-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuni qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bu yangi taxrirdagi qonun O'zbekistonda investitsiyalarni iqtisodiyotning real sektoriga jalb qilish, loyihalarni shakllantirishning butunlay yangi mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Qonunga ko'ra davlat investitsiya dasurlari O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari deb yuritila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari - bu uzoq muddatli istiqbol uchun tasdiqlanadigan, mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy, mehnat resurslaridan va boshqa resurslardan oqilona foydalanish yo'li bilan mamlakat iqtisodiyotining ayrim

tarmoqlari hamda mintaqalarini tuzilmaviy jihatdan o'zgartirish bo'yicha asosiy ustuvorliklar va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan choralar majmuidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019 yil 25 dekabr, O'RQ-598-son, 4-modda. // <https://lex.uz/docs/-4664142>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi». 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - Toshkent. // Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.
4. Abduvoxidov A. va boshq. Innovatsiyalar iqtisodiyoti. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: «Mumtoz so'z». - 2020.
5. Olimova, N. (2024). Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari.
6. Эргашев, А. Х. (2021). Перспективы эффективного использования маркетинговых стратегий для повышения инвестиционной активности Ферганской области. *Cognitio rerum*, (7), 42.
7. Эргашев, А. Х. (2019). Приоритетные направления повышения роли инвестиций в реализации и модернизации комплексной программы промышленного развития страны. In *Тенденции развития мировой торговли в XXI веке* (pp. 424-427).
8. <https://mininnovation.uz/>
9. <http://invest.gov.uz/uz/investor/sez-i-mpz/>
10. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. 2022 yil yanvar-dekabr, Toshkent 2023 y.
11. <http://uza.uz>. 2020-yil 15-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksport, investitsiya va mahalliyashtirishni kengaytirish" masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi.

UDK: 33(330.1)

XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH MASALALARI

ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В СТИМУЛИРОВАНИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ С ИНОСТРАННЫМИ ИНВЕСТИЦИЯМИ

ISSUES OF USING FOREIGN EXPERIENCE IN STIMULATING THE ACTIVITIES OF ENTERPRISES WITH FOREIGN INVESTMENTS

Olimova N.X. (FDU, i.f.n., prof.)

Mamlakatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi investitsiya faolligi sur’atlariga, bu esa, iqtisodiyot bir tekis o’sib borishi va taraqqiy etishini belgilovchi investitsiya faoliyatiga bog‘liq. Mazkur holatlar iqtisodiy o’sishni ta’minlash maqsadida xorijiy investitsiyalar masalalariga alohida yondashuvni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning xorij tajribalari o‘rganilgan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy omillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, korxonalar, jozibadorlik, investitsiya, strategiya, investitsion faollik, rag‘batlantirish, omillar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish.


Современный уровень экономического развития страны зависит от темпов инвестиционной деятельности, которые, в свою очередь, определяют равномерный рост и развитие экономики. Данные обстоятельства требуют особого подхода к вопросам иностранных инвестиций с целью обеспечения экономического роста. Исходя из этого, в данной статье изучен зарубежный опыт стимулирования деятельности предприятий с участием иностранных инвестиций, проанализированы основные факторы привлечения иностранных инвестиций.

Ключевые слова: экономика, предприятие, привлекательность, инвестиции, стратегия, инвестиционная активность, стимулы, факторы, производство, обслуживание.

The current level of economic development of the country depends on the pace of investment activity, which, in turn, determine the uniform growth and development of the economy. The specifics of investment activity are determined by the generalizing characteristics of economic, social, organizational, legal, political and other conditions that determine the expediency and attractiveness of activities in this area. All these circumstances require a special approach to foreign investment issues in order to ensure economic growth. Based on this, this article examines the foreign experience of stimulating the activities of enterprises with the participation of foreign investments, analyzes the main factors in attracting foreign investment.

Keywords: economy, enterprise, attractiveness, investments, strategy, investment activity, incentives, factors, production, maintenance.

Ma'lumki, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibining shakllanishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlari bilan bog'liq. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi yuksak darajada taraqqiy etishning hal qiluvchi omillaridan biri bo'lgan. Investitsiya siyosati nafaqat kapital mablag'lar miqyosini oshirishni, balki ularning takror ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishni, investitsiyalarni ko'proq samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishlarga yo'naltirishni ko'zda tutadi. Ishlab chiqaruvchilarga soliq yukini pasaytirishga qaratilgan soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish, to'lov intizomini mustahkamlash, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar esa korxonalarining o'z mablag'lari ko'payishiga imkoniyat yaratadi. Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi savdo va sanoatga, kam ulushi esa sog'liqni saqlash hamda tashish va saqlash sohasiga to'g'ri keladi [3]. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi sohalar hamon xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar nisbatan kam faoliyat yuritayotgan sohalardan biri bo'lib qolmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi [6], (foizda)

Hozirgi paytda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar global tuzilmasida uchta qutb mavjudligi to'g'risida to'la ishonch bilan aytish mumkin. Ular: AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Xitoy. Ularning ulushi umumiy investitsiya olib chiqishning 4/5 qismidan ortig'ini tashkil etadi. Bu ularning tashqi savdodagi solishtirma ulushidan ancha kattadir. AQSh eng yirik sarmoya importchisiga aylangan.

Yevropa Ittifoqida integratsiya darajasi aynan ichki hududiy bevosita investitsiyalar asosida o'sdi, mintaqaning o'zi esa, yirik sarmoya eksportchisi rolini o'ynay boshladi. Yaponiyada investitsiya olib chiqishning yuqori sur'atlar bilan o'sayotganligi kuzatilmoqda va u tashqi iqtisodiyot hajmiga ko'ra jahondagi o'rnini yaxshigina mustahkamlab olishi mumkin. Osiyo davlatlari (Yaponiyadan tashqari) yaqin yillarda bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmiga ko'ra, G'arbiy Yevropadan o'zib ketadi. Xorijga kapital qo'yilmalarni amalga oshirishda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish emas, xorijiy bozorlarga kirishni kengaytirish eng istiqbolli rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Investitsiyalarning bir tekisda taqsimlanmaganligi boshqa guruhlariga ham xosdir. Rivojlanayotgan davlatlarda 3/5 qismi Osiyoga, 1/4 qismi Lotin Amerikasiga, qolgan qismi Afrikaga to'g'ri keladi. Shu bilan birga investitsiya faoliyatining tartibga solinishi davlatning takror ishlab chiqarish jarayonida ayrim tarmoqlarga investitsiyalar oqimlarini boshqarishi

bilan amalga oshiriladi. Iqtisodiyotning turli sohalarida kapital jamg'arilishi jarayonlarini kuchaytirish yoki susaytirish, aholining to'lovga qobil talabini kengaytirish yoki qisqartirish yo'llari bilan tartibga solish funktsiyasi foydalaniladi.

Xorijiy mamlakatlarda investitsiya faoliyatiga baho berish uslublari bir-biridan farq qiladi, odatda, bu borada makroiqtisodiy sohaga nisbatan baho ishlatiladi. Masalan, Yaponiyada investitsiya faoliyatining bayoniy tavsifi berilib, miqdoriy baho qo'llanilmaydi. AQShda u birlashtirilgan to'rtta ko'rsatkich asosida aniqlanadi [1].

Fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari turlaridan biri investitsiya soliq krediti hisoblanadi. AQShda soliq imtiyozining bu turi 1962-yildan to 1986 yilga qadar qo'llanilgan. Bunda chegirma miqdori uskuna-jihozlar turi va ularning xizmat muddati bo'yicha tabaqalashtirilgan. Bu imtiyozning variantlaridan birida AQSh ishlov beruvchi sanoatidagi korporatsiyalar foyda solig'ini ishga tushirilgan va xizmat muddati 8 yil va undan ortiq bo'lgan uskunalar qiymatining 7 foizi miqdorida, xizmat muddati kamroq bo'lgan uskunalarni ishga tushirilganlik uchun kamroq miqdordagi qisqartirish huquqini oldilar. Yaponiyada, masalan, sanoat kompaniyalari ilg'or texnika va texnologiyaga qilingan investitsiyalarning 7 foiziga teng miqdorda foyda solig'ini qisqartirish huquqiga ega. Kanadada bunday chegirma ilg'or texnikaga qilingan investitsiyalarning 7 dan 20 foizigacha miqdorini tashkil qiladi.

Soliq krediti ko'rinishidagi imtiyozlar tadbirkorlikning ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar xarajatlariga tadbiquan ham keng qo'llaniladi. Bir qator mamlakatlarda soliq krediti kompaniyalarning foyda solig'idan bu kompaniyalarning o'tgan yil yoki bazis davr uchun o'rtacha yillik me'yorlarga nisbatan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar xarajatlari o'sishining muayyan hissasini chegirish ko'rinishida amal qiladi (AQShda - 20 foiz, Frantsiyada - 50 foiz, Yaponiyada - 20 foiz, Kanadada 100 foiz va undan yuqori) [10].

Investitsiya, ilmiy-texnika faoliyatini, tadbirkorlikni butun mamlakat doirasida, mintaqa miqyosida va ayrim faoliyat sohaları bo'yicha rag'batlantirishga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari eng barqaror imtiyozlar hisoblanadi. Soliq imtiyozlari quyidagi shakllarda qo'llaniladi:

- foyda solig'idan chegirma tarzida beriladigan soliq krediti;
- foyda solig'i bazasini kamaytirish chegirmalari;
- soliqdan butunlay ozod qilish yoki pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilash;
- jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llash.

Yaponiyada kichik va o'rta korxonalarining iqtisodiyotdagi salmog'i yuqori hisoblanadi. Yaponiyada 3,86 mln. korxonalarining 99,7 foizi kichik va o'rta korxonalar hisoblanadi va ularda 42,73 mln. mehnatga layoqatli aholining 70 foizi mehnat qilmoqda va qo'shilgan qiymatning 50 foizi shu sohada yaratilmoqda. Ko'plab Yaponiyaning yirik korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini butlovchi ehtiyot qismlarini kichik va o'rta korxonalar yetkazib beradi, ishonchli yapon mahsulotlarini yaratilishida kichik va o'rta korxonalarining ahamiyati katta. Yaponiyada kichik va o'rta korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va investitsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida kichik va o'rta korxonalar agentligi quyidagi yo'nalishda konsultatsiyalar tashkil etilgan:

- qarzlilar va kredit kafolatlari;
- menejmentni rivojlantirish;
- soliq va bug'galteriya maslahatlari;
- biznesni sog'lomlashtirish va biznes transferlari;
- biznesni kengaytirishni qo'llab-quvvatlash;

- biznesni modernizatsiyalash;
- mehnat resruslari bilan ta'minlash;
- axborot xizmati.

Jahon mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan yalpi milliy mahsulotning 7-8 foizi, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan yalpi milliy mahsulotning 27-28 foizi Germaniyaning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mamlakatda ijtimoiy bozor iqtisodiyotida aholi farovonligi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan. Germaniya urbanizatsiya darajasi nihoyatda yuqori bo'lgan mamlakat bo'lib, zamonaviy ilmiy-texnologik asosida industrialashgan davlatdir. Germaniyada ijtimoiy yo'nalgan bozor iqtisodiyotiga asoslanib iqtisodiyot qurilgan, ijtimoiy himoya davlat vazifasiligi uchun davlat tomonidan iqtisodiyot tartibga solinib qo'llab-quvvatlab boriladi.

Germaniyada xorijiy va mahalliy investorlar uchun yagona biznes muhiti yaratilgan yani hukumatning iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash dasturlari: grantlar, kafolatlar va imtiyozlardan har ikkala investorlar ham foydalanadi. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan soliqlar vositasi orqali qo'llab-quvvatlash jahon amaliyotida keng tarqalgan usullardan biri bo'lib hisoblanadi. Kompaniyalarga tushadigan soliq yuki o'rtacha 30 foizdan kam hisoblanadi. Germaniyaning boshqa hududlarida tijorat solig'ining yuki 23 foizga yaqin turadi. Bu Germaniyaning kompaniyalarni soliqqa tortish tizimi boshqa sanoatlashgan davlatlarning soliq tizimidan mukammalligidan darak beradi. Mamlakatda korporativ daromad solig'i yuki qat'iy belgilanmagan, soliq yuki mahalliy tartibda o'rnatiladigan tijorat solig'i darajasiga bog'liq. Shu sababdan korporativ daromad solig'i yuki Germaniyaning ba'zi hududlarida 22,83 foizni tashkil etadi. Germaniyaning o'rtacha korporativ solig'i 29,83 foizni tashkil etadi [10].

Germaniyaning iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash dasturlari investitsiya loyihasining maxsus omillariga bog'liq masalan, rejalashtirilgan investitsiyaga, investitsiya joylashuviga, investitsiya miqdoriga, rejalashtirilgan moliyaviy mexanizmga va investitsiya kompaniyasining holatiga.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda xalqaro tashkilotlarning ham muhim o'rni mavjud. Xalqaro investitsiyalarni tartiga solish bo'yicha muhim amaliy hujjatlardan biri Osiyo-Tinch okeani hamkorligi tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan xorijiy investitsiyalarning "Ko'ngilli kodeksi"dir. Kelajakda Jahon savdo tashkiloti tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan ushbu "Kodeks" da quyidagi investitsion tamoyillar qayd etilgan:

- donor-mamlakatlarga nodiskriminatsion yondashuv;
- xorijiy investorlar uchun milliy rejim;
- investitsion rag'batlarni sog'liqni saqlash, havfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan mos tushishi;
- savdo va kapital qo'yilmalar o'sishini chegaralovchi investitsiyalarga bo'lgan cheklovlarni minimallashtirish;
- investitsiyalarni ekspropriatsiya qilinishidan voz kechish (bunda ijtimoiy maqsadlar uchun va milliy qonunchilik doirasida, kamsitmaslik asosida, xalqaro huquq qoidalariga amal qilgan holda yetarli va samarali kompensatsiya to'lanishi sharti bilan ekspropriatsiya amalga oshirilishi mumkin);
- ro'yxatdan o'tkazilish va konvertatsiyalashuvning ta'minlanishi;
- kapitalni chetga chiqarishdagi to'siqlarni yo'qotish;
- ikki marotaba soliqqa tortishni bekor qilish;
- mamlakatning milliy qonunchiligi, ma'muriy tartib va qoidalariga xorijiy investorning

amal qilishi;

- investitsion loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xorijiy mutaxassislarni mamlakatdan chetga chiqishga va vaqtincha tashrif buyurishga ruxsat berish;
- maslahatlar muzokara va arbitraj yordamida kelishmovchiliklarni bartaraf etish [7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davlyatova G.M. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. International journal of theoretical and practical research, Scientific Journal, Year: 2023 Issue: 5 Volume: 3, 31.05.2023, 17-25b., <http://alferganus.uz>
2. Эргашев, А. Х., Зайлобитдинов, Д. Н., & Зайлобитдинова, Х. Х. К. (2022). Проблемы взаимосвязи банковской системы и механизма финансирования инвестиционной деятельности. CETERIS PARIBUS, (4), 47-50.
3. Olimova N.X. Xorijiy investitsiyalar: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. / Farg'ona, FDU nashriyoti, 2023. - 344 b.
4. Олимова, Н. Х., & Каримов, О. О. Ў. (2022). Корхона инновацион фаолиятини молиялаштириш самарадорлигини баҳолаш усуллари. Academic research in educational sciences, 4(1), 11-21.
5. Эргашев, А. Х., Холиков, Х. А. У., & Мирзарахимов, С. М. (2022). Инвестиционный потенциал регионов и вопросы обеспечения инвестиционных потребностей отраслей реального сектора. CETERIS PARIBUS, (2), 47-49.
6. Эргашев, А. Х. (2021). Перспективы эффективного использования маркетинговых стратегий для повышения инвестиционной активности Ферганской области. Cognitio rerum, (7), 42.
7. Samijonov M. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining tarmoq va hududiy xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences, Scientific Journal, VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022, 359-365b.
8. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. "Xorijiy investitsiyalar". O'quv qo'llanma. Toshkent, Moliya, 2003 yil, 258b.
9. <http://uza.uz>. 2020 yil 15 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksport, investitsiya va mahalliyashtirishni kengaytirish" masalalariga bag'ishlangan videoselektor uig'ilishi ma'ruzasi.
10. <http://www.tradingeconomics.com/>
11. Germany Trade & Invest www.gtai.com
12. <https://www.inovasyon.org/pdf/Germany.HighTechStrategy.2022.pdf>

TURIZM KORXONALARINI MCKINSEY USULIDA BOSHQARISHNING AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI

ВАЖНОСТЬ И ПРЕИМУЩЕСТВА МЕТОДА МАККИНСИ УПРАВЛЕНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИМ ПРЕДПРИЯТИЯМИ

THE IMPORTANCE AND ADVANTAGES OF THE MCKINSEY METHOD OF MANAGEMENT OF TOURISM ENTERPRISES

Yulchiyev A.O. (katta o'qituvchisi)

Turizm sohasi dunyo bo'ylab eng tez rivojlanayotgan sanoatlardan biri bo'lib, ushbu bozorning raqobatbardosh va o'zgaruvchan tabiati turizm kompaniyalaridan zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini talab qiladi. Ushbu usul 7 ta asosiy komponentni o'z ichiga oladi: strategiya, tuzilma, tizimlar, qadriyatlar, xodimlar, ko'nikmalar va uslub. McKinsey usuli turizm korxonalarini boshqarishda qanday qo'llanilishi va uning turizm sohasiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida ushbu maqolada to'xtalamiz.

Kalit so'zlar. McKinsey, strategiya, bozor diversifikatsiyasi, matritsali tuzilma, rezervatsiya tizimlari, barqaror turizm, komponentlar, ko'nikmalar, liderlik, strategiya

Сектор туризма является одной из самых быстрорастущих отраслей в мире, а конкурентный и меняющийся характер этого рынка требует от туристических компаний современных подходов к управлению. Этот метод включает в себя 7 основных компонентов: стратегию, структуру, системы, ценности, людей, навыки и стиль. В этой статье мы остановимся на том, как метод McKinsey используется в управлении туристическими предприятиями и как он влияет на туристическую отрасль.

Ключевые слова. McKinsey, стратегия, диверсификация рынка, матричная структура, системы резервирования, устойчивый туризм, системы бронирования, компоненты, навыки, лидерство, стратегия

The tourism sector is one of the fastest growing industries worldwide, and the competitive and changing nature of this market requires modern management approaches from tourism companies. This method includes 7 main components: strategy, structure, systems, values, people, skills and style. In this article, we will focus on how the McKinsey method is used in the management of tourism enterprises and how it affects the tourism industry.

Key words. McKinsey, strategy, market diversification, matrix structure, reservation systems, sustainable tourism, components, skills, leadership, strategy

McKinsey 7S modeli. McKinsey 7S modeli birinchi marta McKinsey Kompany konsalting kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, korxonalarini yanada samarali boshqarish uchun yaratilgan. McKinsey & Company global konsalting kompaniyasining maslahatchilari Tomas Piter va Robert Uoterment tomonidan 1980-yillarda ishlab chiqilgan. Bu model tashkilotlar ichidagi turli komponentlar o'zaro qanday bog'liqligini tushuntirish va

ularning samarali ishlashini ta'minlash maqsadida yaratilgan. Ushbu model tashkilotni muvaffaqiyatli boshqarish uchun faqatgina strukturaviy elementlar emas, balki kompaniyaning madaniyati va xodimlarining motivatsiyasi kabi yumshoq elementlar ham muhim ekanligini ko'rsatib berdi. U yirik korxonalar uchun ham, kichik va o'rta turistik kompaniyalar uchun ham mos keladi. Modellarning asosi shundan iboratki, tashkilotning samaradorligi bu 7 ta omil o'rtasidagi uyg'unlik va muvofiqlik bilan bog'liq.

1. **Strategiya (Strategy).** Strategiya – bu korxonaning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida belgilangan rejalar va qarorlar majmuidir. Turizm kompaniyalari uchun strategiya bozordagi raqobatbardoshlikni saqlab qolish va rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Turizm korxonalari McKinsey modeliga asoslanib quyidagicha strategiyalar ishlab chiqishi mumkin:

Bozor diversifikatsiyasi: turistik xizmatlar va yo'nalishlarni kengaytirish.

Mijozlarga yo'naltirilgan strategiya: sodiq mijozlar bazasini kengaytirish uchun xizmatlarni shaxsiylashtirish.

Barqaror turizm: ekologik toza va mas'uliyatli turizm xizmatlarini ko'rsatish orqali yangi mijozlarni jalb qilish.

2. **Tuzilma (Structure).** Tashkilotning tuzilmasi kompaniyaning qanday tashkil etilganini va uning boshqaruv iyerarxiyasini anglatadi. Turizm kompaniyalarida samarali tuzilma mehnat jarayonlarini to'g'ri taqsimlash va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash imkonini beradi. McKinsey usuliga ko'ra, turizm korxonalarida quyidagi tuzilmalar samarali bo'lishi mumkin:

Matriksali tuzilma: korxonaning turli bo'limlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi va loyihalarni tezkor amalga oshirishni ta'minlaydi.

Geografik tuzilma: turizm korxonasi turli mamlakatlar yoki hududlarda xizmat ko'rsatsa, geografik asosda tashkil etilgan tuzilma xarajatlarni kamaytirish va joylardagi mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish imkonini beradi.

3. **Tizimlar (Systems).** Tizimlar korxonaning ichki jarayonlari va operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Turizm kompaniyalari McKinsey usuliga ko'ra samarali boshqaruv tizimlarini joriy qilish orqali xizmat sifatini yaxshilashi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi:

Rezervatsiya tizimlari: mijozlar uchun qulay va tezkor rezervatsiya tizimlarini joriy qilish, bu ularning tajribasini yaxshilaydi.

CRM tizimlari: mijozlar bilan aloqalarni boshqarish tizimlari mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Moliyaviy va operatsion nazorat tizimlari: turizm kompaniyalarida xarajatlarni boshqarish va daromadlarni maksimal darajaga yetkazish uchun tizimlar ishlab chiqilishi kerak.


4. Qadriyatlar (Shared Values)

Kompaniyaning asosiy qadriyatlari tashkilot madaniyati va uning faoliyatining negizini tashkil qiladi. Turizm kompaniyalarida mijozlarga yo'naltirilgan qadriyatlar eng muhim hisoblanadi. McKinsey usuliga ko'ra, quyidagi qadriyatlar turizm sohasida samaradorlikni oshiradi:

Mijozlar ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yish: yuqori sifatli xizmat ko'rsatish va mijozlar talablariga moslashish.

Innovatsiyalar: yangi texnologiyalarni tatbiq etish va xizmatlarni doimiy ravishda yangilash orqali raqobatchilardan ajralib turish.

Mas'uliyatli turizm: ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olgan holda xizmatlar ko'rsatish.



1-rasm. McKinsey 7S modeli

5. Xodimlar (Staff). Xodimlar – bu tashkilotning asosiy resurslaridan biri bo‘lib, turizm kompaniyasining muvaffaqiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. Turizm sohasida malakali xodimlar mijozlar bilan ishlash va ularga sifatli xizmat ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega. McKinsey usuliga ko‘ra, turizm korxonalarida xodimlarni boshqarishda quyidagi yondashuvlar qo‘llanilishi kerak:

Xodimlar malakasini oshirish: xodimlarga muntazam treninglar o‘tkazish orqali ularning ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Rag‘batlantirish tizimi: xodimlarni motivatsiya qilish va ularning mehnat samaradorligini oshirish uchun rag‘batlantirish tizimini joriy qilish.

Xodimlarning sodiqligi: xodimlarni kompaniyada uzoq muddat ishlashga rag‘batlantirish va ularga qulay ish sharoitlarini yaratish.

6. Ko‘nikmalar (Skills). Korxonada xodimlarining malakasi va ko‘nikmalari kompaniyaning umumiy muvaffaqiyatiga katta ta‘sir qiladi. Turizm kompaniyalari McKinsey modeliga asoslanib xodimlarining quyidagi ko‘nikmalarini rivojlantirishi kerak:

Mijozlarga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalari: xodimlar mijozlar bilan samimiy va professional munosabatda bo‘lishlari kerak.

Texnologik ko‘nikmalar: zamonaviy rezervatsiya tizimlari va CRM dasturlaridan foydalanish qobiliyati.

Liderlik ko‘nikmalari: rahbar xodimlar boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish va kompaniya ichida uyg‘unlikni ta‘minlashlari kerak.

7. Uslub (Style). Rahbariyatning boshqaruv uslubi kompaniya madaniyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Turizm menejmenti sohasida McKinsey usuli kompaniyalarning raqobatbardoshligini saqlab qolish va mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash uchun juda samarali hisoblanadi. Bu sohada kompaniyalar dinamik bozor sharoitida faoliyat yuritadi, mijozlar talablari esa doimo o‘zgarib boradi. Mana McKinsey usulining turizm menejmentiga oid bir nechta ahamiyatli jihatlari:

Mijozlar ehtiyojlariga moslashish: Turizm kompaniyalari strategiyani ishlab chiqish jarayonida mijozlar ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. McKinsey modeli orqali turistik kompaniyalar o‘z xizmatlarini diversifikatsiya qilish, turli bozor segmentlariga xizmat ko‘rsatish va mijozlarga yo‘naltirilgan strategiyalar ishlab chiqishi mumkin.

Tashkilot tuzilmasining moslashuvchanligi: Turizm sohasida kompaniyalar turli mamlakatlarda va turli xil mijozlar bilan ishlaydi, shuning uchun ularning tuzilmasi moslashuvchan bo‘lishi kerak

Innovatsiyalarni boshqarish: Turizm sohasida raqobatbardosh bo‘lish uchun yangi texnologiyalar va xizmatlarni joriy qilish muhimdir. McKinsey usuli texnologik rivojlanish bilan bir qatorda xodimlar malakasini oshirish va yangi tizimlarni samarali qo‘llashda yordam beradi.

Barqaror turizmga yo‘naltirish: Zamonaviy turizmدا ekologik va ijtimoiy mas’uliyat muhim o‘rin egallaydi. McKinsey modeli turizm kompaniyalariga o‘z strategiyalarini barqaror turizm tamoyillariga moslashtirishda, xodimlar va mijozlar o‘rtasida barqaror qadriyatlarni shakllantirishda yordam beradi.

Xodimlar boshqaruvi va motivatsiya: Xodimlar turizm kompaniyasining muvaffaqiyatli ishlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega. McKinsey modeli xodimlarni rivojlantirish, malakasini oshirish va rag‘batlantirish tizimini samarali tashkil etishga yordam beradi. Xodimlarning mijozlarga xizmat ko‘rsatish qobiliyatlarini oshirish orqali kompaniya umumiy muvaffaqiyatga erishadi.

McKinsey usuli – bu menejment sohasidagi samaradorlikni oshiruvchi eng muhim modellardan biri bo‘lib, u tashkilotni turli komponentlar o‘rtasidagi uyg‘unlikka asoslangan boshqaruv tizimi orqali samarali ishlashiga imkon beradi. Turizm menejmentida McKinsey modeli kompaniyalarning o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishi, mijozlar ehtiyojlariga tez javob berishi va barqaror turizm tamoyillariga amal qilishiga yordam beradi. Ushbu model orqali kompaniyalar strategik qarorlar qabul qilishda, ichki jarayonlarini optimallashtirishda va xodimlarni samarali boshqarishda katta yutuqlarga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

5. Yulchiyev, A. (2023). Turizm sohasida xizmatlar sifatining mohiyati va uni baholash uslubiyotining nazariy jihatlar. *Science and innovation in the education system*, 2(8), 64-69.
6. Yulchiyev, A. (2023). Turizm sohasida xizmatlar sifatini boshqarish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari. *Solution of social problems in management and economy*, 2(8), 32- 38.
7. Nasriddinova, T. O. (2024). Prospects for the growth of tourism in Uzbekistan and the use of organizational and economic methods in the management of tourist complexes. *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 98-103.
8. Nasridinova, T. O. (2024). Methods of Assessing the Competitiveness of Entrepreneurial Activity in Tourism Enterprises. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 590-594.

QURILISH SOHASIDA INNOVATSION KLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННЫХ КЛАСТЕРОВ И ИХ ПРИОРИТЕТЫ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА.

DEVELOPMENT OF INNOVATIVE CLUSTERS IN THE FIELD OF CONSTRUCTION PRIORITIES

Mirsodiqov A.T. (FarDU dotsenti PhD)

Bizning fikrimizcha, qurilish sanoatni klasterlashtirishda innovatsion yondashuvni amaliyotga joriy qilish, ya'ni, innovatsion klasterlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Qurilishda innnovatsion klasterlar rivojlanishi mavjud sanoat kompaniyalariga ilmiy-tadqiqot natijalarini intensiv ravishda joriy qilish, yirik korxonalar tomonidan qo'shilgan qiymat zanjiriga kirish uchun yangi kichik va o'rta korxonalar davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etish hisobiga amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: qurilish sanoati, klaster, innovatsion klaster, xizmat ko'rsatish, biznes, xaridorlar, sotuvchilar, resurslar

На наш взгляд, целесообразно реализовать инновационный подход к кластеризации строительной отрасли, то есть организовать инновационные кластеры. Развитие инновационных кластеров в строительстве осуществляется за счет интенсивного внедрения результатов научных исследований в существующие промышленные компании, создания новых малых и средних предприятий на основе государственно-частного партнерства для входа в цепочку добавленной стоимости крупными предприятиями.

Ключевые слова: строительная отрасль, кластер, инновационный кластер, услуга, бизнес, покупатели, продавцы, ресурсы.

In our opinion, it is appropriate to implement an innovative approach to clustering the construction industry, that is, to organize innovative clusters. The development of innovative clusters in construction is carried out at the expense of the intensive introduction of scientific research results to existing industrial companies, the establishment of new small and medium-sized enterprises on the basis of public-private partnerships to enter the value chain added by large enterprises.

Key words: construction industry, cluster, innovation cluster, service, business, buyers, sellers, resources

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni boshqarishda tarmoq yondashuvidan foydalanish ustunlik qiladi, bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotni innovatsion jihatdan to'liq yangilashga imkon bermaydi. Respublikada YaIMning fan sig'imkorligi darajasi hanuz pastligicha qolmoqda. Shu sababli mamlakat miqyosida innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishda yangi yondashuvlarni izlash, shuningdek innovatsiyalarni yaratish, tarqatish va tijoratlashtirish borasida qulay muhit yuzaga keltirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb

etadi. Aksariyat olimlar ta'kidlashicha, barcha klasterlar u yoki bu darajada innovatsion rivojlanishga, innovatsion jarayonni u yoki bu darajada tezlashtirishga hissa qo'shadi va hatto ularning ba'zilar mazkur vazifani bajarishga ixtisoslashganligi bilan ham ajralib turadi. Aynan ushbu g'oya innovatsion klasterlar kontsepsiyasining asosini tashkil qiladi.

Qurilishda innovatsion klasterlar innovatsiyalarga moyil bo'lib, bu firmalarning o'z faoliyatlarini tashkil etish va rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonida namoyon bo'ladi. Ular iqtisodiy subyektlarning innovatsiyalarni qabul qilishga moyilligini oshirish, biznesni oqilona tashkil qilish, mahsuldorlikni oshirish kabi afzalliklarini rivojlantirishga yordam beradi [1].

BMTning Kompaniyalarning innovatsion samaradorligini oshirish: siyosiy imkoniyatlar va amaliy vositalar hisobotida qayd etilishicha, innovatsion klaster innovatsiyalarni yaratishga hissa qo'shadigan tashkilotlardan iborat ta'minotchi va iste'molchilar hamda ta'lim muassasalari o'rtasidagi yaqin aloqalar tizimidan tashkil topgan tuzilmani ifoda etadi. Qurilish sohasida klaster bir-biri o'zaro bilan hamkorlik qiladigan va raqobatlashadigan tashkilotlarni birlashtiradi hamda ular o'rtasidagi aloqalar vertikal va gorizontal tavsifga ega bo'ladi [2].


“Klaster” tushunchasini talqin qilish borasidagi yuqorida keltirib o'tilgan yondashuvlarni umumlashtirgan holda, bizning fikrimizcha, innovatsion-sanoat klasteri bu - muayyan bir hududda geografik jihatdan mahalliylikni, bir-birini to'ldiruvchi, raqobatdosh iqtisodiy subyektlar (shu jumladan, ta'minotchi, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar) majmuidir. Bunda klaster subyektlari o'zaro, shuningdek, davlat va mahalliy boshqaruv organlari bilan innovatsiyalarni yoyish borasida qulay muhit yaratish, shuningdek, klaster subyektlari, hududlar va milliy iqtisodiyotning innovatsion faolligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadida birlashadilar.

Bizning fikrimizcha, klasterning 3 tuzilmaviy unsurlarini ajratib ko'rsatadi [3]:

- ishlab chiqaruvchilar, bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar, resurslar va xizmatlar yetkazib beruvchilar, sotuvchilar, xaridorlar hamda ilmiy-ma'rifiy markazni o'z ichiga olgan “biznes” unsuri (klasterning “o'zagi”);
- universitet, biznes maktab, turli xil uyushma, savdo-sanoat palatasi va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi mahalliy muassasalar unsuri;
- davlat tashkilotlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarini o'z ichiga oluvchi, davlat va hududiy boshqaruv organlari unsuri.

Biznes markaziy subyekt hisoblanadi u klasterning asosini tashkil qiladi. Qolgan ikki subyekt davlat va hududiy boshqaruv organlari vamahalliy muassasalar klaster infratuzilmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion-sanoat klasterining mazmun-mohiyati, amal qilish tamoyillari va qonuniyatlarini tadqiq qilish natijalari asosida bizning fikrimizcha, innovatsion klasterlarni rivojlantirish modeli quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan model klasterning tarkibiy tuzilishi va uning subyektlari hamda infratuzilma unsurlari o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga, bu esa, o'z navbatida, klaster strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu modeldan klasterlashning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini shakllantirishda foydalanish mumkin.



1-rasm. Innovatsion-sanoat klasteri modeli

Klasterni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad, muayyan bir iqtisodiy natija raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga erishishdan iboratdir, bu, o'z navbatida, alohida olingan tashkilot samaradorligini oshirishga va umumiy tarzda iqtisodiy taraqqiyotning tezlashishiga olib keladi. Klaster modelini joriy etishning asosiy vazifasi-tadbirkorlarning psixologiyasini o'zgartirish, umumiy iqtisodiy manfaatlar doirasida barcha klaster ishtirokchilarining halol, ochiq va o'zaro manfaatli hamkorligining o'ziga xos imkoniyatlarini tushunib yetishlariga ko'maklashishdan iboratdir. Bizning fikrimizcha, klasterlarning vujudga kelishi va dinamikasi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni ajratib olgan holda, ularni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

- tadrijiy omillarning ustunligi ta'siri ostida vujudga kelgan klasterlar;
- konstruktiv omillarning ustunligi ta'siri ostida vujudga kelgan klasterlar;

Ushbu tasnif klasterning paydo bo'lishi va rivojlanish mexanizmini yaxshiroq tushunishga, unga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlashga imkon beradi, bundan o'z navbatida, klaster strategiyasini ishlab chiqish va klasterlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishda keng foydalanish mumkin. Amalda, klasterlarning u yoki bu turga mansubligini ajratish aksariyat holatlarda katta qiyinchilik tug'diradi. Odatda, ular klasterlarning ko'rib chiqilgan tiplarining o'ziga xos kombinatsiyasini aks ettiradi. Hayotiylik tsiklining turli bosqichlarida ichki va (yoki) tashqi omillarning ta'siri ostida rivojlanish jarayonida klasterlar avvalgi jihatlari va kompetentsiyalarini yo'qota borib, ularga xos bo'lmagan jihatlarni kashf etgan holda, o'z ichki tuzilishini o'zgartirishi mumkin.

Bugungi kunda klasterlarni to'laqonli tasniflashga har qachongidan ko'ra, katta ehtiyoj mavjud, zero, hech bo'lmaganda klasterga mansub va mansub bo'lmagan tuzilmalarni farqlash talab qilinadi. Klasterlarni yaratishdan kutilayotgan iqtisodiy samara quyidagilar bilan izohlanadi [4]:

ИҚТИСОД

–chegara hududlarda joylashgan klaster subyektlarining yalpi salohiyatidan yanada samarali foydalanishga imkon beruvchi, savdo-ishlab chiqarish kooperatsiyasi;

–ishlarning bir qismini aniq faoliyatga ixtisoslashgan hamkorlarga o‘tkazish yo‘li bilan ishlab chiqarish bazasini modernizatsiyalash xarajatlarini kamaytirish;

–uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish asosida ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar bilan ta‘minlash jarayonlari samaradorligini oshirish;

–mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilish orqali ayrim boshqaruv funksiyalarining samaradorligini oshirish;

–investitsion-moliyaviy kooperatsiyaning ishonchliligini oshirish.

Umuman olganda, innovatsion-sanoat klasterlarining rivojlanishi muayyan bir ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishga imkon beradi. Bular:

- barcha klaster ishtirokchilarining moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish, tashqaridan investitsiyalarni jalb qilish, grantlar shaklida moliyalashtiriladigan loyihalar tanlovlarida birgalikda ishtirok etish, kredit resurslarini olish kafolatlarini ta‘minlash uchun moliyaviy imkoniyatlarni birlashtirish orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish;

- tarmoqning innovatsion salohiyatini oshirish;

- fan va ta‘limning klaster tashkilotlari va hokimiyat idoralari bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali tadqiqot natijalarini hududiy sanoat siyosatiga joriy etish jarayonlarini tezlashtirish;

- sinergiya samarasi va sifat, logistika, axborot texnologiyalari borasidagi yondashuvlarni bir xillashtirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish va fan sig‘imli mahsulotlar sifatini yaxshilash;

- ta‘minotchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish;


- yangi tashkilotlarni rag‘batlantirish;

- yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini ko‘paytirish, import o‘rnini bosishni kengaytirish;

- mahalliy hokimiyat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish darajasida klaster ishtirokchilarining o‘z manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qila olishlariga erishish;

- hududda bandlik darajasini oshirish;


- klaster ishtirokchilari o‘rtasida mutlaqo yangicha tartibdagi odob-axloq, ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlarning paydo bo‘lishi, yangicha fikrlash tarzini shakllanishi;



2-rasm. Innovatsion klaster tuzilmasi

Shundan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, fan va ta‘lim, infratuzilma tashkilotlari, yirik korxonalar, kichik va o‘rta biznesga mansub xo‘jalik yuritish subyektlaridan tarkib topgan va o‘zining ichki tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish lozim.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizim singari, ilmiy-texnik tadbirkorlik turli xil o‘zaro ta’sir qiluvchi, bir-birini to‘ldiruvchi va bir-birini taqozo qiluvchi unsurlardan iborat murakkab va ko‘p bosqichli majmuani ifoda etadi. Odatda, innovatsion klaster tarkibiga kiruvchi va ilmiy-texnik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar, innovatsion infratuzilma subyektlari, akademik va tarmoq institutlari, universitetlar va shu kabilardan tashkil topgan innovatsion faoliyatning ichki tuzilmasini ifodalovchi va ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimini tashkil etuvchi turli innovatsion faoliyat subyektlari, shuningdek, davlat va ilmiy-texnik tadbirkorlik tizmining tashqi muhiti sifatida makro va mikro muhit omillari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar sxemasi 3-rasmda keltirib o‘tilgan.



3-rasm. Innovatsion klasterga birlashgan ilmiy - texnik tadbirkorlik subyektlari, davlat va makro - mikro muhit omillari o‘zaro ta’sirining sxematik ko‘rinishi

3-rasmda ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimining asosiy subyektlari, ularning o‘zaro ta’sir aloqalari aks ettirilgan, ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimi uchun ustqurma hisoblanuvchi davlat alohida ajratib ko‘rsatilgan. Shuningdek, ilmiy-texnik tadbirkorlik tizimining innovatsion faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida makro va mikro muhit omillari ham keltirib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирсодиков, А. Т. (2021). Активация инвестиций в экономическое развитие: современные тенденции и опыт зарубежных стран. *Cognitio rerum*, 10, 32-35.
2. Мирсодиков, А. Т. (2022). Совершенствование механизмов управления затратами в логистических цепях строительной отрасли. *Бюллетень науки и практики*, 8(2), 231-239.
3. Tursunaliyevich, M. A. (2021). Iqtisodiy tarmoqlarni rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati. *Development issues of innovative economy in the agricultural sector*, 194.
4. Tursunaliyevich, M. A. (2022, March). Improving logistics cost management in the construction sector. In *E Conference Zone* (pp. 141-145).

UDK: 005.4:664

OZIQ – OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH VA RIVOJLANISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

IMPROVING THE MECHANISM OF MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF THE ACTIVITIES OF ENTERPRISES OF THE FOOD INDUSTRY

Turg'unov M.M. (FarDU katta o'qituvchisi (PhD))

Maqola oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Sanoat korxonalarini faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy muhitining qisqacha tavsifi uning kerakli parametrlarini aniqlash uchun berilgan. Muallif tomonidan muhokama qilingan oziq-ovqat korxonalarida boshqaruv mexanizmini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Bunday sanoat korxonalarining boshqaruv mexanizmining tuzilishi taklif qilingan va uning tarkibiy qismlarining xususiyatlari berilgan.

Kalit so'zlar: boshqarish mexanizmi, ta'sir etuvchi omillar, islohotlar, oziq-ovqat sanoati, eksport, import, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti.

Статья посвящена обсуждению особенностей формирования организационно-экономического механизма управления предприятиями пищевой промышленности.

Дано краткое описание социально-экономической среды промышленных предприятий для определения ее требуемых параметров. Рассмотрены обсуждаемые автором вопросы совершенствования механизма управления пищевыми предприятиями. Предложена структура механизма управления такими промышленными предприятиями и дана характеристика его составных частей.

Ключевые слова. механизм управления, влияющие факторы, реформы, пищевая промышленность, экспорт, импорт, экспорт продуктов питания.

The article is devoted to the discussion of the peculiarities of the formation of the organizational and economic mechanism of management of enterprises in the food industry. A brief description of the socio-economic environment of industrial enterprises is given to determine its required parameters. The issues of improving the management mechanism in food enterprises, discussed by the author, were considered. The structure of the management mechanism of such industrial enterprises is proposed and the characteristics of its components are given.

Keywords. control mechanism, influencing factors, reforms, food industry, exports, imports, food exports.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oziq-ovqat sanoati faoliyatini rivojlantirish va uni boshqarish jarayonlari amaldagi qonun va qonun osti hujjatlari doirasida takomillashib bormoqda. "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar davlat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanadi va

ИҚТИСОД

ular oziq-ovqat mahsuloti muomalasi sohasida ish olib borayotgan yuridik hamda jismoniy shaxslar uchun majburiydir” etib belgilangan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida eng muhim muammolaridan biri oziq-ovqat xavfsizligi va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqlonli ta‘minlashdir. Oziq-ovqat sanoati mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to‘ldirishning obyektiv zarurati oziq-ovqat sanoati korxonalarining samarali ishlashini nazarda tutadi, chunki oxir-oqibat nafaqat aholining turmush darajasi, balki umuman iqtisodiyotning rivojlanishiga ham bog‘liq. Shu bois, oziq-ovqat sanoati korxonalarini yetuk bozor munosabatlari sharoitida va ichki oziq-ovqat bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida, nafaqat an‘anaviy resurslardan, balki, birinchi navbatda, texnologik va tashkiliy asosda foydalanishga asoslangan yangi boshqaruv tizimi zarur. Bu vazifa nazariy va amaliy xarakterdagi bir qator yangi muammolarni hal qilish uchun asos hisoblanadi.

Ushbu amalga oshirilayotgan tadqiqotimiz doirasida oziq-ovqat sanoati faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha mahalliy olimlarimizning tadqiqotlari o‘rganib chiqildi.

Jumladan N.M. Ziyavitdinovanning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida bozor strategiyasini shakllantirishda, ularni rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishda va tarmoq boshqaruvining tashkiliy tuzilishi takomillashtirilgan[2].

Shuningdek, I.Yu. Umarov tomonidan olib borilgan tadqiqotda oziq-ovqat sanoati iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘yicha uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan hamda tadqiq qilingan mintaqa oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy iqtisodiy salohiyati baholash ishlari amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqot ishida yuqoridagi ishlardan farqli o‘laroq oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyati boshqaruv mexanizmini takomillashtirish xususida so‘z yuritildi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish oshib bormoqda. Bunda yalpi ichki mahsulot hajmi 2023-yilda 2014-yilga nisbatan 6,03 barobar ortgan, sanoat mahsulotlari hajmi 7,84 barobar hamda oziq-ovqat mahsulotlari hajmi esa 4,53 barobar ortganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda tahlil qilinayotgan yalpi ichki mahsulot 1 068 000, mlrd.so‘m, sanoat mahsulotlari 668 991,7 mlrd.so‘m va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari 65 174,7 mlrd.so‘mni tashkil qilib o‘sish ko‘rsatkichlari ichida oziq-ovqat mahsulotlarining o‘sish ko‘rsatkichi nisbatan pastroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2014-2023-yilda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, % [1]

	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Iste‘mol tovarlari	33868,5	42085,5	48253,8	59690,4	83512,6	110321	129348,6	155159,1	145011,7	33868,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	13709,2	18154,6	21970,3	23305,7	24053,2	34565,8	41203,9	51421,1	60474,7	13709,2
Vino-arq mahsulotlari va pivo	1110,9	1207,3	1433,9	1646,6	1948,0	2467,2	2810,1	3076,9	3565,3	1110,9
No oziq-ovqat mahsulotlari	19048,4	22723,6	24849,6	34738,1	57511,4	73288	85334,5	100661,1	80971,6	19048,4

O‘zbekistonning 2014-2023-yillarda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi dinamikani tahlil qilsak, ishlab chiqarish hajmi dastlab ko‘tarilgan va 2021-yilda eng yuqori

cho‘qqiga chiqqan. 2014-yildan 2021-yilgacha ishlab chiqarish miqdori deyarli barcha turlarda izchil o‘shib borgan. Misol uchun, 2014-yilda umumiy iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 33,868.5 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021-yilga kelib 155,159.1 mlrd.so‘mga yetgan.

Ammo 2022 va 2023-yillar davomida ishlab chiqarish hajmida keskin pasayish kuzatilgan. 2022-yilda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi biroz pasayib, 145,011.7 mlrd.so‘mni tashkil etgan. Eng keskin tushish esa 2023-yilda kuzatilgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi yana 2014-yil darajasiga tushib, 33,868.5 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. Bu juda katta tushish, iqtisodiy o‘zgarishlar yoki boshqa omillarning natijasi bo‘lishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishida ham 2014-yildan 2021-yilgacha kuchli o‘shish kuzatilgan, ya‘ni 13,709.2 mlrd.so‘mdan 51,421.1 mlrd.so‘mgacha oshgan. Ammo, 2022-yilda yana o‘shish kuzatilib, 60,474.7 mlrd.so‘mga yetgan bo‘lsa-da, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 2014-yilgi darajaga, ya‘ni 13,709.2 mlrd.so‘mga qaytgan.

Vino-arog mahsulotlari va pivo ishlab chiqarishida boshqacha holat kuzatiladi. Ushbu mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi yillar davomida izchil o‘shib borgan, ya‘ni 2014-yildagi 1,110.9 mlrd.so‘mdan 2023-yilda 3,565.3 mlrd.so‘mga yetgan. Ushbu sohada boshqa mahsulotlardan farqli ravishda pasayish emas, aksincha o‘shish davom etgan.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishida ham 2014-yildan 2021-yilgacha jiddiy o‘shish kuzatilgan, ya‘ni ishlab chiqarish hajmi 19,048.4 mlrd.so‘mdan 100,661.1 mlrd.so‘mgacha oshgan. Lekin 2022-yilda bu ko‘rsatkich tushib, 80,971.6 mlrd.so‘mni tashkil etgan va 2023-yilda yana keskin pasayib, 19,048.4 mlrd.so‘mni tashkil qilgan.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning salkam yuz foizi, chakana savdo aylanmasi to‘liq holda kichik korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Lekin, oziq-ovqat sanoatida sanoat mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish sohasidagi rivojlanish darajasi talabga to‘liq javob bermaydi. Bu esa, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarni ko‘proq tashkil etishni, ularni ishlab chiqarish kuchlarini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifa ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining tez rivojlanib ketmasligiga asosiy sabab aylanma mablag‘larning yetishmasligi, xomashyolar tanqisligi, ularning faoliyatini to‘xtab qolishi va boshqalardir. Shuningdek, respublikada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hududiy xususiyatlarni inobatga olish hamda raqobat muhitini yaratuvchi korxonalar faoliyatiga qo‘yilgan talablar, unga ajratilgan imtiyozlardan samarali foydalanish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan iste‘mol darajasi va ishlab chiqarish hajmini iqtisodiy matematik modellar asosida chuqur o‘rganishni talab etadi. Ushbu tahlillar asosida esa mazkur sanoat korxonalarining boshqaruv mexanizmini to‘kumillashtirish va shu asosida raqobatga kirishish mumkin ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Oziq-ovqat sanoati korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun uning boshqaruv mexanizmini to‘kumillashtirish xususiyatlari to‘g‘risida mulohazalar yuritilganda, birinchi navbatda har bir iqtisodiy faoliyat turida bo‘lgani kabi tavakkalchilik bilan bog‘liq faoliyat tushuniladi. Chunki umumiy ma‘noda tavakkalchilik – tadbirkorlik faoliyatini yuritishda xavf-xatarga va tahlikaga borishdir. Tavakkalchilik tadbirkorlik faoliyatining tub negizi bo‘lishiga sabab:

birinchidan, tadbirkorning tavakkalchilik asosida faoliyat yuritishini iqtisodiy mustaqilligi, faoliyat turini erkin tanlashi, ishlab chiqarish vositalaridan erkin foydalanishini bildiradi.

ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi

subyektlar raqobat kurashiga kirishadi.

uchinchidan, tadbirkor tavakkalchilik bilan ish boshlaganda boshqa qator omillar ta'sirida ham tahlikaga borishi mumkin. Jumladan, iqtisodiyotdagi mavjud nobarqarorlik holati ishlab chiqarish sohasini tanlashda tavakkalchilik xavfini oshiradi. Chunki bu sohaning foydali ekanligi to'g'risida aniqlik darajasi bo'lmaydi.

to'rtinchidan, tavakkalchilik qonunchilikka ham bog'liq, ya'ni amal qilayotgan qonun ostida huquqiy me'yorlardagi qonunchilikka zid holatlar tavakkalchilik xavfini oshiradi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish hisobiga ushbu sohada sezilarli iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu natijaga erishish uchun esa oziq-ovqat sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta'sir etuvchi omillarni alohida turkumlab olish va shu asosida xar bir omilni korxonaga faoliyatiga ta'sirini baholash lozim[6].



1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqaruv faoliyatini tashkil etish jarayoni

Oziq-ovqat sanoati korxonasi faoliyatining boshqaruv tizimini tahlil qilganda yuqori texnologiyali oziq-ovqat sanoati korxonasini boshqarishga resurs yondashuvi nuqtayi nazaridan yangi bilimlarni, faoliyatni tashkil etish, nazorat qilish va boshqaruvning barcha funksiyalarini amalda qo'llashi va ularning qonuniyati haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan axborot va intellektual resurslar alohida e'tibor talab qiladi(1-rasm). Shuni ta'kidlash joizki, oziq-ovqat sanoatida kichik korxonaning o'ziga xos boshqaruv mexanizmlari va xususiyatlari to'g'risidagi masala ham munozaralidir.

Ularni ikki guruhga ajratib boshqarish va o'rganish mumkin, ya'ni iqtisodiy va ijtimoiy guruhlarga. Oziq-ovqat sanoatida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy xususiyati bo'lib, uning tub vazifalarini faoliyat turi sifatida va tadbirkorning mulkdor sifatida mos kelishi hisoblanadi. Eng muhimi, kichik tadbirkorlikning ijtimoiy xususiyati jamiyatda ijtimoiy

tanglikni pasaytiradi va bozor munosabatlarini chuqurlashtirishga olib keladi. Barcha tadbirkorlik faoliyati, xususan, oziq-ovqat sanoati tadbirkorligi uchun ham yaratilayotgan mahsulotning iste'mol qilinishi, uning savdodagi xarid miqdori muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tadbirkorning boshqaruv mexanizmi masalalarini yaxshi anglashi tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish mexanizmiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj hamisha yuqori bo'lganligini, bu ehtiyoj bundan buyon ham ortib borishini hisobga olib, mazkur sohadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish zarur;

- oziq-ovqat korxonalarining xomashyo manbai bo'lgan qishloq xo'jaligida sanoat ishlab chiqarishning kichik sanoat korxonalariga davlat ko'magini berish hamda ularga qo'shimcha imtiyozlar yaratish; oziq-ovqat sanoati korxonalarini ishlab chiqarish salohiyati, bilimi hamda malakasini oshirish tizimini yangilash va takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зиявитдинова Н.М. Кластерный подход в стратегии инновационного развития агропромышленного комплекса региона//Интернаука: электрон. научн. журн. 2019.№23(105).
2. Друкер Питер Ф. Задачи менеджмента в ХХИ веке: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2002. 128 с.
2. Katerina Kutran. Organizational and Economic Arrangements of Economic Systems Management. Revista ESPACIOS. ISSN 0798 1015 Vol. 38 (Nº 46) Year 2017. Page 41-51.
3. Керашев А.А., Байбекова Р.А. Организационно-экономические аспекты создания и эффективного функционирования вертикально-интегрированных формирований в АПК // Вестник Адыгейского гос. ун-та, 2007. №1. С. 54 – 60.
4. Кулман А. А. Экономические механизмы//. М.: Прогресс; Универс., 1993.92
5. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. – 2012.-№5с.23-29.
6. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. «Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi». –Т.: O'quv qo'llanma. «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasi nashriyoti, 2016. 12.

PAHTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINING EKSPORT SALOHİYATINI YUKSALTIRISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR RAISING THE EXPORT POTENTIAL OF COTTON-TEXTILE CLUSTERS

Maxkamov I. (NamMTI dotsenti)

Mazkur maqolada mamlaktimizda, shu jumladan Namangan viloyatida paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etilishi natijasida paxta xomashyosini to‘la qayta ishlash yo‘lga qo‘yilayotganligi tufayli qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqilayotganligi va bu mahsulotlar jahon bozorlariga eksport qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda uni yanada kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar masalasi yoritib berilgan. Shuningdek, bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan masalalarga ham to‘xtalib o‘tilgan, ya’ni Namangan viloyatidagi paxta-to‘qimachilik klasterlarida besh bosqichli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish masalalariga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: paxta xomashyosi ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi korxonalar, tadbirkorlik, bandlik, texnopolis, texnopark, integratsiya, eksport, klaster, modernizatsiya, diversifikatsiya, kredit, salohiyat, hudud, raqobatbardoshlik.

В данной статье разрабатывается вопрос создания хлопково-текстильных кластеров в нашей стране, в том числе и в Наманганской области, разрабатывается вопрос создания готовой продукции с добавленной стоимостью, а также проводимая работа по экспорту этой продукции на мировые рынки, а также меры, направленные на ее дальнейшее расширение. Также были рассмотрены вопросы, подлежащие реализации, с акцентом на налаживание производства готовой продукции в пять этапов в хлопково-текстильных кластерах в Наманганской области.

Ключевые слова: производитель хлопкового сырья, перерабатывающие предприятия, предпринимательство, занятость, технополис, технопарк, интеграция, экспорт, кластер, модернизация, диверсификация, кредит, потенциал, территория, конкурентоспособность.

This article highlights the development of finished products of added value due to the establishment of cotton-textile clusters in our country, including the Namangan region, and the work carried out on exporting these products to world markets, as well as measures aimed at its further expansion. The issues to be implemented have also been addressed, with a focus on establishing the production of five-stage finished products in cotton-textile clusters in Namangan region.

Keywords: producer of cotton raw materials, processing enterprises, entrepreneurship, employment, technopolis, technopark, integration, export, cluster, modernization, diversification, credit, potential, territory, competitiveness.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish xomashyoni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida va agrar sohada ish yuritishining yangi tizimiklaster usulini joriy etildi.

Klaster mazmun mohiyatiga ko'ra zanjirli ishlab chiqarish tizimi bo'lib, paxta yetishtirishdan to undan qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab oladi. Paxta-to'qimachilikda ushbu innovatsion usul tadbiriq qilinishidan maqsad, avvalo, chetga xomashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarish edi. Qo'yilgan ushbu vazifa klasterlar tomonidan bosqichma-bosqich uddalanmoqda. Zamonaviy korxonalar qurilib, yangi quvvatlar ishga tushirilishi tufayli juda qisqa vaqt ichida paxta tolasini o'zimizda 100 foiz qayta ishlashga erishildi. Natijada xomashyo eksporti batamom to'xtatildi. Navbatdagi marra esa ip-kalavani qayta ishlashni 100 foizga yetkazishga qaratilgan. Ilg'or klasterlarda allaqachon paxta tolasini chuqur qayta ishlash to'liq o'zlashtirilgan bo'lib, ichki va tashqi bozorga tayyor mahsulot sotilmoqda.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining uchinchi-milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash yo'nalishida to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish va mehnat unumdorligini 3 barobarga oshirish nazarda tutilgan. Bularni barchasi paxta-to'qimachilik sanoatida yetakchi kuchga aylangan klasterlar zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklanayotganligini bildiradi. Shu nuqtai nazardan klaster usuli tobora ommalashib bormoqda. Natijada mazkur innovatsion tizim qishloq joylarida yashayotgan aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini ko'paytirish orqali turmush darajasini oshirish va agrar sohada smaradorlikni o'sishini asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Paxtachilikda to'liq klaster usuliga o'tilgach, nafaqat xomashyo yetishtirish, balki uni chuqur qayta ishlashda ham tub o'zgarishlar yuzaga keldi. Gap shundaki, mustaqillikning dastlabki yillarida yurtimizda yetishtirilgan paxta xomashyosining taxminan 7 foizi o'zimizda qayta ishlanib, 2016-yilda bu ko'rsatkich jami 37 foizga yetkazilgan edi. Hozirgi kunda O'zbekiston o'z paxta tolasini 100 foiz qayta ishlash quvvatiga ega bo'ldi. Buning evaziga xomashyo eksporti batamom to'xtatildi. Aksincha, qayta ishlanib, qo'shimcha qiymatga ega mahsulot sifatida eksport qilina boshlandi.

Boshqacha aytganda, to'liq o'zimizda chuqur qayta ishlash hajmi ortib, kalava ip yigirish 2 barobarga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish 3 barobarga oshdi. O'z navbatida eksport miqdori muttasil ortib 2023-yil yakunlari bo'yicha 3,1 milliard dollarga yetkazildi. Bularning barchasi klasterlashtirish sharofati ekanligi bilan izohlanadi

Mamlakatimizdagi mavjud xomashyo bazasidan yanada samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida 2022-yil 21-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bu farmon mamlakatimiz sanoat salohiyatini yanada oshirish, xususan, paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun katta imtiyozlar yaratib beradi.

2024-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,6 milliard, eksport 4,5 milliard dollarga yetkazilishi kutilmoqda. Bunda amalda erishish uchun yurtimizda paxta yetishtirish, uni birlamchi va chuqur qayta ishlash bilan mashg'ul bo'lgan 153 ta paxta to'qimachilik klasteri har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, zarur shart-sharoit yaratib berilyapti. Binobarin birgina 2023 yilda qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish bo'yicha 14,1 trillion so'mlik 284 ta loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Natijada bugungi kunda paxta-to'qimachilik tarmog'idagi 6 mingdan ziyod korxonada 570 mingdan ortiq aholi doimiy ish bilan band

etilgan. Bundan ko‘rinadiki, sanoat tarmoqlari orasida eng ko‘p ish o‘rinlari yaratadigan ham, eng ko‘p aholini band qiladigan soha ham bu - to‘qimachilik sanoatidir.

Bugungi kunda O‘zbekiston bir qator mamlakatlarga, jumladan, Yevropa Ittifoqiga to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilmoqda. Misol uchun 2023 yilda tayyor mahsulotlar eksporti 1,3 milliard dollarni tashkil etdi. Biroq yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi yetarli emas, ya‘ni eksportdagi mahsulotlarning asosiy qismi narxi past bo‘lgan trikotaj mahsulotlaridir. Mutaxassislarni fikricha mamlakatimizda 1 kilogramm ip-kalavanning tannarxi jahondagi narxlardan o‘rtacha 28 foiz arzon. Bu mamlakatimizda tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishga keng imkoniyatlar mavjudligidan dalolat bermoqda. Mamlakatimizdagi mavjud xomashyo bilan kamida 15 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish, yana 500 mingta yangi ish o‘rni yaratish mumkin.

2024-yil 16-aprel kuni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rasisligida to‘qimachilik sohasida eksport va investisiya hajmlarini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida ta‘kidlanganidek, keyingi oylarda to‘qimachilik mahsulotlari 3 ta yangi bozorga chiqdi, eksport geografiyasi 83 ta davlatga kengaydi. Biroq, eksportning qariyb 80 foizi Rossiya, Xitoy va Turkiya bozorlariga to‘g‘ri kelmoqda. Bugungi kunda Yevropa mamlakatlariga eksportni ko‘paytirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, turibdi. Buning uchun Yevropa, Amerika va boshqa rivojlangan davlatlar bozoriga yoki brendlarga eksport hajmini oshirish uchun mahalliy korxonadan xalqaro sifat standarti va sertifikatini talab etiladi. Biroq, eksportchi korxonalarini 12 foizigina bunday talabga javob beradi[1].

Bugungi murakkab sharoitda jahon bozoriga kirish oson emas. Bozor tartib qoidalari tobora takomillashib xaridorlar talabi o‘zgarib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanda oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalarni bajarish asosida o‘zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar xalqaro bozorlarga kirib bormoqdalar. Mazkur farmonda 2023-yilda “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi zimmasiga eksport hajmini 2,6 barobar oshirish vazifasi qo‘yilgan edi. Shu bois tizimda “Made in Uzbekistan” brendi ostidagi mahsulotlarni tashqi bozorlarga, jumladan, AQSH bozoriga olib kirish uchun bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmogda[2].

Ma‘lumotlarga ko‘ra 2022-yilda Osiyo mamlakatlaridan AQSHga 5,5 milliard dollardan ziyod gazlama va mato eksport qilingan. Bu O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarini uchun ham keng imkoniyat yaratadi. WRAP (Worldwide Responsible Accredited Production) Xalqaro ijtimoiy sertifikatini esa ushbu bozorga “kirish chiptasi”dir, uni O‘zbekiston ishlab chiqaruvchilari Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib qo‘lga kiritdi.

Jahondagi ko‘pchilik to‘qimachilik korxonalarini mazkur sertifikatni qo‘lga kiritishga intiladi. Chunki, AQSH bozori bir yilda 100 milliard dollarlik to‘qimachilik mahsulotlarini import qiladi. Bu butun Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ehtiyojidan ham ko‘p demakdir. Shuningdek, eng nufuzli va taniqli savdo brendlari ham shu yerda joylashgan.

O‘zbekistondagi 10 dan ortiq to‘qimachilik kompaniyasi WRAP xalqaro ijtimoiy standartiga loyiq ko‘rildi. Ayni paytda “Samarkand Apparel”, “Haj Tex”, “Gurlan Global Tex”, “Sangzor Tekstil”, “Tong Group”, “Hamza ExpoArt Textil”, “Xojaobod Fayz-M”, “Realtex” kabi yana 9 ta korxonaga WRAP sertifikatini qo‘lga kiritish arafasida. Shulardan “UZTEX Group” kompaniyasi va “Yustex” MCHJ nafaqat yurtimizda, balki Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib, ushbu standartni olgan ishlab chiqaruvchilardan bo‘ldi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning jahon bozoridagi salohiyati tobora yuksalib bormoqda. Mamlakatimiz tadbirkorlik korxonalarini AQSH bozorlariga chiqish imkoniyatiga

ega bo'lmog'dalar. Shuningdek, WRAP xalqaro ijtimoiy standarti Yevropa bozorlari eshigini ham ochib beradi. Bu o'z navbatida bir qator jahon brendlarini o'ziga jalb qilib, ularning hamkorlik zanjiriga qo'shilishni ta'minlaydi.

WRAP sertifikatini standartlarning eng qiyinlaridan bo'lib, eksport uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy me'yor va qoidalarga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Sertifikat ish joyidagi qonun va qoidalarga rioya qilishni talab etadi. Majburiy va bolalar mehnatini taqiqlaydi. Qonunga muvofiq kompensatsiya va imtiyozlarni, qonuniy ish vaqtini, salomatlik hamda xavfsizlikni, erkinlik va jamoaviy bitimlarni, atrof-muhit musaffoligini, bojxona muvofiqligini, xavfsizligini qo'llab-quvvatlaydi. Umuman u jami 12 ta tamoyilga asoslanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, to'qimachilik sanoatida xalqaro standartlarning joriy etilishi mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalarini rivojlantiradi. Shuningdek, xalqaro savdodagi to'siqlarni bartaraf etadi, boshqaruv va nazorat tizimini takomillashtirish doirasida biznesni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda jahon bozorida o'zbek to'qimachilik matolari va tayyor mahsulotlariga bo'lgan qiziqishning ortishi tufayli korxonalaridan biznes siyosatini o'zgartirish va mahsulotlar sifatiga bo'lgan talablarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Avvallari yigiruv korxonasini tashkil etish yoki yirik tayyor mahsulot ishlab chiqarish fabrikalari ommabop biznes bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda barqaror kuzatuvchan ishlab chiqarish talablari ommalashishi tufayli vertikal integratsiyalashgan korxonalar soni tobora ortib bormoqda. Paxta-to'qimachilik klasterlari tizimiga o'tish orqali matoni bo'yash va kiyim-kechak ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qo'shimcha imtiyozlar yaratilishi butun to'qimachilik ishlab chiqarish siklini qamrab oluvchi xoldinglar soni ko'payishi yuz bermoqda. Buning natijasida 2023-yilda to'qimachilik mahsulotlari eksporti, jumladan, ipkalava 2022-yilga nisbatan 30,6 ming tonnaga, matolar 238 million kvadrat metrga ko'paygan. Shuningdek, tayyor mahsulotlar eksporti esa 122 foizdan ko'proqni tashkil etgan.

Yuqoridagilar bilan birgalikda mamlakatimizda "Better Work" va "Better Cotton" kabi tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan o'zbek to'qimachilik mahsulotlari 27 tadan ortiq jahon brendlarining yetkazib berish tarmog'iga kirdi. GSP+ imtiyozlari kengaytirilishi, xususan, Germaniya, Italiya, Polsha davlatlariga eksport hajmini oshirish imkoniyatini berdi.

Yevropa komissiyasi qaroriga ko'ra O'zbekiston "GSP+" (Preferensiyalar bosh tizimi plus benefitsiari) mamlakati maqomini olishi bilan o'zbek ishlab chiqaruvchilari va eksportchilari o'z mahsulotlarini Yevropa bozoriga eksport qilishda bir tomonlama tarif imtiyozlaridan foydalana boshladi.

O'zbekiston so'nggi besh yilda Armaniston, Boliviya, Kabo-Verde, Qirg'iziston, Mo'g'uliston, Pokiston, Filippin va Shri-Lankadan keyin "GSP+" maqomini olgan to'qqizinchi davlat bo'ldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "GSP+" tizimi mahalliy to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqilayotgan mahsulotlarning Yevropa standartlariga to'liq javob berishini taqozo etadi. Bugungi kunda "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi xalqaro hamkorlar va sanoat korxonalarini bilan birgalikda to'qimachilik mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi bozoriga olib chiqish strategiyasini ishlab chiqmoqda. Ushbu tizim mahsulotlarni Yevropa Ittifoqi hududiga olib kirish orqali eksport hajmini bir necha barobar oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, investisiyalar oqimining ko'payishi va o'zaro savdo hajmini ortishiga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan paxta-to'qimachilik klasterlarida belgilangan investision loyihalarni amalga oshirilishi hamda amaliyotga innovasion texnologiyalarni qo'llanishi tufayli 1,5 dollarlik xomashyoga 25 dollarlik qo'shimcha qiymat

qo‘shish imkoniyati yaratilmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra 1,5 dollarlik 1 kilogramm paxta tolasidan ip-kalava tayyorlansa 3,5 dollar, mato to‘qilsa 5,5 dollar, undan tayyor kiyim-kechak tikilsa o‘rtacha 15-25 dollargacha qo‘shimcha qiymat yaratilgan bo‘ladi.

Bularni barchasi Respublikamiz eksport salohiyatini oshirish, eksport korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, milliy mahsulotlarning xorijiy bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va valyuta tushumini ko‘paytirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalda bajarilishini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar deb e‘tirof etish mumkin.

Mamlakatimizda mavjud xomashyo bazasidan unumli foydalangan holda klasterlar tomonidan ip-kalavani qayta ishlash darajasini kelgusi ikki yilda hozirgi 50 foizdan 70 foizga yetkazish mo‘ljallangan. Shundan kelib chiqib, ularga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, matoni bo‘yash va aralash mato ishlab chiqaradigan uskunalar xaridi uchun korxonalar quvvatiga qarab davlat hisobidan moliyaviy grantlar beriladi. Shuningdek, bunday loyihalarni kreditlash uchun yana 150 million dollar ajratish mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-iyundagi “Paxtachilik sohasi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida bu masalaga alohida e‘tibor qaratilgan “... klasterlarning paxta xomashyosini qayta ishlashdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan quvvatlarini samarali ishlashini ta‘minlash hamda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish choralari ko‘rib berilsin” deb qayd etilgan[3]. Bo‘yalgan mato va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining eksportini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan past foizlarda 100 million dollarlik yangi kredit liniyasi ochiladi. Yuqoridagi tovarlarning kamida 80 foizini eksport qiluvchi klasterlar va boshqa to‘qimachilik korxonalarini uchun ijtimoiy soliq stavkasi 3 yil muddatga maldagi 12 foiz o‘rniga 1 foiz qilib belgilanadi. Shuningdek, ularga mol-mulk solig‘ini 3 yilga kechiktirib to‘lash imkoniyati ham beriladi. Buning hisobiga tadbirkorlik korxonalarini ixtiyorida yiliga kamida 500 milliard so‘m mablag‘ qoladi[4].

Keyingi yillarda xorij bozorida paxta-to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan talab borgan sari ortib bormoqda. Shu sababli jahonning eng yirik halqaro brendlari bosqichma-bosqich ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish tizimiga o‘tmoqda. Xususan, “Adidas”, “H&M”, “Nike” brendlari 2025-yilgacha to‘liq organik (ekologik toza) paxta tolasi asosida mahsulot yetkazib berishni rejalashtirgan. Biroq bugungi kunda dunyoda yetishtirilayotgan paxtaning atiga 8 foizi organik hisoblanadi. Jahon bozorida organik paxta tolasiga o‘tib borayotgan ehtiyoj O‘zbekiston uchun qulay imkoniyatdir. Mamlakatimizda yuqoridagi yangi bozorga kirish va o‘z mahsulotlari bilan to‘ldirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, bu borada amaliy ishga kirishildi[5].

2023-yilda “Barqaror rivojlanish” yo‘l xaritasi imzolangan “Better Cotton” dasturi ishga tushirildi va 2024-2025 yillar mavsumida 11 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari bilan hamkorlik qilish kengaytirildi.

Kelgusida paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish va ularni eksport salohiyatini oshirishda quyidagi fikr mulohazalarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

1. Klasterlar tizimida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’yektlari, xususan fermer xo‘jaliklari bilan klasterlar o‘rtasida paxta xomashyosini yetishtirish va sotib olish bo‘yicha tuzilgan shartnoma shartlarini qat’iy bajarilishini ta‘minlash;

2. Paxta-to‘qimachilik klasterlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash asosida ilg‘or texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish;

3. Paxta-to‘qimachilik klasterlarini eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha marketing tadqiqotlarini zamon talablari asosida takomillashtirib borish. Jahon bozoridagi paxta-to‘qimachilik mahsulotlariga talab va taklifni muntazam o‘rganib borish va ular o‘rtasidagi nisbatni o‘zgarishiga qarab bozor kon‘yukturasiga moslashish chora-tadbirlarini belgilash;

4. O‘zbekiston paxtasiga “Cotton Campaign” xalqaro koalitsiyasi tomonidan 2009 yilda qilingan boykotni 2022-yil 10-mart kunida bekor qilinishi tufayli to‘qimachilik korxonalarining jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengayganligini e‘tiborga olgan holda eksport salohiyatini yanada kengaytirish.

5. Paxta-to‘qimachilik klasterlarini eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi logistika xizmatlari markazlari faoliyatini kengaytirish;

6. Mamlakatimizning boshqa hududlarida bo‘lgani kabi Namangan viloyatida ham (ekologik toza) organik paxta xomashyosini yetishtirishni yo‘lga qo‘yish va yildan-yilga ko‘paytirib borish chora-tadbirlarini belgilash. Buning uchun organik paxta xomashyosini yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari uchun ma‘lum bir imtiyozlar berish;

7. Namangan viloyatida paxta-to‘qimachilik klasterlarini faoliyatini besh bosqichga o‘tkazish, ya‘ni yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va bu jarayonni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini ishlab chiqish;

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki yuqoridagi fikr-mulohaza va takliflarni e‘tiborga olish joylarda tashkil etilgan paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlanishiga, ularni eksport salohiyatini ortishiga va mamlakatimiz hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etilishiga ijobiy ta‘sir etadi deb hisoblaymiz. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarishda ustivor yo‘nalish deb belgilangan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag‘batlantirish maqsadli halqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni amaldagi ijrosini ta‘minlangan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev raisligida to‘qimachilik sohasida eksport va investisiya hajmlarini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi materiallari. 2024 yil 16 aprel. <https://president.uz/uz/lists/view/7168>
2. Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish – ustivor vazifamizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. 2021 yil 20 avgust. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/6561> qbk
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 22 iyundagi “Paxtachilik sohasi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-103 sonli farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/7032178>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023 yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-113 sonli qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2023 yil 05 aprel.
5. S. Tojiyev. “Klaster tizimida yangi bosqich. U ip-kalavani 100 foiz qayta ishlab, qo‘shimcha qiymat yaratishga qaratilgan” Yangi O‘zbekiston gazetasi № 52 (1113), 2024-yil 13-mart.

МАҲСУЛОТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШДА РЕСУРСЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ

ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ В ПРОИЗВОДСТВЕ ПРОДУКЦИИ

QUESTIONS OF USE OF RESOURCES IN PRODUCTION

Bahriddinov J.R. (NamMTI o'qituvchisi, PhD),

Ушбу мақолада бозор муносабатлари шароитида корхоналарда иқтисодий ресурслардан фойдаланиш масалалари кўриб чиқилган ва таклифлар берилган. Ишлаб чиқариш салоҳиятини ошириш масалани бир томони бўлса, иккинчи томони мавжуд иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланишдир. Иқтисодий салоҳиятнинг асоси корхоналар фойдаланадиган ишлаб чиқариш ресурсларидир.

Калит сўзлар: рақобатбардошлилик, бозор муносабатлари, иқтисодий ресурслар, интенсив ривожланиш, ишлаб чиқариш самарадорлиги, иқтисодий салоҳият.

В данной статье рассматриваются вопросы использования экономических ресурсов на предприятиях в условиях рыночных отношений и даются предложения.

Повышение производственного потенциала – это одна сторона вопроса, а другая сторона – эффективное использование существующего экономического потенциала.

Основой экономического потенциала являются производственные ресурсы, используемые предприятиями.

Ключевые слова: конкурентоспособность, рыночные отношения, экономические ресурсы, интенсивное развитие, эффективность производства.

In this article, the issues of the use of economic resources in enterprises in the conditions of market relations are considered and suggestions are made. Increasing production potential is one side of the issue, and the other side is effective use of existing economic potential. The basis of economic potential is the production resources used by enterprises.

Keywords: competitiveness, market relations, economic resources, intensive development, production efficiency.

Ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятида энг муҳим масалалардан бири – фаолиятда фойдаланиладиган иқтисодий ресурслардан фойдаланиш самарасини ошириш ва ишлаб чиқариш салоҳиятидан оқилона фойдаланиш ҳисобига кўпроқ ва рақобатбардош маҳсулотларни ишлаб чиқаришни йўлга қўйишдир. Корхоналарнинг ишлаб чиқариш самарадорлиги унинг барча бўлимларининг якуний техник-иқтисодий натижаларига, иқтисодий салоҳиятга ва ундан фойдаланиш омилларига кўп жиҳатдан боғлиқдир. Ишлаб чиқариш салоҳиятини ошириш масалани бир томони бўлса, иккинчи томони мавжуд иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланишдир.

Иқтисодий салоҳиятнинг асоси корхоналар фойдаланадиган ишлаб чиқариш

ИҚТИСОД

ресурсларидир. Демак, ишлаб чиқариш ресурсларидан самарали тарзда фойдаланиш бугунги кунда кун тартибидаги энг асосий масаладир. Ушбу масаланинг ечими иқтисоднинг асосий муаммосининг ҳал этилиши томон асосий омил ҳисобланади [1].

Корхоналарда самарадорликни ошириш учун авваламбор иқтисодий ресурслардан самарали фойдаланиш зарур бўлади. Ушбу масаланинг ҳал этилиши, яъни мавжуд иқтисодий ресурслардан самарали тарзда фойдаланиш, иқтисод ва тежамкорлик учун кураш - вақтинчалик амалга ошириладиган ишлар эмас, балки узоқ муддатли дастурдир. Бу масала ҳар бир ташкилотнинг стратегик режасида ўз аксини топиши лозим. Корхона ва ташкилотлар ўз ривожланишини белгилаш вақтида авваламбор ўзлари фойдаланадиган иқтисодий ресурслар масаласига эътибор қаратадилар.

Иқтисодий ресурсларни топиш ва улардан фойдаланиш масалаларини ҳамма вақт кун тартибидаги асосий масалалар қаторида бўлиши лозим. Ушбу масалалар режалаштириш жараёнида оптимал режалар тузиш орқали ҳамда ишлаб чиқаришни, меҳнатни ва иш жойини самарали тарзда ташкил этиш орқали ҳал этилиши мумкин. Иқтисодий ресурслардан фойдаланиш самарасини ошириш ишлаб чиқаришдаги техник, технологик, иқтисодий ва ташкилий фаолиятда муҳим масала ҳисобланади ва фаолиятни ташкил этувчилар бунга эътибор қаратишлари уларнинг самарадорликни оширишга эришишлари учун имконият яратади.

Мамлакатимиздаги ва хориждаги қатор иқтисодчи олимлар ишлаб чиқаришнинг иқтисодий салоҳияти тушунчасига таъриф беришга ҳаракат қилганлар.

Бу соҳада фаолият олиб борган Сидоров А.П., Теклов Г.В. лар ўзларининг илмий тадқиқотларида «Ишлаб чиқаришнинг иқтисодий салоҳияти - белгиланган ҳажмда ва турдаги маҳсулотларни энг юқори даражада ишлаб чиқаришдир»[2] деган фикрни билдирганлар. Уларнинг бу тушунчага берган таърифларида ишлаб чиқариш салоҳиятини ишлаб чиқариш қуввати тушунчалари билан аралаштириб юборадилар.

Ишлаб чиқариш қувватлари энг юқори даражада маҳсулот ишлаб чиқариш имкониятидир.

З.П.Румянцева, Н.А. Саломатин ва Р.З.Акбердинлар ўз илмий изланишларида ишлаб чиқаришнинг иқтисодий салоҳиятини корхонанинг ишлаб чиқариш дастурида белгиланган маҳсулотларни ишлаб чиқариш ҳажми билан боғлайдилар. «Ишлаб чиқариш корхоналари, хиссадорлик жамиятлари ва цехларнинг иқтисодий салоҳияти уларнинг ишлаб чиқариш дастурини бажаришлари орқали амалга оширилади.

Уларнинг ишлаб чиқариш дастурида ишлаб чиқарилиши лозим бўлган бўлган маҳсулотларнинг номи, миқдори, ишлаб чиқариш муддатлари ва маҳсулот ишлаб чиқариш қийматлари ифодаланади»[3]. Уларнинг ушбу фикрларининг асосий камчилиги шундан иборатки, иқтисодий салоҳият тушунчаси нафақат ишлаб чиқариладиган маҳсулот ҳажми билан белгиланади, балки у жуда кенг тушунчадир.

Саноат ишлаб чиқариш корхоналарининг ривожини улардаги муҳим сифат ўзгаришларига, самарадорликни ошириш орқали такомиллашувига боғлиқлигини назарда тутадиган бўлсак, юқоридаги ҳолат табиий ва қонуний тус олади. Демак, иқтисодий салоҳият - бу комплекс тушунча бўлиб, ўз ичига меҳнат қуролилари, меҳнат буюмлари, меҳнат ва ахборот ресурсларини олади ва улардан комплекс равишда самарали фойдаланишни назарда тутайди[4].

Россиялик иқтисодчи олимлар А.М.Румянцев, Е.Г.Яковенко ва С.И.Янаевлар ўз тадқиқотларида иқтисодий салоҳиятга таъриф бериб, ундан фойдаланиш тушунчасини ёритадилар. Улар «Иқтисодий салоҳиятдан фойдаланиш халқ хўжалиги

ИҚТИСОД

тармоқларининг, корхоналар ва ташкилотларнинг маҳсулот ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш қобилиятларидир» деб таърифлайдилар(1). Иқтисодий салоҳият маълум бир даврдаги маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми ёки хизмат кўрсатиш миқдори деб таъкидлайдилар ва бу иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланиш учун маҳсулот ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш ҳажмини орттириш лозим деб ҳисоблайдилар.

Улар иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланишни маҳсулот ёки хизматлар сифатига таъсирини ҳисобга олмайдилар. Улар корхонанинг ривожланиш даражасини, уларда фан-техника ютуқларини жорий этишнинг иқтисодий салоҳиятидан самарали фойдаланишга таъсир этиши хусусида фикр билдирмайдилар[5].

Иқтисодий ислохотларнинг чуқурлашуви шароитида иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади, чунки фақатгина шу йўл орқали иқтисоднинг бош муаммоси бўлган ишлаб чиқаришнинг иқтисодий ресурсларидан самарали тарзда фойдаланиб, халқнинг ортиб бораётган эҳтиёжларини ҳар томонлама тўлароқ қондириб бориш таъминланади.

Иқтисодий ресурслардан самарали тарзда фойдаланиш қатор омилларга боғлиқдир. Технология омиллари ҳам, моддий ва меҳнат омиллари ҳам бошқарув функциялари орқали, яъни режалаштириш ва ташкил этиш, илғор технологияни жорий этиш ва ундан самарали фойдаланиш, маҳсулот ишлаб чиқариш усулларини такомиллаштириш, ишлаб чиқаришнинг барча элементлари ҳаракатини мувофиқлаштириш, меҳнатни ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш жараёнлари барчаси режалаштириш ва бошқаришга муҳтождир. Янги техника яратиш, мавжудларини такомиллаштириш ҳам режалаштириш ва ташкил этиш орқали амалга оширилади.

Режалаштириш ва ташкил этиш воситасида иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланиш омиллари ҳаракатга келтирилади [6].

Иқтисодий салоҳиятнинг меҳнат омиллари ишчи ходимларнинг иш вақтларидан самарали фойдаланишни, ходимларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни, ходимлар малакасидан самарали фойдаланишни ҳамда ходимларни рағбатлантириш тизимини янада ривожлантиришни, рағбатлантиришнинг замонавий усулларидан кўпроқ фойдаланишни назарда тутати.

Юқоридаги омиллардан самарали тарзда фойдаланган ҳолда иқтисодий салоҳиятдан тўлароқ фойдаланиш дастлабки ва асосий шарт ишлаб чиқариш структурасини такомиллаштиришдир. Ишлаб чиқариш структураси ишлаб чиқариш корхонасининг ички тузилишидир. Ишлаб чиқариш структураси корхона мақсадига етишишни таъминлашда катта аҳамиятга эга.

Ишлаб чиқариш структураси корхона ичидаги ўзгаришлар натижасида ўзгариб, такомиллашиб боради. Технологик жараёнлар ташкилий структурасини такомиллаштириш асосий воситалар фаол қисмининг ҳиссасини оширишга ва бу фаол қисмдан самарали фойдаланишга, юқори унум билан ишлайдиган дастгоҳ ва механизмларни жорий қилишга имкон беради.

Саноат корхоналарида фойдаланиладиган хомашё материалларини шу корхонада фаолият юритаётган технологияга мослаштириш ҳам иқтисодий салоҳиятдан фойдаланишга томон муҳим қадам бўлиб ҳисобланади.

Корхоналарда ишлаб чиқариш салоҳиятидан самарали фойдаланишга олиб боровчи барча омиллар бир бири билан чамбарчас алоқадир. Уларнинг бир бири билан ўзаро муносабати аниқ ташкилий-техник тадбирларнинг амалга ошириш орқали ифодаланади. Ушбу тадбирларга асосан қуйидагиларни киритиш мумкин:

- ишлаб чиқаришда алоҳида ва бригада иш жойларини, ишлаб чиқариш

бўлимларини қайтадан режалаш;

- режалаштириш оператив ишлаб чиқаришнинг усулларини танлаш;
- технологик дастгоҳлардан фойдаланиш даражасини муттасил ўрганиб бориш ва такомиллаштириш чораларини кўриш;
- қўшимча қисмлар ва бутловчи қисмларга бўлган эҳтиёжни аниқлаш ва зарурий эҳтиёжини таъминлаш ва шу сингарилар.

Саноат корхоналаридаги технологик жараён олдида қўйиладиган муҳим талаб - мавжуд моддий ресурслардан, шу жумладан, хомашёдан тежаб фойдаланишни, чиқиндилар чиқишини камайтиришни амалга оширишдир. Пахта тозалаш корхоналарининг ишлаб чиқариш ҳаракатлари структураси ўзига хос хусусиятга эгадир. Бу структурада асосий ўринни хомашё ва моддий харажатлар эгаллайди.

Пахта тозалаш корхоналаридаги харажатлар структурасининг 60-80 фоизини хомашё харажатлари ташкил этади. Шу сабабли, пахта тозалаш тармоғи материал сифими юқори бўлган тармоқлардан бири сифатида эътироф этилади. Пахта тозалаш корхоналарида ишлаб чиқариладиган маҳсулот таннархини камайтиришни муҳим режалари фойдаланиладиган хомашёдан самарали фойдаланиш ва улар бўйича харажатларини камайтиришга эришишдир.

Хомашё харажатларини бир бирлик қисқариши эвазига олинладиган самара маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини тўрт бирликка қисқаришида олиниши мумкин бўлган ёки ёқилғи сарфлаш харажатларини юз бирликка меҳнат сарфи харажатларни ўн бирликка қисқаришига тенг самара беради. Ушбу рақамлардан кўриниб турибдики пахта тозалаш корхоналарини ишини ташкил этишда хомашё ресурсларидан фойдаланишга алоҳида эътибор бериш лозим.

Шу билан биргаликда пахта тозалаш корхоналарида барча турдаги харажатларни ҳисобга олиш лозим[7].

Саноат корхоналаридаги технологик жараён олдида қўйиладиган муҳим талаб - мавжуд иқтисодий ресурслардан, биринчи навбатда хомашё ва асосий материаллар, электр энергияси ва ёнилғидан тежамкорлик билан фойдаланишни, чиқиндилар чиқиш фоизини камайтиришни амалга оширишдир. Тўқимачилик, энгил ва пахта тозалаш корхоналарининг ишлаб чиқариш ҳаракатлари структураси ўзига хос хусусиятга эгадир. Бу структурада асосий ўринни хомашё ва моддий харажатлар эгаллайди. Ушбу тармоқлар корхоналаридаги харажатлар структурасининг 60-80 фоизини хомашё харажатлари ташкил этади.

Шу сабабли, бу тармоқлар материал сифими юқори бўлган тармоқлардан бири сифатида эътироф этилади. Тўқимачилик, энгил ва пахта тозалаш корхоналарида ишлаб чиқариладиган маҳсулот таннархини камайтиришни муҳим режалари фойдаланиладиган хомашё ва материаллардан самарали фойдаланиш ва улар бўйича харажатларини камайтиришга эришишдир.

Хомашё харажатларини бир бирлик қисқариши эвазига олинладиган самара маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини тўрт бирликка қисқаришида олиниши мумкин бўлган ёки ёқилғи сарфлаш харажатларини юз бирликка, меҳнат сарфи харажатларни ўн бирликка қисқаришига тенг самара беради. Ушбу рақамлардан кўриниб турибдики, бу тармоқлар корхоналарини ишини ташкил этишда хомашё ресурсларидан фойдаланишга алоҳида эътибор бериш лозим.

Корхоналарнинг стратегик режаларида иқтисодий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини оширишга катта эътибор қаратиш – узоқ муддатли иқтисодий барқарорлик ва рақобатдош маҳсулот ишлаб чиқариш йўлидаги асосий шартдир.

Бундай ёндашув орқали корхоналар бозордаги мавқеини мустаҳкамлайди ва ишлаб чиқариш самарадорлигини юқори даражага кўтариши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Soliyev, I.I.(2020). Methods for Selecting Innovative Projects for Implementation. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 23(2), 263-266.
2. Солиев, И.И.,& Сирожиддинов, К. (2020). Вопросы поддержания конкурентоспособности аграрных производителей. Экономика и социум, (6-2), 317-322.
3. Солиев, И.И., & Сирожиддинов, К. (2020). Некоторые аспекты организации маркетинга плодоовощной продукции на сельскохозяйственных предприятиях. Экономика и социум, (6-2), 312-316.
4. Abduazizova, V. V., & Soliev, I. I. (2020). Methods of development of creative abilities of students. Экономика и социум, (6), 3-6.
5. Солиев, И.И.(2020). Основные факторы развития инновационной деятельности. Экономика и социум, (4), 884-887.
6. Soliev, I.I.(2019). Innovative strategies in the economy and their practical significance. Экономика и социум, (6), 68-69.
7. Soliyev, I.I.,& Shokirov, A. (2018). The main features of innovation risks. Теория и практика современной науки, (1), 773-775.

УДК: 338:633.5:63.3

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОДОСНАБЖЕНИЯ И ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДЫ

SUV TA'MINOTI VA UN DAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY JIHATLARI

ECONOMIC ASPECTS OF WATER SUPPLY AND EFFICIENT WATER USE

Рахимов Б.И. (НамИТИ доцент кандидат экономических наук.)

Водо-ирригационная система Узбекистана, сформированная на основе эффективного использования водных ресурсов, имеет большое значение в экономическом и социальном развитии страны. Формирование водо-ирригационной системы и ирригационных сооружений является одним из важнейших инструментов, направленных на эффективную поддержку аграрного сектора страны. Через эти системы сельскохозяйственная продукция обеспечивается необходимой водой, и это обеспечивает экономический рост страны.

Ключевые слова: водо-ирригационная система, водные ресурсы, фермерские хозяйства, аграрный сектор, эффективное управление, проблемы, оценка, рациональное использование водных ресурсов, водосберегающие технологии, ирригационные сооружения, орошение, потенциал

О'zbekistonning suv-irrigatsiya tizimi suv resurslaridan samarali foydalanish asosida

shakllangan mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Suv-irrigatsiya tizimi va irrigatsiya inshootlarini shakllantirish mamlakatimiz qishloq xo'jaligini samarali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan eng muhim vositalardan biridir. Bu tizimlar orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari zarur suv bilan ta'minlanadi va bu mamlakat iqtisodiy yuksalishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Suv-irrigatsiya tizimi, suv resurslari, fermerlar, qishloq xo'jaligi, samarali boshqaruv, muammolar, baholash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, suvni tejovchi texnologiyalar, irrigatsiya inshootlari, irrigatsiya, salohiyat

The water-irrigation system of Uzbekistan is of great importance in the economic and social development of the country, formed on the basis of the efficient use of water resources.

The formation of this system and irrigation structures is one of the most important tools aimed at effectively supporting the country's agricultural sector. Through these systems, agricultural production is supplied with essential water, thereby facilitating the country's economic growth.

Key words: Water-irrigation system, water resources, farming enterprises, agricultural sector, effective management, challenges, assessment, rational use of water resources, water-saving technologies, irrigation structures, irrigation, potential

Водно-ирригационная система важна для фермерских хозяйств, работающих в аграрном секторе, помогая им увеличить сельскохозяйственное производство и увеличить свои финансовые доходы. Кроме того, водооросительная система и ирригационные сооружения играют важную роль в сокращении потерь воды, повышении качества жизни сельского населения, решении экологических проблем, ориентации аграрного сектора на инновации. С помощью технологических процессов и новых технологий возрастает важность эффективной эксплуатации водооросительной системы и ирригационных сооружений [1].

Развитие и совместимость водо-ирригационной системы и ирригационных сооружений в Узбекистане принесет большую пользу аграрному сектору страны. В то же время необходимы эффективное управление водными ресурсами и совместные усилия по решению социальных и экологических проблем. Создание водо-ирригационной системы и формирование ирригационных сооружений, их ценность и значительная роль в самостоятельном и эффективном развитии аграрного сектора страны имеют большое значение для Узбекистана [2].

В Узбекистане в последние годы особое внимание уделяется развитию водного хозяйства как и всех других отраслей. В нашей республике реализуются последовательные реформы по эффективному использованию земельных и водных ресурсов, совершенствованию системы управления водными ресурсами, модернизации и развитию водохозяйственных объектов. Выявление текущих проблем в сфере водного хозяйства (дефицит воды и факторы, влияющие на водные ресурсы, в том числе изменение климата, рост населения, увеличение спроса на воду), своевременное их решение, устранение и разработка мер требует больших усилий [3].

По оценкам, площадь ледников в Центральной Азии за последние 50-60 лет сократилась примерно на 30% в результате глобального изменения климата. Ожидается, что к 2050 году водные ресурсы в бассейне Сырдарьи сократятся на 5%, а в бассейне Амударьи – на 15%. В результате потребность Узбекистана в воде к 2030 году составит 7 миллиардов долларов за кубический метр, а к 2050 году эта цифра

может удвоиться. За последние 15 лет из-за резкого роста численности населения и низкой эффективности водопользования среднедушевая водобеспеченность сократилась примерно в два раза (с 3048 м³ до 1589 м³).

Ожидается, что к 2030 году потребность быстрорастущего населения в качественной воде увеличится на 18-20% (с 2,3 млрд м³ до 2,7-3,0 млрд м³). Данная ситуация включает в себя ряд мер, таких как рациональное использование водных ресурсов, применение современных водосберегающих технологий, строительство и реконструкция ирригационных сооружений [4].

Всего в 2019-2020 годах принято около 30 законов, указов и постановлений, регулирующих сферу водного хозяйства: Президентом Республики Узбекистан 10 июля 2020 года принята «Концепция развития водного хозяйства Республики Узбекистан» на 2020-2030 годы. Концепция, утвержденная в соответствии с Постановлением № ПФ-6024, включала ряд неотложных задач и приоритетных направлений по устранению существующих в сфере проблем и развитию водного хозяйства. Этот документ предусматривает достижение к 2030 году следующих показателей:

- повышение эффективности ирригационных систем с 0,63 до 0,73;
- сокращение площадей орошаемых маловодных земель с 560 000 га до 190 000 га;
- сокращение площади засоленных орошаемых земель на 226 тыс. га;
- снижение годового потребления электроэнергии насосными станциями в системе Минводхоза на 25%;
- установление на всех объектах ирригационной системы приборов учета и контроля воды «Умная вода», внедрение цифровых технологий в учете воды;
- автоматизация водохозяйственных процессов на 100 крупных водохозяйственных объектах;
- увеличение общей площади земель, охваченных водосберегающими технологиями орошения сельскохозяйственных культур, до 2 млн га, в том числе технологией капельного орошения – до 600 тыс. га;
- реализация 50 проектов, основанных на принципах государственно-частного партнерства в сфере водного хозяйства [5].

